O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Sanobar ABDUMURATOVA,
Termiz davlat universiteti o‘qituvchisi
E-mail:rustamkhurramov@mail.ru

TerDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi R.Mustafoqulov taqrizi asosida

TARJIMA NAZARIYASINING BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjima nazariyasining boshqa fanlar bilan aloqasi, tarjima matn va asliyat matn o‘rtasidagi shakliy-mazmuniy farqlar hamda ularning har gal muqobil matnlari uchravermasligi xususida fikrlar ilgari surilgan. Tarjima inson faoliyatining qadimiy turlaridan biri bo‘lib, turli tilli xalqlarning muloqotini amalga oshirishga yo‘naltirilgan. O‘zoq tarixga va o‘ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega tarjimonlik faoliyati faqat XX asrga kelib alohida fan, tilshunoslik bilimlarining bir sohasi sifatida shakllantirildi.

Kalit so‘zlar: turli tilli xalqlarning muloqoti, diplomatik muzokaralar, siyosiy bayonotlar, ilmiy faoliyat, xalqaro aloqalar.

RELATIONSHIP OF TRANSLATION THEORY WITH OTHER DISCIPLINES

Annotation

In this article, the relationship between the theory of translation and other sciences, the differences in form and content between the translated text and the original text, and the fact that they do not always have alternative texts are discussed. Translation is one of the ancient types of human activity, aimed at the implementation of communication between peoples with different languages. The activity of translation, which has its own history and specific stages of development, was formed as a branch of linguistic knowledge only by the 20th century.

Key words: communication of peoples with different languages, diplomatic negotiations, political statements, scientific activity, international relations.

СВЯЗЬ ТЕОРИИ ПЕРЕВОДА С ДРУГИМИ ДИСЦИПЛИНАМИ

Аннотация

В данной статье обсуждаются взаимоотношения теории перевода с другими науками, различия по форме и содержанию между текстом перевода и текстом оригинала, а также тот факт, что они не всегда имеют альтернативные тексты. Перевод – один из древнейших видов человеческой деятельности, направленный на осуществление общения между народами, говорящими на разных языках. Переводческая деятельность, имеющая свою историю и определенные этапы развития, как отрасль лингвистического знания оформилась только к XX в.

Ключевые слова: общение народов с разными языками, дипломатические переговоры, политические заявления, научная деятельность, международные отношения.

Kirish. Tarjima nazariyasi borasida XX asrda amalga oshirilgan ilmiy ishlarning yaratilgan tarjima maktablarining mantiqiy davomi XXI asrda ham o‘z samarasini kursatmoqda. XX asrda I va II jaxon urushlari sababli bo‘lib o‘tgan global o‘zgarishlar, fan va texnikaning rivojlanishi, xalqaro aloqalarning jadallashuvi va ko‘pgina sotsiolingvistik omillar tarjima faoliyatining fan sifatida rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Tarjima - lisoniy, psixologik, madaniy, adabiy omillarni qamrab olgan murakkab xodisa. Tarjimaning turli ko‘rinishlari tegishli fan usullari yordamida o‘rganiladi. Hozirgi kungacha tilshunoslik tizimida tarjima nazariyasiga oid ko‘plab ishlar qilindi. Lisoniy tarjima nazariyasi turli tillarda so‘zlashuvchi kishilar orasida muloqot o‘rnatuvchi nutq shakli bo‘lgan tarjima turi bilan shug‘ullanadi. Ushbu nazariyaning asoslarini makrolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika, matn tilshunosligi fanlari o‘rganadi. Muloqot imkonini beruvchi til esa insoniyat faoliyatining ajralmas qismidir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Tarjimashunoslikning o‘ziga xos nazariya sifatida rivojlanishiga taniqli tilshunos va tarjimashunos olimlar V. Komissarov, A. Fyodorov, L. Barxudarov, YA. Retsker, F. Salomov, Q. Musaev, YU. Nayda, J. Ketford va boshqalar katta xissa qo‘shdi.

Zamonaviy tarjimashunoslikning shakllanishiga xissa qo‘shgan ingliz tarjimashunosi J. Ketfordning «Tarjima-shunoslikning til nazariyasi» ilmiy tadqiqoti muxim o‘rin tutadi.

O‘zbekistonda asos solingan tarjima maktablari taxsinga sazovor. Xususan, professor Salomovning dastlabki tadqiqotlari u xali Samarkand davlat universitetida taxsil olayotgan yillari boshlangan edi. Uning «Maqol, matal va idiomalar tarjimasi», «Badiiy tarjimaning leksik-frazeologik masalalari», «Rus tilidan o‘zbek tiliga maqol-matallar tarjimasi» risolalari chop etildi, ko‘p o‘tmay «Til va tarjima» (1964) nomli monografiyasi «Fan» nashriyotida bosilib chiqdi.

Tahlil va natijalar. Bugungi kunda tarjimaga tobora ortib borayotgan kundalik ehtiyoj, o‘z navbatida, malakali tarjimonlarga bo‘lgan extiyojning o‘sishiga olib kelmoqda. Oliy o‘quv yurtlari o‘quv bazasini kuchaytirish uchun rang-barang darslik va o‘quv o‘ullanmalar, lug‘atlar nashr etishga katta e’tibor qaratilmoqda. Tuzuvchilar Shavkat Butaev va Abbos Irisqulovning 70 ming so‘z va iborani jamlagan inglizcha-o‘zbekcha, o‘zbekcha-inglizcha lug‘ati, A. Ismoilov, O. Muminov, N. Qambarov singari zaxmatkash olimlarning darsliklari talabalarning xorijiy tillarni va tarjimonlik faoliyatini o‘rganishlarida asosiy qo‘llanmalardan biri sifatida xizmat qilmoqda. Abdo‘zuxur Abduazizov singari jonkuyar olimlarning yaratgan tilshunoslik va fonetikaga doir darsliklari yangi davr talabalariga til o‘rganishlarida g‘oyat qo‘l kelmoqda.

V.V.Alimovning «Tarjima nazariyasi. Professional muloqot soxasidagi tarjima» o‘quv qo‘llanmasida tarjima nazariyasi, tarjimonning nazariy tayyorlanishi uchun muxim bo‘lgan lingvistik xolatlar; tarjima tillararo va millatlararo muloqot vositasi sifatidagi ahamiyati; tarjimaning ikki xilligi, ko‘p xilligi va asosi; tarjima tushunchasi; tarjimaning aniqligi; interferensiya xodisasi, to‘g‘ri va erkin tarjima; tarjimaning

mundarija buyicha muxim turlari; tarjimaning qonuniy to‘g‘ri kelishi; tarjimada grammatik qiyinchiliklar, xorijiy adabiyotning annotatsiyasi va uni referatlash, tarjima nashrning asoslari kabi mavzular juda yaxshi yoritilib, ko‘plab savollarga javob berilgan.

Linn Visson «Rus tilidan ingliz tiliga sinxron tarjima» asarining audio qo‘llanmasi sinxron tarjimaga o‘rgatish yo‘lida qo‘yilgan birinchi qadam deb xisoblanadi. Ingliz tili grammatikasidan yaxshi bilimga ega bo‘lgan boshlovchi tarjimonga muljallangan o‘z qamroviga yozma va og‘zaki tarjima birligini oladi. Uni 3 qismga bo‘lish mumkin. Birinchisi 25 ta rus tilidagi yozma matnlardan iborat. O‘z janri buyicha notiqlarning BMT kengashlarida va boshqalarda so‘zlangan nutqlari, intervyu savollariga javoblar va boshqa turli mavzulardagi materiallar siyosat, iktisod, ekologiya, tibbiyot va san’at soxalari buyicha materiallar hisoblanadi.

T. A. Kazakovaning «Tarjimaning amaliy asoslari» o‘quv qo‘llanmasi ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, tarjima nazariyasi va amaliyotini o‘rgatuvchi fanlar darsliklariga kiradi. Kullanma ingliz tilidan rus tiliga va rus tilidan ingliz tiliga tarjima qilishga oid bilimlarni egallash va malakani oshirishga yo‘naltirilgan. Kullanma yaratilishining asosiy tamoyili ikki tomonlama tarjima mobaynidagi til birliklarini o‘zgartirishning usullarini ishlata bilish xisoblanadi. Qo‘llanma xorijiy filologiya fakultetlarida taxsil olayotgan bo‘lg‘usi tarjimonlar, ingliz tili o‘qituvchilari va boshlovchi tarjimonlarga mo‘ljallangan.

«O‘zbek tilining izohli lug‘ati»da: «Tarjima - biror tildan ikkinchi boshqa bir tilga ag‘darilgan matn», - deya ta’riflanadi. Ushbu ta’rif «tarjima» so‘zi muayyan faoliyat natijasi ekanligi hamda bu so‘z moxiyati zamirida faqat natija yotmasligidan dalolat beradi. CHunki xar qanday natija mantiqan ma’lum bir jarayonga xos maxsulot xisoblanadi. SHu nuqtai nazardan, «tarjima» so‘zining zamirida yashiringan ikkinchi ma’no «o‘girish jarayoni» ekani ma’lum bo‘ladi. Bu tarjima bilan aloqador fanlarning umumiy maqsadi bir tilda yaratilgan matnni ikkinchi tilga o‘girish jarayonini o‘rganish bilan bog‘liqligi va bu borada to‘plangan bilim va ko‘nikmalar sifatini tarjima natijalari vositasida tekshirib ko‘rish mumkinligidan dalolat beradi.

F.Salomovning fikriga ko‘ra, tarjima atamasi forscha «tarzabon» so‘zining o‘zgargan shaklidir. Tarzabon fors tilida «chiroyli so‘zlovchi, notiq, tili burro kishi» degan ma’nolarni anglatadi. Asli arabcha bo‘lgan ushbu so‘z «tarjumon» shaklida bo‘lib, undan «tarjimon», «tarjima» so‘zlari xosil bo‘lgan.

Tarjima - bu tillararo aloqa vositasi. Tarjimon asl manbaa bilan bir xil kommunikativ qiymatga ega bo‘lgan, tarjima qilingan matn yordamida turli tillarda so‘zlashuvchi kishilar urtasida axborot almashinish imkoniyatini yaratib beradi.

Tarjima matn va asliyat matn urtasidagi shakliy-mazmuniy farqlar sababli, ular doimo ham muqobil matnlar bo‘lavermaydi. Birok tarjima matn (TM) iste’molchilari uni asliyat matn (AM) bilan vazifaviy, tarkibiy va mazmuniy jixatdan bir xil xisoblaydilar. Funksional o‘xshashlikda TM AM muallifi asaridek qabul qilinadi. Tarjima xuddi asliyat matndek nashr qilinadi, tanqid qilinadi. Masalan, britaniyalik gazetxon ingliz tilidagi gazetada qo‘shtirnoq ichidagi «Fransiya Prezidenti kecha quyidagicha bayonot berdi» gapini ko‘radi va so‘ngra bayonotni o‘qiydi. Fransiya Prezidenti bayonotini o‘qiganiga ishonchi komil, ammo Fransiya Prezidenti franso‘z tilida gapirgan. Gazetada keltirilgan ma’lumot asliyat matndan biroz boshqacharoq bo‘lsa-da, ingliz uni tushundi. Demak, bu matn franso‘z davlat arbobining ingliz tarjimoni tomonidan o‘girilgan bayonoti maqomiga ega.

CH. Dikkens asarini o‘zbek tilida o‘qigan kitobxon, tarjima asliyat matnga qanchalik yaqinligidan qat’i nazar, ushbu muallifning asarini mutolaa qilayotganlariga ishonadi va go‘yo bevosita muallif asari bilan tanishib chiqqandek, uning afzalliklari borasida «Menga Dikkensning asari yoqdi», «Dikkens asarlarining lug‘ati juda boy» degan xulosalarga keladi.

Asl manba matn tarjimasidagi eng muxim narsa - bu mazmuniy o‘xshashlikdir. Unda tarjima matn asliyat matn bilan bir xil mazmun kasb etadi deb xisoblanadi. Manba matn orqali uzatilgan ma’lumot bilan tarjima matn sifatida qabul qilingan ma’lumot o‘rtasida farq mavjudligi to‘liq ma’lumot almashish imkoniyatining cheklanishiga sabab bo‘ladi. Manba va tarjima matn o‘rtasidagi semantik bir xillik ma’no muqobillarining turli darajalariga asoslanadi. Tarjimon, odatda, asl manba matnga yaqin birliklardan foydalanishga xarakat qiladi. Chunki tarjima amaliyoti asliyat matnni boshqa tilga kuchirishda sodir bo‘ladigan xarakatlar majmuidir. Bunga o‘z kasbining ustasi bo‘lgan, malakali yoki shu ishga tug‘ma iqtidori bo‘lgan tarjimonlargina erishadi. Shox tarjima asarlar ulkan so‘z san’atkorlari sa’y-xarakatlari xosilasi o‘laroq yuzaga keladi.

Umuman olganda, tarjima matn manba matn bilan bir xil qiymatga ega bo‘lib, uning o‘rnini bosishi mumkin, chunki xar ikki matn bir xil qonunqoidalarga buysunuvchi inson nutqi vositalari orqali yuzaga keladi. Umumiy tarjima nazariyasi tarjimaning umumiy masalalari bilan shug‘ullanadi va shu soxaga doir fanlar asosini tashkil qiladi. Umumiy tarjima nazariyasining muxim qismi manba va uning tarjima matni orasidagi semantik munosabatlarni o‘rganuvchi muqobillik nazariyasidir. Ayni vaqtda, shuni ham aytish kerakki, xar qanday tarjimada tushirib qoldirishlar, qo‘shimchalar yoki uzatilayotgan ma’lumot o‘zgarishi muqarrarligi sabab, bunday bir xillik yo‘qligini isbotlash qiyin emas. Masalan, inglizcha “My brother has done the homework” gapining o‘zbek tilidagi tarjimasi “Akam uy vazifasini bajarib bo‘ldi” gapi inglizcha gapning muqobili xisoblanadi. Ammo vazifaviy, tarkibiy va mazmuniy jixatdan bu gaplarni bir xil deb bo‘lmaydi. Chunki o‘zbekcha tarjimada artikl tushirib qoldirilgan, ya’ni aniq uy vazifasi haqidagi ma’lumotni olmayapmiz. Shuningdek, o‘zbek tilidagi tarjimada asliyat matnda bo‘lmagan qo‘shimcha ma’lumot keltirilgan. Undan ish bajaruvchining so‘zlovchiga nisbatan katta yoshdaligini bilishimiz mumkin. Asliyat matnda u so‘zlovchidan yosh bo‘lishi ham mumkin. Tarjima matnda asliyat matnda mavjud kelishik kategoriyasi keltirilmagan. Shuningdek, tarjima matnda aks etgan egalik qo‘shimchasi asliyatda yo‘q. Tarjima jarayonida tushirib qoldirish yoki qo‘shimcha qilish axborot uchun ahamiyatsiz bo‘lsa-da, tarjima muqobili matnlarning to‘liq mazmuniy o‘xshashligini nazarda tutmaydi. Muvofiqlik nazariyasi bir xillikni ta’minlovchi omillarni o‘rganadi va tarjimada matnlar qanchalik o‘xshashligini aniqlashga xarakat qiladi. Umumiy tarjima nazariyasi xar bir tarjima xodisasi uchun mos bo‘lgan asosiy tamoyillarni tasvirlaydi.

Tarjimon tarjima matnda manba matnda mavjud turli lisoniy unsurlarni: uslubiy betaraf va xis-xayajon so‘zlar, arxaik so‘zlar, o‘xshatish, sheva, jargon, balandparvoz iboralar, jargon va argolar, maqol, iqtibos, nuqsonli nutq shakli bilan ifodalangan shakl va so‘zlar ma’nosini saqlashi hamda tarjima qilinayotgan tildagi muqobiliga moslab berishi kerak. Manba matn falsafa fanidan tortib zamonaviy soxaslarga oid bo‘lishi mumkin. Tarjimon bu o‘rinda ixtisoslashgan bayon tasvirlariga echim topishi hamda tegishli atamalari xali tarjima qilinmagan yangi ixtirolar haqida tegishli ilovalar berishi kerak. Ketma-ket sharxlashda tarjimon uzundan-uzoq nutq tinglaydi, uning muxim joylarini yozib oladi, so‘ngra to‘liq yoki qisqa shaklda, ya’ni barcha tafsilotlar yoki asosiy mazmunni tarjima qilib beradi. Ko‘p xollarda iste’molchilar xatto asl ma’noning asosiy qismi tarjimasi bilan qoniqadilar, boshqa xollarda tarjimonlar faoliyatida arzimas tushirib qoldirish yoki kichik xatolar kuzatilishi mumkin.

Har bir tarjima turining tarjima jarayoniga ta’sir etib turuvchi omillar majmui mavjud. Umumiy tarjima nazariyasi

tarjimonlik faoliyatining ko‘plab turlarini o‘rganuvchi, xar bir turning o‘ziga xos ustuvor tomonlarini tasvirlovchi bir nechta maxsus tarjima nazariyalari bilan to‘ldiriladi.

Tarjima jarayonining amaliy jixatlarini o‘rganuvchi tadqiqotlarga aloxida to‘xtalish joiz. Turli tillarda muloqotga kirishadigan so‘zlovchilar xar xil madaniyatga mansub bo‘lib, turli bilim, ijtimoiy va tarixiy o‘tmishga ega bulishadi. Bu esa tarjimonning asosiy maqsadiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Chunki manba matndagi ayrim so‘z va tushunchalar tarjima matn o‘quvchilariga qisman yoki umuman tushunarsiz bo‘lishi mumkin. SHuning uchun tarjimon tarjima jarayonida asliyatdagi tushunchalarni aniq tahlil qilib berishi lozim. Bu esa tarjima tili soxiblariga manba matndagi axborotni tarjima qilib etkazish zaruratini keltirib chiqaradi. Agar tarjima qilingan matn muayn ijtimoiy gurux yoki kasb egalari tomonidan qabul qilinayotgan bo‘lsa, tarjimonning amaliy ko‘nikmalari ahamiyati keskin tus oladi. Bunday xollarda tarjimaning amaliy qiymati tarjimon faoliyati sifatini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi.

Tarjima nazariyasining barcha bo‘limlari tarjimon faoliyatini muxim tamoyillar asosida tadqiq etadi hamda tarjima amaliyoti tajribalari asosida nazariy farazlarni ilgari suradi.

Xulosa va takliflar. Tarjima - tillar orasidagi vosita-chilikka yo‘naltirilgan o‘ziga xos adabiy faoliyat, ya’ni tillarning rang-baranglik xususiyati asosida paydo bo‘ladigan madaniyatlararo muloqot tusini engib o‘tish jarayonidir. Tarjima faoliyati shu qadar serqirraki, usiz xayotimizning biron jabxasini ham tasavvur qila olmaymiz. Tarjimonlik faoliyati o‘zining boy tarixiga ega bo‘lib, faqat XX asrga kelib fan sifatida olimlar tomonidan tan olindi va tadqiq qilina boshlandi.

Hozirgi paytda tarjima nazariyasi bir necha Bo‘limga bo‘lib o‘rganiladi. Bunda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan metod-lardan o‘rni bilan foydalaniladi.

ADABIYOTLAR

1. Рахимов Ғ. Таржима назарияси ва амалиёти. Ўзбекистон милий энсиклопедияси. Давлат илмий нашриёти. Тошкент-2016. 176 б.
2. Алимов В. В. Теория перевода. Перевод в сфере профессиональной коммуникации. - Москва: УРСС, 2004.
3. Бархударов Л. С. Язык и перевод. - Москва: МО, 1975. - 190 с.
4. Виссон Линн. Практикум по синхронному переводу с русского на английский. - Москва, 2000. - С. 200.
5. Казакова Т. А. Translation Techniques. Практические основы перевода. Санкт-Петербург, 2001. - 320 с.
6. Комиссаров В. Н. Лингвистика перевода. - Москва, 1980. - 167 с.
7. Абдуллаева, М. Р. (2019). Инглиз тилидан Узбек тилига илк бевосита таржималарда мазмун ва шакл мутаносиблиги. Termiz Davlat Universiteti." Adabiy aloqalar va madaniyatlarning uzaro tasiri." Xalqaro ilmiy konferensiya, 237-239.
8. Комиссаров В. Н., Коралова Д. Л. Практикум по переводу с английского языка на русский. - Москва, 1990. - 112 с.
9. Комиссаров В. Н. Современное переводовение. - Москва: ЭТС, 2002.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:801

Noila ABDURAXIMOVA,
O’zbekiston Milliy universiteti o’qituvchisi
E-mail:nellynelly9160@gmail.com

O’zDJTU, f.f.d.prof X.B.Samigova taqrizi asosida

HIS-TUYG’U KATEGORIYASI TILSHUNOSLIKNINNG O’RGANISH OB’YEKTI SIFATIDA

Annotatsiya

Ushbu maqolada his-tuyg’u kategoriyasini tilshunoslikning ob’yekti sifatida o’rganilgan. Bunda nafaqat ko’zga ko’ringan xorij tilshunoslari balki mahalliy tilshunoslar fikrlarini ham muhokamaga tortilgan. Emotsiologiya yo’nalishini paydo bo’lish va rivojlanish tarixi haqida ham fikrlar yuritilgan. Emotsiologlarning zamonaviy tadqiqot mavzulari markazida bo'lgan asosiy muammolari tizimi ushbu maqolada o’z aksini topgan.

Kalit so’zlar: his-tuyg’u, emotsiologiya, emotivlik, lingvokulturologiya.

КАТЕГОРИЯ ЭМОЦИИ КАК ОБЪЕКТ ИЗУЧЕНИЯ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотоция

В данной статье категория эмоции исследуется как объект языкознания, обсуждаются мнения не только видных зарубежных лингвистов, но и отечественных лингвистов. Также есть размышления об истории возникновения и развития области эмотиологии. В статье отражена система основных проблем эмоциологов, находящихся в центре современной исследовательской тематики.

Ключевые слова: эмоция, эмоциология, эмоциональность, лингвокультурология.

THE CATEGORY OF EMOTION AS AN OBJECT OF STUDY OF LINGUISTICS

Abstract

In this article, the category of emotion is studied as an object of linguistics, the opinions of not only prominent foreign linguists, but also uzbek linguists are discussed. There are also reflections on the history of the emergence and development of the field of emotiology. The article reflects the system of the main problems of emotsiologists, which are at the center of modern research topics.

Key words: emotion, emociology, emotionality, linguoculturology.

Kirish. Ilk marotaba 1987 yilda Berlinda bo‘lib o‘tgan IV Xalqaro tilshunoslar kongressining plenar majlisida Chex tilshunosi, Praga lingvistik maktabining vakili F. Danesh tilning emotsional jihati haqidagi ma’ruzasini taqdim etdi, unda kognitsiya va hissiyot o‘rtasidagi yaqin bog‘liqlik haqida ishonchli gapirib o’tdi va tilning aynan shu tomonini o'rganish ulkan lingvistik ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatib ham berdi. Konferensiya qarori bilan “Til va hissiyotlar” muammosi zamonaviy tilshunoslik fanining eng ustuvor beshligi qatoriga kiritildi. Bu fakt ko'plab mahalliy va chet el tilshunoslarini lingvistik ifoda va hissiyotlarning aloqasini o'rganishga e'tibor qaratishga undadi. Xozirgi kunda his-tuyg'ular tilshunosligi (emotsiologiya) ning kelib chiqishi va rivojlanishi haqida gapirishga imkon beradigan ko’plab maqolalar va monografiyalar paydo bo’lmoqda va turli tillardagi materiallar bo'yicha yuzlab dissertatsiyalar himoya qilinmoqda. Bunga yaqqol misol sifatida 1991 yilda Dyusseldorfdagi Anglistentagda taqdim etilgan 35 ta ma'ruzadan 18 tasi hissiyotlar tili, hissiy leksika va sintaksis, tinish belgilari va metafora, shuningdek, hissiyotlarning og'zaki va og'zaki bo'lmagan namoyon bo'lishining madaniyatlararo o'ziga xosligining ko'plab muammolariga bag'ishlanganini ko’rsak bo’ladi.

Mavzuga oid agabiyotlar tahlili. 80-yillarning boshidan chet el tilshunosligida A.Vejbitskaya, V.Volek [Volek, 1987], J.Eytchinson [Filimonova, 2001] va boshqalar tilning emotsional tomoniga katta e’tibor qaratishgan. Fanning turli sohalari olimlari, jumladan, tilshunoslik olimlarining his-tuyg’ularga qiziqishi ortishi natijasida 1985 yilda Garvard universitetida hissiyotlarni o‘rganish xalqaro markazi tashkil etilgan. Bu markazda ko'plab maxsus his-tuyg’uni ifodalovchi so’zlar lug'atlari, shu jumladan vulgar so'zlar lug’atlari nashr etilgan; umumiy tushuntirish lug'atlari esa invektivlarni (so’kishni ifoda etuvchi so’zlari), jumladan, Yevropada shakklangan va qo’llanilayotgan, biroq o’zbek mentalitetida qo’llanilishi qat’iyan man etilgan so’zlarni ham o’z ichiga olgan.

V.Edmonson turli til madaniyatlarida his-tuyg‘ularni ifodalashning etnik me’yorlari haqida gapirar ekan, ularni qanday ifodalash emas, balki bu vositaga ruxsat berilgan shart-sharoitlar bilan bog‘liqligini haqli ravishda qayd etadi [Edmondson, 1992:64]. Shunday qilib, his-tuyg'ularning diskursivligi muammosi birinchi marta ko'tariladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Olimlar his-tuyg'ularning kamida ikkita semiotik tizimi mavjudligini anglay boshladilar - Body language and Verbal language, ular doim beqaror munosabatda bo'ladi. Umuman olganda, birlamchi semiotik tizim ikkinchi darajali (og'zaki) tizimdan ishonchliligi, tezligi, to'g'ridan-to'g'riligi, samimiylik darajasi va aloqada his-tuyg'ularni ifodalash sifati, shuningdek, ularning qabul qiluvchi tomonidan dekodlash adekvatliligi bo'yicha ustun ekanligi allaqachon aniqlangan.

Tahlil va natijalar. Inson hayotining ko'p qirralarini oddiygina so'z bilan ifodalab bo'lmaydi: haqiqatdan ham til borliqqa nisbatan ojizdir. Har bir so’zlovchi tinglovchiga biror axborotni yetkazishda muayyan muammoga duch kelishi mumkin. Bu o’rinda so’zlovchi suhbatdoshga yangikini ifoda etishda so’z yoki jumlani yetkazishda uning muqobillari tilga kelmasligi mumkin. Shu o’rinda so’zlovchi turli his-tuyg’uni ifoda etuvchi harakatlardan foydalanadi. Bu esa tilshunoslikda homo sapiens ya’ni inson aql idroki deb yuritiladi. Til va his-tuyg'ularning yaqinlik darajasi har doim ham biz o`ylaganimizdek yaqin emas. His-tuyg'ular hech qachon farqlangan sof shaklda namoyon bo'lmaydi va shuning uchun ularning og'zaki identifikatsiyasi doimo sub'ektivdir [Diller, 1992: 26-27].

Bundan tashqari, bir xil his tuyg'u turli xil ko’plab lingvist olimlar tomonidan bir necha omillar ta’sirida turlicha talqin etiladi, shu jumladan , masalan, muloqot fonida nolisoniy omillar ta’sirida ham talqin etiladi.

A. Xellerning fikriga ko‘ra, his-tuyg‘ular hamisha kognitiv va vaziyatga bog‘liq bo‘ladi [Heller, 1992: 182], binobarin, ularni ifodalashning til vositalarini tanlash ham diskursiv hususiyatga egadir.

Xulosa va takliflar. Barcha tillarda his-tuyg'uni ifodalovchi leksemalarda baholash belgisi turiga ko'ra dixotomiya mavjud chunki barcha tilshunoslar tomonidan bunday semantik universallikni qayd etiladi. Agar mezon sifatida baholash belgisi turini olib, emotsionallikka hos leksemalarni taqqoslasak, barcha tillarda quyidagi manzara namoyon bo'ladi: turli tillarning lug'atlarida ijobiylarga qaraganda salbiy baholovchi semantikaga ega emotsiyalar ko'proq, ammo ular ikkinchisiga qaraganda ancha kam ish-latiladi. Bu turli xalqlar va madaniyatlarning hissiy tizimlari o'xshash degan xulosaga kelishimizga imkon beradi, chunki. ularning leksikasida ustun bo'lgan salbiylik, foydalanishdagi pozitivlik va sintagmatik birikmadan past bo'lib, bu insoniyatning ijobiylikka bo'lgan psixologik istagi bilan izohlanadi. Lingvomadaniyatshunoslik uchun yana bir o'xshash jihat shundaki, ijobiy his-tuyg'ular barcha xalqlar tomonidan har doim o'ziga xos, aniq va xilma-xil bo'lgan salbiy his-tuyg'ularga qaraganda bir xil va tarqoqroq ifodalanadi [Noth, 1992: 83].

Kognitologiya bilimlarning tuzilishi, uning shakl-lanishi, moddiylashtirilishi va tarjimasi haqidagi fan sifatida emotsiologiya bilan chambarchas bog'liq - his-tuyg'ularni og'zakilashtirish, ifodalash va muloqot qilish fani deb ta’riflanadi. Bu barcha bilish (fikrlash) jarayonlarining hissiyotlar bilan bog'liqligi bilan izohlanadi Tilshunos olim Danesh "... bilish hissiyotlarni keltirib chiqaradi, chunki u hissiydir va his-tuyg'ular bilishga ta'sir qiladi, chunki ular kognitiv jarayonlarning barcha darajalariga aralashadi" deb fikr yuritadi [Danes, 1987: 280].

Emotsiologiya (his-tuyg'ular tilshunosligi) hissiyotlar haqidagi kognitologiya fani ma'lumotlaridan foydalanadi va hissiyotlarning o'ziga xos lingvistik kontseptini ishlab chiqishga harakat qiladi.

His-tuyg'ular tilshunosligi bo'yicha mahalliy va xorijiy adabiyotlarning keng ro'yxatini o'rganish emotsiologlarning zamonaviy tadqiqot mavzulari markazida bo'lgan asosiy muammolarning quyidagi ro'yxatini aniqladi:

• emotsional belgilar tipologiyasi;

• olamning lisoniy manzarasi tushunchasini shakllantirishga aqliy uslub turining ta'siri, olamning lisoniy manzarasini emotsional tushunchasi;

• his-tuyg'ular muloqoti;

• dunyoning turli tillaridagi his-tuyg'ular leksikalarining o'zaro bog'liqligi;

• his-tuyg'ularni ifodalashning milliy-madaniy o'ziga xosligi;

• tilning emotivlik mezonlari va uning belgilari;

• ikki semiotik tizim sifatida his-tuyg'ular tilshunosligi va paralingvistikaning o'zaro bog'liqligi;

• hissiyotlar emansipatsiyasining til jarayonlariga ta'siri;

• matnning emotsional/emotiv ranglanishi/modalligi;

• tilning emotsional semantik maydoni;

• emotivlik leksikografiyasi;

• o'zining va boshqalarning lahzalik va o'tmish/kelajak (oldindan ko'rish) his-tuyg'ularini tasvirlash va ifodalash prag-matikasi;

• ularning og'zaki ko’rinishida his-tuyg'ularni yashirish, taqlid qilish, simulyatsiya qilish.

Emotsiologiyaga hos ma'lumotlarni qo'llashda lingvo-kulturologiya muhim ahamiyat kasb etadi. Unda hissiyot-larning universalligi, ularning ajralmas tabiati va turli tillar vositasida homo sentiens ya’ni inson aql idroki sub'ektiv sohasini ifodalashning milliy-madaniy xususiyatlariga doir qoidalardan foydalanadi.

Tabiiyki, emotsiyaga doir nazariyalar hali to’la o’z yechimini topmagan. Bu esa uzoq vaqtdan buyon tilshunos-likda emotsiologiya va kognitiv tilshunoslik fanlarining o’zaro munosabatlari masalasida munozara va bahslarga sababchi bo’lgan mavzulardan biridir.

Til birliklarining emotsional komponentlarini o‘rganish so‘zning emotsional semantikasini o‘rganishdan boshlangan. Buning sababi shundaki, so'z ongimizdagi tilning butun maydonini ifodalovchi asosiy va ayni paytda semantik nuqtai nazardan eng harakatchan birlikdir. 70-80-yillar tilshunosligida yaratilgan ilmiy maqolalar his-tuyg'u nomlari bilan ifoda etilgan bo’lsada, hissiy vositalarga tegishli bo’lmagan, chunki tilda go'yoki uning ma'nosini ochib beradigan ikkinchi darajali belgilar tizimi mavjud bo’lmagan, ammo keyinchalik tilning boshqa hususiyatlari nuqtai nazaridan ko'rib chiqilgan. Tuyg'u nomlari, emotsional holatlarni tavsiflovchi va ifodalovchi leksika bilan bir qatorda leksik emotsional vositalar tizimini tashkil qiladi, shuning uchun emotsionallik tushunchasi emotiv leksikani ham, his-tuyg'ular leksikasini ham o'z ichiga oladi.

Bundan tashqari, tilning ikkilamchi semiotik tizimi sifatida konnotatsiya mavjudligi ham tan olingan. Shu munosabat bilan ba’zi tilshunos olimlar hissiyot atamalarini konnotativ-assotsiativ-emotiv deb belgilaydilar. A.Vejbitskaya nemis, rus, polyak va ingliz tillarida g'azab, achinish va boshqa his-tuyg'ularning nominatsiyasini tahlil qiladi [Wierzbicka, Bessemers, 2009].

Emotivlik tushunchasini talqin qilishda dunyo olimlarini qarashlari turlicha. Ko‘pchilik chet el tilshunoslari tildagi his-tuyg‘ularning ifodalanishini tahlil qilar ekan, birinchi navbatda his-tuyg‘ularni nomlaydigan so‘z turkumlari yoki alohida leksemalarni o‘rganishga e’tibor qaratsalar, mahalliy tadqiqotchilar hissiyot tushunchasini baholash bilan bog‘lashni afzal ko‘radilar va ko'pincha hissiylik leksikasini his-tuyg'ularni ifodalovchi va tavsiflovchi so'zlar bilan cheklaydi.

Bizning fikrimizcha, emotsional holat va hissiy munosabat tilda turli vositalar orqali ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri bevosita nominatsiya (fear, love, anger), ham bilvosita ifodalash (undalma, invektiv leksika va h.k.) va tasvirlash (pouzalar, nutq va ovozning xususiyatlari , ko’z qarashi, harakat va boshqalar) bilan ifodalanishi mumkin. Agar biz hissiyotni sub'ektning hissiy holatini ifodalovchi vaziyat tushunchasidan kelib chiqadigan bo'lsak, unda turli xil aloqa sharoitlarida va so’zlovchining niyatlariga qarab hissiy holat va munosabatni ifodalashning turli xil vositalari mavjudligini tan olishimiz kerak.

Shunday qilib, his-tuyg'ularni bildiruvchi leksika, ko'rinishidan, to'g'ri emotsional lug'at va emotsional bo'lmagan leksika o'rtasida oraliq pozitsiyani egallaydi, chunki u butunlay neytraldan ko'ra ko'proq hissiydir.

Tilda so’zlovchining hissiy kompetentsiyasining mezoni uning hissiy jihatdan to'g'ri matnlarni (o'qitish amaliyotida va tabiiy aloqada) yaratish qobiliyatiga egaligini namoyon etadi; uning hissiy yetukligi mezoni, shubhasiz, boshqa shaxs nutqining hissiy dominantlarini boshqa kontseptual sohalar va boshqa madaniyatlarning aksi sifatida yetarli darajada idrok etish qobiliyati sifatida xizmat ko’rsatishi mumkin.

Turli madaniy va hissiy tushunchalarning ma'nolarini aniqlash bo'yicha olib borilgan ishlarning natijasi kommu-nikantlarning og'zaki xatti-harakatlari xususiyatlarini tushuntirish tamoyili sifatida hissiy deyksis tushunchasini asoslash va qo’llashni talab etadi.

Shunday qilib, his-tuyg'ular tili (hissiy til) haqida olingan bilim hissiyotlarning to'g'ri lingvistik nazariyasini rivojlantirish uchun muhim asos hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Филимонова О.Е. Язык и эмоции в английском тексте. Когнитивный и коммуникативный аспекты: Монография. – СПб.: Издательство РГПУ им. А.И. Герцена, 2001. – 259 с
2. Danes F. Cognition and emotions in Discourse Interaction: A Preliminary Survey of the Field // preprints of the Plenary Session papers – XIVth International Congress of Linguistics. Berlin. 10-15 August 1987. Berlin, 1987. – P. 272-291
3. Diller H. J. Emotions and the Linguistics of English // Anglistentags “1991, Dusseldorf”: Proceedings / edit. by Wilhelm G. Busse, Max Niemeyer Verlag. – Tubungen, 1992. – P. 25-29.
4. Edmondson W. Affect and Language Development // Proceed-tags… Tubungen: Niemeier, 1992.
5. Heller A.A. Theory of Emotions. Assen, 1979. Цит. по.: Bonheim H. Emotions in Literature // Proceed-tags… Tubungen: Niemeier, 1992. – P. 179-189.
6. Noth W. Symmetries and Asymmetries between Positive and Negative Emotion Words // Anglistentags “1991, Dusseldorf”: Proceedings / edit. by Wilhelm G. Busse, Max Niemeyer Verlag. – Tubungen, 1992. – P. 72-89.
7. Volek B. Emotive Signs in Language and Semantic Functioning of Derived Nouns in Russian. Amsterdam / Philadelphia, 1987. – 279 p.
8. Wierbicka A., Besemeres M. Emotion terms as a window on culture, social psychology and subjective experience // Язык и эмоции: наминативные и коммуникативные аспекты. Волгоград, 2009

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:1751

Omadjon AZAMOV,
Andijon davlat chet tillari institute o‘qituvchisi
E-mail:Shahramaslanov97@gmail.com
SamDCHTI tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasi mudiri, PhD O‘.O‘.Qo‘ldoshev taqrizi asosida

TILSHUNOSLIKDA ZOONIM KOMPONENTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI ILK O‘RGANISH TAMOYILLARI VA TAHLIL USULLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada ilk zoonimik tadqiqodlar borasida fikirlar bayon etilib, ovrupa va o‘zbek tilshunosligida zoonimlarni o‘rganish davrlari, tadqiqot usullari va tahlil natijalariga doir fikrlar bayon etilgan. Bundan tashqari zoonim komponentli frazeologik iboralarni tasniflash tamoyillari borasida ham tilshunoslarning fikrlari bayon etilgan.
Kalit so‘zlar: zoonim, zookomponent, semantika, idiomativlik, leksika, bosh komponeffnt, tasnif.

PRINCIPLES AND METHODS OF ANALYSIS OF FIRST STUDY OF PHRASEOLOGICAL UNITS WITH ZOONYM COMPONENTS IN LINGUISTICS

Abstract

This article presents ideas about the first zoonymic studies, presents the period of study of zoonyms in European and Uzbek linguistics, research methods and analysis results. In addition, the opinions of linguists on the principles of classifying phraseological expressions with a zoonym component were also presented.
Key words: zoonym, zoocomponent, semantics, idiom, vocabulary, main component, classification.

ПРИНЦИПЫ И МЕТОДЫ АНАЛИЗА ПЕРВОГО ИССЛЕДОВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ЗООНИМИЧЕСКИМ КОМПОНЕНТОМ В ЛИНГВИСТИКЕ

Аннотация

В данной статье представлены представления о первых зоонимических исследованиях, представлен период изучения зоонимов в европейском и узбекском языкознании, методы исследования и результаты анализа. Кроме того, были представлены мнения лингвистов о принципах классификации фразеологических выражений с зоонимическим компонентом.
Ключевые слова: зооним, зоокомпонент, семантика, фразеологизм, лексика, главный компонент, классификация.

Kirish. XX – asrning oxiriga kelib tishunoslik fani tobora quloch yozib, frazeologik tadqiqotlar zamonaviy tilshunoslikda alohida o‘ringa ega bo‘ldi. Frazeologiya sohasida yangi-yangi tadqiqot yo‘nalishlari paydo bo‘ldi. Endilikda iboralar komponent tahlil qilinib, ibora tarkibidagi asosiy komponent morfologik xususiyatiga ko‘ra o‘rganilmoqda. Morfologik tahlilga ko‘ra zoonim komponentli FBlar, somatik komponentli FBlar, rang komponentli FBlar va son komponentli FBlar kabi ko‘plab iboralar konseptual tahlil qilinmoqda. Tadqiqotimizning ushbu qismida zoonim komponentli FBlarni tasniflash tamoyillari va tahlil usullarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. “Zoonim” atamasi O‘zbek tilining izohli lug‘atida berilishicha yunon tilidagi “zoon”- hayvon, jonivor va “onyma”- nom, ism so‘zlaridan paydo bo‘lgan va hayvon nomlari bilan bog‘liq so‘zlar, deb izohlangan[9].

Rus olimlari N.V. Nikolayeva va V.I. Sergyevlar ham zoonimlar ustida turli linvistik tadqiqotlar olib borgan. Ular “zoonim” terminiga uy va yovvoyi hayvon nomlari deb izoh berishgan va zoonimlarni animalionlar deb ham atashagan[10]. Chuvash olimi Yu. N. Isayev o‘zining ilmiy maqolasida zoonimlarni yovvoyi va uy hayvonlari, parandalar, baliklar va boshqa turlar nomlarini ifodalovchi so‘zlar deb izoh bergan, shu bilan birga ularni ilmiy adabiyotlarda animalionlar yoki animalizmlar deb ham atalishini keltirib o‘tgan. Bundan tashqari u zoonimlarning leksik ma’nodagi zoologik atamasi “zoosemizmlar” va inson xarakterini ifodalovchi ko‘chma ma’nodagi atamasi “zoomorfizmlar” deb nomlanishini ham aytib o‘tgan[11].

O‘zbekistonda ham qator tilshunos olimlar soxada salmoqli tadqiqot ishlari olib borgan. O‘zbek olimasi professor SH.S. Imyaminova ham frzazeologizmlarni qiyosiy tadqiq qilarkan zoonimlarni jonivor nomlari va animalizmlar deb yuritgan[12].

Zoonimlarga doir tadqiqotlar juda uzoq tarixga ega, ilmiy zoologik tadqiqotlarning ilk vakili eramizdan oldingi 384- 322 yillarda yashab o‘tgan qadimgi yunon olimi Aristotel hisoblanadi. Jumladan u hayvonot olamining 454 turini tasvirlagan va birinchilardan bo‘lib ularning sistematikasini yaratishga uringan. Zoonimlarni zamonaviy ilmiy tasniflash jarayonini atoqli shved tabiatshunos olimi Karl Liney (1707-1778) boshlab berdi. U har bir turni ikki lotin so‘zi bilan nomlashni taklif qildi. Birinchi nom- jonzodning tabiy xususiyatiga ko‘ra, ikkinchisi- turga oid nomlash. Masalan: qo‘rqoq quyon va ovrupa quyoni.

Ta’kidlash lozimki, hayvonot dunyosi terminlari azal-azaldan turkiy[4] tillarda ham ko‘plab tadqiqotlar markazida bo‘lgan. Sigir, ot, qo‘y, echki, mol, eshak kabi so‘zlar K.M. Musayevning “Turkiy tillar leksikasining qiyosiy yoritilishi” nomli kitobida etimologik va semantik planda atroflicha tahlil etilgan[6]. O‘zbek tilshunos olimi professor B.Bafoyevning guvohlik berishicha, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida hayvonot dunyosiga oid 337 termin ishlatilgan. Ulardan 76 tasi hayvon nomlari, 71 tasi chorva mollari va chorvachilik sohasiga oid so‘zlar, 97 tasi paranda nomlari, 9 tasi sudralib yuruvchilar nomlari, 48 tasi yovvoyi va yirtqich hayvon nomlari, 41 tasi mayda trik organizmlar nomlari, 7 tasi suvda yashovchi jonzodlar nomi, 12 tasi afsonaviy- mifologik jonivorlar nomlaridir[2].

Shuni ham ta’kidlash lozimki, 17- 18 asr sharq olimlari ham hayvonot olami ilmi bilan shug‘ullangan, ulardan biri Muhammad Chingiydir. U 1659-1707 yillarda leksikografik xarakterda yozilgan “Kelurnoma” asarining muallif bo‘lib, aynan shu davrda Hindiston Muhammadshoh Olamgir Abdulmuzaffar Muhiddin hukumronligi ostida edi. Kitob o‘z

xarakteriga ko‘ra chig‘atoy- fors tilllari ideografik lug‘ati hisoblanadi, shu bilan birga XV bob va 343 fasldan iborat bo‘lgan. Muhammad Chingiy kitobining IX bobini tilning zamonaviy leksikasini o‘rganishga bag‘ishlagan. Bu leksikani u 9 ta tematik guruhga bo‘lgan. 3- va 4- guruhlarda otlar va ularga tegishli unsurlar, shu bilan birga paranda nomlari, ularga bog‘liq so‘zlar tahlil qilingan. Zoonimlar o‘rta asrlar sharq allomalaridan biri Zamaxshariy (1074-1144) asarlarida ham uchraydi[3]. 20- asr oxiriga kelib bu soxada keng qamrovli tahlillar boshlandi. Endilikda jonzodlar nomlari va ularga xos xatti- harakatlarni ifodalovchi leksik birliklar (zoonimlar) teran ilmiy tadqiqotlarni talab etdi. Zoonimik leksik birliklar konseptual- semantik tahlil qilinib, ularning konnotativ va denotativ ma’nolari alohida o‘rganildi. Jumladan rus tilshunos olimi A.M. Щerbak 1961 yilda yaratgan asarida turkiy tillar leksikasining tarixiy rivojlanish tamoyillariga e’tibor berib, turkiy tillar leksikasida xonaki va yovvoyi hayvon nomlarini tadqiq qilgan[13].

Zoonimlar 70- yillardan boshlab, Chuvash tilshunoslari tadqiqotlarining ham diqqat markazida turgan. Jumladan Kornilov G.E., Lebedeva YE.A., Nikolayeva N.V., Sergyev V.I., Ignatev N.G., Pavlov I.P., Isayev YU.N. kabi chuvash tilshunoslari alohida hayvon nomlarini rus, ingliz va nemis tillariga nisbatan qiyosiy tahlil qilishgan va qiyoslanayotgan tillar asosida zoonimik leksik paralellarni aniqlashga harakat qilgan.

Zoonimik tadqiqotlar o‘zbek tili materiallari misolida ham allaqachon boshlangan. Tojik tilshunos olimasi K.I.Djabarova zoonimlarni rus va o‘zbek tili, hamda tojik va o‘zbek tili misolida o‘rgangan[7]. Olima nomzodlik dissertatsiyasida ham aynan shu mavzuni chog‘ishtirma o‘rgangan. Bundan tashqari Z.U. Abdualiyeva ham zoonimlarni rus va o‘zbek tillari misolida chog‘ishtirma tahlil kilgan va ular ishtirokidagi FB larning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rgangan[5]. 21- asrning kirib kelishi bilan bir qatorda zoonimik tadqiqotlar tarixida ham yangi bosqich boshlandi. Endilikda faqat zoonimlar metaforizatsiyasi jarayonigina emas, balki ularning lingvo- kulturologik va milliy madaniy spetsifikasi tadqiq qilina boshlandi, jumladan rus, ingliz va boshqa milliy tillar misolida Kipriyanova A.I., Levi- Stross K., Mironyuk L.F., Morkovkin V.V., Podolskaya N.V., Litvin A.V., Burvinova N.D., Bragina A.A., Gyumumyans K. SH., Kurajova I.V., Ignatev N.G., Pavlov I.P., Karmanova YU.A., Kornilov G.E. , Lebedeva YE.A., Ogdanova S.S. , Sergyev V.N., Golovin B.N. kabi olimlar qiyosiy- chog‘ishtirma tadqiqotlar olib borgan bo‘lsa, Zaxarova M.A., Solnseva N.V., Galimova O.V., Inchina YU.A., Katsitadze E.A., Gafarova K.T. kabi tilshunoslar nemis tili misolida alohida, hamda rus, ingliz va nemis tillari materiallari asosida chog‘ishtirma tadqiqotlar olib borgan.

Natijalar. Tahlil qilingan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, insoniyat dunyosi azaldan hayvonot olami bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib kelgan. Jonzodlar olami, ularning nomlari, hatti- harakatlari va hattoki tovushlari insonlarda taqlid qilingan. Shu asosda ular inson istimolidagi leksikaga kirib, ular zamirida turg‘un iboralar shakllangan va insonlarning u yoki bu ijobiy hamda salbiy xarakterini emotsional- ekspressiv ifodalab kelgan. Bunday iboralarni tilshunos olimlar turlicha atamalar bilan nomlagan. Jumladan, rus tilshunos olimasi L.N. Gishkayeva jonzodlar nomi ishtirok etgan FBlarni “zoonimli FBlar” deb nomladi va ularga turli strukturali modellarga ega bo‘lgan tarkibida zoonim komponent mavjud tilning turg‘un birliklari deb tarif berdi. Rus tilshunos olimi N.A. Skitinaning rus, ingliz va nemis tillari materiallari asosida bajargan nomzodlik ishida ham bunday leksik birliklarni “zoonimli FBlar” deb yuritgan. Bular qatorida O.V. Galimova, Ye.V.Tereshko, D.V. Yurchenko, Q.T. Gafarova, M.M. Sharipova va boshqa olimlarni kiritish mumkin.

Sohada qilingan ilmiy tadqiqotlar, jumladan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalarini ko‘rib chiqish mobaynida yana shu narsa aniq bo‘ldiki, ayrim olimlar hayvon nomlari va ularga xos leksik birliklar asosida shakllangan turg‘un iboralarni “zoonim komponentli FBlar” nomi bilan ham yuritgan. Bunday olimlar qatoriga YE.S. Yakovleva (Belgorod 2019), N.A. Kindrya (Moskva 2005), P.G. Musayeva, YE.R. Malafyeva, I.V. Belyaeva, D.A. Tishkina (Kazan 2008), M.O. Maxmudov (Maxachkala 2016), A.A. Gimadyeva, YU.A. Inchina, I. Xolmanskix, Ye.V.Tereshko (Moskva 2019) kabi olimlarni kiritish mumkin. Bundan tashqari zoonimik FB lar masalasi D. Radjabovaning tadqiqot ishlarida ham ko‘rilgan[7]. U zoonim komponentli FB lar orasidagi semantik munosabatlarni ingliz tili misolida tahlil qilish barobarida zoonim komponentli FB larni tarkibiga ko‘ra, 1. bir so‘z shaklidagi zoonimlar, 2. qo‘shma so‘z tipidagi zoonimlar va 3. tarkibli so‘z birikmasi tipidagi zoonimlarga bo‘lishni taklif qilgan. Mazkur mualliflar tadqiqot jarayonida iboralarni zoonimik komponentli frazeologik iboralar nomi bilan tilga olgan.

Muhokama. Ko‘rib chiqilgan materiallar tahliliy muhokamasi o‘laroq ta’kidlash mumkinki, garchi zoonim komponentli FB lar mualliflar tomonidan turli xil nomlar (zoonimli FBlar, zoonim komponentli FBlar, frazeologik zoonimlar, zoonimik FB, animalistik komponentli FB, zoosemik FB, zoofrazeologik birliklar) bilan yuritilgan bo‘lsa ham ular bir maqsadni ko‘zlaganligi aniqlandi. Unga ko‘ra tarkibidagi komponentlardan kamida biri hayvonlar nomi yoki ularga xos leksik birliklar asosida shakllangan FB lar zoonim komponentli FB lar deb ataladi. Bu turdagi iboralar insoniyatning jonzotlar xulq- atvori va tashqi ko‘rinishi ustidagi uzoq kuzutuvlari natijasida shakllangan. Zoofrazeologik birliklar zamirida tarkibida zoonimlar yoki ularning obrazli – genetik elementlari mavjud bo‘lgan, nisbatan aniq belgilangan semantik va tematik jixatdan barqaror til tuzilmalari tushuniladi[17].

Xulosa. Fikrimizning xulosasi o‘laroq aytish mumkinki, zoonim komponentli FB lar borasidagi ilk ilmiy tadqiqotlar boshlanish davri XXI- asr boshlariga to‘g‘ri keladi. Turli slavyan, german va turkiy til materiallari asosida qilingan tadqiqot ishlarida hayvonlar nomi ishtirok etgan FB lar struktural-semantik, morfologik- sintaktik va etnomadaniy-funksional xususiyatlariga ko‘ra tahlil qilingan. Ko‘rilgan nomzodlik dissertatsiyalari va ilmiy maqolalar shuni ko‘rsatadiki, zoonimlar ilk bor turli- xil jonzodlarni nomlash maqsadida, keyinchalik zoologik termin sifatida va so‘ngra ularning frazeologizmlar takibida ishtirok etishi bilan zoonim komkonentli frazeologik birlik sifatida o‘rganilgan.

Garchi zookomponentli FB lar ko‘plab tillar materiallari misolida qiyosiy va chog‘ishtirma o‘rganilgan bo‘lsa ham, sohada yana talaygina tadqiqot ob’ektlari mavjud, iboralarning lingvo- kulturologik aspektlari hali to‘la o‘rganilmagan. Bundan tashqari FB larning tarjima masalasi, ekvivalentlik darajalari shunday ulkan tadqiqotlar maydoniki, ular hamon ko‘plab tadqiqotchi olimlarni kutib qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Ибрагимова А. Исследование «Келурноме» Мухаммеда Якуба Чингия, АКД. -Ташкент,
2. Бафоев Б. Лексика произведений Алишера Навои. АКД. -Ташкент,1989
3. Гюмумянц К. Ш. Образное употребление названий животных в сравнениях и метафорах. \\ Вопрос фразеологии. Вып.IV.Самарканд, 1971.

4. Абдуалиева З.У. Эквонимические отношения зоонима с общим значением «баран/овца» в плане функционально-семантической микросистемы. 10 02 20 Сравнительно- историческое, типологическое и сопоставительное языкознание удк 4. ббк 80. Таджикистан, Худжанд 2018.
5. Абдуалиева З.У. Эквонимические отношения зоонима с общим значением «баран/овца» в плане функционально-семантической микросистемы. 10 02 20 Сравнительно- историческое, типологическое и сопоставительное языкознание удк 4. ббк 80. Таджикистан, Худжанд 2018.
6. Мусаев К.М. Лексика тюркских языков в сравнительном освещении. -М., 1975.
7. Джабарова К.И. Логико-реляционные основы классификации гетерогенных систем зоонимов в таджикско-узбекском ареале сопоставления. Номаи Донишгоњ учёные записки scientific notes №3(48) Душвнбе- 2016.
8. Кацитадзе Э.А. Метафоризация зоонимов в немецком языке: автореф. дис. … канд. филол. наук. – Тбилиси, 1985.
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Алишер Навоий номидаги тил ва адабиёт институти. Тахрир хайати: Э. Бегматов, А. Мадалиева, Н. Маҳкамов, Т. Мирзаев, Н. Тухлиев, Э. Умаров, Д. Худойберганова, А. Хожиев. А. Мадвалиев тахрири остида.
10. Николаева Н.В., Сергеев В.И. Характеристика человека зоонимами в паремиях, фразеологизмах и сравнениях разносистемных языков. Вестник Чувашского университета. 2017. №2 УДК81'373. ББК Ш10*.
11. Исаев Ю.Н. Краткий обзор исследований зоонимов. Вестник Чувашского университета. 2018. №4 ДК811.512.111'373.2 ББК Ш12=635.1*316*008.5.
12. Имяминова Ш. Жонзотлар оламининг фразеологик тасвири. “XXI аср тилшунослиги ва таржимашунослигининг долзарб муаммолари: назария, амалиёт, инновация” конференция материаллари. Тошкент- 2020.
13. Щербак А.М. Название домашних и диких животных в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. –М., 1961.
14. Абдуалиева З.У., Особенности зоонимических фразеологических иниц (зфе) русского и узбекского языков. Вестник ТГУПБП. 224- 229 б.
15. Ҳакимова Г.Э. фразеологик бирликларнинг лингвокультурологик аспекти. Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети. Тошкент – 2018.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 41

Ra'no BEGMATOVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti
E-Mail: rano@rambler.ru

O‘zDJTU dotsenti, f.f.n. L.T. Xoliyarov taqrizi ostida

THEORETICAL ANALYSIS OF THE PHENOMENA OF LINGUISTIC COOPERATION AND POLITENESS

Abstract

This article provides a theoretical examination of cooperation and politeness processes. In addition, definitions of the principle of politeness and characteristics of this phenomenon are presented based on scientific research. At the end, the author's conclusions were proposed, and similarities and differences in cooperation principles and politeness categories were revealed.
Key words: politeness principle, cooperation principle, category, G. Leech, maxims, communication

ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЯВЛЕНИЙ ЯЗЫКОВОЙ КООПЕРАЦИИ И ВЕЖЛИВОСТИ

Аннотация

В данной статье представлен теоретический анализ процессов сотрудничества и вежливости. Также, на основе трудов учёных, представлены определения принципа вежливости и особенности данного феномена. В конце предложены выводы автора, были выявлены сходства и различия принципов кооперации и категории вежливости.
Ключевые слова: принцип вежливости, принцип кооперации, категория, Дж. Лич, максимы, коммуникация

LINGVISTIK KOOPERATRASIYA VA HUSHMUOMALALIK HODISALARINING NAZARIY TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqolada hushmuomalalik va kooperatsiya jarayonlarining nazariy tahlili keltirilgan bo’lib, ularning o’xshash va farqli jihatlari aniqlandi. Shuningdek, husmuomalalik hodisasiga ko’p olimlar tomonidan keltirilgan ta’riflar va o’ziga hosliklar ochiqlandi hamda muallif tomonidan xulosalar taklif qilindi.
Kalit so’zlar: hushmuomalalik tamoyili, kooperatsiya tamoyili, kategoriya, Dj. Lich, maksimalar, kommunikatsiya

Kirish. Kommunikatsiya jarayonida kooperatsiyaga erishish suhbatdosh o’z oldiga qo’ygan asosiy maqsadlaridan biridir. Suhbat davomida hushmuomalali bo’lish, kommunikantga o’z hurmatini ko’rsatish kooperatsiyaga erishishning omillaridan biridir.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida “hushmuomala” so‘zi “muomalasi, gap-so‘zlari, hatti-xarakati yoqimli, xushfe'l”, “odob bilan yoqimli muomala qilish”, “xushfe'llik” degan ma'nolarni anglatishi keltirilgan [11]. Hushmuomalalik bu bir necha sifatlar yig‘indisi sanalib, insonda ijobiy taasurot o‘yg‘otish uchun hizmat qiladi va inson imidjiga ijobiy ta'sir ko‘rsatadi. Hushmuomalalik ko‘pincha, so‘zlarni kerakli vaqtda aytishni o‘z ichiga oladi. Ma'lumki inson o‘ziga nisbatan to‘g‘ri munosabatda bo‘lsagina, xushmuomalalikni namoyon qila oladi.

Hushmuomalalikni yana bir namoyon etuvchi jihat bu iloji boricha hech kimning ko‘nglini og‘ritmaslikka harakat qilishdir. Ko‘rib turganimizdek o‘zbek tilida hushmuomalalik ko‘ngil talabidir. Hushmuomalalik o‘zini tutish bilan bog‘liq. Zero, shunday ekan bunda adolatli qonun qoidalarga ko‘z yumish, dalillarni buzib ko‘rsatish emas balki, muloyim yumshoq muomala qilishdir. O‘zbek xalqiga xos fazilatlardan biri bu shirin so‘zli bo‘lishdir, o‘z o‘rnida shirin so‘zlilik xushmuomalalik bilan bog‘liqdir. O‘zbek xalqi muloqotda yaxshi so‘z va mehr-muxabbatga katta o‘rin beradi. Hushmuomalalik go‘zal sifatlardan biridir. Bu hadislarda ham keltirilgandir, aynan Baqara surasidagi misralarda keltiriladi: “... zero, shirin so‘z va hushmuomalalik ajr olib keladi va do‘zaxdan asraydi”. Shirin so‘zlik bo‘lish sadaqa berish savobiga ham tenglashtirilishi mumkin. Yaxshi so‘z, shirin kalom bilan do‘zax o‘tidan saqlanish mumkin deyilgan hadislarda. Hushmuomalalik va kamtarlik kishining chinakam ma'rifatliligidan nishonadir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. A.A. Xafizov ta'kidlaydiki, Yevropa davlatlari xalqi tushunchasi bo‘yicha hushmuomalalik kamtarlik bilan tenglashtiriladi va bu hislat tarbiya orqali shakllantiriladi [12]. A.V. Romanovaning fikricha hushmuomalalik to‘g‘ma yoki hayoti davomida orttirilgan bo‘lishi mumkin bo‘lib, u yaxshi tarbiya ko‘rgan, o‘qimishli, chiroyli muomalaga ega bo‘lgan kishining hislatidir [10]. O‘z navbatida kooperatsiya tushunchasida, inson fazilatlarini ko‘rsatuvchi hususiyat mavjud bo‘lmaganligi tufayli, kooperatsiyani konsepsiya sifatida ta'riflashadi. Ularning o‘hshash jihati shundaki, ikkisi xam suhbatning yengil va muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi tamoyillar ekanligidir.

Ingliz va rus kommunikativ madaniyatida hushmuomalalikning rolini tadqiq qilgan olima T.V. Larinaning fikricha, hushmuomalalik ijtimoiy norma va uning alohida lingvistik kategoriyasir [8]. Biz esa o‘z ishimizda ushbu kategoriyani pragmalingvistik jihatidan kooperatsiyaga ko‘ra farqini tahlil qilamiz.

Bu muammo bilan batafsil va mufassal ishlagan olim H.P.Grays, kabi olimlar tomonidan hushmuomalalik nutqiy muloqotning samaradorligini ta'minlovchi yetakchi omillardan biri deya tadqiq qilinadi. Dj. Lich, V.I. Karasik, Ye.Yu. Shenberglar ta'limotida esa hushmuomalalikni muloqotning podprinsipi yani kenja tamoyili [13] sifatida ko‘rib chiqqanligining guvohi bo‘lamiz. Aytish mumkinki, hushmuomalalik kommunikativ kategoriya sanalsa, kooperatsiya esa tamoyildir.

An'anaga ko‘ra xushmuomalalik hurmatni ko‘rsatuvchi mexanizmdir. Kooperatsiya esa hurmatni anglatuvchi emas, balki maqsadga intilishning yo‘lidir. (Qarang chizma-1)



Chizma-1. Kooperatsiyaga erishish mehanizmi

Olima Ye.V. Vichujanina hushmuomalalikni lingvistikaning ikki – pragmalingvistika va sosiolingvistika sathlarida o‘rganilish ob'ekti qilgan bo‘lib, pramalingvistikada etiket sifatida ko‘rilib, qabul qilingan me'yor sanalishini, sosiolingvistikada esa, so‘zlovchining yuzini va tinglovchining imidjini saqlab qolish tadbiri ekanligini ta'kidlab o‘tgan [4]. Shu kabi olima Belyutina ham hushmuomalalikni pragmalingvistika va sosiolingvistika paradigmalari tomonidan, kooperatsiyani esa faqat pragmalingvistika nuqtai nazaridan tekshirish mukin deya ta'kidlagan [2].

Olima Yu.I. Domoraskayaning ta'kidlashicha, hushmuomalalik nafaqat nutqiy muloqot etikasining mezoni, balki shahslararo o‘zaro ta'sirga asoslanadigan pragmatik omildir [5]. Shu o‘rinda Lichning yana bir fikrini keltirib o‘tmoqchimiz. Uning fikriga ko‘ra hushmuomalalik ijtimoiy muvozanatni saqlash uchun muhim omillardan biri bo‘lib, kooperatsiya bu regulyativ mavqega ega bo‘lgan bir formatdir.

Britaniyalik olim Djeffri Lich hurmat tamoyilga kooperativ muloqotning asosi deb qaraydi. Ye.A. Kuznesovaning yozishicha har qanday konstruktiv dialog olib borish uchun kooperativ muloqot maksimalariga rioya qilish zarur [7]. Ingliz tilshunosi Djeffri Lich fikriga ko‘ra, odamlar muloqot jarayonida foydalanadigan qoidalar majmui mavjuddir, va Lich hushmuomalalikni odamlarning muloqotini tartibga soluvchi pragmatik omil deb biladi. U hushmuomalalik tamoyilini ikki turga ajratib, (mutlaq va nisbiy) ularning o‘rtasidagi farqlarni o‘rganadi.

Kooperatsiya tamoyilini H.P. Grays ishlab chiqqani kabi Braun va Dj. Lich tomonidan hushmuomalalik tamoyili ishlab chiqilgan va unga quyidagi maksimalarni kiritilgan:

- takt maksimasi (suhbatdoshning shaxsiy chegaralaridan hatlab o‘tmaslik);
- olijanoblik maksimasi (suhbatdoshi ustidan hukmronlik qilmaslik, o‘z fikrini o‘tkazmaslik);
- ma'qullash maksimasi (ma'qullamaslikni minimal ifodalamoq);
- kamtarlik maksimasi (o‘zini ma'qullashni minimal ko‘rsatish);
- hamjihatlik maksimasi (o‘zi va suhbatdoshi o‘rtasidagi ziddiyatni minimal qilish);
- mayl maksimasi (o‘zi va suhbatdoshi o‘rtasidagi yoqtirmaslikni minimal qilish) [3]

Ingliz va rus kommunikativ madaniyatlarida hushmuomalalikning rolini tadqiq qilgan olima T.V. Larinaning fikricha hushtakalluflik ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin, [8] ya'ni unda binarlik mavjud [2]. Ye.Yu. Shpinberg ham o‘z ishida hushmuomalalikni – hushtakalluf, yengil hushtakalluf va hushmuomala emas darajalariga ajratib o‘rganadi [13]. Demak, hushtakalluflik darajalanadi, o‘z navbatida kooperatsiyaning darajalanishi adabiyotlarda uchramadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Britan olimi Dj. Lich fikricha yapon urf odatlari boshqalar tomonidan maqtovni yani komplimentni qabul qilishga ruxsat bermasligini keltirib o‘tgan [4]. Shunday ekan, hurmatning ko‘rsatkichi bo‘lgan xushmuomalalik har bir millatda turlicha va o‘ziga xos konseptni tashkil qiladi.

Tahlil va natijalar. Hushmuomalalik tamoyilining til va gender muammolarini yoritgan Lakoff fikricha, har qanday suxbat pragmatik kompetensiya qonuniyatlarini namoyon etadi. Shunday ekan, olim quyidagilarni talab darajasiga olib chiqadi: birinchidan fikrni aniq aytish, ikkinchidan esa hushmuomalalik normalariga amal qilgan holda, pragmatik kompetensiyaning oddiy qoidalariga bo‘ysinish [1]. Ushbu olim hushmuomalalikdan inson o‘zi haqida yaxshi tasavvur qoldirish uchun foydalanishini, ushbu kategoriyani qo‘llash insonlararo munosabatlarni yengillashtirishini ta'kidlab o‘tadi. Kooperatsiya esa o‘z navbatida ma'lum maqsadga erishish uchun qo‘llaniladi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, kooperatsiya hushmuomalikdan kengroqdir (Qarang chizma-2).

Chizma-2. Kooperatsiya va hushmuomalalikning sathlari

Kooperatsiya va hushmuomalalikning o‘xshash jihati ikkala tamoyillar ham nutqning hosil bo‘lishi va nutqning anglanishi (речипорождение, речивосприятие) uchun muhimdir. Ularning yaratgan tamoyillari ma'lum ramkalar sanalib, ushbu ramka doirasida xushmuomalalik dialogning yoqimli kechishi uchun kooperatsiya esa dialogning informativ kechishi uchun hizmat qiladi [10].

Kooperatsiya va xushmuomalalik tilning madaniyati bilan bog‘liq deb hisoblaydi olima Li Linszyuan. Uning fikricha Kooperatsiya tamoyili deganda ma'lumotning adekvat yetkazilishi, ya'ni kommunikatsiya ishtirokchilariga zarur bo‘lgan axborotni yetkazish tushuniladi, hushmuomalalik deganda esa boshqa kommunikantga hurmatni ko‘rsatish orqali namoyon bo‘ladi [9].

Quyidagi jadvalda biz hushmuomalalik va kooperatsiyaning o‘xshash va farqli jihatlarini keltirib o‘tdik.

Jadval-1.

Lingvistik kooperatsiya va hushmuomalalikning farqlanishi

		Kooperatsiya	Hushmuomalalik
1.	Tartibga soluvchi	-	-
2.	Konsepsiya (mohiyat)	+	-
3.	Ijtimoiy norma	-	+
4.	Maqsad	+	-
5.	Kommunikatsiya jarayonida foydalanilishi	Komunikativ kompetentlik	Kommunikativ kompetentlikka

		kerak	kiradi
6.	Tamoyillarning mutlaq va nisbiy turlari mavjudligi	-	+
7.	Koomunikativ kategoriya	-	+
8.	Konfrontasiyani oldini olish	+	+
9.	Maksimalarga ega	+ (4-ta)	+ (6-ta)
10.	Hurmatni ko‘rsatuvchi mexanizm	-	+
11.	Har-xil paradigmalarda o‘rganiladi	1-ta	2-ta
12.	Muloqot muvafaqqiyatli kechishini ta'minlaydi	+	+
13.	Darajalanishi mavjud	-	+
14.	Suhbatning ... ta'minlaydi	Informativ kechishini	Yoqimli kechishini
15.	Etik aspektda ko‘rib chiqiladi	-	+

Arman olimasi Ye.L. Yerzinkyanning tadqiqotlariga aoslanib shuni ta'kidlash mumkinki xushmuomalalikning lingvistik makromaydoni mavjuddir va unga modallik va shart mayllari kiradi [6]. Hushmuomalalik maydonining mazmuni semnatik kategoriyalarda namoyon bo‘ladi va rasmiy vositalar bilan ifodalanadi.

Xulosa va takliflar. Demak, kooperatsiya kommunikatsiyaning bir turidir va har bir halqda turli formalarda uchrashi mumkin. Hushmuomalalik esa kooperatsiyaga erishishning bir vositasidir.

ADABIYOTLAR

1. Bahaa-Eddin M. Mazid. The Politeness Principle: From Grice to Netiqette. Annals of Arts and Social Sciences (AASS) Academic Publication Council, Kuwait University. 2008. 61-p.
2. Belyutina Yu.A. Angliyskaya nevejlivaya rech'. AVTOREFERAT diss. na soisk. uch. st. kand. fil. nauk, Moskva – 2007
3. Volf E. M. Funksional'naya semantika osenki / vstup. st. N. D. Arutyunovoy, I. I. Chelishevoy. M.: Librokom, 2014. 284 s.
4. Vichujanina E.V. Osnovnie konsepsii vejlivosti v sovremennoy lingvopragmatike: Prinsip Vejlivosti Dj. Licha Major concepts of politeness in modern linguopragmatics: Principle of Politeness of G. Leech Yazik i kul'tura Sbornik statey XXIX Mejdunarodnoy nauchnoy konferensii (16–18 oktyabrya 2018 g.) Tomsk 2019.
5. Domoraskaya Yu.I. Razlichnie podxodi k opredeleniyu lingvisticheskoy vejlivosti Belorusskiy gosudarstvenniy universitet
6. Erzinkyan E.L. Lingvisticheskaya kategoriya vejlivosti: semantika i pragmatika Yerevan. Izdatel'stvo YeGU. 2018. 410 s.
7. Kuznetsova E.A. Konfrontasiya i kooperatsiya v rechevom povedenii Vladimira Poznera (na materiale avtorskogo tok-shou). Magisterskaya rabota. Yekaterinburg, 2017.– 183 s.
8. Larina T.V. Kategoriya vejlivosti v aspekte mejkul'turnoy kommunikasii AVTOREFERAT dissertasii na soisk. uch. st. doktora filologicheskix nauk Moskva – 2003 36 s.
9. Li Linszyuan' Snijenie kategorichnosti osenki i pragmaticheskaya funksiya osenki v tekste kinoresenzii Filologicheskie nauki. Voprosi teorii i praktiki. Tambov: Gramota, 2018. № 7(85).
10. Romanova A.V. Vejlivost' kak kategoriya rechevogo obsheniya i Mejdissiplinarniy Forum s mejdunarodnim uchastiem «Chelovek. Znak. Texnika» 359-363 s.
11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Ikki tomli. Z.M. Ma'rufov tahriri ostida. Moskva “Rus tili” nashriyoti, 1981
12. Hafizov A. A.Nutq akti nazariyasida xushmuomalalilik tushunchasini o‘rganishning yondashuvlari va modellari Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciencesVOLUME 2 | ISSUE 5. – 1148-1115 p.
13. Shenberg E.Yu. K probleme opredeleniya kategorii vejlivosti v lingvistike (na materiale rabot amerikanskix i britanskix uchenix) Vestnik Chelyabinskogo gosudarstvennogo universiteta. 2013. № 14 (305). Filologiya. Iskusstvovedenie. Vip. 77. 126–130 s.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811

Dildora G‘AYBULLAYEVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti tayanch doktoranti
E-mail:dildoragaybullayeva@gmail.com

O ‘zMU dotsenti I.O‘sarov taqrizi asosida

PHRASEOLOGY: FORMATION, DEVELOPMENT AND CONCEPTS

Abstract

This article is devoted to the theoretical foundations of phraseology which was considered as a branch of linguistics in the past, whilst, it is rapidly developing as a separate science in modern linguistics. Particularly, the stages and concepts of the development in phraseology are being discussed in this article.

Key words: phraseology, phraseological unit, idiom, phraseme, phraseological motivation, semantic combination, syntactic boundary.

ФРАЗЕОЛОГИЯ: СТАНОВЛЕНИЕ, РАЗВИТИЕ И КОНЦЕПЦИИ

Аннотация

Данная статья посвящена теоретическим основам фразеологии, которая является одним из специальных разделов языкознания и бурно развивается как отдельная наука в современном языкознании, в частности, этапам и понятиям развития.

Ключевые слова: фразеология, фразеологическая единица, фразеологизм, фразема, фразеологическая мотивация, смысловое сочетание, синтаксическая граница.

FRAZEOLOGIYA: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA KONTSEPSIYALARI

Annotatsiya

Mazkur maqola tilshunoslikning o‘ziga xos bo‘limlaridan biri bo‘lgan va hozirgi zamon tilshunosligida alohida fan sifatida shakllanib jadal rivojlanayotgan frazeologiyaning nazariy asoslari, xususan, rivojlanish bosqichlari va kontsepsiyalariga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologik birlik, idioma, frazema, frazeologik motivatsiya, semantik birikma, sintaktik chegara.

Kirish. Insoniyatning kommunikativ quroli bo‘lgan til necha asrlardan buyon mutaxassis olimlar, tilshunoslar tomonidan jadal o‘rganilib, tilshunoslik sohasida qator yutuqlarga erishilmoqda. Umumiy tilshunoslik tarkibida bo‘lgan leksikologiya bo‘limining kichik bir qismi sifatida o‘rganilgan frazeologiya ham bir qancha ilmiy izlanishlar, lisoniy tadqiqotlardan so‘ng alohida fan sifatida shakllandi. Albatta bu qadamning qo‘yilishi frazeologik tadqiqotlar uchun keng yo‘lni ochib berdi. Frazeologiyaning maxsus kategorial belgilariga ega birliklari hisoblangan frazeologizmlar tilda milliy madaniyatning o‘ziga xos oynasi bo‘lib, ular badiiy publisistik matnlarning ifodaviy ta’sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. Sir emaski, hech bir lisoniy birlik frazeologizmlardek kuchli obrazlilikni, yorqin ekspressivlik va emosionallikni nutqda shakllantirish va yetkazib berish xususiyatini o‘zida to‘liq mujassam eta olmaydi. Frazeologik birliklar har doim davr ruhi bilan mos tushuvchi ixcham, ma’no jihatidan salmoqdor bo‘lib, ta’sirchan nutqni yuzaga keltiruvchi muhim vositalardir. Shuning uchun bugungi kunda rivojlanib kelayotgan sistem tilshunoslikda turli tipdagi so‘z yasash qoliplari, semantik-funksional planda olingan frazeologizmlar orasidagi sistem aloqalarni o‘rganilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa, o‘z navbatida, frazeologiyaga doir tadqiqotlarning qanchalik dolzarb ekanligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Struktur jihatdan frazeologizm tashkil etuvchisiga ko‘ra qo‘shma leksema, so‘z birikmasi va gapga o‘xshaydi, ular ham lisonda barcha lisoniy birliklarga xos bo‘lgan umumiylik tabiatiga ega va nutqda xususiylik sifatida namoyon bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Frazeologiyaning alohida fan sifatida o‘rganilishi bir necha asrlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, rus tilshunosligida tadqiqotchilar XVIII asrdan boshlab frazeologik muammolarga qiziqa boshlashgan. Jumladan, M.V. Lomonosov rus adabiy tili lug‘atini tuzar ekan, bunda so‘zlar bilan bir qatorda “xalq maqollari”, ”idiomatizmlar” va frazemalar ham o‘z ifodasini topgan bo‘lishi lozimligini alohida ta’kidlagan edi. [11]. XX asrning 60-80 yillariga kelib chet el adabiyotida, jumladan ingliz adabiyotida ham frazeologiya sohasiga bo‘lgan qiziqish tez sur’atlar bilan o‘sdi. G‘arb hamda Amerika tilshunosligida shu vaqtga qadar frazeologiyaga bag‘ishlangan alohida asar yo‘q edi. O‘tgan asr boshlarida “frazeologiya” (grekcha “pharsis” fraza, ifoda “logos” ta’limot) termini ilk marotaba Sharl Balli tomonidan “Precis de stylistique” asarida qo‘llanildi. Shunday qilib, frazeologiya sohasining ilk tadqiqotchisi, shubhasiz, shvetsar-fransuz tilshunosi Sharl Balli hisoblanila boshlandi. U o‘zining “Stilistika ocherki”(1905) va “Fransuz stilistikasi”(1909) nomli asarlarida so‘z birikmalari, frazeologizmlarni tadqiq etuvchi maxsus boblar kiritgan. Shundan so‘ng, ko‘plab tilshunos olimlar frazeologik tadqiqotlarga chuqur qiziqish bildirdilar va frazeologik birliklarni tilning turli sathlarida tahlil qilib, frazeologizmlarning xossalarini har tomonlama o‘rgana boshladilar. Jumladan, V.A.Maslova, N.N.Boldirev, A.Vejbiskaya, Ye.M. Vereshagin, I.G. Kostomarov, V.V.Vorobyov, A.Ya.Gurevich, V.N.Teliya frazeologiya sohasini lingvokulturologiya sohasi bilan bog‘lab o‘rgandilar. G.Bakiyeva, A.M. Bushuy, Sh.Safarov, D.Ashurova va A.E.Mamatovlar esa frazeologizmlarning lingvopragmatik xossalarini ochib berishga harakat qildilar. Frazeologizmlarni semantik jihatdan G.V.Kolshanskiy, V.G.Gak, S.D.Kasnelson, D.O. Dobrovolskiy, V.P.Jukov, A.A.Ufimseva va boshqalar tahlil qilishgan. Shunday qilib, frazeologiya tez taraqqiy etayotgan tilshunoslik sohalaridan biriga aylandi. Bu sohada Sh. Rahmatullayev o‘zbek tilshunosligida o‘zining beqiyos o‘rniga ega. U o‘zbek tilshunosligiga “frazeologiya” va “turg‘un birikmalar” tushunchalari, ularni tahlil qilishning asosiy qonuniyatlarini olib kirgan bo‘lsa [2], frazeologiyani leksikologiyaning bir

qismi sifatida yoritib, frazeologizmlarning yasalishi, ma’nosi, motivasiyalanganlik darajasini o‘rganish sohalarini taniqli tilshunos I. Pinxasov o‘z tadqiqotlarida ko‘rib chiqdi [14]. Ma’lumki, tarjima nazariyasi va tarjimonlik sohalari frazeologizmlar bilan chambarchas bog‘liq. O‘zbek tilshunosligida G‘. Salomov FBlarni tarjima qilish masalalariga asosiy e’tiborini qaratdi va qator tadqiqotlar olib bordi. Frazeologizmlarning semantik-stilistik xususiyatlarini esa tilshunos olim Yo‘ldoshev tahlil etgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolani yozishda qator lingvistik manbalar va adabiyotlar asos qilib olindi va obyektivlik, ilmiylik, zamonaviylik tamoyillariga rioya qilindi. Bunda SH.Rahmatullaev, SH.Safarov, A.V.Kunin kabi olimlarning ilmiy xulosalari nazariy asos sifatida bayon etildi. Tadqiqot usullari sifatida mantiqiy, semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar . Frazeologiya sohasining muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya’ni avvaldan tayyor bo‘lmagan) so‘z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir. Idioma frazeologizmlar, frazeologik birikmalar va barqaror jumlalar (maqol va matallar, gapga teng boshqa frazeologizmlar) o‘rtasidagi muayyan tafovutlarga qarab ko‘plab tadqiqotchilar frazeologiyani 2 xil: tor va keng ma’noda tushunadilar. Uni keng ma’noda tushunilganda (L.P.Smit, V.P.Jukov, V.N.Teliya, N.M.Shanskiy) frazeologiya doirasiga maqol va matallar, folklorga xos barqaror jumlalar, ba’zi muloqot shakllari (salomlashish, xayrlashish jumlalari) ham kiritiladi. Lekin bu masala, ya’ni frazeologiyani keng ma’noda tushunish masalasi hanuz munozarali bo‘lib qolmoqda. Buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov frazeologiya tarkibiga barqaror jumlalar hamda qanotli so‘zlarni kiritilishiga qarshi bo‘lgan va “Maqol va matallar so‘z ekvivalenti bo‘la olmasligi, hamda shaklan gapga teng bo‘lgani uchun frazeologiyaning o‘rganish obyekti bo‘la olmaydi” deb aytib o‘tgan [5].

Bahs va munozaralardan kelib chiqib, frazeologiyaning asosiy vazifalari yoki masalalariga

a) frazeologik tarkibning izchilligini aniqlash va shu munosabat bilan frazeologizmning belgi xususiyatini o‘rganish;

b) frazeologizmlar omonimiyasi, sinonimiyasi, antonimiyasi, polisemiyasi va variantdoshligini tavsiflash;

c) frazeologizmlar tarkibida qo‘llanuvchi so‘zlar va ularga xos ma’nolarning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

d) frazeologizmlarning so‘z turkumlari bilan o‘zaro munosabatlarini oydinlashtirish hamda ularning sintaktik rolini aniqlash;

e) frazeologik birliklar tarkibida so‘zlarning yangi ma’nolari hosil bo‘lishini o‘rganish va boshqalarni kiritish mumkin.

Yuqorida sanab o‘tilganlar vazifalardan tashqari frazeologiya frazeologik birliklarni ajratish prinsiplarini, ularni o‘rganish, tasniflash va lug‘atlarda tavsiflash metodlarini ishlab chiqadi. Unda ishlab chiqilgan o‘ziga xos, xilma xil metodlar asosida tilning frazeologik tarkibi turlicha: struktur-semantik, grammatik, vazifaviy uslubiy asoslarga ko‘ra tasnif etiladi. Mashhur tilshunos olim, A.V. Kunin ijodidagi “Ingliz tili frazeologiyasi” asarining nazariy qismida ta’kidlanishicha struktur-semantik tasnif prinsipi asosiy prinsip hisoblanadi.

Frazeologiyani chuqur o‘rganish davomida, Sharl Balli so‘z birikmalarining to‘rt turini o‘zining birinchi kitobida farqlagan:

1) erkin birikmalar (les groupements libres) o‘z ma’nosida qo‘llaniladigan birikmalar;

2) odatiy birikmalar (les groupements usuels) nisbatan erkin bog‘langan birikmalar bo‘lib tarkibiga ba’zi o‘zgartirishlar kiritish mumkinligi bilan xarakterlanuvchi birikmalar;

3) frazeologik qatorlar (les series phraseologiques) bunda ikki va undan ortiq birliklar birikib yaxlit bir ma’no ifodalab keladigan, ammo ularning komponenetlari tartibiga o‘zgartirishlar kiritish mumkin bo‘lgan birikmalar;

4) frazeologik birliklar (les unites phraseologiques), bunda o‘z ma’nosini tamomila yo‘qotgan, komponetlari tartibi qat’iy bo‘lgan birliklarni kiritadi [3].

Ikkinchi kitobida esa Balli birikmalarning faqatgina ikki turini farqlaydi. U keyingi asari “Fransuz stilistika” sida odatiy birikmalar hamda frazeologik qatorlarni erkin birikmalar va frazeologik birliklarning tarkibiy qismi sifatida talqin qiladi. Tilshunoslikda Sharl Balli frazeologiya sohasida tadqiqotni boshlab bergan ilk tilshunos bo‘libgina qolmay, keyinchalik bu sohada juda ko‘p muvoffaqiyatlarga erishilishiga sababchi bo‘lgan olim hamdir.

Balli g’oyalari tufayli frazeologiya ilk marotaba tilshunoslikning alohida mustaqil bo‘limi sifatida rus tilshunosi Polivanov tomonidan tahlil qilingan. U frazeologiyani leksikologiya yoki stilistikaning tarkibiy qismi emas balki mustaqil tilshunoslik bo‘limi ekanligini quyidagicha asoslab bergan edi: “Leksikologiya so‘zlarning leksik ma’nolarini, morfologiya so‘zlarning grammatik ma’nolarini, sintaksis esa so‘z birikmalarining grammatik ma’nolarini o‘rganadi. Ammo alohida olingan, ko‘chma ma’noli so‘z birikmalarining, individual ma’nolarini o‘rganadigan tilshunoslikning bo‘limiga ehtiyoj sezilmoqda.” [15]. U tilshunoslikda frazeologiya ham, fonetika yoki morfologiya kabi muhim ahamiyat kasb etuvchi bo‘lim ekanligini ta’kidlab o‘tgan tilshunoslardan biridir. B.A. Larin Polivanovdan so‘ng frazeologiyani alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida o‘rganilishini taklif qilgan tilshunoslardan biridir. “Frazeologiya tilshunoslik bo‘limi sifatida hali “yashirin rivojlanish bosqichida”...u hali alohida fan sifatida rivojlanib bo‘lgani yo‘q...ammo uni alohida fan sifatida shakllanishi hozirgi zamon tilshunosligida katta zaruratni taqozo qilmoqda. Zero bu sohaga oid muammolarni ba’zan leksikografiya, ba’zida esa stilistika yoki sintasisda hal qilinishi hech kimga sir emas” deb ta’kidlab o‘tdi [12].

Frazeologiyani tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida buyuk rus tilshunosi V.V. Vinogradov ham ko‘rib chiqqan. U rus tilida frazeologik birliklarni semantik jihatdan klassifikatsiya qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga oid ishlari o‘z davri uchun yirik qadamlardan biri edi. Ammo uning asari nashr qilingandan keyin ham frazeologiya tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida tan olinmadi. Chunki Vinogradov frazeologiyani keng talqinda tahlil qilgan bo‘lib, uning frazeologiyaga oid asarlarida frazeologik birliklar va oddiy so‘z birikmalari orasidagi chegara belgilab berilmagan edi. Umuman V. V. Vinogradov tilda frazeologik birliklarni alohida belgilashni taklif qilmagan, frazeologik birliklarni so‘zlar bilan haddan ortiq yaqinligini hisobga olgan holda, o‘zining teoriyasini so‘zning grammatik tahlili doirasiga kiritgan edi [6]. Taniqli tilshunos, professor M. Dzhusupov frazeologiyani tor ma’noda tushunish kerakligini ta’kidlaydi hamda maqollar va matallar paremilogik birliklar ekanligini va ular paremiologiya sohasining o’rganilish obyektiga kiritilishi lozim deb hisoblaydi [8]. Shunday qilib frazeologiyaning alohida fan sifatida rivojlanishi juda ko‘p bosqichlarni bosib o‘tgan. Xususan, frazeologiyaning rivojlanish tarixini xronologik jihatdan uch davrga bo‘lish mumkin [9]:

Birinchi davr XVIII asrning o‘rtalaridan XX asrning 30-yillarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi, bu davr frazeologik tadqiqotlarning yo‘lga qo‘yilishi M.N. Lomonosov, A.A.Potebnya, F.F. Fortunatov, A.A. Shaxmatovlarning ilmiy faoliyati bilan bog’liq. Qayd etish o‘rinliki, birinchi davrda frazeologiya leksikografiya ya’ni amaliy lug‘atshunoslik obyekti bo‘lib xizmat qilgan. Bu davrda ko‘proq lug‘atlarda qayd ettirish, ularning ma’nolarining etimologiyasini izohlash, talqin etishga alohida e’tibor qaratilgan edi.

Ikkinchi davr, E.D. Polivanov, V.V.Vinogradov, S.I.Abakumov, G.K. Damilov, A.I Yefimov, A Y. Rojanskiy kabi tilshunoslar ilmiy faoliyati bilan bogliq holda rivojlandi va XX asrning 30-50-yillarini o‘z ichiga oladi. Bu davrni frazeologiya mustaqil lingvistik soha sifatida shakllanish davri deb ham aytish mumkin.

Uchinchi davr XX asrning 60-yillaridan boshlab hozirgi kungacha davom etadi. Bu davr frazeologik tadqiqotlarda turli metodlarni qo‘llanilishi, frazeologiya sohasining tez sur’atlar bilan rivojlanishi va ko‘plab frazeologiya mutaxasislarini yetishib chiqishi bilan xarakterlanadi. Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida bo‘limi sifatida shakllanishi haqiqatdan og‘ir yo‘llarni bosib o‘tdi. Ko‘plab tilshunoslar, jumladan, atoqli ingliz tilshunosi Smirnitskiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida ajralib chiqishini qo‘llab-quvvatlagan. U o‘zining “Ingliz tili sintaksisi” asarida bu soha haqida quyidagicha fikr bildirgan edi: ”Frazeologik birikmalar tadqiqi bilan leksikologiyaning bir qismi bo‘lgan frazeologiya shug‘ullansa ham, bu birliklar tilning sintaktik sathida tahlil qilinishi lozim. Agar bu sohani alohida bo‘lim ekanligi tan olinmas ekan, qanday qilib biz uni fan deb atay olamiz” [17].

Aslini olganda frazeologiyani tilning xazinasiga qiyoslasak bo‘ladi. Chunki aynan u xalqning tarixini, madaniyati va o‘ziga xosligini ko‘rsata oladi. Frazeologizmlar asosan millat an’analari-yu, urf–odatlarini, o‘zida mujassamlashtiradi. Ammo ingliz tili frazeologiyasida milliy an’analarni ifodalab keluvchi FB lar bilan bir qatorda internatsional frazeologizmlarni ham uchratishimiz mumkin. Ba’zi FB larda arxaik elementlar ham saqlanib qolgan. Frazeologizmlarni nutqni bezovchi vosita sifatida qarash mutloq noto‘g‘ri bo‘lib, ular ham boshqa til birliklari kabi yuqori informativ xususiyatga ega, tilda nominativ va kommunikativ funksiya bajaruvchi birliklardir. Frazeologizmlar universal til vositalari bo‘lib, ularsiz til mavjud emas.

Ingliz tili frazeologiyasida, ingliz va amerika tilshunoslari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar nisbatan kam foizni tashkil qilib, asosiy frazeologik muammolar ya’ni frazeologik birliklar va so‘zlarning o‘zaro munosabati, FB lar variantdoshligi, frazeologiyani o‘rganish metodlari, frazeologiyaning fan sifatida rivojlanishi kabi nazariy muammolar asosan rus tilshunoslari, A.V Kunin, V. V. Vinogradov, H.M. Shanskiy, T.N. Fedulenkovalar tomonidan ishlab chiqilgan e’tirof etish o‘rinlidir.

Bugungi kungacha o‘zbek frazeologiyasi ham izchil ilmiy asosda tadqiq qilinmoqda. Shavkat Rahmatullayevning “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati”, “O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari”, “Frazeologik birikmalarning asosiy ma’no turlari”, “Osnovnie grammaticheskie osobennosti obraznix glagolnix frazeologicheskix yedinits sovremennogo uzbekskogo yazika” kabi ilmiy adabiyotlari bilan o‘zbek frazeologiya maktabi rivojiga o‘z hissasini qo‘shdi.

O‘zbek frazeologiyasining yangi muvaffaqiyatlarga erishuvida B. Yo‘ldoshev, Abdumurod va Abdug’ofur Mamatovlarning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. B. Yo‘ldoshev frazeologizmlarning konnotativ ma’nolari, badiiy tasvir vositasi sifatidagi imkoniyatlarini atroflicha yoritib berdi. Abdumurod Mamatov frazeologik norma muammosini ko‘tarib chiqdi va frazeologik norma hamda frazeologik variant o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatib berdi. Abdug‘ofir Mamatov esa, o‘zining qator asarlarida frazeologik shakllanish muammolarini o‘rtaga qo‘ydi va uning paydo bo‘lish omillarini yoritib berdi. Frazeologik birliklarning muhim farqlovchi belgisi mazmuniy qayta shakllanish ekanligini ko‘rsatdi [13].

Frazeologik birliklarni ilmiy tadqiq qilishda tilshunoslikda keng tarqalgan distributiv metoddan foydalanish mumkin. Frazeologik birliklarning nutqda ishlatilish xususiyatlarini distributiv metod yordamida o‘rganilish orqali ularning struktural- semantik belgilari chuqurroq aniqlanadi. Undan tashqari frazeologik birliklarni o‘rganishda ularning semantik va struktural belgilarini tilning mazmun plani bilan uning ifoda plani munosabati borasida qaramoq zarur. Frazeologik birliklarning sostavini tekshirishda uning komponentlari o‘rtasidagi birikish turlarini, birikuvchi so‘zlarning tabiatini valentlik metodi asosida qaramoq zarur [1]. Frazeologiya nihoyatda murakkab soha bo‘lib, uning tadqiq etish barobarida o‘ziga xos tadqiqot usullaridan, shuningdek boshqa sohalar, xususan, leksikologiya, grammatika, stilistika, fonetika, til tarixi, falsafa fanlari tarixi, mantiq hamda mamlakatshunoslik fanlaridan ham xabardor bo‘lish lozim. Chunki frazeologiya bevosita yuqorida sanab o‘tilgan fanlar bilan aloqador.

Ma’lumki, har qanday FB so‘zlardan tashkil topgan bo‘ladi. So‘z esa leksikologiyaning tadqiqot ob’yekti hisoblanadi. Leksikologiya va frazeologiyaning o‘zaro bog‘liq sohalardan ekanligi shunda namoyon bo‘ladiki, FB komponentlari bo‘lmish so‘zlar tahlilida, albatta, leksikologiyaga oid ma’lumotlarga murojaat qilinadi. Shuningdek, ko‘p yillar davomida frazeologiyani leksikologiyaning tarkibiy qismi sifatida o‘rganilishi ham bu ikki soha bevosita bir-biri bilan aloqadorligini isbotlaydi [9].

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, frazeologik birliklar tilning lug‘at tarkibini tashkil qilguvchi, mazmunan bitta so‘zga teng birliklar bo‘lgani uchun ko‘p yillar davomida leksikologiya tarkibida o‘rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta’kidlash lozimki, FB larning so‘zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan masalalardandir. Sharl Balli ta’limotiga binoan FB larning eng muhim belgisi yagona bir so‘z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmasligidadir. Bunday so‘zni Sharl Balli so‘z-identifikator deb atagan va bunday o‘zgarishlarni FB larning ichki yaxlitlik belgisi sifatida talqin qilgan. FB lar g‘arb tilshunoslari ta’kidlaganidek, nutqni yanada ta’sirchan, jonli va ifodali bo‘lishi uchun xizmat qiladi. Sinonim so‘zlar nutqning otashin, rang barang bo‘lishini ta’minlaganidek, FBlar millatning urf-odatlarini, an’analarini, tarixi-yu hozirgi kunini o‘zida aks ettiradi. FB lar tahlilida xarakterli jihat shundaki, ular erkin birikmalardan farqli ravishda sintaktik yaxlit, semantik o‘zgarmas birliklar hisoblanadi [10].

Xulosa. Shunday qilib, frazeologiyaning alohida fan sifatida tan olinishi bir necha bosqichlarni bosib o‘tgan bo‘lsada, hozirda frazeologiya o‘zining ichki tuzilishi-yu, tadqiqot masalalariga ega bo‘lgan alohida tilshunoslik bo‘limi sifatida shakllanib bo‘ldi. Mazkur sohaning o‘rganilish obyekti kengaydi, fan sifatida maqsad va vazifalari aniq qilib qo‘yildi. Buning samarasi o‘laroq bugungi kunda ko‘plab ilmiy izlanishlar yaratildi, qator masalalar o‘z yechimi topdi. Ammo shuni ham ta’kidlash joizki, frazeologiya sohasida ko‘plab muammolar hali o‘z yechimini kutmoqda. Frazeologik birliklarni o‘rganish davr ruhiyatiga mos rivojlanishda bo‘lganligi sababli frazeologizmlarning turli mezonlar asosida klassfikatsiyalanishi, mavjud klassifikatsiyaga ko‘ra chuqur tahlil etilishi, frazeologizmlarning turli tillardagi qiyosiy tahlili, zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari bo‘yicha frazeologik birliklarni tillar kesimida ko‘rib chiqish, ularni tashkil etuvchi komponentlariga ko‘ra kognitiv, kognitiv-semantik, semantik-stilistik xossalarini aniqlash va yoritish masalalari aynan shunday, o‘z yechimini topmagan muammolar qatorida turibdi.

ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. va boshq. Umumiy tilshunoslik.-Toshkent: O‘qituvchi, 1979. – 115 b.

2. Rahmatullaev Sh. O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. (Frazeologik polisemiya, sinonimiya, antonimiya va omonimlik): Filol.f.doktr...diss. – Toshkent: O‘qituvchi, 1966.- 264 bet.
3. Балли Ш. Французская стилистика. М.: Изд-во Иностр. лит-ры, 1961.
4. Бушуй А.М. О методике организации фразеологической работы в системно- уровневом плане.//Междувузовский сборник научных трудов. Выпуск-4.–Т., 2000.
5. Виноградов В. Основные типы лексикологических значений слова//Избр. Труды. – м.: Наука, 1977, с 189.
6. Виноградов В.В. Лексикология и лексикография. Избранные труды. М.: Наука, 1977
7. Гак В.Г. Национально-культурная специфика меронимических фразеологизмов// Фразеология в контексте культуры. М. Наука. 1999
8. Джусупов М., Кудакаева А.З., Мажитаева Ш. Фразеология русского языка: лингвистические и методические проблемы. - Ташкент: Фан, 2008.
9. Yuldoshev B. O‘zbek frazeologiyasi va frazeografiyasining shakllanishi hamda taraqqiyoti.- Samarqand: SamDU, 2007.- 52 b.
10. Кунин А.В. Английская фразеология (теоретический курс). – Москва: Издательство «Высшая школа», 1970. –344 с.
11. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс, 2005. –466 с.
12. Ларин Б.А. Очерки по фразеологии // Очерки по лексикологии, фразеологии и стилистике: Уч. зап. /ЛГУ. — Ленинград, 1956. — № 198. –202 с.
13. Маматов А.Э. Вариантлаш фразеологик шаклланишнинг воситаси сифатида // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1999
14. Pinxasov Y.D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. - Leksikologiya va frazeologiya. – Toshkent, 1969. – 145 b.
15. Поливанов Е.Д. Введение в языкознание для востоковедных вузов. – Ленинград, 1928. –60 с.
16. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. - Жиззах: Сангзор, 2006
17. Смирницкий А.И. Лексикология английского языка. – Москва, 1956. –127 с.
18. Уфимцева А.А. Слово в лексико семантической системе языка. – М.: Наука, 1968

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 809:494.3

Gulshanoy JURAYEVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi
E-mail: jurayevagulshanoy1@gmail.com

NavDPI f.f.f.d (PhD) M.Norqobilov taqrizi asosida

THE MATTER OF LANGUAGE AND ITS POLITICAL-STRATEGIC IMPORTANCE IN MODERN EDUCATIONAL PHILOSOPHY

Annotation

The article is about Fitrat's life, his creative works and performance, as well as his coursebooks "Sarf" (morphology), "Nahv" (syntax). Also, It informs that Fitrat was an editor of 'Hurriyat', a leader of the 'Djadid' magazine in Turkistan and a member of the Central Committee of the Young in Bukhara.

Key words: Djadid, coursebooks "Sarf" (morphology) and "Nahv" (syntax), magazine "Sadoi Turkistan" , tragedies in Turkistan, Turkish communists, magazine "Tong" (Morning).

ПРОБЛЕМА ЯЗЫКА И ЕГО ПОЛИТИКО-СТРАТЕГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ В ДЖАДИДСКОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ФИЛОСОФИИ

Аннотация

В статье идет речь о жизни, творчестве и деятельности Фитрата, а также о его учебниках «Сарф» (морфология), «Нахв» (синтаксис) и редакторе свободы Фитрата, заведующем журналом «Джадиды» в Туркестане, о члене центрального комитета молодых бухарцев.

Ключевые слова: Джадид, «Сарф» (морфология), «Нахв» (синтаксис), учебники, журнал «Садои Туркестан», трагедии в Туркестане, турецкие коммунисты, журнал «Тонг».

JADID TA’LIM FALSAFASIDA TIL MASALASI VA UNING SIYOSIY- STRATEGIK AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada Fitrat hayoti, ijodi va faoliyati hamda “Sarf” (morfologiya), “Nahv” (sintaksis) nomli darsliklari va Fitratning hurriyat muharriri, Turkistondagi jadid jurnalining rahbari, yosh buxoroliklarning Markaziy qo‘mitasining a’zosi bo‘lganliklari haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Jadid, “Sarf” (morfologiya), “Nahv” (sintaksis) darsliklar, «Sadoi Turkiston» jurnali, Turkistonda fojialar, Turk kommunistlar, «Tong» jurnali.

Kirish. Millat taqdiri fidoyilaridan biri Abdurauf Abdurahim o‘g‘li Fitrat hayoti, ijodi va faoliyatini o‘rgangan kishi nazarida u serqirra istedod sohibi: davlat hamda jamoat arbobi, adib, faylasuf, ma’rifatparvar, filolog va musiqashunos sifatida namoyon bo‘ladi. Allomaning o‘zbek tili oldida turgan o‘sha davrdagi muhum masalalarni ilmiy- nazariy va amaliy jihatdan hal qilish yo‘lida samarali faoliyat ko‘rsatgani qator ishlarda qayd etilgan [1].

Moskvadagi Lazerevlar nomidagi Sharq tillari institutida va Sankt-Peterburg akademiyasida ishlab, professor ilmiy unvoniga sazovar bo‘lgan, Samarqand pedagogika akademiyasida kafedraga mudurlik qilgan, Til va adabiyot institutida yoshlarning ilmiy faoliyatiga murabbiylik etgan ustoz qalamiga mansub ishlarning ona tili ta’limi bilan bog‘liq jihatlari ham diqqatga sazovordir. Darhaqiqat, olimlar o‘rinli ta’kidlaganlaridek, Fitrat adabiyotshunoslik va tilshunoslikka doir teran xulosalarga boy ilmiy asarlar bilan birga, bir necha darsliklar ham yaratgan bo‘lib, ulardagi istilohlarning anchasi, bularga berilgan izohlar shu kunlarda ham e’tiborga molik. Chunonchi, “Sarf” (morfologiya) (1924) darsligida yasama sifatlar haqida to‘xtalganda u yozadi: «12. Yozma, *bosma, qo‘shma, borma, terma* kabi buyruqg‘a “ma-ma” qo‘shilib bir narsaning bir turli ishlatilganligini birdiradi sufat yasaladir: yozma kitob (yozilg‘an kitob), bosma kitob (bosilg‘an kitob), qo‘shma ot (qo‘shilg‘an ot)”. Bu holatga sahifa ostida keltirilgan izoh (“Kitobni yozma” deganda “yozma” so‘zi fe’ldir. “Yozma kitob” deganda, yozma so‘zi sufatdir. Bu ikkisi orasida ayirma bosim (ударенность)dadir (bosim hozirgi urg‘u ma’nosida - SH.N.). Sifat bo‘lg‘anda bosim “ma-ma” ning o‘zida bo‘ladir. Fe’l bo‘lg‘anda “ma-ma” dan burung‘i bo‘g‘unda bo‘ladir.)» [2,149] diqqatga sazovor bo‘lib, hozirgi tilshunosligimizda ham xuddi shunday tushuntirilmoqda.

“Nahv”(sintaksis) (1924) da bosh so‘zlar (gapning bosh bo‘laklari SH.N)dan kesim haqida o‘qiymiz:

«1. Qushlar bog‘chada ertalab...2. Cho‘lpon yaqinda yaxshi bir she’r...Yuqoridagi ikki so‘z qo‘shimidan hech bittasi gap bo‘la olmaydir, bulardan tugal “uy” anglashilmaydir. Bu tubandaki so‘z qo‘shimidan qay birini eshitgach so‘z kesildi, gap bitdi deb o‘ylaymiz. Gapning so‘ngini kutamiz. Bularni tugatmak, gap qilmoq uchun birinchisiga sayraydir, ikkinchisiga yozdi so‘zlarini qo‘shib:

1. Qushlar bog‘chada ertalab sayraydir2. Cho‘lpon yaqinda yaxshi bir she’r *yozdi. deymiz,* anglatmoqchi bo‘lganimiz o‘yni tugallatamiz. Gap tugaladir, so‘z kesiladir. Gapning tamomlanib so‘zning kesilgan shu *sayraydir* ham yozdi so‘zlari bilan bo‘ldi. Shuning uchun yuqoridagi ikki gapning oxirida *yozdi, sayraydir* so‘zlariga “gapning kesim so‘zlari” yo sodacha “kesim” deymiz[2]. Kesim atamasining bundan tushunarli, bundan ixcham, bundan ma’qul izohini o‘sha davrdagi boshqa biror manbada uchratmadik. Muallif kesimning gapdagi mavqei haqida aytgan xulosa ayniqsa muhum:

«Biroq har vaqt tildagi gapning ega so‘zi bo‘lmaydir. Biz mana shunga tayanib ega, kesim so‘zlarini ta’rif qilg‘anda yangiliq yasadiq. Boshda egani emas, kesimni ta’rif qildik» [2]. Bu yangilik keyingi tadqiqotlarda ham o‘z aksini topdi: “Сказуемое в узбекском языке, будучи главным членом предложения, более самостоятельно, чем подлежащее” ”[3]. Ma’lum bo‘ladiki, so‘nggi paytlarda yangilik deb hisoblangan bu narsa ilgari aytib qo‘yilgan ekan.

Har qaysi besh martadan chop etilgan darsliklardan keltirilgan ko‘chirmalarning o‘ziyoq muallifning til hodisalarini nihoyatda mohirlik bilan izohlaganini namayon etadi. Shunga qaramay, ilm odobini qalbiga jo qilgan va unga amal etgan Fitrat mazkur kitoblarini “O‘zbek tili qoidalari to‘g‘risida bir tajriba” deb ataydi. “Sarf” ning “Bir-ikki so‘z” ida buni ta’kidlab, “U bir saboq bitigi emas, mutolaa kitobidir. Tilimiz to‘g‘rusida tugal bir narsa emas, boshlang‘ichdir; ta’lif (ijod qilingan, yaratilgan) emas, tajribadir”, desa; “Nahv” ning “O‘qug‘uchilarg‘a” sida “men bu tajribamni yozg‘anda ham Toshkent til mualliminligi bilan mashhur bo‘lg‘an o‘rtoqlarim bilan anglashmoqqa, kelishmakka tirishdim” deydi. Bu kamtarona izohlar darslik –qo‘llanmalar yozadigan, til o‘qitish usulidan tadqiqot olib boradigan hamkasblarga ibrat – saboq bo‘lib qolaveradi.

Behbudiyning fikrlaridan biz hamma turkiylarning ildizi Turkistondaligini ko‘rishimiz mumkin. Va bu ideologiya 1914-yili “Sadoi Turkiston” dek muhum jurnallaeda tarqaldi. Bu jurnal 2 ta aspektga bo‘linadi:

Muharrirlar Turkiy badiiy tilning orfografiyasini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishdi hamda og‘zaki va badiiy til o‘rtasida interval tuzishdi. Ular Rossiya hukumati tomonidan bosib olingan Turkiston (territoriyasini) maydonini aniqlab olishdi va Turkiston aholisini qiziqishlarini muhofaza qilish uchun o‘zlarining liniyalarini ajratib olishdi.

Fitratning fikricha, turkistonliklar bir-birlaridan quyidagicha farq qilishadi: Buxoro Turkistonning ajralmas qismi bo‘lsada, Fitrat “Munozara” da diniy va territorial jihatdan unchalik o‘xshashlik yo‘q deb yozadi:

“Fan – madaniyatsiz ruslarni kavkaz, Turkiston, qirg‘iz, tatar musulmon qullarining boshlig‘i qilib qo‘ydi. Agar siz Turkiston musulmoni, o‘z vaqtingizni majburiy ma’nosiz o‘qishga sarflayotgan bo‘lsangiz va foydali ilmlardan mahrum bo‘layotgan bo‘lsangiz, yaqin kelajakda islom Turkistonda izsiz yo‘qolib ketadi va tarixdan o‘chib ketadi”.

1913-yili Toshkentda Fitratning “Munozara” asarining o‘zbek tilidagi versiyasi ikki pardali asar tarjida nashrdan chiqdi. 1914- yili iyunda “Sadoi Turkiston” da nashrdan chiqqan vatanparvarlik ruhidagi she’ri sabab Rossiya hukumati tomonidan ushbu jurnal soni musodara qilindi. 1914- yildagi Fitratning Turkiston musulmonlariga ajoyib ta’siri natijasida mustamlakachilarga nisbatan isyon uyg‘otdi.

Bolsheviklar bilan birga yosh Buxoroliklar tomonidan 1918- yili Buxoro amirligiga qarshi rejalashtirilgan qo‘zg‘olon amalga oshmay qoldi. Bir qancha islohotchilar va aybsiz Buxoro ulomalari tomonidan qatl qilindi. Fitrat, F.Xo‘jayev (1896-1938) va A.Muhiddinov (1892-1934) kabi omon qolgan inqilobchilar xavfsiz joy izlab sovet Turkistonga borishga majbur bo‘ldilar. Bu yerda ular sinfiy kurashdan ko‘ra mustamlakachilik siyosatidan norozi bo‘lgan Turkiston kommunistlari bilan yaqin aloqada bo‘ldilar. Ular sovet hokimiyatining kamchiliklardan xoli emasligini bilsalarda, unga milliy o‘zlikni anglashga erishishga yordam beradigan yagona vosita sifatida qaraydilar.1920-yilgi musulmon kommunistlarining III regional (hududiy) konferensiyasida sovetlar Turkistonining Markaziy Ijroiya qo‘mitasi raisi T.Risqulov (1894-1943) quyidagilarni ta’kidlab o‘tadi: “Turkistonda sodir bo‘lgan fojialarga kim aybdor deb so‘raydigan bo‘lsak, bunga bir tomondan proletariat bayrog‘ini jabrdiyda xalq qoni bilan bulg‘agan isyonchilar ba boshqa tomondan esa o‘z xalqi ichidagi amaldorlarga javobgar bo‘lgan ilmli boylar va mutaassib mulla-ulamolar, deb javob bersa bo‘ladi. Endi esa turk kommunistlari bu tarixiy xatoni, asosan, Turkiston xalqi xatosini tuzatishi kerak. Kommunizmning qizil bayrog‘i ostida to‘plangan Turk ishchilari, vakllari – asl inqilobchilar Birlashgan kommunist tashkilotini tuzdilar. Turk kommunistlari nafaqat fabrikachi, temir yo‘lchi proletaristlarning manfaatini himoya qilishi, balki ming km atrofidagi qumli cho‘llarda va chekka qishloqlarda yashovchi xalqning madaniy-iqtisodiy ehtiyojini ta’minlashni ham o‘zining burchi deb hisoblardilar.

Ayni paytda yosh Buxorolik migrantlar (ko‘chmanchilar) Rossiya konslagerlaridan ozod bo‘lgan Ziyo Ko‘kal mafkurasiga asoslangan Pan – Turkist kayfiyatidagi sobiq Usmoniy amaldorlari bilan munosabat o‘rnatdilar. Bu bilan ular yosh buxoroliklarni ma’lum bir siyosiy mafkura bilan ta’minladilar deb tushunmasliklari kerak. Ular bilan 1920-1921 yillarda ishlagan To‘g‘onning fikricha, jahon urushi davrida nashr qilingan Usmoniy turklarning siyosiy adolati va 1921- yil iyunda Buxoro xalq Respublikasiga tashrif buyurgan, Buyuk Turk Assambleyasi a’zosi bo‘lgan Ismoil So‘fi yosh buxoroliklarning siyosiy yo‘nalishiga salmoqli hissa qo‘shdi. Bu bizning oldinni ko‘ra bilgan Usmoniylarning maqolasini o‘qishingiz kerak bo‘lishi mumkin.

1918- yil ziyo Ko‘kalp «Йени межмуа» jurnaliga «Rossiyalik Turklar tomonidan nimalar qilinishi kerak?» nomli esse yozdi. Bu esseda u kommunist ijtimoiy – iqtisodiy tizimiga asoslangan Birlashgan Mustaqil Musulmon Turk davlatini barpo etish strategiyasini ta’kidlab o‘tgan Turk xalqining turli guruhlarining har qanday istagini rad etib ularning birdamlashishiga urg‘u berdi va musulmon Turk birligini tuzishni talab qiladi. Davlat tili barcha turk xalqlariga umumiy bo‘lgan Usmoniy turkcha bo‘lishi zarur. Markazlashtirilgan ma’muriy tizim va milliy armiyani tuzishda va muvaffaqiyat qozonishda zarur shart-sharoitini yarata bilgan sohibqiron Amir Temur timsolini oldi. Uning romantik g‘oyalari Anvar poshsho (1881-1922) ning kelajak sarguzashtlari bilan tasvirlanadi. 1920-yil oxirlarida yosh Buxoroliklar Usmoniylar harakati kuchli ta’sirlanganligini ta’kidlab o‘tgan. Turkiston musulmon kommunistlari o‘zlarining Davlat va Partiya ko‘rsatmalarini oldinga surishlaridan avval 1920-yil boshlaridagi “Xalqaro ishchilar birdamligi va zulm ko‘rgan xalq manfaatlari ” uchun xizmat qiladigan “Turk Sovet Respublikasi” va “Turk xalqi kompartiyasi” yosh buxoroliklar ulkan jo‘shqinlik bilan o‘zlarini ular bilan birga deb hisoblaydilar. Bu davrda Fitrat 1919-yili yangi tug‘ilgan Buxoro kompartiyasiga qo‘shildi va keyinroq esa o‘zbek ijtimoiy-siyosiy va amaliy-badiiy “Tong” jurnaliga muharrirlik qildi. Asosiy maqsad ommani ma’rifatdan xabardor qilish edi. Birinchi nashrda ular: “Ma’rifatsiz har qanday inqilob sado bermaydi. Sharq inqilobiga shon-sharaflar bo‘lsin”. Ayni paytda u Turkiston Musulmon Hududiy byurosi bo‘lgan “Ishtirokiyun” byurosi bilan chuqur munosabat o‘rnatgan edi. Bu byuro 19-martda inqilobdan so‘ng partiya va sovet hukumati tomonidan musulmon xalqining e’tiboridan chetda qolganligining oldini olish maqsadida tuzildi. Moskvada Turkiston hududiy qo‘mitasi va musulmonlar tashkilotining Markaziy Byurosi birlashdi. A.Muhiddinov bu yerga Turkiston Musulmonlari Byurosidan aloqa vaziri sifatida tashrif buyurdi. T.Risqulov boshchilida musulmon byurosi kompartiya musulmon byurosi ko‘rsatmalariga bo‘ysunmay quydi. Turkiston kompartiyasining ichki tashkilotiga aylanishdan ko‘ra uning hukumatiday o‘zini tutdi. Ushbu organ mustaqil musulmon kommunistlar guruhining tashkiloti edi. Fitrat boshchiligidagi “Tong” jurnali, bolsheviklar ularning faoliyatini to‘xtatishiga qadar ushbu organning adabiy harkatini ta’minlash bilan shug‘ullandi.

ADABIYOTLAR

1. Saidov Y. Jadidlar va milliy til. T.: Fan, 2006 ва 34-b.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. IV jild. T.: Ma’naviyat, 2006, 180-b.
3. Сафаев А.С. Семантико-синтаксическое членение предложения в узбекском языке. Т.: Фан, 1977, с.24.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 8 1751

Ibrohimjon ZUFAROV
"O‘zbekiston" teleradiokanali Andijon viloyati bo‘yicha muxbiri
E-mail:zufarov23@mail.ru

FarDU katta o‘qituvchisi f.f.f.d. Sh.Yusupova taqrizi asosida

LINGUISTIC RESPONSIBILITY OF TV PRESENTERS

Annotation
This article discusses the language and style of television, the responsibility of the presenter, speech competence and literacy, linguistic shortcomings that are allowed in their speech.
Key words: press, radio, television, Internet, programs, language standards, media language and style, announcer, broadcaster, presenter.

ЯЗЫКОВАЯ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ТЕЛЕВЕДУЩИХ

Аннотация
В этой статье рассматриваются язык и стиль телевидения, ответственность ведущего, речевая компетентность и грамотность, а также языковые недостатки, допускаемые в их речи.
Ключевые слова: пресса, радио, телевидение, интернет, программы, языковые нормы, язык и стиль СМИ, диктор, сухандон, ведущий.

TELEBOSHLOVCHILARNING LISONIY MAS'ULIYATI

Annotasiya
Ushbu maqolada televidenie tili va uslubi, boshlovchi mas'uliyati, nutqiy kompetentligi va savodxonligi, ularning nutqida yo'l qo'yilayotgan lisoniy kamchiliklar xususida so'z boradi.
Kalit so‘zlar: matbuot, radio, televidenie, Internet, dasturlar, til me'yorlari, OAV tili va uslubi, diktor, suxandon, boshlovchi.

Kirish. Ommaviy axborot vositalari zalvorli ta'sir kuchiga ega ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Bugungi taraqqiy etgan jamiyatni matbuot, radio, televidenie va internetsiz tasavvur qilish mushkul. Bu vositalar axborot uzatish, mada-niy-ma'rifiy, ko'ngilochar dasturlar orqali qabul qiluvchilarni olam va zamon bilan tanishtirish, xalq ongiga ta'sir qilish kabi qator vazifalarni bajarmoqdaki, sanab sanog'iga etish qiyin. Bir muddat avval teleradioboshlovchilar uchun muayyan qonun-qoidalar, keskin talablar va me'yorlar mavjud edi. Ular ma'lum ma'noda madaniyat tashuvchilari, xalqni oldinga yetaklovchi ma'naviy kuch hisoblanar, o'zlarining kasbiy mahorati, tashqi ko'rinishi, odobi, nutqiy savodliligi, ifodali va ravon, bexato so'zlay olishi bilan tomoshabinlarni o'ziga tortar edi.

OAV tarkibiga nodavlat sektorning kirib kelishi natijasida adabiy til me'yorlariga amal qilish, janr imkoniyat-lari borasidagi o'zgarishlar, axborot ta'sirchanligini oshirish maqsadida erkin ijodiy muhitning yangicha talablari kucha-yishi matbuot tili va uslubining zamonaviy tendentsiyalari shakllanishiga olib keldi. Bu esa OAV tili va uslubiy xususiyatlarini yangicha talqinlar asosida tadqiq qilishni taqozo etishi, tabiiy.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ma'lumki, jahon tilshunosligi va jurnalistikasi, xususan, rus tilshunosligida televidenie, radio va bosma matbuotning jamiyatda tutgan o'rni, mavqei, tili va uslubi sohasida muayyan tadqiqotlar yaratilgan[1]. O'zbek tilshunosligida publisistik uslub doirasida matbuot tili va uslubini o'rganish, OAV janrlari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qilish alohida yo'nalish sifatida shakllanib kelgan [2] bo'lsa-da, televidenie tili va janr xususiyatlari, suxandon nutqining lingvistik jihatlari kabi masalalar maxsus tadqiq etilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Bugungi kunda O'zbekistonda ham ko'plab davlat va xususiy kanallar, viloyat telekanallari hamda rang-barang teledasturlar mavjud. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalarining hozirgi davr kishilik jamiyatidagi o'rni va roli yangi bir bosqichga ko'tarildiki, Internet muloqoti gipermakonida endi u bir millat yoki mamlakat chegaralari bilan qanoatlanmay, dunyo miqyosidagi yagona axborot maydoniga aylandi. Shunday bo'lsa-da, milliy OAVlar hali-hamon o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki ularning xalq ichida ommalashuvi, o'z o'rniga ega bo'lishi va raqobatbardoshliligi yanada muhim bo'lib qoldi. Bu esa materiallar rang-barangligi va sifati yuqori bo'lishini talab qiladi. Shuning uchun ham so'nggi paytlarda teleboshlovchining nutqiy faoliyatini o'rganish juda muhim va dolzarb mavzuga aylandi. Albatta, dastur muvaffaqiyati, tomoshabinlar e'tiborini qozona olishi ko'rsatuv muallifi, rejissyori bilan bir qatorda ko'p jihatdan uning boshlovchisiga ham bog'liqdir. Zero, teleboshlovchi nutqi – muayyan axborotlarni yoki muallif fikrini tomoshabinga yetkazuvchi matn sifatida dastur ma'no va mazmunini anglab etish uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Xususan, ko'rsatuv va eshittirishlar samaradorligi ko'p jihatdan boshlovchining dolzarb mavzuni tanlashi, ijtimoiy muammoni to'g'ri qo'ya olishi, "nutq madaniyati, kadrda o'zini tutishi, so'z va jumlalarni to'g'ri talaffuz etishi, televizion imiji, auditoriya bilan samarali telemuloqot qilish qobiliyati, axborot uzatishdagi mahorati, hatto kiyinish madaniyatiga bog'liq"[3,6]. shu nuqtai nazardan keyingi yillarda televidenie tili va uslubining zamonaviy talqinlari, nutq madaniyati, boshlovchi mahorati masalalari o'rganila boshlandi[4].

Suxandon [f.t. - so'zni biluvchi; silliq, ravon gapiruvchi; yozuvchi, shoir; notiq]

1. Gapga chechan, so'zamol; notiq. Quloq soling suxandonning tiliga, bulbul oshna bo'lar bog'ning guliga. Ergash Jumanbulbul o'g'li.

2. Badiiy so'z ustasi. Shoh al-Forobiyga dedi: Sen donishi suxandonsan, bilamiz, hazil-mutoyiba qilmoqdasan. A.Muxtor, Chinor.

3. Ayn. diktor. Radio suxandoni[5].

Diktor [lot.diktor - so'zlovchi, gapiruvchi]. Radio yoki televizor orqali uzatiladigan tayyor matnlarni mikrofon oldida

yoki telekamera qarshisida o'qib eshittiruvchi xodim; suxandon. Radiouzel diktori.

Radiodan tanish diktorning ovozi tantanali yangramoqda edi. S.Ahmad, Ufq[6].

Boshlovchi. 1. Biror narsa, harakatni boshlab beruvchi yoki unga undovchi.

2. Boshlab boruvchi, yetakchi. Aql boshlovchi, tana ishlovchi. Maqol.

3. Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni olib boruvchi shaxs[6].

Ushbu izohlarda "suxandon" va "diktor" atamalari aynan bir xil ma'no bildiradi deyilgan bo'lsa-da, "suxandon" leksemasi nisbatan kengroq ma'noga ega bo'lib, tayyor matnni efirda o'qib beruvchi vazifasini ifodalashi bilan birga "hozirjavob", "o'rinli va ta'sirchan so'zlovchi" kabi munosabat semalarini ham ifodaydi. Bu borada R.Jumaniyozovning fikrlari diqqatga sazovor: "diktor bo'lish mumkin, suxandon bo'lolmaslik mumkin. Diktor tayyor matnni yoqimli talaffuz, diktsiya bilan ifodali tarzda o'qib beruvchidir. Diktorlar orasida suxandonlik mahoratini egallaganlari ham borligini inkor etib bo'lmaydi. Diktor matn bilan qattiq bog'lansa, suxandon matn bilan erkin munosabatda bo'ladi. Nutqiy malakaga, ko'nikmaga ega bo'lmagan diktor tilimizning sofligini ham, boyligini ham namoyish eta olmaydi. Chinakam diktor nutq texnikasi, ya'ni ovoz, nafas, intonasiya, pauza, ohang kabi nutqning ifoda vositalari, mashqiy jarayon bilan chegaralanib qolmasdan, balki nutqiy mahorat, nutqiy faoliyat qirralarini egallashga intilishi, nazariy ma'lumot va amaliy mashg'ulotni uyg'unlashtira olishi zarur"[7].

O'zbekiston teleradiokompaniyasida uzoq yillar davomida faoliyat ko'rsatgan qodir Mahsumov, Mirzohid Rahimov, O'ktam Jobirov, Davron Zunnunov, Nasiba Qambarova, Galina Melnikova, Nasiba Ibrohimova, Abdumo'min O'tbosarov, Ra'no Tolipova, Rahmatilla Mirzaev kabi o'z kasbining ustalari o'z yo'nalishi va uslubiga ega ijodkorlar sifatida diktorlikni san'at darajasiga yetkazdilar.

Farhod Bobojonov, Shuhrat Qayumov, Nasiba Maqsudova, Quddus A'zamov, Tolib Isroilov kabi yana bir guruh ijodkorlarni esa suxandonlar guruhi vakillari deyish mumkin. Bular tayyorlangan matnlarni ravon va tinglovchiga ta'sir qila oladigan ekspressiv ohangdorlik bilan o'qiy olish mahoratiga ega bo'lishlari bilan birga, mustaqil teleboshlovchi sifatida muayyan yo'nalishlarda mualliflik dasturlarini shakllantirdilar.

Erkin bozor iqtisodiyotiga o'tish, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar jarayonlari radio-televidenie tizimlari mjodiy muhitiga ham o'z ta'sirini ko'rsata boshladi. Ana shu tashqi omillar ta'sirida diktor tushunchasi biroz chetlashib, boshlovchi maqomi ustunlikka erisha boshladi. Buning natijasi o'laroq adabiy til me'yorlariga rioya qilish, teleboshlovchilarning ko'rsatuvdagi o'rni va roli, muloqot qilish qobiliyati va mahorati kabi masalalarda yangicha tamoyillar shakllana boshladi. Aytish mumkinki, adabiy til me'yorlariga amal qilish, madaniyatlilik chegaralari anchayin sustlashdi, sheva elementlariga kengroq yo'l ochildi, shou-biznes ta'siri yaqqol sezilib, ko'rsatuv va dasturlar "ramka"dan chiqa boshladi.

D.Teshaboevaning "ommaviy axborot vositalari tilining nutq madaniyati aspektida tadqiqi (O'zbekiston Respublikasi OAV misolida)" mavzuidagi doktorlik dissertasiyasida radio, televidenie va gazeta tilining zamonaviy kontsepsiyasi yoritilib, ularning o'ziga xosligi, funktsional va kommunikativ uslubiy xususiyatlari, milliy tillarda millatlararo sifatlarning OAV yordamida shakllanishi madaniyat ildizlari va milliy mentalitet bilan bog'liqligi ochib berilgan. Shuningdek, gazeta tilining sosio-psixolingvistik va funktsional-kommunikativ aspektlari o'rganilgan. OAV tilining nutq madaniyati me'yoriylik, kommunikativlik va etik aspektlarda o'rganilib, bu aspektlarning o'zaro bog'liqlik jihatlari ochib berilgan va boshqa qator masalalar tadqiq qilingan[8].

Tahlil va natijalar. Tadqiqotchi bugungi davrda mass-media mahsulotlari hisoblanayotgan OAV faoliyati jarayonlarining til xususiyatidagi o'zgarishlarga nisbatan munosabat bildiradi: "aniq uslubiy chegaralarning barham topishi tendentsiyasi mavjudligi; medianutqning yangiliklar, axboriy analitika, sharh kabi asosiy matnlarida so'zlashuv uslubi me'yorlarining keng qo'llanishi; noto'g'ri nutq ko'rinishlarining ommalashuvi (noto'g'ri urg'u, grammatik xatolar, noto'g'ri birikishlar va h.k.); OAVda nome'yoriy va quyi qatlamdagi leksik birliklarni ishlatish hisobiga nutqiy me'yoriylik saviyasining pasayishi kabilarga e'tibor qaratish o'rinlidir"[9].

P.Allamberganovaning "jurnalistning tildan foydalanish mahorati" maqolasida "Zo'r TV" telekanalining "bu kun" informasion dasturi teleboshlovchilari faoliyati misolida o'zbek tili adabiy me'yorlariga qanday amal qilinayotganini tahlil qiladi. Maqolada ko'plab g'aliz jumlalar, so'zlarni noo'rin qo'llash, adabiy til me'yorlarining qo'pol tarzda buzilishi kabi holatlar kuzatilganligini faktik materiallar bilan dalillangan.

Masalan, kunlar sovib boryapti. Aholisi esa har doimgidek, gaz, svet, suv muammosidan qiynalyapti. Umuman olganda, yashash uchun sharoitga intilishyapti. Lekin mutasaddilar ayni shu jarayonda qaerga qarayapti. Yoxud e'tiborsiz qolayotgan qishloqlarimiz ahvoli oxiri borib qaerda to'xtaydi? Muammolardan qiynalgan aholi "bu kun" dasturiga murojaat qildi va bu erdagi muammolarni muxbirimiz Zilola Xudoyqulova,- deb navbatni muxbirga berdi. P.Allambergenova mazkur matnga quyidagicha izoh berish bilan cheklanadi: "ko'rinib turganidek, boshlovchi yigit ham fikrini to'liq ifoda etib bera olmagan."[10] biz bu o'rinda kengroq tahlil qilish zarurati mavjudligini ta'kidlamoqchimiz, ya'ni ushbu matnda quyidagi kamchiliklar ko'zga tashlanadi:

- so'z noo'rin qo'llangan: aholisi emas, aholi tarzida ifodalanishi kerak edi;

- varvarizm qo'llangan: svet;

- jumlalar o'zaro mantiqiy bog'lanmagan: aholisi esa har doimgidek, gaz, svet, suv muammosidan qiynalyapti. Umuman olganda, yashash uchun sharoitga intilishyapti. Bizningcha, keyingi jumla "umuman olganda, yashash uchun qulay sharoitlar yaratish zarur" yoki "umuman olganda, yashash uchun sharoit etarli emas" tarzida tuzilsa, to'g'riroq bo'lar edi.

- tavtologiyaga yo'l qo'yilgan va jumla tugallanmay qolgan: muammolardan qiynalgan aholi "bu kun" dasturiga murojaat qildi va bu erdagi muammolarni muxbirimiz Zilola Xudoyqulova....

Quyida ayrim teledasturlarga oid ayrim til faktlarini tahlilga tortamiz.

Assalomu alaykum. "Mening yurtim" telekanalida "Markaziy studiya" informasion shousi va biz yana efirdamiz.

Informasiya – xabar, axborot , ma'lumot ma'nolarini anglatadi. Shou [ingl. show - ko'rsatish, tomosha; ko'rsatmoq, namoyish qilmoq] ommaviy tomoshabinlar va tinglovchilarga mo'ljallangan dabdabali, televizion yoki kontsert estrada tomoshasi[11].

Shou leksemasi ommabop, ko'ngilochar tomosha ma'nosini anglatar ekan, informasion dasturga nisbatan informasion shousi birikmasi mantiqan o'zini oqlamaydi.

Bizda harakatlanayotganlar-chi? Ya'ni o'zimiznikilar-chi? Turli manzilga otlanar ekansiz, yo'l-yo'lakay odamlar, haydovchilar qilayotgan harakatlarni ko'rib ba'zan ko'nglingiz ayniydi.

Televidenie millionlab tomoshabinlar ko'radigan, xalqqa, millatga madaniyat ulashadigan kommunikativ tizim hisoblanadi. Til esa ana shu madaniyatning muhim bir unsuri sifatida o'zining ma'lum bir ijtimoiy-axloqiy me'yorlariga ega. Shu ma'noda, publisistik uslub talabiga ko'ra, varvarizmlarning qo'llanishi uslubiy g'alizlik hisoblanadi. Ushbu matndagi ko'nglingiz ayniydi iborasi suxandon tomonidan noo'rin qo'llangan.

O'zbekistonga xorijlik mehmonlar kelar ekan, manzillarni sayohat qilar ekan, turli yo'nalishlar bo'yicha mamlakatni baholashadi va ular yuqoridagi kabi holatlarni ham albatta inobatga olishadi, shak-shubhasiz.

Boshlovchi tomonidan O'qilgan ushbu jumla sintaktik nuqtai nazardan ancha g'aliz shakllantirilgan. Jumladan manzillarni sayohat qilar ekan birikmasi grammatik jihatdan noto'g'ri shakllantirilgan: -ni kelishik qo'shimchasi o'rnida -ga yoki -da morfemalaridan biri qo'llanilsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Hunarmandlarning soliqlardan ozod etilgani, ularga yaratilayotgan sharoitlar, shogird olsang qanchadir qismiga davlat oylik to'lab berishi va hokazo yangiliklardan xabardor etyapmiz. Shuningdek, tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash borasida ham jiddiy va salmoqli ishlarni qilyapti.

Davlat [Arabcha – mamlakat] o'z fuqarolarining ijtimoiy-siyosiy huqukdarini himoya qiluvchi, bunga qarshi turuvchi kuchlarning qarshiligini sindiruvchi hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlari tizimiga ega bo'lgan mustaqil mamlakat[12].

Hukumat [Arabcha – boshqarish, boshqaruv; hukumat, boshqaruv Mahkamasi] 1. Davlat hokimiyatining davlat boshqaruvini bevosita amalga oshiruvchi, farmoyish beruvchi va ijro etuvchi oliy organi[5].

Bu ikki so'zning izohini keltirishdan maqsad shuki, davlat so'zi so'zlashuv tilida hukumat ma'nosida qo'llanadi. Odatda, so'zlashuv uslubiga oid til birliklari badiiy va publisistik uslubga oid matnlarda biror uslubiy m aqsad talabi bilan ishlatilsa, uslubiy jihatdan o'zini oqlashi mumkin. biroq yuqoridagi matnda davlat oylik to'lab berishi birikmasida suxandon davlat so'zining oddiy so'zlashuv tiliga oid hukumat ma'nosida hech qanday uslubiy maqsadsiz, shunchaki sinonim so'z sifatida qo'llagan.

Bugungi davr o'zbek suxandon va boshlovchilari nutqida eng keng o'llanadigan nuqsonlardan biri tavtologiya hodisasidir.

Tavtologiya (Yun. tautologiya< tauto - aynan o'sha + 1odos - so'z). Bir fikr (mazmun)ni boshqa so'z yoki so'zlar bilan takroran ortiqcha ifodalash, so'zni ortiqcha ishlatish. Mas., gapirmoq o'rnida gap gapirmoq, tepmoq o'rnida oyoq bilan tepmoq deb qo'llash tavtologiya hisoblanadi, chupki gap, oyoq bilan qismlari yangi informasiya bermaydi (gapirmoq, tepmoq so'zlarndagi informasiyani takrorlaydi)[13].

Xulosa va takliflar. Adabiyotshunos D.Quronov tavtologiya atamasi badiiy tasvir vositasi sifatida ijobiy ma'no, matndagi ortiqcha takror sifatida esa salbiy ma'nodagi hodisani anglatishini ta'kidlaydi: "matnda bitta so'zni o'rinsiz, muayyan badiiy-estetik vazifa yuklamagan holda takrorlash salbiy ma'nodagi tavtologiyani yuzaga keltiradi. Amalda termin shu ma'noda faolroq ishlatiladi”[14]. Bunda suhandonlikda tavtologiya holatiga ham diqqatli bo‘lishi talab etiladi.

ADABIYOTLAR

1. Леонтьев А.А. Радио и телевизионная речь как вид общения // Психолингвистические проблемы массовой коммуникации. – М.: Наука, 1974. С.28-52.
2. Каримов А. Телевидение Узбекистана. – Ташкент, 1973
3. Зоҳидова Ю.Қ. Телевидение ва шахс: телеянгиликларда бошловчининг ўрни (ижтимоий вазият, журналист позицияси ва маҳорат масалалари): филол.фан. фалс. докт. (PhD) дисс...автореф. Тошкент, 2021. - Б. 6
4. Пардаев А., Рўзиев Ф., Маҳамадалиев Х. Журналистикада тил ва ифода. – Тошкент: Истиқлол, 2006
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 3-жилд. Т.: ЎзМЭ, 2007.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-жилд. Т.: ЎзМЭ, 2006.
7. Жуманиёзов Р. Нутқий маҳорат. Т. Адолат 2005.
8. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. ...дис.авторефер. Т., 2012.
9. Тешабоева Д. Оммавий ахборот воситалари тилининг нутқ маданияти аспектида тадқиқи (Ўзбекистон Республикаси ОАВ мисолида): Филол.фан.д-ри. ...дис.авторефер. Т., 2012. – Б. 12
10. Алламберганова П. Журналистнинг тилдан фойдаланиш маҳорати // “Медиалингвистиканинг долзарб масалалари” мавзусидаги Халқаро онлайн илмий-амалий конференция материаллари. Т., 2020. - Б.132-138
11. ЎТИЛ, 4-жилд
12. ЎТИЛ, 1-жилд
13. Ҳожиев А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. Т., ЎзМЭ нашриёти, 2002. – Б. 101
14. Қуронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: Академнашр, 2010. – Б. 297.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:8 (1751)

Mamura YO‘LDOSHEVA,
Toshkent davlat transport universiteti assistenti
E-mail:mbaxtiyarovna@gmail.com

ToshDO‘TAU Phd,O‘zbek-ingliz f. Yo‘ldoshev U.R taqrizi ostida

PORTRETNING TASHQI QIYOFASINI TASVIRLOVCHI LISONIY BIRLIKLARNING TARJIMADA BERILISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolamizda badiiy matnda portretning tashqi qiyofasini tasvirlovchi lisoniy birliklarni badiiy tarjimada qayta ifodalashning o’ziga xos muammolari mavjud bo’lib, bu kabi lisoniy vositalar lingvistik, lingvokulturologik, lingvokognitiv xususiyatlarni o’zida mujassam etishi o’rganiladi. Yurtimiz va xorijda badiiy adabiyotdagi qahramon portretini tasvirlovchi til birliklarini tarjima qilish masalalari borasidagi ilmiy izlanishlarning salmog’i ko’p emas. Bu esa tarjimaning mazkur masalalalari bilan bog’liq muammolariga yechim topish bugungi kunning dolzarb masalalaridan ekanligini anglatadi.

Kalit so’zlar: leksik birliklar, lingvokulturologik, lisoniy vosita, tasvir, tashqi qiyofa, qayta ifodalash, frazeologik birlik, portret.

TRANSLATION OF LANGUAGE UNITS DESCRIBING THE APPEARANCE OF A PORTRAIT

Abstract

In this article, there are specific problems of re-expressing the linguistic units describing the appearance of the portrait in the artistic text in literary translation, and it is studied that such linguistic tools embody linguistic, linguocultural, and linguocognitive features. In our country and abroad, there is not a lot of scientific research on the issues of translation of language units describing the portrait of a hero in fiction. This means that finding a solution to the problems of translation related to these issues is one of the urgent issues of today.

Key words: lexical units, linguo-cultural, linguistic tool, image, appearance, re-expression, phraseological unit, portrait.

ПЕРЕВОД ЯЗЫКОВЫХ ЕДИНИЦ, ОПИСЫВАЮЩИХ ВНЕШНИЙ ВИД ПОРТРЕТА

Аннотация

В данной статье рассматриваются специфические проблемы перевыражения языковых единиц, описывающих появление портрета в художественном тексте в художественном переводе, и исследуется, что такие языковые средства воплощают в себе языковые, лингвокультурологические и лингвокогнитивные признаки. В нашей стране и за рубежом не так много научных исследований по вопросам перевода языковых единиц, описывающих портрет героя в художественной литературе. Это означает, что поиск решения проблем перевода, связанных с этими вопросами, является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня.

Ключевые слова: лексические единицы, лингвокультурологический, языковой инструмент, образ, внешний вид, перевыражение, фразеологизм, портрет.

Kirish. Pedagogika fanlari doktori I.To’xtasinov o’zining “Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetentsiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida tarjimada inson tashqi ko’rinishi va xarakterini tasvirlovchi gender belgili va belgisiz qo’shma so’zlarning uslubiy xususiyatlari masalasiga ham to’xtalib o’tgan. Olim ingliz va o’zbek tillarida inson tashqi ko’rinishi va xarakterini ifodalovchi bir qancha qo’shma so’zlarni keltirib o’tadi va ularning ekvivalentlik darajasi borasida so’z yuritadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. I.To’xtasinov erkak kishining tashqi ko’rinishini ifodalovchi ingliz tilidagi qo’shma so’zlarga bald-coot, bald-faced, barrel-bellied, bullet-head, camel-back, face-fungus, grey-haired, lack-beard leksik birliklarini, o’zbek tilidagi qo’shma so’zlarga xushmo’ylov, oqsoqol, habashbashara, takasoqol, echkisoqol, yaltirbosh, navjuvon, tepakal, ulug’sifat, xomsemiz, shabko’r kabi so’zlarni keltirib o’tadi. Bundan tashqari tadqiqotda ayol kishini tashqi ko’rinishini ifodalovchi qo’shma so’zlar ham keltirilgan bo’lib, ularga ingliz tilida blue-stocking, damsel-fly, good-looker, large-eyed, white-haired, made-up, madon-na-braided, pie-eyed kabilar, o’zbek tilida esa gulchehra, dilnavoz, parichehra, xushqomat, xushtabassum, xushxandon, sohibjamol, gulbadan, erkakshoda, sarvqomat, badchehra kabi so’zlarni kiritish mumkinligini e’tirof etadi. Shuningdek, mazkur izlanishda inson tashqi qiyofasini ifodalovchi gender belgisiz, ya’ni ham erkak kishini, ham ayol kishining tashqi qiyofasini tasvirlovchi qo’shma so’zlarga ham to’xtalib o’tilgan bo’lib, ingliz tilidagi mazkur qo’shma so’zlarga baby-faced, boss-eyed, bow-legged, cheekbone, dry-eyed, fair-haired, full-faced, good-looking, half-caste, ill-favoured kabi leksik birliklarni, o’zbek tilida esa zag’chako’z, mo’rchamiyon, olako’z, badburush, xomsemiz, chillashir kabi so’zlarni misol qilib keltirgan. Bundan ko’rinib turibdiki, ingliz va o’zbek tillarida insonni tashqi ko’rinishini ifodalovchi lisoniy birliklarning o’zaro to’liq ekvivalent bo’lishi deyarli har doim ham uchrayvermaydi. Bu bevosita ingliz va o’zbek tillarining inson tashqi qiyofasini ifodalovchi leksik birliklarning lingvokulturologik va uslubiy jihatlarga bog’liq. Jumladan, ingliz tilida ayolning tashqi ko’rinishini ifodalovchi pie-eyed leksik birligi alkogol maxsulotinidan mast holatda bo’lgan ayol kishini tasvirlash uchun ishlatiladi. Bu so’zni o’zbek va ingliz tillariga tarjima jarayonida qo’llashimiz mumkin emas. Chunki o’zbek ayollari orasida alkogol maxsulotini iste’mol qilish urfga kirmagan. Bu kabi madaniyat va xalqlarning turmush tarzi bilan bog’liq bo’lgan ijtimoiy holatlardagi farqlar bevosita inson qiyofasini tasvirlash uchun qo’llanadigan lisoniy vositalarga ham tasir qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Odatda badiiy adabiyotda inson tashqi qiyofasini tasvirlashda qahramonning tashqi ko’rinishi, yuzi, yuzidagi qoshi, ko’zi, burni, sochi, peshonasi, jag’i, yanog’i, shuningdek uning kiygan kiyimi, yoshi kabilar tasvirlanadi. Quyida ingliz va o’zbek tillarida badiiy matnda insonning tashqi qiyofasini tasvirlovchi leksik birliklar birma-bir havola etiladi:

1) Yuzni tasvirlovchi lisoniy birliklar:

Ingliz tilida – horried, frightened, straight, sallow, white, unruffled, peaceful, placed, purple, worried, lean, the dark, perfect, ruddy, open, plump, clawing, stony, lowly, ivory, pretty, perfect, round, smiling, red va shu kabilar;

O’zbek tilida – ko’rimsiz, sovuq, ifodasiz, sarg’aygan, sap-sariq, oppoq, sokin, qizarib bo’g’riqgan, tashvishli, ozg’in, qoramtir, guldek, sog’lom, to’lgan oydek, g’uborsiz, cho’ziq, qizil, o’lik, go’zal chehra, quyosh, keng, sarg’ish, nozik va shu kabilar.

2) Ko’zni tasvirlovchi birliklar:

Ingliz tilida – blue, magnificant, black, beautiful, angry, red, dark, fine, bright, cold, weak, young, watchful, sharp, large protruding, twinkling, dozing, good, haggard, ghostly, fish-like, uncomplaining, frenzied, alarmed va boshqalar;

O’zbek tilida – ko’k, jodu, qora, shaxlo, bejo, qonta-lash, chaqnoq, quralay, sovuq, hayratli, kirtaygan, o’tkir, katta, porlayotgan, mamnun, horg’in, toliqqan, baliq itoatkor, darg’azab, vahimali, beg’ubor, g’ayritabiiy, ma’nosiz, g’amgin va shu kabilar.

3) Qoshni tasvirlovchi birliklar:

Ingliz tilida – bushy, shaggy, thick, arched, left, delicate, sandy, pretty, straight, yellow, elevated, brown, gray, thin, false, scant, queer, curved, uplifted, prominent, expressive, light, eloquent, incredulous va shu kabilar.

O’zbek tilida – qalam qosh, qora, qoshi yoy, hilol, o’siq, siyrak, pahmoq, chimirilgan, egar qosh, tarang, kamon, qiyiq, qalin, egma, ingichka qosh, payvasta, quyuq, qunduz, tutash, terilgan qosh va boshqalar.

4) Sochni tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – brtistly, short-haired, long, brown, curly, pretty, fuzzy, blond, lanky, dark, uncommon long, unkempt hair, thick, straw-coloured, grizzly, sliver, golden, white, rough, uncombed, false va shu kabilar;

O’zbek tilida – kokil, soch, uzun, qo’ng’ir, jingalak, zulfi, gajak-gajak, gungurt, zulfi tol, toqimini o’pgan, to’zg’igan, qirq kokil, rangsiz, oq oralay boshlagan, kumush, oltin, oq, qovrigan, quyuq, pahmoq, tutamchoch, yasama va shu kabi leksik birliklar.

5) Teri rangini tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – negro, weather-beaten, white, black, brown, green, sunburned, flushed, pale, purple, tanned, yellow, fair va boshqalar;

O’zbek tilida – to’q qora, uniqqan yuzli, oppoq, qoramtir, sog’lom, o’lik, qoraygan, qizargan, oqarib ketgan, qizarib bo’g’riqqan, sariq rangli kabi leksik birliklar.

6) Isnon gavdasini tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida– elegant, enormous, gigantic, elfin, upright, fat, heavy, too short, slim, tall, pump, hunched, beefy, brawny, muscular, obese, slender, coltish, angular, elephantine, portly, charming, delicate, bluff, heavily, feeble, solid, giant va boshqalar;

O’zbek tilida – kelishgan, bahaybat, ulkan, mitti, tik, semiz, gavdali, pakana, nozik, baland, dumaloq, qaddi bukilgan, yo’qon, baquvvat, alpqomat, biqqidek, latifqomat, novcha, beso’naqay, fildek bahaybat, barvasta, latofatli, ko’xlik, alifdek, nimjon, zim-zambil, devqomat, to’la va shu kabilar.

7) Soqolni tasvirlovchi leksik birliklar:

Ingliz tilida – straw-color, white, black, tawny, pointed, golden, bristly, curly, shaggy, scarce-bearded, grey, reddish, yellow, big, cut, as white as snow, blue, chinchilla, red, reddish, long, hungerly, soft, delicate, disheveled va boshqalar;

O’zbek tilida – sarg’ish, oq, qora, malla, cho’qqi, soqollari yulingan, echki soqol, oltinrang, malla, dag’al, jingalak, paxmoq, siyrak, tillatus, to’rvasoqol, sabza urgan, ketmon soqol, kalta, oppoq, ko’kamtir, moshkichiri va shu kabilar.

Yuqorida yuz tasvirini ifodalashda qo’llanadigan leksik birliklar ingliz va o’zbek badiiy matnlarida qo’llangan so’zlar o’ziga xos xususiyatlarga ega bo’lib, bular mazkur tillardagi lingvistik xususiyatlardan tashqari, o’ziga xos lingvokulturologik va lingkognitiv xususiyatlarni o’zida mujassam etadi. Jumladan inson gavdasini ifodalashda qo’llanadigan “alpqomat” leksik birligi lingvokulturologik xususiyatga ega bo’lib, odatda kuchli, katta gavdaga ega bo’lgan, baquvvat insonlarga nisbatan ishlatiladi. Ushbu so’z O’zbek tilining izohli lug’atida quyidagi ma’nolarga ega: 1. Qadimgi turkiy xalqlarda ikki qo’shin o’rtasidagi jang boshlanishidan oldin yakkama-yakka olishuvda ishtirok etuvchi jangchi; 2. O’zbek xalq dostonlarida g’ayritabiiy kuch-quvvati, mardligi, jasorati va shu kabilar bilan ajralib turadigan qahramon sifati. Xalq dostonlari xalq og’zaki ijodi hisoblanib, unda xalqning turmush tarzi, urf-odat va marosimlari, olamni milliy anglashi kabilar namoyon bo’ladi. “Alpqomat” so’zi kuchli, baquvvat, mard, jasoratli insonlarga nisabatan ishlatilganligi bois ingliz tiliga “heracle figure” tarzida tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Chunki, aynan “heracle figure” birligi o’zbek tilidagi “alpqomat” leksik birligiga mos.

Tahlil va natijalar. Quyida A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanida asar qahramonlarining tashqi qiyofasining ingliz tilida qayta ifodalash jihatlarini aniqlash maqsadida ushbu romanning o’zbek tarjimoni I.To’xtasinov hamda amerikalik tarjimon M.Riz tomonidan inglizcha tarjimalarini tahlilini amalga oshiramiz.

Mirzakarim ismlik qirq besh-elli yoshlar chamasida qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan bir kishi bo‘lib, Akram hoji elli besh yoshlar orasidag‘i bir keksa edi.(13-bet)

Asarning bosh qahramonlaridan biri bo’lgan Mirzakarimboyning tashqi qiyofasining tasvirida qo’llangan lisoniy birliklar jumladan qirq besh-elli yoshlar, qora qosh, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan kabi sintaktik birliklardan iborat. Bular so’z birikmasi shaklida muallif tomonidan qo’llangan. Matnda elli besh yoshlar orasidag’i birikmasi orqali esa Akram xojining yoshi tasvirlangan.

Qirq besh yoshlar so’z birikmasi orqali qahramonning yoshi, qora ko’zi uning ko’z tusi, ko’rkam yuzli orqali yuzining tasviri, yaxshigina kiyingan birikmasi orqali esa tashki ko’rinishi tasvirlangan. Ushbu matn I.To’xtasinov hamda M.Riz tarjimalarida quyidagicha berilgan.

И.Тўхтасинов: A man named Mirzakarim was a black-browed, black eyed, handsome and well-dressed man about forty-five to fifty. Akramkhoji was a man of about fifty five years old.

М.Риз: Mirza Karim Qutidor appeared to be about forty-five years old, with

strong brows and dark eyes; he was well dressed and had a handsome face. Akram Hajji was roughly fifty-five years of age.

Yuqorida keltirilgan asliyat matnidagi lisoniy birliklarning tarjima saqlanishi borasida tahlillarga ko’ra, asar qahramonining tashqi qiyofasini ifodalovchi qirq besh-elli yoshlar, qora ko‘z, ko‘rkam yuz, yaxshig‘ina kiyingan lisoniy birliklari tarjima variantlarida fikrimizcha, asliyatga monand tarzida tarjima qilingan. Ushbu qahramon qiyofasining ingliz tiliga tasvirini qayta ifodalashda I.To’xtasinov ham, M.Riz ham qahramonning qoshini ifodalovchi lisoniy birlik tarjimasida to’laqonlikni ifodalay olishmagan. Asliyatda qora qosh birikmasi orqali Mirzakarim qutidorning qoshlari qora ekanligi ifodalangan. Tarjimalarda esa ushbu birikma I.To’xtasinovda black-browed (qoshi-ko’zi qora qush (albatros), M.Rizda esa strong brows (qalin qoshli) tarzida berilgan. Biroq, ushbu tarjima variantlarida tasviriylik to’laligicha aks etmagan. Fikrimizcha, mazkur birikmani ingliz tiliga madaniy ekvivalentlik tarjima usulidan foydalangan holda “dark brow” tarzida o’girsa maqsadga

muvofiq bo’ladi. Ingliz tilida odatda qora qoshli insonni tasvirlashda “dark brow” birikmasi qo’llanadi. Chunki, ingliz tilidan qora ranli biror insonni organini ifodalashda ko’pinchi “dark” sifati qo’llanadi.

Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan bir yigit. Bas, bu hujra bino va jihoz yog‘idan, ham ega jihatidan diqqatni o‘ziga jalb etarlik edi. Qandog‘dir bir xayol ichida o‘lturg‘uchi bu yigit Toshkandning mashhur a’yonlaridan bo‘lg‘an Yusufbek hojining o‘g‘li — Otabek. (6-bet)

И.Тўхтасинов: While there were lightminded, tiresome, not serious people in those rooms, here was a smart man looking totally different: quiet, strong and tall in his stature, handsome with a white-skinned face, black eyes, going well with his black eyebrows, his first moustache just appearing on his face – a young, very handsome fellow was sitting there. So, this room caught attention with its atmosphere and with hosewares. This young man who sat thinking about something – was Otabek, a son of Yusufbek Khoji, a famous aristocrat in Tashkent

М.Риз: He was a young man of thoughtful mien whose downy mustache had just recently emerged. An imposing build lent him gravitas, and he had a light-skinned, handsome face with dark brows and pensive eyes that seemed perpetually lost in thought.

O’tkan kunlar asarining asosiy qahramonlaridan bo’lgan Otabekning tashqi qiyofasini ifodalab berishda qo’llanilgan lisoniy birliklar Og‘ir tabi’atlik, ulug‘ g‘avdalik, ko‘rkam va oq yuzlik, kelishgan, qora ko‘zlik, mutanosib qora qoshliq va endigina murti sabz urgan kabi sintaktik birliklardan foydalanilgan.

Ushbu lisoniy birliklar so’z birikmasi va frazeologik birlik shaklida yozuvchi tomonidan qo’llanilgan. Parchada og’ir tabi’atligi uning ichki qiyofasini, ulug‘ g‘avdalik orqali uning uning tashqi gavdasi ya’ni umumiy tashqi ko’rinishi, ko‘rkam va oq yuzligi uning yuz tuzilishi va uning rangini, kelishgan, qora ko‘zlik birikmasi orqali uning ko’zlarini qanchalik chiroyliligi va rangini, mutanosib qora qoshliq birikmasi orqali esa qahramoning qoshlari ko’zlariga mos ravishda chiroyli va qora rangda ekanligi va endigina murti sabz urgan frazeologik birlik orqali Otabeknini yosh navqiron ekanligi ifodalanmoqda.

Tarjimalarda og’ir tabiatlik so’z birikmasi I. To’xtasinovda quiet (kam gap), M.Rizda esa thoughtful men (o’ychan odam) tarzida berilgan. Ushbu tarjima variantlari leksin jihatdan asliyat matniga to’liq mos tushmagan. Sintaktik jihatdan esa To’xtasinov tarjimasida asliyat matndagi so’z birikmasi “quite” shaklida berilgan bo’lib, sintaktik jihatdan tarjima variantida sodda so’z xisoblanadi. Lekin ma’no jihatdan asliyat matn mazmunini ochib bera olgan, M.Rizda esa “thoughtful men” shaklida so’z birikmasini hosil qilgan lekin ma’no jihatdan to’liq ochib berilmagan. Asliyatda og’ir tabi’atlik bitishuv yo’li bilan yasalgan so’z birikmasi hisoblanadi va leksik-semantik jihatdan esa Otabekning og’ir vazmin ekanligi, ya’ni qahramoning yaxshilab mulohaza qilib keyin gapiradigan insonligini ifodalab bermoqda. M.Riz bergan “thoughtful men” birikmasi esa odatda ber necha daqiqa davomida o’ylanib turgan, o’ychan odamni bildirib insonni tashqi ko’rinishini ham ifodalash mumkin. Ushbu tarjima variantida asliyatda asah qahramonining ichki dunyosi ifodalansa, tarjimada uning tashqi qiyofasi ifodalangandek tuyuladi.

Ulug‘ g‘avdalik so’z birikmasi esa I. To’xtasinov tarjimasida “strong and tall in his stature” so’z birikmasi shaklida, M. Rizda esa “An imposing build lent him gravitas” deb tarjima qilingan. Ikki tarjima variant ham asliyat ma’zmunini to’liq ochib bermagan. Asliyat matnini tarjima variant well-built shaklida berilganida maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Ko‘rkam va oq yuzlik birikmasi I. To’xtasinov tarjimasida “handsome with a white-skinned face (oq yuzga ega ko’rkam), M.Rizda esa “a light-skinned, handsome face (oq, ko’rkam yuzli)” shaklida tarjima qilingan. Tarjima variantlaridan I. To’xtasinovning tarjimasi ma’no jihatdan asliyat matnidagi so’z ma’nosini ochib bergan bo’lsada lekin shakl jihatdan so’zlar noto’g’ri joylashtirilgan. Aslida “handsome and white-skinned face” shaklida berilganida sintaktik tartib nuqtai nazardan asliyatga muvofiq bo’lar edi. M.Riz tarjimasi esa asliyat matniga ma’no jihatidan to’liq mos kelmaydi. Ingliz tilida yuzning rangini ifodalash uchun “light” sifati qo’llanilmaydi.

Kelishgan, qora ko‘zlik so’z birikmasi I. To’xtasinovning tarjima variantida “black eyes (qora ko’zlar)” ko’rinishida M.Riz “pensive eyes that seemed perpetually lost in thought (doimo o'yga cho'mgandek tuyiladigan o’ychan ko’zlar)” tarzida tarjima qilingan. Yozuvchi “kelishgan, qora ko’zlar” so’z birikmasi orqali Otabekning ko’zlarini chiroyli va qop-qora bo’lganligini ifodalagan. Lekin tarjima variantlaridan I. To’xtasinovning tarjimasida faqat qora ko’zlar deb tarjima qilingan. Biroq ushbu birikmasi “dark eyes” deb tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Kelishgan so’zi I.To’xtasinov tarjimasida aks etmagan. M.Rizning tarjimasida esa Otabekning ko’zining umumiy tashqi ko’rinishini emas balki uning o’ychan deb tarjima qilgan holda asliyat matndagi ma’nosida umuman yiroqlashib ketgan. Aslida bu birikma “glaring and dark-eyed” shaklida tarjima qilinsa asliyat matniga ham sintaktik, ham leksin jihatdan mos keladi.

Mutanosib qora qoshliq so’z birikmasi I. To’xtasinov tarjimasida “going well with his black eyebrows” tarzida tarjima qilgan. Aslida “to go well with” frazeologik birlik bo’lib, biror ishni yaxshi davom etishi, muvaffaqiyatga erishish ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun I. To’xtasinovning tarjima variant asliyatga mos deb, xisoblay olmaymiz. M.Riz tarjima variantida esa bu birikma tushurib qoldirilgan.

Aslida mutanosib qora qoshliq so’z birikmasi o’zidan oldin kelgan kelishgan “qora ko’zlik” so’z birikmasiga uzviy bog’liq bo’lib, muallif bu jumla orqali qahramonning qora qoshlari uning qora ko’zlariga mos ravishda ekanligini ifodalab bermoqda. Mutanosib qora qoshliq so’z birikmasi ingliz tiliga “dark eyebrow correspond to dark eyes” deb tarjima qilinganida maqsadga muvofiq bo’lar edi.

Хулоса ва таклифлар. A.Qodiriyning “O’tkan kunlar” romanidagi ayrim qahramonlarning tashqi qiyofasini tasvirlovchi lisoniy birliklarni I.To’xtasinov, shuningdek, Mark Riz tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarning tahlili shuni ko’rsatdiki, aksariyat tarjima variantlarida asliyatga yaqinlashish holati kuzatilgan bo’lsa, yana bir necha jihatlarda asliyatdagi tasvir tarjima tiliga olib o’tilmagan. Bu bevosita ingliz va o’zbek tillaridagi olamni milliy anglashdagi qarashlar borasidagi farqlarning mavjudligidadir. Bundan tashqari odatda asar qahramonini tasvirlashda qo’llanadigan tasviriy so’zlar ham ingliz va o’zbek tillarida o’ziga xos farqli xususiyatlarga ega.

ADABIYOTLAR

1. Tuxtasinov I.M. Tarjimon tayyorlashda kasbiy kompetentsiyalarni ekvivalentlik hodisasi asosida rivojlantirish. Ped. fan. doktori dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B.91-94,226 b
2. O‘zTIL. – B. 75.
3. Umarbek F. O‘zbek va uyg‘ur tillaridagi o‘tkan zamon fe'llarining badiiy nuqtda ifodalanishi (Tarjima asarlari misolida). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:1998. –144 b.

4. Shirinova R. Diniy realiyalarni badiiy tarjimada qayta yaratishning ayrim tamoyillari (Frantsuz adabiyotining o‘zbek tiliga tarjimalari misolida).fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:2002. –136 b; Olam milliy manzarasini badiiy tarjimada qayta yaratilishi. Fil. fan. dok. Dissertatsiyasi. –T: 2017. –246 b.
5. Mamatqosimova V. 20-30 - yillar o‘zbek marifatparlik adabiyotida badiiy tarjimaning o‘rni (frantsuz adabiyotidan qilingan tarjimalar misolida). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:2010. –145 b.
6. Sidiqov Q. “Qutadg‘u bilik” to‘rtliklarining inglizcha badiiy tarjima xususiyatlari. – fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:2010. –151 b
7. Dosbayeva N. Bevosita tarjimada badiiy uslubni qayta tiklash (Amerika hikoyalari tarjimasi misolida). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T:2011. –148 b. 8.To‘xtaxo‘jayeva N. Badiiy tarjimada lingvokulьturemalarning ifodalanishi (ingliz va o‘zbek tillari misolida). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T.:2017. –141 b.
8. Yo‘ldoshev U. Hajviy matnlar tarjimasining lingvostilistik va lingvokulьturologik xususiyatlari (ingliz tiliga tarjima qilingan o‘zbek xalq latifalari). fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T.:2017. –157 b.
9. Salimova D. She'riy tarjimada badiiy niyat vapoetik maxoratning qayta ifodalanishi. fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T.:2018. –156 b.
10. Otajonova D. Inglizcha badiiy matnlarning rus va o‘zbek tillaridagi tarjimalarini ortologik tadqiqi. fil.fan.nom. disserattsiyasi. –T.:2019. –140 b.
11. Makarova L. Kommunikativno-pragmaticheskыye aspektы xudojestvennogo perevoda. Avtoref. dis. ... dok. filol. nauk. –M:2005. –44 s.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UO’K:821.111.09(73)-1

Gulmira KOMILOVA,
O'zbekiston davlat Jaxon tillari universiteti doktoranti (PhD)
E-mail: kamilovagulmira839@gmail.com

Buxoro davlat universiteti professori M. Jo’rayeva taqrizi asosida

THE USE OF LINGUOPOETIC TOOLS IN JACK KEROUAC'S WORK

Abstract

A prolific impressionist, confessional poet, writer and pioneer of the beat generation, Jack Kerouac, despite the fame he has gained since the late 1950s, his written letters are not recognized as works of literature. The purpose of this article is to explore the various ways in which Kerouac developed and used poetics, best known in his letters to friends, family, and publishers before he became a literary figure. In analyzing Kerouac's poetics, we analyzed several letters from a selection of letters from 1940-1956. Kerouac's letters show that he is trying to highlight the features of literary control and show how worthy it is to consider this poetics in the process of analysis: repetition, language and narration, the content of the poem as a work of art.

Key words: Poetics, impressionism, confessionalism, repetition, language, vertical and circle-narrative.

JEK KERUAKNING ASARIDAGI LINGVOPOETIK VOSITALARNING QO`LLANILISHI

Annotatsiya

Sermahsul impressionist, konfessiyanist shoir, yozuvchi va Beat avlodining kashfiyoti Jek Keruak 1950-yillarning oxiridan beri erishgan shon-shuhratga qaramay, uning yozma xatlari adabiyot asari sifatida tan olinmaydi. Ushbu maqolaning maqsadi Kerouakning taniqli adabiyot arbobi bo'lishdan oldin do'stlari, oilasi va nashriyotlariga yozgan maktublarida eng mashhur bo'lgan poetikani rivojlantirish va qo'llashning turli usullarini o'rganishdir. Kerouakning poetikasini tahlil qilishda biz 1940-1956 yillardagi tanlangan maktublardan bir nechta xatni tahlil qildik. Keruakning maktublarida adabiy nazoratning xususiyatlarini yoritib berishga va ushbu poetikalarni tahlil jarayonida: takrorlash, til va rivoyat, she`r mazmunini badiiy adabiyot asari sifatida ko'rib chiqishga qanchalik loyiqligini ko'rsatishga harakat qilishi ayon bo`ladi

Kalit so'zlar: Poetika, impressionism, Konfessiyavist, takrorlash, til, vertikal va aylana-hikoya,

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ПРОИЗВОДСТВЕ ДЖЕКА КЕРУАКА

Аннотация

Плодовитый импрессионист, поэт-исповедник, писатель и открытие поколения битников Джек Керуак, несмотря на известность, которую он приобрел с конца 1950-х годов, его письменные письма не признаются литературными произведениями. Цель этой статьи - изучить различные способы, которыми Керуак развивал и использовал поэтику, наиболее известную в его письмах к друзьям, семье и издателям до того, как он стал литературным деятелем. Анализируя поэтику Керуака, мы проанализировали несколько писем из подборки писем 1940 - 1956 годов. В письмах Керуака видно, что он пытается осветить особенности литературного контроля и показать, насколько достойно рассматривать эту поэтику в процессе анализа: повторение, язык и повествование, содержание поэмы как художественного произведения.

Ключевые слова: Поэтика, импрессионизм, конфессионализм, повторение, язык, вертикаль и круг-повествование,

Kirish. Keruakning maktublarida adabiy nazoratning xususiyatlarini yoritib berishga va ushbu poetikalarni tahlil qilishda, takrorlash, til va rivoyat harflarni badiiy adabiyot asari sifatida ko'rib chiqishga qanchalik loyiqligini ko'rsatishga harakat qiladi. Xuddi shunday, Uning birinchi "Yo'llar" romanimni sinchkovlik bilan o'rganish orqali u Keruakning maktublarini chuqur tahlil qilish uning shaxsiy poetikamni qanday yaxshilaganini, bu xatlarda tasvirlangan poetikaga o'xshashligini ko'rishimiz mumkin.

Jek Keruak o'zining badiiy adabiyotining nozik mo`y qalmi va nozik tabiati bilan ajralib turadi. Bu shoir haqida o'ndan kam biografiya yozilgan. Uning jurnallari, xatlari va hatto orzulari ham chop etilgan. Jek Keruak amerikalik yozuvchi, shoir va rassom edi. O'z hayoti davomida mashhurlikka erishgan, ammo unchalik muhim bo'lmagan muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, Kerouac hozir Amerikaning eng muhim mualliflaridan biri hisoblanadi. Uning o'z-o'zidan paydo bo'lgan, konfessional nasriy uslubi boshqa ko'plab yozuvchilarni, jumladan Tom Robbins, Lester Bangs, Hunter S.Tompson va Bob Dilanni ilhomlantirib tol qoldirgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Maqolada tadqiq obekti Jak Keruakning xatlari va romanlaridan “On The Road” yani, “Yo`lda” deb nomlangan asarlari tahlil qilingan. U kattalar hayotining ko'p qismini Amerikaning keng land-shaftini kezish va onasi bilan yashash o'rtasida o`tqazdi. O'zgaruvchan mamlakat bilan yuzma-yuz kelgan Keruak o'z o'rnini topishga intilib, oxir-oqibat 1950-yillardagi konservativ qadriyatlarni rad etdi. Uning yozuvlarida ko'pincha jamiyat tuzilmalaridan xalos bo'lish va hayotning mazmunini topish istagi aks etadi. Maqolada kanseptual tahlildan foydalanilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tahlillar jarayonida shoirning ikki tilda baravar ijod qilish usuli va o`zgacha yondashuvlari nazariy yoritilib beriladi va uning impressionist, konfessiyanist shoir, yozuvchi sifatida bilishimiz uchun nazariy fikrlar va muhakamalar kaseptual ifodalanadi.

Tahlil va natijalar. 1940-yillarning oxiridan 1950-yillarning o‘rtalarigacha muallif sifatida ommaga unchalik noma’lum bo‘lgan Jek Keruak (1922-1969) romanlar, she’rlar va xatlar yozgan. Keyinchalik 1950-yillarda Kerouac Beat avlodining figurasiga aylandi. Uning do'stlari, oilasi va adabiy agentlariga yozgan maktublarida uning poetikasiga ("She'riyat yoki adabiyotda lingvistik usullar" Yangi Oksford Amerika lug'ati) oid chuqur va muhim asarlar borligini bilish qiziq. Ann Charters tomonidan tahrirlangan va nashr etilgan 1940-1956 yillardagi tanlangan xatlar Beat avlodiga qiziqqan akademik hamjamiyat uchun ajoyib manbadir. Xatlarni adabiyot sifatida tahlil qilish hali amalga oshirilmagan. Keruak yozgan

maktublar uning poetikasi, xususan, takrorlash, til va hikoyadan foydalanish haqida tushuncha beradi. Bu tahlilda u taniqli yozuvchi bo‘lgunga qadar yozilgan ushbu maktublarning bir nechtasiga adabiy asar sifatida qaraladi.

Impressionist va konfessional yozuvchi sifatida uning ushbu adabiy an'ananing harflari qanday yaratilganligi, takrorlash, til va hikoyadan qanday foydalanilganligi kontekstini tushunishga shaxsiy qiziqishlari borligi ochiq ifodalangan. Oxir-oqibat, o'zimning impressionistik va konfessional novellasi "Yo'llar" ni tahlil qilib, Keruakning poetikasiga oid ushbu tadqiqot shaxsiy voqealar haqidagi yozgani ma`lum. Men ushbu maqolada keltirgan Keruak uning boshqa hikoyalarida bo'lgani kabi, uning maktublariga ham xuddi shunday nazariy asoslarni qo'llayman. Uning maktublarini leshe`riy yozilgan bo`lsada uni konteksga aylantirishgan va chop etirishgan. U o'zining impressionistik va konfessionist uslubini muhokama qilish, sinab ko'rish va rivojlantirish usullarini taqdim etgan.

Kerouac Massachusets shtatining Louell shahrida frantsuz-kanadaliklar oilasida tug'ilgan. Jek olti yoshigacha ingliz tilini o'rganishni boshlgan va uning oilasi frantsuz tilida gaplashardi. Erta yoshida u akasi Jerarning vafotidan chuqur qayg`uga botadi va u bu voqea uni "Jerardning vahiylari" kitobini yozishga undadi. Kerouakning sportdagi mahorati uni mahalliy futbol jamoasida yulduz bo'lishiga olib keldi va bu yutug'i unga Boston kolleji va Kolumbiya universitetida stipendiya olib, mashhurlik keltirdi. Kolumbiyada u talabalar gazetasi, Columbia Daily Spectator uchun bir nechta sport maqolalarini yozgan.

Aynan Nyu-Yorkda Keruak dunyo bo'ylab sayohat qilishi kerak bo'lgan odamlar bilan uchrashdi, uning ko'plab romanlari: "Beat avlodi", shu jumladan “Allen Ginsberg”, “Nil Kessadi va Uilyam S, Burrouzlar” deb nomlanadi.

U o'zining birinchi romani "Shahar va shahar" deb nomlanadi, shuningdek, eng mashhur asaridan biri "Yo'lda" ni Nyu-Yorkda yashab yozgan. Biroq, u bir necha yillar davomida nashr etishga arzimagan va 1957 yilgacha kitob do'konlarida ko'rinmagan. Xuddi shu mavzuda u Nebraskada ko'rganlarini tasvirlaydigan she'rlaridan - bu she'rdan bir necha misra tavsiflovchi misralar. :

April doesn`t hurt here
Like it does in New England
The ground
Vast and brown
Surrounds dry towns
Located in the dust
Of the coming locust
Live for survival, not for “kicks”

U ba'zi odamlar bunday dushmanlik muhitida "faqat zarba berish uchun" yashash hashamatiga ega emasligini tan oldi. "Beat Generation" Ginsberg va Kerouak kabilar tufayli yaxshi tashkil etilgan bo'lsa-da, Jek o'zining yangi shon-shuhratiga va o'z davrining talablariga javob berish uchun kurashdi. Va u yana oltita romani nashr etildi. Kerouak doimiy ravishda yozgan, ammo olti yil davomida o'zining keyingi romani uchun nashriyot topa olmadi. Oldingi "The Beat Generation" va "Gone On The Road" deb nomlangan qoralamalarga asoslanib, Kerouak 1951 yil aprel oyida "Yo'lda" deb nomlanuvchi asarni yozgan.

Ko'pchilik tomonidan "Yo'lda" kabi buyuk deb hisoblangan "Katta Sur" 1962 yilda chiqdi va o'ziga asoslangan fantastik alkogolizmning rivojlangan alkogolizmi tufayli asta-sekin pasayishini hujjatlashtiradi. Jamiyatning haddan tashqari talablari aqliy va jismoniy tanazzulga olib keladigan omillardir va hatto cho'lda "Katta Sur" kabinasiga chekinish ham bularning barchasiga davo bo'lmaydi. 2007 yilda "Yo'lda" filmining 50 yilligi munosabati bilan "Yo'lda" filmining tsenzuradan o'tkazilmagan versiyasi Viking Press tomonidan chiqariladi, unda 1957 yilgi versiyadan o'chirilgan matn mavjud, chunki u 1957 yil o'quvchilari uchun juda aniq deb hisoblangan. U faqat asl qo'lyozmadan olinadi. Kitob asosan avtobiografik bo'lib, Keruakning Amerika Qo'shma Shtatlari va Meksika bo'ylab Neal Kessadi bilan qilgan sayohatlari tasvirlangan. Kerouakning romani ko'pincha Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrni belgilovchi asar sifatida tasvirlanadi.

Shahar va shahar 1950 yilda "Jon Kerouak" nomi bilan nashr etilgan va unga yozuvchi sifatida hurmat qozongan. Kerouakning Beat uslubini o'rgangandan keyin, keyingi ishidan farqli o'laroq, bu Kerouakning Tomas Vulfni o'qishidan katta ta'sirlandi.

1954 yilda Kerouak San-Xose kutubxonasida Duayt Goddardning "Buddist Injili" ni topdi, bu Kerouakning buddizmga sho'ng'ishining boshlanishi edi.

Nashriyotchilar kitobni eksperimental yozish uslubi va 1950-yillarda Qo'shma Shtatlardagi ozchiliklar va marginal ijtimoiy guruhlarga nisbatan hamdardlik ohangi tufayli rad etishdi. 1957 yilda Viking Press romanni katta tahrirlarni talab qilib sotib oldi.

U 1958 yilda nashr etilgan "Dharma bums" kitobida buning ayrim qismlarini, shuningdek, San-Frantsisko shoirlari bilan bo'lgan ba'zi sarguzashtlarini xronika qildi.

Kerouak buddist-taoist olim Alan Uotts bilan do'stlik munosabatlarini rivojlantirdi. Shuningdek, u mashhur yapon zen-buddisti D.T.Suzuki bilan uchrashdi va suhbatlar o'tkazdi. 1955 yilda Kerouak Siddharta Gautamaning "Uyg'onish" nomli tarjimai holini yozdi, u hayoti davomida nashr etilmagan, ammo oxir-oqibat 1993-1995 yillarda "Tricycle" jurnalida seriyalashtirilgan.

U 1969 yil 21 oktyabrda Florida shtatining Sankt-Peterburg shahridagi Sent-Entoni kasalxonasida vafot etdi. Uning 47 yoshida o'limi jigar sirrozi tufayli yuzaga kelgan ichki qon ketishidan, ko'p ichkilikbozlikdan kelib chiqqan. U o'sha paytda uchinchi rafiqasi Stella va onasi Gabriel bilan yashagan. U o'zi tug'ilgan Louell shahrida dafn etilgan. Kerouak o'zining "Tomas Vulf", "Shahar va Shahar" kabi juda she'riy, o'ta taqlid qiluvchi romanini yozayotganda, 1947 yil dekabr oyida Nil Kessadidan Keruakni an'anaviy Amerika adabiy poetikasidan chetga chiqishga undagan maktub oldi. Bu maktubda shunday deyilgan edi: “Men har doim odam yozayotganda barcha qoidalarni, adabiy uslublarni va boshqa katta so'zlar, lord gaplar va boshqa iboralarni unutish kerak deb o'ylaganman ...”. shuningdek u o`zing yana bir maktublarida ; “iloji boricha yozish kerak yer yuzidagi birinchi odam va o'zi ko'rgan, boshdan kechirgan, sevgan va yo'qotgan narsalarni kamtarlik va samimiylik bilan qog'ozga tushirish, uning o'tkinchi fikrlari va qayg'ulari va istaklarini yozish qalb aksidir. (uning hatlaridan. Bu maktub Kerouakga qattiq ta'sir qildi va u Vulfning juda noaniq, impressionistik va an'anaviy ta'siridan xalos bo'lish usulini topdi. Kesdi ta'riflaganidek, tan oluvchiga o'xshab yozish orqali Kerouakning poetikasi Kassadining ta'kidlagan ta'siriga erishish uchun uchta xususiyatga e'tibor qaratdi: takrorlash, til va hikoya. Kerouak ataylab qayta ko'rib chiqilmagan nasrni, "mehnatning balandligini, istehzoli tarzda ifodalovchi" nasrini qadrlagan (Regina Weinreich Kerouacning Spontan poetika,) Keruakning maktub yozishida o'quvchi e'tirofiy taassurot qoldirish uchun jazz motivlari, tovushlari va so'zlari yordamida har tomonlama tasvirlangan rivoyatni yaratish uchun ishlatiladigan Kerouakning poetikasiga duch kelamiz. Maktublarda meros qolgan adabiy konventsiyalardan qat'i nazar, uning tajribasi haqida ochiqlik bilan aytib beradigan shaxsiy shakllar mavjud. Tim Hunt yozadi: “Keruakning maktublari va jurnali shuni ko'rsatadiki, u o'z tajribalarini o'zining tematik maqsadlariga xizmat qilish uchun moslashtiradi. Melvil odatiy ma'noda avtobiografiyani emas, balki o'z qiyofasi biografiyasini yozgan. Kerouak ham "o'z qiyofasining tarjimai holi"ni yozmoqda. Avtobiografiya odatiy ma'noda reflekssiz va anekdotdir”.

Hunt Kerouakning yangi maktabda o'qiyotgan ijodiy yozish darsi haqidagi ish jurnalidan iqtibos keltiradi, ya`ni "Professor Veber tanqidni aqliy tushunish kerak, deb tushuntirdi, Kerouak, aslida, u uchun aql emas, balki his-tuyg'u hamma narsa ekanligini aytdi". Bu Kerouakning maktublari uchun asos yaratadi," aqlning mavhum tushunchasi emas, balki og'ir hissiy ahamiyatga ega". Bundan tashqari, Enn Charters The Beat Reader jurnalida yozadi: "Kerouak dunyoni o'z sahifalarini haqiqiy teriga ega bo'lgan tanalar kabi haqiqiy xronikaga aylantiradi va u "haqiqiy g'ayritabiiylik" deb atagan she`riy usullar yaratdi.

Xulosa va takliflar. Muxtasar qilib aytganda Kerouak intellektdan ko'ra his-tuyg'ularga ustunlik beruvchi impressionizmni qo'llaydi. Nensi Armstrong ta'kidlashicha, impressionistlar "an'anaviy yopilish, tajribani to'g'ri ifodalashdan farqli o'laroq, har doim cheklangan talqinni bildiradi". Fergyusonning fikricha, impressionizmning adabiy uslub sifatida belgilovchi tendentsiyasi tafsilotlarda, impressionizmni tushunishda, "birinchi plandagi uslubda ritmik nasrga urg‘u berishda, aniq diksiyada va figuralarga, xususan, o‘xshatish va metafora , ko'pincha bir-biridan farq qiladigan hodisalar va belgilarni bir-biriga bog'laydigan atmosfera". Kerouakning poetikasi konfessiyaning shakl va mazmunini rivojlantirishga yordam beradi. Konfessiyachilar eslaydigan voqealar va his-tuyg'ular, "barchasi to'liq nazorat qila olmaydigan o'z-o'zini matnli moddiylashtirishga yordam beradi".

ADABIYOTLAR

1. Armstrong, Nancy. “Character, Closure, and Impressionistic Fiction.”*Criticism*,194,1977.
2. Abel, Marco. “Speeding Across the Rhizome: Deleuze Meets Kerouac On the Road.” MFS 48.2 (2002): 227-256.
3. Amburn, Ellis. Subterranean Kerouac: The Hidden Life of Jack Kerouac. New York: StMartin's Press, 1998.
4. Anzaldúa, Gloria. Borderlands/La Frontera: The New Mestiza. San Francisco:Aunt Lute Books, 1999.
5. Armitage,John. Introduction. Paul Virilio: From Modernism to Hypermodernism
6. Beyond. Ed. John Armitage. London: Sage, 2000. 1-24.
7. Bakhtin, Mikhail. *The Dialogic Imagination*. Trans. Caryl Emerson and Michael Holquist. Ed. Michael Holquist. Austin: University of Texas Press, 1981.
8. Baldwin, Nicholas. “Trails” 2019, Unpublished.
9. Charters, Ann, *The Beat Reader*. Penguin, 1992.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 839.273

Dilorom QAYUMOVA,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute stajiyor-o’qituvchisi

PhD U.Ametova taqrizi asosida

UZUN TUMANI O‘ZBEK SHEVALARIDA OZIQ-OVQAT NOMLARI

Annotatsiya
Maqolada o’zbek dialektologiyasining ma’lum bir hududiy tarmog’i bo’lgan Uzun tumani o’zbek shevalari leksikasida uchrovchi oziq-ovqat nomlari ustidan fikr yuritiladi. Hududdagi ayrim taom nomlarining qadimgi manbalarda ham uchrashini, ayrimlarining nomida o’zgarish bo’lsa-da, tayyorlanishining o’zgarmaganligini kuzatishimiz mumkin.
Kalit so’zlar: leksika, leksik fond, leksik sath, til, adabiy til, shevalar, gastronimlar.

НАЗВАНИЯ БЛЮД В УЗБЕКСКИХ ГОВОРАХ УЗУНСКОГО РАЙОНА

Абстрактный
В статье рассматриваются названия продуктов питания, встречающиеся в лексиконе узбекских диалектов Узунского района, являющегося специфической региональной ветвью узбекской диалектологии. Мы можем наблюдать, что названия некоторых региональных блюд можно найти в древних источниках, и хотя названия некоторых из них изменились, их приготовление не изменилось.
Ключевые слова: лексика, лексический фонд, лексический уровень, язык, литературный язык, диалекты, гастрономии.

NAMES OF FOOD IN THE UZBEK DIALECTS OF UZUN DISTRICT

Abstract
The article discusses the names of foods found in the lexicon of the Uzbek dialects of Uzun district, which is a specific regional branch of Uzbek dialectology. We can observe that the names of some regional dishes can be found in ancient sources, and although the names of some of them have changed, their preparation has not changed.
Key words: lexicon, lexical fund, lexical level, language, literary language, dialects, gastronomes.

Kirish. Har bir til, shevada ma’lum bir tushunchalar, nomlar, qadriyatlar – hayotiy zarur narsalar aynan so‘z vositasida namoyon bo‘ladi. Tilimizdagi bu so‘zlar leksik fondimizni tashkil etibgina qolmasdan, barcha insoniy xatti-harakatlarimiz, turmush tarzimiz uchun “asosiy qurol” vazifasini o‘taydi. Tildagi leksik sath birliklari orqali o‘sha xalqning ruhiyati, madaniyati, borlig‘i namoyon bo‘ladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning: “har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatuvchi oyinai hayoti uning tili va adabiyotidir”– degan fikrini keltirish o‘rinli bo‘ladi deb hisoblaymiz. Zero insonlarning butun hayoti uning tilida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiy tili ham shevalardan oziqlangan holda hozirgi qiyofasini hosil qilgan. Shevalar leksikasi adabiy til uchun ham milliy til uchun ham asosiy material bo‘lib xizmat qiladi. Uzun tumani o‘zbek shevalari leksikasida uchrovchi gastronimlarning umumiy va xususiy tomonlari (nomlanishi va tayyorlanish jarayonida) haqida to’xtalar ekanmiz ayrim taom turlari XI asrdan buyon tayyorlanishiga, ayrimlarining nomida va yana ba’zilarining esa tayyorlanish jarayoni va mahsulot tarkibida qisman o’zgarishlar yuz berganini kuzatishimiz mumkin.

Uzun tumani o‘zbek shevalarini o’rganar ekanmiz uni quyidagi mavzuiy guruhlar bo’yicha tasnif qilishga urindik:

қэйырмэ пэтьр – sifat+ot qolipida hosil qilingan bo‘lib, so‘z birikmasi shaklidagi, ammo hozirda bir tushunchani ifoda etadigan, yaxlitlangan nomdir.

қэйырмэ пэтьр – patirning bir turi (achitilgan xamirning ichida havo qoldirmasdan, ko‘p ishlov berilib pishiriladi. Odatda yaqin kunlarda farzandli bo‘lgan ayollarga tayyorlab beriladi).

топпэ – *shilpildoq*. Bizningch bu nom fors-tojik tildan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, to‘b- to‘da[1] so‘zidan kelib chiqqan. Taomning bunday nomlanishiga uning tayyorlanish jarayoni sabab bo‘lgan deb o‘ylaymiz. Sababi xamir kesilgach qozonga to‘da qilib solinadi. Bu taom I kki xil usulda tayyorlanadi: 1) kesilgan xamir oddiy suvda qaynatiladi; 2) xamir sho‘rvaga solib qaynatiladi. Shilpildoqning bu turi Ko‘lobi to‘ppa deyiladi.

шуллэ – suyuq ovqat bo‘lib, uning bir qancha turlari tayyorlanadi: keskan, guruch, umoq, go‘ja shulla kabi. Taom adabiy tilda shovla variantida qo‘llansa, Surxondaryo-ning boshqa tumanlarida osh tarzida qo‘llanadi. Bu nom ovozga taqlid “shov” so‘zgan kelib chiqqan bo‘lishi mumkin. Sababi suyuq ovqatlar sirasiga kiruvchi ushbu taom iste’mol qilinayotganda qoshiqsiz, simirib ichilgan. Natijada kelib chiqqan ovoz taom “shov” +la – shovulla – shulla tarzida qo‘llanila boshlagan.

Кескан шулла – xamir ingichka kesilib, suvda qaynatiladi va qatiqlanib iste’mol qilinadi. Bu nom uchun taomning tayyorlanish shakli asos bo‘lib xizmat qilgan. Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida keskan osh tarzida qo‘llanadi.

Гурьч шулла – xamir o‘rniga guruch qaynatiladi va qatiqlanib tayyorlanadi. Ba’zi joylarda esa qatiq o‘rniga sut solib tayyorlanadi. Bu nom uchun ham taomning tayyorlanish shakli asos bo‘lib xizmat qilgan. Surxondaryo viloyatining janubiy tumanlarida guruch osh tarzida qo‘llanadi.

Умач шулла – xamir qattiq va kichik shaklda uvadalanadi. Suvda qaynatilib pishiriladi. Taomning tayyorlanish usuli uning nomlanishi uchun asos bo‘lgan. Bu nom qadimgi turkey tildagi maydalamoq ma’nosini bildiruvchi “uv” (“og‘” > “ov”> “uv”) fe’lidan –mach qo‘shimchasini qo‘shish orqali hosil qilinadi. Keyinchalik “v” tovushi talaffuz qilinmay, “umoch” shakliga kelib qolgan[2]. Taom nomi M.Koshg’ariyning “Devonu lug’atit turk” asarida tutmach[3] tarzida qo‘llangan bo‘lib, ma’nosi och tutma demakdir. Afsonalarga ko‘ra bu ovqat Iskandar Zulqarnayn tomonidan askarlarini och qoldirmaslik uchun tayyorlangan ekan.

Гожа (коча) шулла – bug‘doy dastlab kelida yorma qilinadi va so‘ng suvda uzoq muddat qaynatiladi. Bu juda

kaloriyali taom hisoblanadi. Go‘ja shullaga uning tayyorlanish sababi va jarayoni sabab bo‘lgan deya olamiz. Sababi bu taom ko‘cha –ko‘cha bo‘lib aholining birikishi jarayonida tayyorlangan. Keyinchalik ko‘cha> go‘cha shakliga kelgan.

ширбьлънч – shirguruch. Nom fors-tojikcha “shir”-sut va “berench[4]”-guruch so‘zlaridan yasalgan qo‘shma so‘zdir. Shevada taom nomi fonetik o‘zgarishga uchragan holda qo‘llanadi. Uning adabiy tildagi variant shirguruch hisoblanadi. Taomni tayyorlash jarayonida dastlab suvda guruch pishgunicha qaynatilib, shundan so‘ng suvga teng miqdorda sut solinadi va yana quyuq holga kelgunicha qaynatishda davom etiladi. Tabga ko‘ra shakar va saryog’ solinadi.

ғълмъныды – g‘ilvindi. Bu taom ham ikki xil usulda tayyorlanadi: 1) yupqa qilib yoyilgan xamir orasiga atala (sutga un va shakar solib qaynatilgan) surib pishirilsa; 2) yupqa xamir orasiga sumalak surilib tayyorlanadi.

орәмә – xonim. Sifatdan hosil bo‘lgan bu taom nomi uni tayyorlash usuli bilan bog’liq. Ya’ni o‘rama xamir yupqa qilib yoyilgan ichiga kerakli masalliqlar solingach o‘raladi, so‘ng esa pishirishga qo‘yiladi. Bu jarayon esa taomning nomlanishi uchun asos bo‘lgan.

кескән эш – oshning bu turi unchalik keng tarqalmagan. Sababi uni tayyorlash jarayoni biroz murakkabroq. Taom bir qarashda qovurma lag’monga o‘xshasa-da, buning tayyorlanishi undan farq qiladi. Bu taom ham xuddi osh(palov) kabi tayyorlanadi. Farqli jihati unda guruch o‘rniga kesilgan xamir solinadi. Demak, ko‘ryapmizki, taomga solinadigan masalliq ham ba’zan uning nomlanishi uchun asos vazifasini o‘taydi.

кәвурдәк (qovurdoqning shevadagi varianti) – qovurilgan kartoshka. Shevada uning gachirdak, qovurilgan kartoshka kabi ko‘rinishlari hamda chips, chipsi kabi nomlari ham bir maqomda qo‘llanadi.

коммә – chog‘ga ko‘mib pishiriladigan non. Nonning tayyorlanish usuli sabab shunday nomlangan. Bu non turi A.Navoiy asarlarida ham keltirilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu haqida filologiya fanlari nomzodi To‘lqin Mamanazarovich Tog’ayev o‘zining “A.Navoiy asarlari tilida taom nomlari’ nomli maqolasida shunday ma’lumot beradi: “Navoiy asarlarida uchraydigan non turlaridan biri ko‘moch|kumoch – qo‘rga ko‘mib pishiriladigan non. Ajdodlarimiz nonni cho‘g’ kulida pishirish texnologiyasini ham bilishgan. “Cho‘g’ kulida pishirilgan non” ma’nosi ko‘moch leksemasi bilan ifodalangan”[5]. Bu leksemaning yasalishiga ko‘mmoq fe’li asos bo‘lganligiga hech shubha yo‘q. Ammo hozirgi kunda ko‘mma leksemasi omonim so‘z hisoblanadi. 1. Nonning ko‘mish yo‘li bilan pishiriladigan turi bo‘lsa; 2. Cho‘ponlar itlariga beradigan qattiq qilib zuvalalangan xamirdir.

чозма (so‘zma, chelpak) – Adabiy tilda bu taom chalpak deb nomlanadi. Bu nom Navoiyning “Vaqfiya”asarida ham xuddi shunday shaklda qo‘llanganligini ko‘rishimiz mumkin. Sh.Rahmatullayev esa unga “xamirni yupqa qilib yoyib, yog’da pishiriladigan ovqat”[6] deya ta’rif beradi.

қуртэба – fors-tojik tilidan o‘zlashgan bu so‘z “qurt” + “ob”-suv so‘zlaridan hosil bo‘lgan. Bu taom asosan chorvachilik bilan shug’ullangan insonlar tomonidan tayyorlangan bo‘lib, tojik xalqining sevimli taomi hisoblanadi. Taom qurtni ezib, unga qaynoq suv, qo‘y yog‘i, piyoz solib tayyorlanadi.

Bu so‘zning yasalishi haqida Sh.Rahmatullayev ‘O‘zbek tilining etimologik lug’ati”da shunday fikr keltiradi: “ …qurut so‘zi bilan suv ma’nosini bildiruvchi tojikcha “ob” otidan tuzilgan birlik “qurutob” so‘ziga tojikcha “-a” qo‘shimchasini qo‘shib hosil qilingan”[7]. Boysun tumanining Machay qishlog’i leksikasida esa qurtoba nomi bilan boshqa taom nomlanishini kuzatish mumkin.

чэй шорвә – to‘ralgan non ustiga qo‘y yog‘i va go‘shti solinib, ustidan issiq qaynab turgan suv quyib tayyorlanadigan taom turi. Juda tez va oson tayyorlanganligi uchun, asosan, cho‘ponlar tomonidan sevib iste’mol qilinadi. Surxondaryoning boshqa bir hududi – Boysun tumanida esa bu taom qurtaba deb nomlanishiga guvoh bo‘ldik.

қәрә кулча – shirinlik nomi. Nom metafora usulida hosil qilingan bo‘lib, unda shirinlik kulcha shaklida qilib tayyorlanishi sabab bo‘lgan deb o‘ylaymiz. Bu shirinlik murabboni qaynatib, quyoshda quritib tayyorlanadi. Bu ko‘proq buvilarimizning naqadar tejamkorligidan dalolat beradi. Sabai bu qora kulcha asosan shinni yoki shunga o‘xshash mahsulotlar eskirganda tashlab yubormaslik uchun uzoq vaqt davomida qayta qaynatilib, so‘ng quyoshda quritilib tayyorlangan. Bu jarayonda undagi zararli moddalar ham yo‘q bo‘lib, iste’mol uchun yaroqli, hatto foydali mahsulotga aylangan.

чәппәть – nonning juda yupqa qilib tayyorlanadigan turi. Bu non turi, asosan, tojik millati tomonidan pishiriladi. Manbalarda uning chevati[8] shaklida qo‘llanganligini ham ko‘rishimiz mumkin. Bu nom turkiy so‘z bo‘lib, chevati>chapatti>chappati shakliga kelib qolgan deb taxmin qilishimiz mumkin.

мәвә–чәвә (meva-cheva) – bu so‘z adabiy tildagi meva-cheva juft so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli bo‘lib, sheva leksikasida omonimlik hosil qiladi va ikki xil ma’noda qo‘llanadi: 1) mevalar, 2) shirinliklar.

Байьмжан – adabiy tilda baqlajon deb nomlansa-da, shevada, asosan, baqala, bayimjon tarzida qo‘llanishiga guvoh bo‘lamiz.

Кадь– oshqovoq. Shevada uning ashkadi shakli ham qo‘llanadi. Bunda iste’mol qilinadigan oshqovoqlar tushuniladi. Ammo shevamizda dasmolkadi deb nomlangan qovoq turi ham bor. Uni iste’mol uchun emas, balki yumshoq bo‘lganligi sababidan idish-tovoqlarni yuvishda foydalalniladi.

Ғора, давча – dovuchcha. G’o‘ra so‘zi ba’zan boshqa pishmagan mahsulotlarga ham, ba’zan esa ko‘chma ma’noda insonlarga nisbatan ham qo‘llanilishini kuzatishimiz mumkin (G’o‘r bola kabi). Dovcha esa dovuchcha so‘zining qisqartirilgan shakli hisoblanadi.

Лубья – loviya. Bu so‘z asli fors-tojikcha bo‘lib, lubiyo[9] so‘zi o‘zbek tiliga loviya tarzida o‘zlashgan. Uzun tumanida ham tojik millati vakillarining ko‘pligi va ular bilan aloqalarning kuchliligi sabab tuman shevasida uning loviya emas balki tojikcha formasi – lubiya(o) shakli qo‘llaniladi.

Чучь қэтық – yangi ivitilgan qatiq (kefir). Bilamizki, sutni kadidan tayyorlangan idishlarga, xumga ivitish momolarimiz tomonidan keng qo‘llangan. Bunda qatiq shirin bo‘lib uviydi. Shu sababdan ham bu ozuqa nomi metaforik jihatdan shunaqa nomlangan. Bundan tashqari zardobi ajralgan qatiqqa nisbatan ancha shirin ham bo’ladi.

Чучь май – dog‘langan (chuchuk qilingan) moy mahalliy xalq tilida shunday nomlanadi. Sababi o‘zimlik moylari dastlab siqib olinganda juda achchiq tam va yoqimsiz hidga ega bo’lishadi. Ma’lum gradusda dog’langandan so‘ng esa moy ta’mi o‘z achchiqligini hamda o’tkir hidini yo‘qotib, chuchuk bo‘lib qoladi.

Чаккъ– zardobidan ajralgan qatiq. Uning suzma, qatiq shakllari ham mavjud. Odatda umumiy nom bilan qatiq deb yuritiladigan bu sut mahsuloti, chuchuk qatiq, chakki, sil chakki kabi ko‘rinishlarga ajratiladi.

Кәбәк– kabobning cho‘qqa qo‘yib tayyorlanadigan turi bo‘lib, arab tilidan o‘zlashgan kabob so‘zining fonetik jihatdan o‘zgargan shakli hisoblanadi. Nomning kelib chiqishi bir asosga borib taqalsa-da, tayyorlanish usullarida farq bor. Kabob sixga tortib, cho‘g’ ustida aylantirib pishirilgan go‘sht bo‘lsa, kabak esa cho‘g’ning ustiga to‘g’ridan-to‘g’ri qoyib pishiriladigan go‘sht mahsulotlaridir.

Ондьргь– xamir achitish uchun kam miqdorda olib qolingan achitqi xamir. Odatda xamirning achishi uchun asos bo‘luvchi vosita xamirturish deb nomlanadi. Bunda u kukun yoki xamir xamir ko‘rinishda bo‘lishini bilamiz. Xamirni

undirish(achitish)uchun oz miqdorda olib qolingan xamir undirgi deyiladi. Agar xamir ko‘proq bo‘lsa, xamirturish deyilaveradi.

Қувърлық– oqliq, ko‘nargi kabi sinonimlari ham teng iste’moldagi so‘zlardir. Qatiq ivitish uchun solinadigan qatiq yoki zardov quvurliq deb ataladi.

Кьрмач - oshning yoki shu kabi quyuq taomlarning qasnoq, ya’ni qozonga yopishgan joyini anglatuvchi leksema hisoblanadi.

Қуйрук– dumba. Qo‘z-qo‘zilarning oq, seryog’ go‘shti.dumba so‘zi shevamizda dumma tarzida ham qo‘llanilib, insonlarning orqa qismini ham bildiruvchi so‘z hisoblanadi.

Ьмьрта (“Y”lovchilarda), mayak (“J” lovchilarda) – tuxumni bildiruvchi bu so‘zlar bir vaqtning o‘zida teng sinonimlar sifatida qo‘llanadi.

Чашкайъ – choshgoh payti beriladigan ovqat, yegulikni anglatuvchi bu leksema metonimiya yo‘li bilan hosil qilingan.

Чашмъч– tandirdan yangi uzilgan nonni maydalab to‘g‘rab, unga saryog‘ qo‘shib, yaxshilab yanchib tayyorlarnadi. Shu sabab ayrim hududlarda yanchmish (“y”lovchi sheva vakillari istiqomat qiladigan hududlar), ayrimlarida janchmish/jashmich (“j” lovchi aholi nutqida) holida qo‘llanadi.

Xulosa va takliflar. Ro‘yxatni yana-da ko‘proq davom ettirish mumkin. Ammo qisqaroq bo‘lishi uchun shevadagi boshqa dialektalizmlarga ham o‘tish lozim. Biz keltirgan misollarning asosiy qismi sodda (tub va yasama) so‘zlar tashkil etadi. Masalan, janchmish so‘zi fe’l so‘z turkumidan o‘zlashgan soda so‘z bo‘lsa, chashkayi so‘zi payt oti ma’nosini bildiruvchi choshgoh so‘ziga “i” so‘z yasovchi qo‘shimchasini qo‘shish yo‘li bilan hosil qilingan. Bunda choshgoh so‘zining oxiridagi “h” tovushi og’zaki nutqda tushib qoldirilib, chashka tarzida qo‘llanganligi sabab “i” so‘z yasovchi qo‘shimchasi –yi tarzida qo‘shilgan. Xulosa qilishimiz mumkinki, sheva leksikonida oziq-ovqat nomlari anchayin faol ekan.

ADABIYOTLAR

1. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III қисм. Тошкент.: Университет, 2009. - 230-bet
2. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. II қисм. – Тошкент.: Университет, 2009 - 389-bet
3. Абдулаҳатов Н ва бошқалар. М. Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2013, - 27-bet
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III қисм. – Тошкент.: Университет,2009, - 264-bet
5. Тоғаев Т. Алишер Навоий асарлари тилида таом номлари. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий-методик електрон журнал. №5, 2019
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг етимологик луғати. II қисм. – Тошкент.: Университет, 2009, - 409-bet
7. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III қисм. – Тошкент.: Университет, 2009, - 272-bet
8. Абдулаҳатов Н ва бошқалар. М. Кошғарийнинг “Девону луғатит турк” асаридаги лексик бирликлар тадқиқи. – Тошкент.: Янги аср авлоди, 2013, - 26-bet
9. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. III қисм. – Тошкент.: Университет, 2009, - 127-bet

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 811. 111`367.635:811.512. 133`373.46

Zaynab QODIROVA,
BuxDU Fakultetlararo chet tillar kafedrasi kata o’qituvchisi

BuxDU dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

REKLAMA TILINING LINGVOMADANIY VA SOTSIOPRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada reklama diskursining lingvomadaniy va sotsiopragmatik, pragmatik xususiyatlarini tahlil qilinadi. Ingliz va o’zbek tillaridagi reklama tilining lingvistik xususiyatlari haqida olimlarning fikrlari ham keltiriladi.
Kalit so’zlar. Reklama diskursi, lingvistik tahlil, lingvomadaniy xususiyatlar, sotsiopragmatik tahlil, pragmatic tahlil.

ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ И СОЦИОПРАГМАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ ЯЗЫКА РЕКЛАМЫ

Аннотация

В статье анализируются лингвистические, культурологические, социопрагматические и прагматические особенности рекламного дискурса. Также представлены мнения ученых о лингвистических особенностях языка рекламы на английском и узбекском языках.
Ключевые слова. Рекламный дискурс, лингвистический анализ, лингвокультурологические особенности, социопрагматический анализ, прагматический анализ.

LINGUISTIC AND SOCIOPRAGMALINGUISTIC FEATURES OF ADVERTISING LANGUAGE

Annotation

This article analyzes the linguistic, cultural, sociopragmatic, and pragmatic features of advertising discourse. The opinions of scientists about the linguistic features of the advertising language in English and Uzbek are also presented.
Key words. Advertising discourse, linguistic analysis, linguistic and cultural features, sociopragmatic analysis, pragmatic analysis.

Kirish. Reklama ma’lum maqsadlarga erishishga va maqsadli auditoriyaga ta’sir o‘tkazishga qaratilgandir. Reklama matnini yaratishda inson ruhiyatining xususiyatlari[1] hisobga olingan taqdirdagina reklama yuqorida qayd etilgan funksiyalarni amalga oshiradi. Ko‘p yillar davomida mavjud bo‘lgan reklama modeli AIDA (attention – interest – desire – action, ya’ni e’tibor – qiziqish – xohish – harakat) deb ta’riflangan. Ushbu model birinchi marotaba reklama yaratish bilan shug‘ullangan amerikalik Elmer Levis tomonidan 1896 yilda taklif qilingan. Reklama xabari odamlarning ruhiyatiga bosqichlar ketma-ketligi asosida ta’sir etadi: birinchi navbatda, e’tiborni jalb qilish, so‘ngra katta qiziqishni uyg‘otish, istakni shakllantirish, reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatni sotib olish zarurati sabablarini keltirish va oxirida mahsulot yoki xizmatni sotib olish to‘g‘risidagi qarorni rag‘batlantirish zarur. Binobarin, reklama matnlari antropotsentriklik, ya’ni insonni nishonga olish bilan ajralib turadi. Reklama matnlarining inson va jamiyat ehtiyojlarini qondirishga qaratilganligi amaliy jihatdan aniqlangandir.

Adabiyotlar tahlili. Insonning qarashlari va qadriyatlari tizimi bu inson ehtiyojlaridan kelib chiqib qadriyatlar ierarxiyasiga asoslanib shakllangan tizimdir. Reklama matnlarining tadqiqoti bilan shug‘ullanib kelgan olim V.V.Uchenovaning fikriga ko‘ra, aholining turli guruhlari va alohida shaxslarning ichki tuyg‘ulari nuqtai nazaridan qiymat yo‘nalishlari arxetiplar, stereotiplar va ideallarni o‘z ichiga oladi[2]. Tilga olingan barcha komponentlar sezilarli farqlarga ega. SHunday qilib, arxetiplar bu ajdodlardan meros bo‘lib o‘tgan qadriyatlar; stereotiplar bu hozirgi kunda shakllanib kelayotgan qadriyatlar; ideallar bu shaxsning yaqin kelajagi bilan bog‘liq bo‘lgan qadriyatlardir. Reklama yaratuvchilari o‘z maqsadlariga erishish uchun qadr-qimmat yo‘nalishlarining turli guruhlaridan unumli foydalanadilar. Reklama matni o‘z mohiyatiga ko‘ra ijtimoiy tartibga solish va maqsadli auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish vositasidir. Bu ta’sir ushbu aholi guruhi qadrlaydigan va hozirgi paytda bo‘lishini istagan fikrlash tarzini hamda turmush tarzini taklif qilishda amalga oshiriladi. SHunday qilib, reklama yaratuvchilari faol tarzda aholi qadriyatlariga murojaat qiladi. Bundan tashqari reklama beruvchilar o‘ziga xos srtategiyalar, ya’ni oqilona va hissiy strategiyalardan foydalanadi. Oqilona (ratsional) strategiyalar reklama xabarini asoslash uchun inkor etilmaydigan dalillarni keltirish bilan tavsiflanadi. Bu mantiq darajasida iste’molchining o‘ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan mahsulot sifati mavjudligini tasdiqlaydi. Hissiy strategiyalar bu reklama qilinayotgan mahsulot yoki xizmatning xaridor uchun jozibali qiyofasini yaratadigan, shuningdek, uni sotib olish bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan ijobiy kayfiyatni yaratadigan reklama xabarlaridan foydalanish[3].

Tahlil va metodlar. Bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida bizda tovar va xizmatlarning ajoyib xilma-xilligi mavjudligini ko‘rish mumkin. SHu sababli, reklama xabarlarida til vositalarini tanlash, tashkil etish va mumkin bo‘lgan o‘zgartirishlar faqat reklama qilinayotgan mahsulotning o‘ziga xos xususiyatlari, balki maqsadli auditoriyaning o‘zi, ya’ni uni tashkil etuvchi shaxslarning holati, ularning psixologik xususiyatlari bilan ham belgilanadi[4].

Reklama matnini tushunishdagi farq til faoliyatining pragmasemantik, pragmatik va sotsiopragmatik me’yorlari hamda qoidalarining buzilishi oqibatida pragmatik darajada yuzaga keladi. Assotsiativ-emotsional so‘zlar tomonidan yaratilgan pragmatik ta’sir, birinchi navbatda, ularning bilvosita qabul qiluvchining turli his-tuyg‘ulari va his-tuyg‘ulariga murojaat qilish qobiliyati, shuningdek, qabul qiluvchiga hissiy va psixologik ta’sirni kuchaytirishga sabab bo‘ladi. Ma’lum bir reklama matnining stilistik xususiyatini, uning pragmatik ahamiyatini oldindan belgilab qo‘ymasdan, balki uning ijobiy yoki salbiy ma’nosini ham aniqlash uchun tuzilgan o‘ziga xos gaplar assotsiativ-emotsional so‘zlar deyiladi. Reklama matnining iste’molchiga ta’siri shuni ko‘rsatdiki, matnning pragmatik o‘zagi niyat bo‘lib, u o‘zining axborot tarkibida baholovchi va ifodalovchi so‘zlariga ega bo‘ladi. Xususan, tilning bir vaqtdalik, ustuvorlik va ketma-

ketlik ma’nolarini ifodalovchi temporal shakllari o‘quvchini matn tuzilishi bilan tanishtirish va uni dialog mantig‘iga mos ravishda qurish uchun juda muhimdir.

Reklamani ishonarli ijtimoiy nutq sifatida o‘rganishga yondashadigan semiotika, tilshunoslik, sotsiologiya, psixologiya va antropologiya kabi sohalar mavjud. Uning shaxsiy psixikaga va ijtimoiy evolyusiyaga ta’sirini muhokama qilish 1920-yillarga borib taqaladi, o‘sha paytda bosma va radioda zamonaviy reklama paydo bo‘lgan bo‘lib, reklamalar hamma uchun ochiq bo‘lgan va keng tarqalgan hodisaga aylandi, chunki reklama sodda bo‘lsa-da, ammo hissiy jihatdan kuchli tilga asoslangan. Reklamaning jamiyatga, e’tiqodlarga, axloqqa qanday ta’sir qilgani, dunyoqarashlarni o‘zgartirish xususiyatlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar reklama diskursi hisoblanadi va bu antropotsentrik tadqiqotlarning asosiy ustuni sanaladi. Reklamani korporativ bilan bog‘lash uchun ko‘plab yondashuvlar ham paydo bo‘ldi, kapitalistik g‘oyalar, ya’ni faqat tovarlar ob’ekt sifatida taqdim etiladi, degan tushunchalar ham paydo bo‘ldi.

Eng zukko shoumenlar va dastlabki reklamachilardan biri P.T.Barnum (1810-1891) o‘zining diqqatga sazovor joylarni targ‘ib qilish uchun bo‘rttirib ishlatiladigan rang-barang tilga tayandi. Uning shou va ko‘rgazmalariga qiziqish uyg‘otish uchun mubolag‘a va boshqa ritorik usullardan foydalanganini kuzatish mumkin. U standart konstruksiyaga aylangan quyidagi iboralarni ishlatgan:

Don’t miss this once-in-a-lifetime opportunity!
Limited edition at an unbelievably low price!
All items must go!
Not to be missed!

Reklama uslubining asosini ritorika tashkil etadi. Reklamachilar o‘zlarining nutq janrlarini yaratish uchun ko‘plab murakkab ritorik usullardan foydalanadilar. SHe’riyat singari, reklama nutqi ham tashbeh, kinoya, o‘xshatish, hazil va iboralardan tashkil topadi. Ingliz olimlari Lakoff va Jonson (1980) reklama tilini fundamental tarzda o‘rganish jarayonida konseptual metafora terminini qo‘llaydilar, bu ritorik gaplar uchun zamonaviy atamadir. Televizorda bir necha yil oldin Miller pivosi uchun reklama sport tadbirlari paytida efirga uzatilgan, shior Love is a game reklamasida sevgini yashirin ijtimoiy skript bilan bog‘ladi, bunda sevgi qoidalar, o‘yinlar, g‘alaba qozonish, yutqazish va hokazolarni o‘z ichiga oladi. Bu sevgi haqida umumiy tushuncha yoki ong ostiga ta’sir qiluvchi metaforik formula: Love is a game bu reklama rolikida eksplitsit tarzda aytilgan.

Lakoff va Jonson bunday formulaning umumiy mavzusi (love) - maqsadli domen va umumiy metaforik vosita (game) - manba domen deb ta’rif berishadi. Konseptual metafora lingvistik metafora sifatida tanilgan. Demak, "She didn’t play by the rules" va "He lost her love" kabi o‘ziga xos lingvistik metaforalar “Love is a game” konseptual metaforasi bilan bog‘langan. (Biz sevgida g‘alaba qozonishimiz yoki yo‘qotishimiz mumkin va biz o‘zimiz kabi o‘ynashimiz mumkin.) Boshqacha qilib aytganda, sevgi ijtimoiy talqinlarni aks ettiruvchi ritorik konstruksiyadir (game so‘zi). Ko‘pgina shiorlar va reklamalar mahsulotni ijtimoiy tafakkur bilan bog‘lash uchun xizmat qiladigan konseptual metaforalardan foydalanadi[5].

Konseptual metaforalar va boshqa ritorik usullar reklama nutqining asosini tashkil qiladi. Ko‘pgina brend nomlari bevosita metaforadan foydalanadi. Mahsulotni nomlash indeks funksiyasiga ega, ya’ni iste’molchilarga qaysi mahsulotni aniqlash, sotib olish uchun tanlov imkonini beradi. Mashhur brendlar, masalan, Armani, Gucci, Calvin Klein, Lamborghini, Maserati kabi nomlar ishlab chiqaruvchining nomidan foydalanish emas, balki ba’zi ixtiro qilingan nom yoki ifoda mahsulotga badiiylik, hunarmandchilik va yuqori sifat aurasini beradi va metaforik ma’noga ega, ya’ni kiyim-kechak, poyabzal tasvirlarini emas, balki san’at ob’ektlarining tasvirlarini ko‘rsatadi.

Bunday hollarda ishlab chiqaruvchining nomi mahsulot indeksi ma’nosini sezilarli darajada kengaytiradi. Ushbu kengaytma jarayoni metaforik bo‘lib, ishlab chiqarilgan mahsulot san’at asaridir. Til (brend, shior, slogan va boshqalar) mahsulot imidjini ijtimoiy tafakkurga kiritish uchun yaratilgan - bu de-fakto metaforasidir. Insonlar, masalan, Armani yoki Gucci, Kristian Dior, Moondrops, Natural Wonder, Rainflower, Sunsilk, Skin Dew, Eterna 27, Endosil, Equalia go‘zallik mahsulotlarini sotib olganlarida reklamada ko‘rsatiladigan modellar rasmi, haykali va boshqalardek tabiatning go‘zallik manbalarini o‘zlashtirayotganini, jozibali sevgini his qilishadi. Reklama diskursining antropotsentrik tadqiqi ularning insonlarga ta’sirini o‘rganish, pragmatik talqinini tushunish, ilmiy asoslash, konnotatsiyalar tizimini keltirib chiqarish orqali sotsiolingvistik tahlil qilishdan iboratdir[6].

Qaysidir ma’noda ritorik nutq mahsulot yoki xizmatlar vizual tasvirlarining lingvistik tarjimasidir. O‘rta asrlar oxirlarida, savdogarlar o‘z do‘konlari tashqarisida xarakterli belgilarni joylashtirdilar va bu savdo belgisi tushunchasini keltirib chiqardi. Taxminan 1880 yillarda sovun va tish pastasi ishlab chiqaruvchilar o‘z mahsulotlarini aniqlash uchun nom berishni boshladilar. Birinchi zamonaviy brend nomlar va unga qo‘shilgan logotiplar (brendlarni ifodalovchi vizual belgilar) Ivory, Pears, Sapolio, Colgate, Kirk’s American Family, Packer’s, keyinchalik Royal Baking Powder, Quaker Oats, Baker’s Chocolate, Hire’s Root Beer, Regal Shoes, Waterman’s Pens, Bon Ami, Wrigley, Coca-Cola kabilar o‘z reklamalarini chiqara boshladilar.

Xulosa. Ko‘plab brend nomlari bizning tasavvurimizni kengaytiradi, ular uyg‘otadigan ruhiy tasvirlar orqali bizning tuyg‘ularimizni harakatga keltiradi. Ritorik nutqning bu "his-tuyg‘u beruvchi" kuchi inson hayotini sharhlaydi va jamiyat madaniyati haqida ma’lumot beradi. Reklama diskursi konseptual metaforalar, onomatopik shakllar va shunga o‘xshash sifatlashlar orqali ishlab chiqaruvchilar va sotuvchilarning xabarlarini samarali tarzda, ritorik shaklda yetkazishdir.

ADABIYOTLAR

1. Ученова В.В., Старуш М.И. “Философский камешек” рекламного творчества: культурология и гносеология рекламы. – М.: Максима, 1996. – С. 234.
2. Ўша асар. – С. 89.
3. Назайкин А.Н. Рекламный текст в современных СМИ: практическое пособие. – М.: Эксмо, 2007; Баркова Л.А. Влияние фактора адресата на окказиональное использование фразеологических единиц / Сб. науч. трудов. Вып. 244. – М., 1985. – С. 3-15.
4. Баркова Л.А. Влияние фактора адресата на окказиональное использование фразеологических единиц / Сб. науч. трудов МГПИИЯ им. М.Тореза. Вып. 244. – М., 1985. – С. 3-15.
5. Lakoff, G., & Johnson, M. Metaphors we live by. Chicago, IL: Chicago University Press. 1980.
6. Danesi, M. Brands. London, UK: Routledge.2006.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

Akmal QURBONOV,
O‘zRFA Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti
E-mail: sitora3991@gmail.com

Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeyi direktori, professor, filol. f.d. J.Eshonqulov taqrizi asosida

SOURCE STUDY OF UZBEK LITERATURE OF THE 20TH CENTURY

Abstract
In this article, Uzbek literary source studies of the 20th century are studied on the basis of scientific literature. Source studies history and scholars are divided into groups. Information about sources has been scientifically analyzed based on sources. The influence of teachers on the source studies of the present period has been determined.
Key words: source, text, book, bayaz, manuscript, scientific-tankidic text, heir, civilization, fihrest.

ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ XX ВЕКА

Аннотация
В данной статье, на основе научной литературы, изучается узбекское литературоведение XX века. История источниковедения и ученые делятся на группы. Информация об источниковедах была научно проанализирована на основе источников. Определено влияние учителей на источниковедение современного периода.
Ключевые слова: источник, текст, книга, байаз, рукопись, научно-критический текст, наследник, цивилизация, фихрест.

XX ASR O‘ZBEK ADABIY MANBASHUNOSLIGI

Annotatsiya
Bu maqolada XX asrning o‘zbek adabiy manbashunosligi ilmiy adabiyotlar asosida o‘rganilgan. Manbashunoslik tarixi va olimlar guruhlarga ajratilngan. Manbashunoslar haqidagi ma’lumotlar manbalar asosida ilmiy tahlil qilingan. Hozirgi davr manbashunosligiga ustozlar ta’siri aniqlangan.
Kalit so‘zlar: manba, matn, kitobat, bayoz, kulyozma, ilmiy -tankidiy matn, merosxo‘r, tamaddun, fihrest.

Kirish. Har qanday manba yozuv bilan chamabarchas bog‘liq bo‘lib, uning ilmiy tahlili va tadqiqini amalga oshirish uchun rasm(yozuv sifatida), belgi (mixsimon yozuv), iyerog-liflar(Misr yozuvlari) va harflarga (harflar bilan bitilgan yozuvlar) murojaat qilinadi.

Yozuv insoniyat tarixidagi buyuk kashfiyot, madaniyat, davlatchilik paydo bo‘lganligini isbotlovchi dalilardan biridir. Yozuv dastlab rasm, mixsimon belgi, keyinroq iyerogliflar paydo bo‘lgan. Harflarga asoslangan yozuv fanga ma’lum bo‘lishicha finikiyalar asos solgan bo‘lib, miloddan oldingi II yillikda paydo bo‘lgan.

Bizning o‘lkamizda, ya’ni Markaziy Osiyoda harflarga asoslangan yozuv paydo bo‘lishida yunon, oromiy yozuvlarining roli katta.

“O‘rta Osiyoda ham arab yozuviga qadar yunon, oromiy yozuvi asosida paydo bo‘lgan qadimgi baqtiriya, xorazmiy, so‘g‘diy yozuvlari bo‘lganligini arxeologik manbalar asosida o‘z isbotini topmoqda [1].”

Bunday ilmiy qarashlar o‘zbek millatining tarixi, tili, milliy adabiyotining paydo bo‘lgan boshlang‘ich nuqtasi hamda hududi emas. O‘zbek millatining adabiy manbalari uzoq davrlarga borib taqaladi. Fanda bu o‘z isbotini topgan. Adabiyotshunos va manbashunos olim Nasimxon Rahmonovning ilmiy tadqiqotlarida milliy adabiyotimizning manbalari haqida quyidagicha ma’lumotlar keltirilgan.

“Qadimgi turkiy miflarning manbai urxun-enisey yozma yodgorliklari va qadimgi xitoy yilnomalarida, ayrim arab, fors va boshqa manbalarda saqlanib qolgan. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklardan Kultigin bitigtoshining birinchi misrasida olamning va insoniyatning paydo bo‘lishi haqidagi mif mavjud: Uza ko‘k tangri asra yag‘iz yer qilintuqta akin ara kisi o‘g‘li qilinmis. Kisi o‘g‘linta uza achum apam Bo‘min qag‘an, Istami qag‘an o‘lurmis, o‘luripan turk bo‘dunin alin to‘rusin tuta birmis, ita birmis – Yuqorida ko‘k osmon, ostda qora yer qilinganda. Ikkovining orasida inson bolasi yaratilgan. Inson bolasi ustidan ota-bobom Bo‘min xoqon, Istami xoqon o‘rnashganlar, o‘rnashib, turk xalqining davlatini, qonun-qoidalarini ushlab turgan. rioy qilib turgan [2].”

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. XX asr adabiy manbashunosligini tadqiq qilish Mustaqillik yillarida adabiyotshunos va manbashunos olimlarning diqqat markazida bo‘ldi. Adabiy manbalar bo‘yicha mazkur davrda bir qancha olimlarning tadqiqotlari mavjud. Olimlar turli adabiy muhitlardagi yangi ijodkorlarni bir qanchasini kashf qilingan.

Natijada zikr qilingan davr adabiy manbashunosligini va tadqiqotchilarini qiyosiy o‘rganishga ehtiyoj tug‘uldi.

Taqiqot metodologiyasi. XX asr o‘zbek adabiy manbashunosligi o‘rganish adabiyotshunoslik va adabiy manbashunoslikda muhim ahamiyatga ega. Qo‘lyozmalar va toshbosma manbalar asosida shoirlar ijodini o‘rganish xususan, katta ilmiy salohiya hamda tajribani talab qiladi. Turli ilmiy chalkashliklarga aniqnlik kiritadi.

Tahlil va natijalar. Biz ob’ektimizga o‘tishdan oldin o‘zbek manbashunoslik faning tarixiy-ilmiy jarayoni haqida qisqacha ma’lumotlarini keltirishni lozim topdik va o‘rinli bo‘ladi, deb o‘yladik.

XX asrda qo‘lyozmalarni yig‘ig‘ish, ilmiy istifodaga olib kirish, lug‘utlar va fihrestlar tuzish bilan birga umumiy manbashunoslik rivoj topdi. Fikrimizning yorqin isboti sifatida “O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi sharq qo‘lyozmalari majmuasi - “Sobraniye vostochnых rukopisey ANUzR” tuzildi. Majmua 11 jilddan iborat bo‘lib, 1952-1987 yillar oralig‘ida nashr qilingan. Bu majmuaga yurtmizda yozilgan aksariyat qo‘lyomalar kiritilishi asnosida o‘rganildi hamda annotatsiya shaklida ular haqidagi ma’lumotlar darj qilindi. Xorijda topilgan o‘zbek adabiyoti va tarixiga ta’luqli qo‘lyozmalar majmuaga kiritilgan manbalar bilan qiyosiy o‘rganildi. Majmua o‘zbek adabiy manbashunosligining

keyingi davri rivojiga ma’lum ma’noda bir turtki bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

XX asrning o‘zbek adabiy manbashunosligi haqida bir qator olimlarning ilmy qarashlari mavjud. Bu davr yutuqlarini yortish uchun manbashunoslik bo‘yicha darslik, o‘quv qo‘llanma va monografiyalarni yozish XX asrda boshlandi va mutaxassislar tayyorlashga kirishildi. Jumladan, P. Shamsiyev “O‘zbek matnshunosligiga oid tadqiqotlar 1986”, Erkinov A.S. “Matnshunoslikka kirish 1997”, Alimulla Habibullayev “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik 2000”, Madrimov A., G. Fuzailovalar “Manbashunoslik 2008”, Mahmud Hasaniy, Alimulla Habibullayevlar “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik nazariy masalalari 2012” kabi olimlar oliy ta’limda malakali kadrlarni yetishtirish uchun astoydil bel bog‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin oliy ta’limda adabiy manbashunoslik bo‘yiycha mutaxassis tayyorlashga alohida e’tibor qaratildi.

Mazkur davr haqida yuqorida nomi zikr qilingan olimlarning o‘z qarashlari mavjud. Dastlabki, adabiy manbalar bilan shug‘ullangan olimlarni ba’zi adabiyotlarda matnshunos, deb keladi. Masalan, P. Shamsiyev, H. Zaripov, S.Ayniy kabilar. Bu olimlar matn bilan birga adabiy manbani ham chuqur o‘rgangan. Adabiy manbalarni turli yo‘llar bilan asarab avaylab bugungi kungacha yetib kelishida ularning xizmatlari beqiyos.

“XX asrning umumiy taraqqiyoti o‘zbek manbashunosligini shakillanishiga olib keldi. Toshkentda 1870 yilda davlat kutubxonasi tashkil etilib, uning sharq qo‘lyozmalari bo‘limi ochilgan. XX asr boshlarida ushbu kutubxonda yuzdan ortiq qo‘lyozma jamlangan. Samarqandda qo‘lyozma kutubxonasi mavjud bo‘lgan. Jadidlar tomonidan Toshkentda “Turon” kutubxonasi ochilib, unda turkcha, tatarcha va ozarbayjoncha nashrlar jamlangan.

Oktabr to‘ntarishidan keyin Fitrat, Saydali, Sadriddin Ayniy va boshqa o‘zbek ziyolilari o‘tmish merosni o‘rganish-ga kirishdilar hamda “o‘zbek millatchilari” nomini oldi [3].”

Hozirgi kunda bu kutubxona “Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxon” nomi bilan ataladi. Kutubxonada nodir manbalar saqlanadi. Manbashunoslarni yetishtirishda asosiy ilm markazlaridan biri sanaladi. Qo‘lyozmalar bilan birga o‘zbek matbuoti nashrlari fondi ham mavjud.

Mazkur davrda arab alifbosidan krill yozuviga asoslanga o‘zbek alifbosiga manbalarni transliteratsiya qilish ishlari amalga oshirildi. Mutaxassislardan tashqari ommaga o‘zbek alifbosida adabiy manbalardan bahramand bo‘lishga imkon yaratildi.

“Yurtimizda o‘tgan asr 20-yillardan boshlab o‘zbek matnshunosligi, ayniqsa, bu sohaning amaliy yo‘nalishi tez rivoj topdi. Matnlarni tayyorlash va nashr qilish bilan bog‘liq salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu ishlarda S. Ayniy («Xamsa”ning qisqartirilgan nashri), Fitrat (Eski o‘zbek adabiyoti namunalari), I. Sultonov («Mezonul-avzon”), P. Shamsiyev («Xamsa” – 1960), H. Sulaymonov («Xazoyinul-ma’oniy” – 1958–61), S. Faniyeva («Majolis un nafois” – 1961) kabi olimlarning roli katta bo‘ldi. Ayniqsa, rus-kirill yozuvi joriy qilinishi bilan bu ishlar yangi bosqichga ko‘tarildi. O‘zbek adabiyotshunos olimlaridan S. Mirzayev, V. Zohidov, A. Qayumov, A. Hayitmetov, F. Karimov, S. Mutalibov, S. Dolimov, R. Majidiylarning matnshunoslik amaliyotiga oid izlanishlari bu sohani yuksaltirishga ma’lum hissa bo‘lib qo‘shildi [4]”.

Bulardan tashqari, mazkur davrda Hamid Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti, Aburayhon Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalari instiuti, Alisher Navoiy nomidagi davlat adabiyot muzeylari tashkil qilindi. Keyinchalik Hamid Sulaymonov nomidagi qo‘lyozmalar instituti Aburayhon Beruniy nomidagi sharq qo‘lyozmalari instiuti qo‘shib yuborilgan. Bunday ilm maskanlarining tashkil qilinishi o‘sha davrda o‘zbek manbashunosligining rivojlanish ulak hissa qo‘shdi va bir qator malakali kadrlar tayyorlandi.

XX asrda o‘zbek adabiy manbashunosligi va matnshunosligi bir qadar yutuklarga erishdi. Bu davrda fanlarning chegaralariga aniqlik kiritildi. Har bir fan xususiy sohani o‘rganadigan bo‘ldi. XX asrda o‘zbek adabiy manbashunosligi va umumiy manbashunoslik sohasini o‘rganuvchi olimlarni shartli ravishda uch guruhga bo‘lish mumkin.

Birinchi guruhi “maqsadli guruh” V. V. Bartold, YE. E. Bertels, N. P. Ostromovlar.

Ikkinchi guruhga jadid adabiy manbashunoslari Abdurauf Fitrat, Vadud Mahmud, S. Ayniy.

Uchinchi guruhga Parso Shamsiyev, H. Zaripov, S. Ayniy, Hamid Sulaymonov, S. Mirzayev, V. Zohidov, A. Hayitmetov, F. Karimov, S. Mutalibov, S. Dolimov, R. Majidiy, Aziz Qayumov va keyingi avlod vakillari.

Birichi guruh vakillarining eng asosiy maqsadi Sharq tillari bilan umumiy, ya’ni hamma manbalarni qiyoslab o‘rganishga mo‘ljallangan. Ular imperiya maqsadlarini amalga oshirish uchun manbalarni har taraflama: adabiy manbashunoslik, folklorshunoslik, etnografik va boshqa jihatlarini tahliliy o‘rganishi ancha e’tiborli.

Ikkinchi guruh vakillari jadid adabiy manbashunos-larining ijtihodlari ham maqsadli bo‘lib, millatni ma’rifatli bo‘lishi hamda o‘zligini anglash yo‘lidagi harakatlardan iborat.

Uchinchi guruhga adabiy manbashunoslarning ishlari mavjud manbalarni asarab qolish hamda ilmiy istifodaga kiritishga qaratilgan. Bundan tashqari, dahriy imperiyaning qatog‘on siyosati davrida xalqning ma’naviy boyliklarini keyingi avlod vakillariga turli metodlar orqali yetkazishdan iborat edi. Masalan, adabiy manbalarning nusxalarini jahonning turli burchaklarida saqlanayotgan joyini aniqlash, foto nusxalarini O‘zbekistonga olib kelish, ilmiy-tanqidiy baholash, krill alifbosiga asoslangan o‘zbek alifbosida nashr qilish kabi missiyalarini amalga oshirgan. Bu guruh millat ichidan adabiy manbashunoslik va matnshunoslik bilan shug‘ullanuvchi avlod vakillarini tarbiyat qildi. Bizning ob’ektimiz bo‘lgan Mavjuda Shokir qizi Hamidova mazkur maktab vakilalaridan hisoblanadi.

Uchunchi guruh manbashunoslari o‘zbek adabiy manbashunosligining keyingi avlod vakillarini tarbiyalashda xizmatlari beqiyos. M. Homidova, N. Rahmonov, Q. Sodiqov, M. Hasaniy, A. Habibullayev, A. Erkinov, N. Jabborov, R. Zohidov kabi olimlarning tarbiya topishida roli katta.

Jumladan, o‘zbek adabiy manbashunosligi va matnshunosligi sardori filolgiya fanlari doktori Parso Shamsiyev, S Mutallibov, H. Sulaymonov, A. Qayumov, O‘zbekiston Qaxramon S. G‘aniyeva va boshkalar o‘zbek adabiy manbalari haqidagi ko‘plab qimmatli ma’lumotlarni ilm-fanga taqdim etdi. Mavjuda Hamidova pedagogik faoliyati bilan birga adabiy manbashunoslik va matnshunoslik sohasida ham o‘zbek ilm faniga ulkan xissa qo‘shdi. Olima nomzodlik dissertatsiyasini yoqlash jarayonida qo‘lyozma bayozlarni o‘rgangan. Bayozlarni o‘rganish jarayonida bir qancha shoir va she’riy san’atlarga oydinlik kiritgan. Doktorlik dissertatsiyasi “Alisher Navoiy “Saddi Iskandariy dostoniining ilmiy- tankidiy matni va matniy tadkiki”, deb nomlangan. Kitobat san’ati asoslangan xolda olima “Xamsa”ning Parso Shamsiyev tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni va nashr kilingan matni yuzasidan o‘tib ketgan talaygina xato va kmchilik hamda bir qator nuksonlarni aniklab ilmiy nazariy jihatdan xamsashunoslikda baho berdi. Dunyo tamadduniga xissa bo‘lib qo‘shilagan “Xamsa”ning manbalarini dunyoning nufuzli kutubxonalaridan izlash va nodir qo‘lyozmalarini topishda olima ancha ter to‘kkan.

“Ma’lumki, o‘zbek xalqi o‘zining juda katta madaniy va ma’naviy boyliklariga ega. Bu boyliklarning bir qismi jahon qo‘lyozmalar fondini bezab turgan holda, bir qismi hamon xalq qo‘lida – shasiy kutubxonalarda saqlanmoqda. Ularni qidirib topish, bir yerga jamlash va manbashunoslik

nuqtai nazaridan o‘rganib hozirgi ... o‘z merosxo‘rlariga taqdim qilish shu kunning dolzarb muammolaridan bo‘lib qolmoqda. [5]”.

Mustaqillik davrigacha bo‘lgan o‘zbek adabiy manbashunosligi taqdirini manabashunos olim Alimulla Habibullayev “Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik” kitobida quyidaicha eslaydi;

“Manbashunoslik sohasida esa ma’lumotlarning nihoyatda tarqoq ekanligi ma’lum. Bu sohaning alohida bir fan sifatida tan olina boshlanganiga qaramasdan, uning nazariy masalalari, prinsiplari yuzasidan izlanishlar deyarli olib borilmagan. Bu sohada dunyo qo‘lyozma fondlaridan ajratib qo‘yilgan. Olimlarimiz ilmiy izlanishlarni mustaqillik paytigacha bu prinsiplarni Moskvadan kutishga majbur bo‘lishgan [6]”.

Olimning buday qarashlari XX asr o‘zbek adabiy manbashunosligining qay ahvolda ekanligi va o‘z navbatida xolisona aytilgan fikrdir. Bu asar o‘zbek filologiyasida manbashunoslik haqidagi nazariy adabiyotlarning ilk qadamlaridandir. XX asrgacha ilm-fan maydonida manbashunoslikka alohida fan sifatida murojaat qilish, ya’ni qarash mavjud bo‘lmagan.

Olim manbashunoslikning fandagi sohalarini quyidagicha guruhlarga ajratadi.

“Manbashunoslik fanlar sohasi bo‘yicha quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

Adabiy manbashunoslik,

Tarixiy manbashunoslik,

Ilmiy manbashunoslik,

Folklor manbashunoslik [7].

Umuman olganda, manbashunoslik ilmda tarix faning bir sohasi sifatida qabul qilingan.”

Navoiyshunos, matnshunos va manbashunos olim Shuhrat Sirojiddinov “O‘zbek matnshunosligi qirralari” kitobida yuqorida keltirilgan manbashunoslikning hamma “guruhlari” bo‘yicha XX asrda o‘zbek manbashunosligida birgina Fitrat ijodi misolida yetralicha dalillar keltirish mumkinligi isbotlagan.

“Bu jumlalardan ma’lum buladiki, XX asr boshlaridayok o‘zbek matnshunoslari rus matnshunoslari ishlariga tanqidiy baho bera oladigan darajada bilimli va o‘z harakatlarida sobitqadam olimlar bo‘lgan [8]”.

Abdurauf Fitrat Biz shartli ravishda ajratgan adabiy manbashunoslar ikkinchi “guruh”ining avlodiga mansub vakili bo‘lib, hozirgi vaqtdagi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan manbalarni yig‘ishda ancha fidoyilik qilgan. Fikrimizning isboti institut xazinasida saqlanayotgan manbalarni qayd qilish daftarlarida yozilgan Fitrat nomi ham tasdiqlaydi.

XXI asr boshlarida adabiy manba bilan ishlay oladigan va uni kelajak avlodga yetkazish masalasida vaqtli matbuotda bir qancha davra suhbatlari, maqolalar nashr qilinndi. “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi” tom ma’noda bu masalada kurash maydoniga aylandi. Jumladan, 2010 yil “O‘zbekiston adabiyoti va san’at” gazetasining 27-sonida [9] “Matnshunoslik davr talablari darajasidami (davra suhbati)” tashkil qilindi. Bu suhbatdagi savollarga Suyima G‘aniyeva, Nurboy Jabborov, Nusratullo Jumaxo‘ja, Qodirjon Ergashev, Rashid Zohidov, Nafas Shodmonov, Qo‘ldosh Pardayevlar atroflicha javob bergan. Filolgiya fanlari nomzodi Ismoil Bekjon “Taklifliflar jo‘yali ammo...”, Vahob Rahmonovning “ Matn haqiqati” kabi maqolalarida qizg‘in ilmiy bahs va munozaralar bo‘lib o‘tgan.

O‘zA muxbiri Nigora Rahmonova “Bizdan kelajak avlod uchun qo‘lyozma asarlar qoladim” mavzusida filolgiya fanlari doktori, professor Jabbor Eshonqulov bilan qilgan suhbati ham adabiy manbalarning saqlanishi va kelajagi haqidagi ilmiy qarashlardan iborat tavsiyalar edi [10].

Bugungi kunda o‘zbek filolgiyasida amalga oshirilayotgan adabiy manbashusolik bo‘icha ilmiy ishlar “uchinchi guruh”va keyingi avlod yetishtirgan mutaxassislar tayyorlashdagi sa’iy harakatlarning davomiyligidir.

Xulosa va takliflar. XX asr o‘zbek adabiy manbashunosligini tahlilini o‘rganishda quyidagi asosiy xulosalarga keldik:

- tadqiq etilayotgan davrning ahamiyati;
- manbalarning tarixiy-adabiy va madaniy jihatdan tahil etilish maqsadi;
- o‘rganilayotgan davrning manbashunoslarini guruhlarga ajrati;
- xuddi o‘sha davr manbashunoslar ijodini hisobga olish;
- mazkur guruhlarning o‘zbek adabiy manbashunosligiga ko‘rsatgan ta’siri;

Xullas, gap XX asr o‘zbek adabiy manbashunosligi haqida borganda, faqatgina adabiy manbalar taqdiri emas, balki keyingi davr avlod manbashunoslari haqidagi ma’lumotlar ham ahamiyatlidir.

АДАБИЁТЛАР

1. Чориев З. Шайдуллаев Ш. Аннаев Т. Ўзбекистон ҳудудида ёзувнинг пайдо бўлиши ва тараққиёти. Янги аср авлоди. Тошкент, 2007. – 21 – б.
2. Раҳмонов Н. Болтабоев Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи(энг қадимги даврлардан XV асрнинг биринчи ярмигача). ФАН, Тошкент, 2003 .- 17- б.
3. Мадримов А., Фузаилова Г. Манбашунослик. Ўзбекистон файласуфлари миллий жамияти нашриёти. Тошкент, 2008.- 110- б.
4. Ҳасаний М., Ҳабибуллаев А. Адаюий манбашунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент, 2012 .- 12 - б.
5. Ҳамидова М. Фил. фан. док. Дисс... “Алишер Навоий “Садди Искандарий достониининг илмий-танкидий матни ва матний тадкики”. Тошкент: 1994.- 5- б.
6. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент, 2000 .- 134 б.
7. Ҳабибуллаев А. Адабий манбашунослик ва матншунослик. Тошкент давлат шарқшунослик институти. Тошкент, 2000 .-7-8 -бетлар.
8. Сирожиддинов Ш. Умарова С. Ўзбек матншунослиги қирралари. Академнашр. Тошкент, 2015. - 57-58-бетлар.
9. Ўзбекистон адабиёти санъати// Маҳмуд Саъдий, Аҳмад Отабоев. “Матншунослик давр талаблари даражасидами (давра суҳбати)”. 2010 й.- 27- сон.
10. htt://uza.uz/ post/452059

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:81’822-11

Nigina MAVLYANOVA,
Buxoro davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Buxoro davlat universiteti dotsenti M.B.Ahmedova taqrizi asosida

DRAMATIK BOLA-QAHRAMON: ESTETIK HODISALARNING MAVJUDLIGI, O‘ZARO BOG‘LIQLIGI VA FARQLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada dramalarda bola qahramonning yosh va psixologik xususiyatlari, bolalar va kattalar adabiyoti orasidagi farqlar nazariyotchilar fikrlari asosida tahlil qilingan. Bola-qahramonning ingliz dramalaridagi o’rni, sahnalashtirilayotgan asarda bola obrazini yaratishning murakkabliklari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so’zlar: Drama, pyesa, bola-qahramon, obraz, estetik hodisa, psixologik tahlil.

ДРАМАТИЧЕСКИЙ РЕБЕНОК-ГЕРОЙ: СУЩЕСТВОВАНИЕ, ВЗАИМООБУСЛОВЛЕННОСТЬ И ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ ЭСТЕТИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ

Аннотация

В данной статье анализируются возрастные и психологические особенности детского героя в драмах, различия детской и взрослой литературы на основе мнений теоретиков. Обсуждается роль ребенка-героя в английских драмах, сложности создания образа ребенка в постановочной пьесе.

Ключевые слова: Драма, пьеса, ребенок-герой, образ, эстетический феномен, психологический анализ.

DRAMATIC CHILD-HERO: EXISTENCE, INTERDEPENDENCE AND DIFFERENTIATION OF AESTHETIC PHENOMENA

Abstract

This article analyzes the age and psychological characteristics of the child hero in dramas, the differences between children's and adult literature based on the opinions of theorists. The role of the child-hero in English dramas, the complexities of creating a child's image in the staged play are discussed.

Key words: Drama, play, child-hero, image, aesthetic phenomenon, psychological analysis.

Kirish. Jahon adabiyoti mualliflari ko‘p asrlar davomida bola obrazi va bolalik mavzusiga murojaat qilib, "bolalikning tarixiy va adabiy tasvirida, insoniyat taraqqiyotining boshqa davrlari singari, madaniy rivojlanish bilan mustahkamlangan estetik baholar majmuasi bo‘lib, madaniy an’ana bilan bog‘langan va ijtimoiy tendensiyalar ta’siri ostida o‘zgaruvchan xususiyatga ega"[1]. YAngi funksiyalarni o‘zgartirish va egallash, adabiyotda mujassamlangan bolaning badiiy qiyofasi butun tarixiy jarayonda bola "nima ekanligini" tushunishning kalitidir.

Adabiyotlar tahlili. Bola qahramonlar va badiiy adabiyotda bolalik mavzusi alohida barqaror pozitsiyani egallaydi, bu asosan matndan tashqari voqelikning fantastik maydoni bilan o‘zaro doimiy ta’siri bilan bog‘liq. Bolalar adabiyoti tadqiqotchisi P.Xant bu haqida quyidagilarni yozadi: "bolalar kitoblari bolalik bilan qiziq munosabatda bo‘lib, bolalik haqidagi juda ishonchsiz ma’lumotnomadir. Bolalar adabiyotlarida ko‘rsatilgan bolalik, ehtimol kattalar qanday bo‘lishi kerakligini o‘ylashi yoki xohlashi modelini ifodalaydi; yoki kattalar xohlagan rasmni aks ettiradi. Auditoriyani boshqara olmaydigan bolalar adabiyotini tasavvur qilish qiyin"[2]. SHu bilan birga, bolalar mavzusi va qahramon-bolalarni faqat bolalar adabiyoti va bolalar kitoblariga "mo‘ljallangan" deb hisoblash adolatsizlikdir, buning natijasida bola obraziga qaratilgan asarlar muammosi mavjud. Adabiy munozaralar davomida bu masala hal qilinadi. Masalan, I.N.Arzamassevaning so‘zlariga ko‘ra, "bolalar adabiyotini adabiyotning umumiy chegaralaridan ajratish"ga qaratilgan. Asosiy ilmiy tasnifda bolalar uchun adabiyotlar, bolalar o‘qish doirasiga kiritilgan adabiyotlar va bolalarning o‘z ijodini ajratib keltirilgan[3].

Bolalar va kattalar adabiyotini farqlash tamoyillari va mezonlarini tavsiflovchi turli xil konsepsiyalar mavjud bo‘lib, ular X.Evers, M. Mik, M.Staylz, M.Nikolaeva, I.Arzamasseva, M.Grenbi kabi olimlarning asarlarida keltirilgan. Bolalar adabiyotining eng muvaffaqiyatli tushunchasi, bizning fikrimizcha, X.Eversning sxemasi, ya’ni bu yadro va periferiyaning nisbati, bu erda yadro bolalar uchun maxsus yaratilgan va bolalar o‘qish doirasiga kiritilgan (maqsadli bolalar adabiyoti) asarlar to‘plami bo‘lib, periferik maydonni badiiy matnlar tashkil etadi. Ushbu matnlar maqsadli bolalar adabiyoti namunalari emas, ammo bola-kitobxonlarda qiziqish uyg‘otadi yoki aksincha, bolalar auditoriyasiga qaratilgan, ammo bu auditoriya ularga muhtoj emas. Evers sxemasini yuqorida aytib o‘tilgan olimlar tomonidan u yoki bu tarzda to‘ldiriladi va tuzatiladi, ularning umuman bolalar adabiyoti haqidagi g‘oyalari Evers tuzilishiga zid emas, chunki E.I.Xait yozganidek, "bu asarning bolalar adabiyoti janriga tegishli yoki tegishli emasligini aniqlashning asosiy mezonlari bo‘lgan bola-kitobxonning qiziqishlaridir"[4].

Tahlil va metodlar. Zamonaviy tadqiqotlarda yana bir muhim muammo sifatida bolalar adabiyotini o‘smirlar adabiyotidan ajratish mezonlari ko‘rib chiqiladi. Adabiyotni bolalar, o‘smirlar va kattalar adabiyotiga ajratish muammosini hal qilishning murakkabligi turli madaniyatlarda bolalikni yoshlik va etuklikdan ajratib turadigan yosh chegaralarining xiralashganligi bilan bog‘liq, shuning uchun tadqiqotchilar ko‘pincha o‘smirlar adabiyotini e’tiborsiz qoldiradilar yoki uni bolalar adabiyotining bir qismi sifatida qabul qiladilar. "Bolalar asarlarining ikkilamchi toifasi – tabiatda didaktik va jiddiy adabiy baholashga loyiq emas"[5].

Bolalar va yoshlar uchun mo‘ljallangan, ularning o‘qish ko‘lamiga kiritilgan yoki bolalar va o‘smirlar tomonidan yaratilgan bolalar va o‘smirlar adabiyotidan tashqari, badiiy adabiyotning yana bir muhim qatlami mavjud - bolalar haqidagi adabiyot, u bola-kitobxonlar uchun mo‘ljallanmagan va bolalar o‘qish qiziqishlari sohasiga kiritilmagan, ammo bolalik dunyosiga murojaat qilingan,

qahramon bolaga qiziqtirgan. S.V. Kiprina to‘g‘ri qayd etadi, "muallifning irodasi bilan "kattalar" muammolarini hal qiladi va bunday asarlarda keltirilgan muammolar falsafiy, global, barcha avlodlar uchun va har doim abadiydir"[6].Ushbu turdagi adabiyotda bolalar qahramonlari "kattalar dunyosining barcha shafqatsizliklarini o‘z munosabatlariga va bolalar o‘yinlariga o‘tkazishadi"[7] va yoshi katta qahramonlarining "oynasi", "yovuzlikni kattalashtiruvchi oyna" sifatida ishlaydi, bu "kattalar" dunyosida sodir bo‘ladi".

Bolalar uchun nasr va she’riyat (bolalar haqida asarlar), epik va lirik asarlarning kichik qahramonlari obrazlarini tahlil qilishga, tasnifiga bag‘ishlangan ko‘plab madaniy va badiiy asarlar mavjud, dramatik asarlarda bola-qahramonlarning o‘rni haqida savollar va dramadagi bolalar muammolarining o‘ziga xos xususiyatlari haqida masalalar kamdan-kam ko‘tariladi. Ta’kidlash joizki, bu kabi dramatik qahramon va bolalarga bag‘ishlangan drama masalasiga G‘arb adabiyotshunosligida ham murojaat vaqti-vaqti bilan sodir bo‘ladi. Muammo Evropa va Amerika dramaturgiyasi materiallari bo‘yicha o‘rganiladi, mahalliy adabiy tanqid-chilikda esa, garchi zamonaviy ingliz va o‘zbek dramalari tadqiqot mavzusi qiziq bo‘lsa ham hozirgi kunga qadar bu estetik hodisalarga hech qanday e’tibor berilmagan.

"Dramatik qahramon” atamasi ostida biz nimani nazarda tutayotganimizni aniqlash muhimdir. V.E.Xalizevdan keyin biz, hayot va insoniy munosabatlar drama uchun eng muhimi, ammo "insoniy intilishlarning bir nechtasiga va keskin e’tibor qaratish zarurati bilan cheklangan drama uchun insonlar xarkterining brachasi ham maqbul emas. Uning uchun "bir chiziqli" qahramonlar afzaldir"[8]. Boshqacha aytganda, dramatik qahramon epik qahramondan ko‘ra sodda tarzda tashkil etilgan qahramon, o‘zini va o‘z intilishlarini asosan dramatik so‘z va dramatik harakatda ifodalaydi va amalga oshiradi. Drama poetikasi qahramondan xarakterning ma’lum bir yaxlitligini, dramaning cheklanishini talab qiladi, ayni paytda nozik va murakkab qahramonlarni yaratish sohasida ancha yangiliklar qilinmoqda. Spektaklning sahna ko‘rinishini yaratishda, ya’ni "dramaturg erkin aktyorning reaksiyalari uchun obrazlar yaratishiga etarlicha shart-sharoitlar mavjud bo‘ladi. U bu fikrlarni, hissiyotlarni va ixtiyoriy ravishda kuchaytiradi, tasvirlangan vaziyatda tabiiy bo‘lgan impulslar yordamida: qahramonning ruhidan odatiy kundalik "to‘siqlar" olib tashlanadi. O‘z san’ati qonunlarga muvofiq drama muallifi psixologik tajribalar o‘tkazishga moyillikni namoyish etadi. U qanday qilib o‘zini tutishi mumkin, bajonidil ko‘rsatadi, agar u o‘z fikrlari, tuyg‘ulari, niyatlarini maksimal to‘liqlik va yorqinlik bilan aytilgan so‘zlarda bildira olsa”[9].

SHunday qilib, "Children’s Literature: A Very Short Introduction" kitobining muallifi K. Reynolds bolalar adabiyoti kattalar adabiyoti bilan bir xil shakllarda ishlashini hisobga olib, bolalik muammolariga ta’sir qiluvchi dramani bolalar adabiyotining janrlaridan biri sifatida izohlaydi: "Bolalar adabiyoti qadimgi asarlardan boshlab (fojia, komediya, epik, she’riy janrlar, drama) va "chick lit” kabi eng zamonaviylari bilan tugaydigan asarlarni tasniflash uchun ishlatiladigan janrlar va janr shakllaridir[10]”.

J.B.Siks va X.B. Dannington "Children’s Theatre and Creative Dramatics" asarida "bolalar" umumiy atamasidan quyidagilar uchun foydalanishni taklif qilishadi: bolalar tomoshabinlari uchun kattalar tomonidan yozilgan pesalar, bolalar uchun bolalar tomonidan yozilgan pesalar, sahnalash-tirilgan dramalar, ijodiy o‘yinlar va sahnalar uchun matnlar[11].

N.E. Briggs va J.A. Vagnerning "Children’s Literature Through: Storytelling and Drama" monografiyasida asarlarni bolalar haqidagi spektakllarga ajratmasdan bolalar qahramon-lari va bolalar mojarolariga qaratilgan dramatik matnlarning butun majmuasini bolalar adabiyotining bir qismi sifatida ko‘rib chiqishni taklif qilingan va shartli ravishda ikki guruhga ajratilgan - "ijodiy drama" va “nasr sahnalashtirilishi" (hikoya sahnalashtirilishi), bunday farq qat’iy emas va bu ikki hodisaning o‘zaro ta’sir qilishiga imkon beradi. SHunday qilib, “nasr sahnalashtirilishi" nasriy asarning bir qismi yoki to‘lig‘icha harakatning spontanligiga urg‘u berib qayta ishlanadi[12] va unga ijodiy dramaning bir qismi sifatida qarash mumkin. Ijodiy dramaga dramatik o‘yin, rol o‘ynash, pantomima, hikoya qilish, qo‘g‘irchoq teatri, xor qo‘shiqlari, nasr sahnalashtirilishi va improvizatsiya kiradi. Hikoya sifatida ijodiy drama aloqa jarayonidir. Tarixni dramatizatsiya qilish kabi ijodiy drama – bu harakat jarayoni.

YUqorida keltirilgan yondashuvlardan farqli o‘laroq, tadqiqotchi S. Grinhalg "Drama" maqolasida bolalar dramasini alohida janr sifatida ajratadi, balki bolalar qahramonlari ishtirokida yaratilgan pesalarni eslatib o‘tadi, hamda bolalar dramasi va bolalar pesalari bolalar madaniyatining hodisasi ekanligini ta’kidlab, bolalar adabiyoti va e’tiborini drama fenomeniga qaratadi: "bolalar dramasiga oid terminologiya haqida sharhlar berish kerakligini” aytib o‘tadi. "Ijodiy drama", "sahna mahorati" yoki "bolalar uchun pesa" deb ham mashhur, odatda bolalarning (va ba’zan ularning katta kuzatuvchilarining) norasmiy tasviriy faoliyati sifatida tushuniladi, odatda tasodifiy va improvizatsiya qilingan, hech qanday dastlabki ssenariysiz, chunki u bolalarda hissiyotlarini va sezgirligini ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mo‘ljallangan"[13]. Bundan tashqari, bolalar dramasiga, tadqiqotchining so‘zlariga ko‘ra, nafaqat bolalar guruhlari tomonidan ta’lim muassasalarida sahnalashtirish uchun yaratilgan ixtisoslashtirilgan pesalar, balki professional bolalar teatrida yoki yosh tomoshabinlar teatrida teatrlashtirilgan spektakllar, bolalar kitobxonligi doirasiga kirgan ertaklar, matallar, she’rlar, bolalar adabiyotining asosiy epik asarlari va kattalar adabiyoti ham kiradi. (ertaklar G.X. Andersen, K.Gremning "Tollardagi shamol" romani, J. Barrining Piter Pen haqidagi hikoyalar trilogiyasi va "Piter Pen" spektakli, L. Kerolning "Elis ajoyibotlar mamlakatida" va "Elis oyna ortida" dilogiyasi, F.H. Burnettning "Kichik Lord Fontleroy" romani, A.A. Millnning romanlari va b.).

Bolalar auditoriyasiga qaratilmagan pesalarda bola-qahramonlar va jarayon davomida aktyorlar tarkibiga bola kiritilishini tahmin qiladi, bu o‘zi yangi xodisa emas, balki "kattalar" adabiyoti mualliflari tomonidan yaratilgan jahon dramaturgiyasining ko‘p asrlik tarixidan olingan: Kattalar adabiyotida mashhur dramaturglar, masalan, Jonson, Vebster, Strindberg, Gertruda Stayn, Alan Eykborn, Edvard Bond, Devid Memet, Megan Terri va VendiVassershteyn, shuningdek, bola-ijrochilar uchun ham pesalar yozgan[14].

Xulosa. Bolalar dramasi va bolalar pesasining o‘ziga xos xususiyatlari masalasida olimlar dramatik asarlarni maqsadli bolalar auditoriyasiga yo‘naltirilganlik tipologiyasi mezoni sifatida tanlab, dramatik bola-qahramon bo‘lgan dramalarni ko‘rib chiqishda ehtiyotkor bo‘lishadi va markaziy qarama-qarshilik bolalik muammolari bilan bog‘liq, lekin pesaning o‘zi bolalar o‘qishi uchun mo‘ljallanmagan.

Bunday xarakterdagi pesalarni bolalar haqidagi dramalar sifatida belgilash biz uchun oqilona ko‘rinadi. SHunisi e’tiborga loyiqki, bolalar adabiyotini o‘rganayotgan olimlar bolalar dramasini janr sifatida aniqlashga intilishadi, lekin yuqorida aytib o‘tilgan tadqiqotlardan birortasida "bolalar dramasi" kabi janrning parametrlari ko‘rsatilmagan, bu bolalar dramasini bolalar adabiyotining maxsus janri sifatida belgilashda yuqori darajadagi shartliligini ko‘rsatishi mumkin. Uning mavjudligining barcha shakllarida har qanday janr kanonidan kengroq. SHu bilan birga, olimlarning bolalar adabiyoti sohasiga tegishli bo‘lgan ushbu estetik hodisaning munozarali belgisini topishga urinishlari bolalar haqidagi dramaning tabiati haqidagi farazlarni keltirib chiqaradi.

ADABIYOTLAR

1. Арзамасцева И. Н. Детская литература: учебник для студентов учреждений высш. проф. образования / И. Н. Арзамасцева, С. А. Николаева. М.: Издательский центр «Академия», 2013. – С.34
2. Hunt P. Children’s Literature and Childhood // An Introduction to Childhood Studies. Second edition / ed. by M. J. Kehily. NY: Open University Press, 2009. – P. 51
3. Арзамасцева И. Н. Детская литература: учебник для студентов учреждений высш. проф. образования / И. Н. Арзамасцева, С. А. Николаева. М.: Издательский центр «Академия», 2013. – С 34.
4. Хаит Е. И. Жанровые процессы в англоязычной детской литературе // Известия Самарского научного центра Российской академии наук. 2014. Т. 16. №2(4). С. 974
5. Daniels C. L. Literary Theory and Young Adult Literature: The Open Frontier in Critical Studies // The Alan Review. 2006. №33 (2). – P. 78.
6. Киприна С. В. Развитие темы детства в английской литературе второй половины XX века // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В. П. Астафьева. 2011. №1. – С. 153
7. Лакшин В. Увеличительное стекло зла // Иностранная литература. 1970. №12. – С.263.
8. Хализев В. Е. Драма как явление искусства. М.: Искусство, 1978. – С.65
9. Хализев В. Е. Драма как явление искусства. М.: Искусство, 1978. – С.72.
10. Reynolds K. Children's Literature: A Very Short Introduction. Oxford, NY: Oxford University Press, 2011. – P.77.
11. Siks G. B., Dunnington H. B. Children’s Theatre and Creative Dramatics Seattle; London: University Washington Press, 1967. – P.8-9
12. Briggs N. E., Wagner J. A. Children’s Literature Through: Storytelling and Drama. Third edition. Dubuque: Brown, 1984. – P.81
13. Greenhalgh S. Drama // International Companion Encyclopedia of Children’s Literature. Second Edition, Vol. 1 / ed. by P. Hunt. London, NY: Routledge, 2004. P. 599
14. Greenhalgh S. Drama // International Companion Encyclopedia of Children’s Literature. Second Edition, Vol. 1 / ed. by P. Hunt. London, NY: Routledge, 2004. – P. 600

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 81'27

Fotima MAMATKULOVA,
Uzbekistan State World Languages University
Senior teacher of the department Theoretical aspects of the English language №3
E-mail:mamatkulovafotima@gmail.com
Dilnoza ATANIYAZOVA,
Uzbekistan State World Languages University
Master student of (English) Linguistic faculty
E-mail:dilnozshavkatovna@gmail.com

Reviewer: *Phd, Khakimova Gulsara Egamnazarovna*

LINGUOCULTURAL PECULARITY OF ENGLISH AND UZBEK PAREMIOLOGICAL UNITS WITH FOOD COMPONENTS

Abstract

The article’s primary objective is to compare the meanings of proverbs and sayings in English and Uzbek, related food. Comparative analysis is done on the semantic properties of the paremiological units in English and Uzbek with “food” components. The qualitative method was used to assess the semantic components of paremiological units, including food, thus taking into account both their general and special characteristics. Paremiological units in the English and Uzbek languages which are not genetically linked have not yet been thoroughly compared and analyzed in linguistics. The following work was examined using component analysis, descriptive analysis, contextual analysis, and comparison analysis.
Keywords: paremia, food, semantics, dictionary, comparative linguistics, bilingual proverbial dictionary.

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDAGI OZIQ-OVQAT KOMPONENTLI PAREMIOLOGIK BIRLIKLARINING LINGVOMADANIY O‘ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya

Maqolaning asosiy maqsadi ingliz va o'zbek tillaridagi maqol va matallarning ma'nolarini, tegishli taomlarni solishtirishdir. Ingliz va o‘zbek tillaridagi paremiologik birliklarning “food” komponentlari bilan semantik xossalari bo‘yicha qiyosiy tahlil qilinadi. Sifatli usul paremiologik birliklarning semantik tarkibiy qismlarini, shu jumladan oziq-ovqat mahsulotlarini baholash uchun ishlatilgan, shuning uchun ularning umumiy va maxsus xususiyatlarini hisobga olgan. Ingliz va o‘zbek tillaridagi genetik jihatdan bog‘lanmagan paremiologik birliklar hali tilshunoslikda to‘liq qiyoslanib, tahlil qilinmagan. Quyidagi ish komponentlar tahlili, tavsifiy tahlil, kontekstual tahlil va taqqoslash tahlili yordamida tekshirildi.
Kalit so'zlar: paremiya, oziq-ovqat, semantika, lug'at, qiyosiy tilshunoslik, ikki tilli maqol lug'ati.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ПАРЕМИОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ С ПИЩЕВЫМИ КОМПОНЕНТАМИ

Аннотация

Основной целью статьи является сравнение значений пословиц и поговорок на английском и узбекском языках, связанных с едой. Проведен сравнительный анализ семантических свойств паремиологических единиц английского и узбекского языков с компонентами «еда». Качественный метод применялся для оценки семантических компонентов паремиологических единиц, в том числе продуктов питания, при этом учитывались как их общие, так и специальные характеристики. Паремиологические единицы английского и узбекского языков, не связанные генетически, до сих пор не подвергались тщательному сопоставлению и анализу в языкознании. Следующая работа была исследована с использованием компонентного анализа, описательного анализа, контекстуального анализа и сравнительного анализа.
Ключевые слова: паремия, пища, семантика, словарь, сравнительное языкознание, двуязычный поговорочный словарь.

Introduction. The words used to convey each nation's way of life, mentality, folklore, psychology, history, traditions, and culture, as well as the native land's nature and phenomena, are a component of that language's vocabulary [10]. The vocabulary shows how language has evolved. Proverbs and sayings make the centuries-old historical and social experience of our ancestors more clearly apparent as vocabulary, moral ideals, intellectual education, or worldview of a person. Due to this, proverbs and sayings are an essential way to convey the accumulated knowledge and the thoughts of the people [14].

According to Soviet folklorist G.L. Permyakov, proverbs and sayings are a language phenomena made up of regular statements that resemble phrases and they also serve as logical units that express certain meanings. Furthermore, proverbs and sayings are a remarkable illustration of truth data collecting in tiny form. The proverbs and sayings are defined as follows in the Uzbek explanatory dictionary:”A proverb and saying is a common folk word which is used to preach someone”; “a proverb” is a short, imaginative, concise and rhymed utterance” [4].

Various national representatives have various perspectives regarding the outside world. As a result, their language, proverbs, and sayings are extremely diverse. Similar proverbs and sayings can be found despite the fact that they each have their own national characteristics. Comparative analysis of proverbs and sayings from various cultures reveals the distinctive qualities and distinctive traits of various languages.

Proverbs and sayings from diverse cultures often share similar semantic and structural characteristics for a variety of reasons. According to Permyakov G.L. (1988), there are various explanations for why proverbs and sayings are similar:

1) The departure of numerous ethnic groups from a common language group; 2) The country's long history of positive ties with its neighbors; 3) The population's shared experiences with range of social problems.

As a matter of fact, proverbs and sayings from various nations with varying levels of development may be exchangeable due to the formation of a small community from languages like Slavic, Baltic, German, Celtic, Roman, Iranian, Indian, and Turkic; the fact that these nations are border states with which there have been long-standing economic and political ties; and the similarity of past events experienced by the representatives [14]. In addition to the aforementioned explanations, paremiologist Permyakov G.L. offered different explanations for the similarity of proverbs and sayings. They are as follows:

1) Paremiological similarity between persons who are not interrelated; 2) Paremiological similarity between people who are not in communication with one another; 3) Proverbs and sayings from nations that remain in the process of developing but are still typically comparable [15].

Therefore, proverbs and sayings from countries with various levels of development, from nations with no economic, political, or cultural ties, and even from nations with different genetic similarity may all be the same [13]. Proverbs and sayings from different countries are studied typologically to help identify their similarities and contrasts, bringing together distinct national cultures and fostering understanding between the peoples [5]. The foundation of the process of intercultural communication is comprehending the direct and transferred meanings of the proverbs and sayings and using them as effectively as possible. A framework for social cohesiveness and global cooperation is established through the growth of intercultural communication. And this is one of the main driving forces behind globalization or the emergence of a one human civilization [3]. As a result, study on paremiological units is crucial for both linguists and cultural specialists.

Methodology. Utilizing the qualitative method, the content is analyzed. The methods of component analysis and contextual analysis are used for paremiological identification and definition analysis. Comparative analysis is used to compare the “food” components of the English and Uzbek paremiological units. The descriptive method is used to organize acquired material, maintain regularity in describing the material, and gain detailed information on paremiological units.

Results and discussions. Basically, there are different proverbs and sayings on a wide range of topics whether they are organized alphabetically or according to a topic, such as sayings about men, work, science, education, friendship, idleness, riches, life, religion, and food. There is no end to paremiological units. One of the most popular topics for proverbs is regarded to be food. Food has a crucial role in human life. The paremiological units that include “food” components have the same character and logical meaning in both Uzbek and English as the relationships between objects in everyday life. The following proverbs in English and Uzbek that express diligence and have “food” components can serve as examples of these paremiological units. They are as follows: 1. He that would eat the fruit must climb the tree. 2. He who would eat the nut must first crack the shell. 3.He that would have eggs must endure the cackling of hens. 4. He who would catch fish must not mind getting wet. 5. After dinner comes the reckoning.

Due to their hospitality, Uzbeks have always given food a special place in their lives. They realized that only the working man could provide for himself. The following regular expressions are examples of how the facts and comprehensions of this existence are deeply embedded in the Uzbek people's consciousness:1. Non yemoqchi bo’lsang, o’tin tashishdan erinma. (Word for word translation in English: If you want to eat bread, don’t be idle to gather firewood. The meaning is: who works, that eats.) 2. Jon kuydirmasang, jonona qayda,toqqa chiqmasang, do’lona qayda. (Word for word translation in English: Where is ladylove, if you don’t care, where is hawthorn, if you don’t climb mountain. The meaning is: unless you try to do something, you will not achieve your goal.) 3.Yemoqning qusmog’i bor. (Word for word translation in English: if you eat, you will vomit.The meaning is: You should be responsible for your deed.) or O ‘zing pishirgan osh - aylanib ich, o’rgulib ich. (Word for word translation in English: You cooked this meal for this reason going around eat yourself. The meaning is: You should be responsible for what you have done.) The proverb: He who would catch fish must not mind getting wet [9]. is also similar in meaning like above given two proverbs. A word “fish” is utilized instead of words “fruit” and “nut”, and word combinations “to climb the tree” and “to crack the shell” were changed to “ not to mind getting wet”. As a result, the proverb reinforces the meanings of English and Uzbek paremiological components, such as the following: you must work hard in order to achieve your goals. For instance, if you want to eat well, you have to work and earn a lot. There are also Uzbek proverbs, which are similar in meaning to the above mentioned English paremiological units. Non yemoqchi bo’lsang, o’tin tashishdan erinma[9]. (Word for word translation in English: If you want to eat bread, don’t be idle to gather firewood. The meaning is: who works, that eats) and Jon kuydirmasang, jonona qayda,toqqa chiqmasang, do’lona qayda[9]. (Word for word translation in English: Where is ladylove, if you don’t care, where is hawthorn, if you don’t climb mountain. The meaning is: unless you try to do something, you will not achieve your goal). By using the terms and word groups indicated above, the proverbs express the fundamental principle that only by working hard are specific results feasible. The idea of utilizing food components for work has semantic characteristics according to recent research: The paremiological unit's direct meaning explains that if you invest a significant amount of effort, you will succeed, and if you put in none, you will starve. The proverbs can have many forms in various languages. Analysing the semantics of the aforementioned paremiological units in English and Uzbek that are synonymous and correspond to the thematic group “food”. It’s true that other proverbial dictionaries may contain paremiological units with a comparable semantics, but in the following table, we only use the materials that are now available [8]. Table 1: Similar semantic characteristics of paremiological units in the English and Uzbek languages (based on the ”food” components)

English paremiological units	Uzbek paremiological units
He that would eat the **fruit** must climb the tree.	1. Non yemoqchi bo’lsang, o’tin tashishdan erinma . (Word for word translation in English: If you want to eat bread, don’t be idle to gather firewood. The meaning is: who works, that eats.)
He who would eat the **nut** must first crack the shell.	2. Jon kuydirmasang, jonona qayda,toqqa chiqmasang, do’lona qayda. (Word for word translation in English: Where is ladylove, if you don’t care, where is hawthorn, if you don’t climb mountain. The meaning is: unless you try to do something, you will not achieve your goal.)
He that would have **eggs** must endure the cackling of hens.	3. Jon kuydirmasang, jonona qayda,toqqa chiqmasang, do’lona qayda. (Word for word translation in English: Where is ladylove, if you don’t care, where is hawthorn,

	if you don’t climb mountain. The meaning is: unless you try to do something, you will not achieve your goal.)
He who would catch **fish** must not mind getting wet.	4. Jon kuydirmasang, jonona qayda,toqqa chiqmasang, do’lona qayda. (Word for word translation in English: Where is ladylove, if you don’t care, where is hawthorn, if you don’t climb mountain. The meaning is: unless you try to do something, you will not achieve your goal.)
After **dinner** comes to the reckoning.	5.Yemoqning qusmog’i bor. (Word for word translation in English: if you eat, you will vomit.The meaning is: You should be responsible for your deed.)
	6. O‘zing pishirgan osh - aylanib ich, o ‘rgulib ich. (Word for word translation in English: You cooked this meal for this reason going around eat yourself. The meaning is: You should be responsible for what you have done.)

The similarities between paremiological units from different countries are not determined by whether or not they are neighboring, from the same language family, or have economic, cultural, or political ties. Instead, it depends on each nation's personal characteristics and perspectives, which are formed in the minds of its citizens, as well as the process of creating a mental image. A clear picture of the country itself is created by the people's ethnic, regional, cultural, and worldview characteristics [8]. The proverb “work hard to accomplish any goal” is conveyed by the proverbs cited above. Consequently, the vocabulary, which is unique to each nation and its permanent place of residence, consists of the peculiarities of the people and its visual representation. If Uzbek people say: non yemoq (to eat bread), o’tin tashimoq (to gather firewood), jon kuydirmoq (to care), toqqa chiqmoq (to climb mountain), yemoqning qusmog’i (vomiting of eating), pishirgan oshni aylanib ichish, o ‘rgulib ichish . (to eat what you have cooked). While English people use the following word combinations, such as: to eat the fruit, to eat the nut, to have eggs, to catch fish and their imagery row varies gradually. These statements are logically completely incompatible with one another. One could draw the conclusion that all the terms, in their intended meaning, all express the same idea. According to Sapir, “the languages have evolved in diverse ways, but they have a tendency towards similar forms, and these similarities are noticed in the distant regions of the world” [16]. Men’s visual logic can produce comparisons that are similar. The evolution of human culture and a shared awareness of the outside world are tied to the capacity for having the same human thinking. Additionally, the lexical row employed in the paremiological units defines the core of the nation's culture, worldview, spiritual life, and development throughout history.

Conclusion. The essential characteristic of the paremiological lexis, is that they are used equally commonly. Additionally, because the meanings of the words in different countries’ proverbs are repeated, proverbs do not have specific vocabulary words or narrow meanings. Instead, they contain universal generalities. The similarity of paremiological units of non-relative languages is considered as not genetic but typological [7].

REFERENCES

1. Arnold, I.V. (2002). Stylistics of Modern English language.Moscow: Venzi.
2. Arsenteva, E. (2014). Phraseology in Multilingual Society. Cambridge Scholars Publishing. https://www.cambridgescholars.com/phraseology-in-multilingual-society
3. Ayupova, R.A., Bashirova, M.A., Bezuglova, O.A., Kuznetsova, A.A.,& Sakhibullina, K.A. (2014). Ornythonym component and phraseological meaning. Life Science Journal, 11(11), 290-293.
4. Daurenbekov, Zh. (2001). Kazakh proverbs and sayings. Almaty: Ana tili, ZhShS.
5. Gasanova, M., Magomedova, P., & Gasanova, S. (2016). Linguoculturological Analysis of Woman’s Image in the Proverbs and Sayings of the Dagestan languages. International journal of environmental & science education, 11(18), 11869-11887.
6. Gasanova, M.A.,& Taibova, L.Ya. (2016). Revisiting Paremiological Units of the Tabasaran Language. Russian Federation Bulletin of the Kalmyk Institute for Humanities of the Russian Academy of Sciences,25(3), 99–105. https://doi.org/10.22162/2075-7794-2016-25-3-99-105
7. Haas, H. (2008). Proverb Familiarity in the United States: Cross-Regional Comparisons of the Paremiological Minimum. The Journal of American Folklore, 121(481), 319-347. https://doi.org/10.2307/20487611
8. Ivanov, E.E., & Petrushevskaia, J.A. (2015). Etymology of English Proverbs. Journal of Siberian Federal University. Humanities and Social Sciences, 5(8), 864-872. https://doi.org/10.17516/1997-1370-2015-8-5-864- 872
9. Karamatova,K.M. & Karamatov,H.S.(2000). Proverbs. Tashkent: Labour.
10. Kochemasova, D., &Nazarova, M. (2016). Reflection of National and Cultural Values of Paremiological Fund in Russian and English Languages. Journal of Organizational Culture, Communications and Conflict, 20(S1), 147- 152.
11. Martinez, F. M. (2006). Occasional Phraseological Synonymy. International Journal of English Studies, 6(1), 131-158.
12. Martins, P. (2012). Dura Lex Sed Lex: Traces of Latin proverbs in the Portuguese contemporary Law. Paremia, 21, 33-38.
13. Mukhammadieva, M. E. Q. (2019). Proverbs as paremiological units. Pedagogical Problems, 4, 63-64. 20. Niezmeyova, R., & Nurmatova, M. (2016). The classification of English and Uzbek phraseological units: their similarities and differences. Young Scientist, 6, 911-913.
14. Permyakov, G.L. (1988). Fundamentals of Structural Paramyology. Home Edition of the Eastern Literature of Science. Moscow: Nauka.
15. Sapir, E. (1934). Language. An introduction to the Study of Speech. Book Jungle. http://www.gutenberg.org/ files/12629/12629-h/12629-h.htm
16. The Oxford Dictionary of Phrase and Fable (2006). Oxford: Oxford University Press.
17. Vezhbitskaya, A.N. (2001).Understanding the culture through contexts of keywords. Moscow: Slavic cultures languages.
18. Zakharova, M.A. (1999). The strategy of using the phraseology of the English language. Dissertation. Moscow.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK:811.523

Hamro MUROTOV,
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: hamromurotov@gmail.com

PhD A.Murtazayev taqrizi asosida

REKLAMA MATNLARINING LINGVOPRAGMATIK FUNKTSIYASI

Annotatsiya

Maqolada reklama matnlarining ijtimoiy hayotda bajaradigan vazifalari tadqiq etilgan bo‘lib, ularning adresatga ta’siri bilan bog‘liiq masalalar xususida so‘z yuritiladi, zamonaviy reklama matnlarining lingvopragmatik funksiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, unda reklama matnlarining maqsadi va vazifalariga muvofiq ravishda ularning faoliyat jarayoni, axborot, kommunikativlik, ommalashtirish, ongni manipulyatsiya qilish, taklif va boshqa asosiy maqsadni amalga oshirishga xizmat qiladigan funksiyalari ochib beriladi. Xususan, reklama matnlarining ijtimoiy muloqotning o‘ziga xos shakli sifatida madaniy hayotda va tijoratda tutgan o‘rni keng yoritiladi. Reklama beruvchilar tomonidan e’lon qilinayotgan reklamalarning adresatga ta’sirini aniqlashda lingvopragmatik yondashuvning zarurati va ahamiyati bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: reklama, reklama matni, reklama funksiyalari, manipulyativ reklama, reklama nutqi, kommunikatsiya, metafora, giperbola, kommunikativ maqsad, pragmatika.

ЛИНГВИСТИКО-ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ФУНКЦИИ РЕКЛАМНЫХ ТЕКСТОВ

Аннотация

В статье рассматриваются функции рекламных текстов в общественной жизни, рассматриваются вопросы, связанные с их воздействием на адресата, анализируются лингвопрагматические функции современных рекламных текстов. Также в соответствии с назначением и задачами рекламных текстов раскрывается их деятельностный процесс, информационная, коммуникативная, популяризаторская, манипуляционная сознанием, внушающая и другие функции, служащие реализации основной цели. В частности, широко освещается роль рекламных текстов как уникальной формы социальной коммуникации в культурной жизни и коммерции. Описана необходимость и важность лингвопрагматического подхода при определении воздействия рекламы, публикуемой рекламодателями, на адресата.

Ключевые слова: реклама, рекламный текст, рекламные функции, манипулятивная реклама, рекламная речь, коммуникация, метафора, гипербола, коммуникативная цель, прагматика.

LINGUISTIC AND PRAGMATIC FUNCTIONS OF ADVERTISING TEXTS

Annotation

The article examines the functions of advertising texts in social life, discusses issues related to their impact on the addressee, analyzes the linguo-pragmatic functions of modern advertising texts. Also, in accordance with the goals and tasks of advertising texts, their activity process, information, communication, publicity, mind manipulation, suggestion and other functions that serve to realize the main goal are revealed. In particular, the role of advertising texts as a unique form of social communication in cultural life and commerce is widely covered. The need and importance of the linguo-pragmatic approach in determining the impact of advertisements published by advertisers on the addressee is described.

Key words: advertising, advertising text, advertising functions, manipulative advertising, advertising speech, communication, metaphor, hyperbole, communicative purpose, Pragmatics.

Kirish. Reklama matnlarini ham lingvistik, ham tijorat nuqtai nazaridan tadqiq etish, hozirgi davr tilshunosligining muhim masalalaridan biri sanaladi. Ushbu tadqiqotda biz reklama matnlarining jahon tilshunosligida o‘rganilganlik darajasi, reklama samaradorligining ta’minlanishiga xizmat qiluvchi nutq usuli, shuningdek, ularning kishilik jamiyatini harakatga keltiruvchi omil sifatidagi vazifalari xususida so‘z yuritamiz.

Jahon tilshunosligida reklama matnlari keng ma’noda o‘rganilgan, biroq bu borada yagona ta’rif mavjud emas. Shu boisdan ham reklamaning lingvistik xususiyatlarini e’tirof etish bilan bir qatorda, uning keng iste’molchilar ongiga ta’sir ko‘rsatish darajasini pragmatik jihatdan tadqiq qilish tilshunoslikning muhim vazifalaridan biridir.

T.A.Spirchagova “Reklama nutqining funksional va kommunikativ xususiyatlari” mavzusidagi tadqiqotida: “reklama nutqini auditoriyani harakatga undash mexanizmlariga asoslangan aloqa birligi sifatida ko‘rib chiqish kerakligi va boshqa tomondan reklama qabul qiluvchini daliliy materialning o‘ziga xos xususiyatlari bilan jalb qilish, ularga turli yo‘llar orqali ta’sir ko‘rsatish usullari, jumladan, kommunikativ strategiyalar nuqtai nazaridan ijobiy munosabatni shakllantirish, avtorizatsiya va murojaat qilish vositalarini o‘rganish lozim”ligini ta’kidlaydi[1]. Tadqiqotchi bu orqali reklama tushunchasining eng muhim elementlaridan biri hisoblangan reklama maqsadi va uning ijtimoyiy hayotdagi o‘rnini quyidagicha izohlaydi: reklamaning maqsadi ijtimoiy so‘rovnoma natijalarini faol shakllantirib, kishilarning didini o‘rganish, shu orqali ehtiyojlarini oshirish va xaridorlarga tovarlarni iste’mol qilishning eng oqilona usullari haqida tezkor ma’lumot berishdir[2].

Reklama matni faqat axborotdan iborat emas, balki bevosita faoliyat jarayoni bilan ham bog‘liqdir. Ushbu faoliyat jarayonining ham o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Reklama faoliyatining o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, o‘rganilayotgan obyekt ga xos statik va dinamik xususiyatlarning o‘zaro ta’sirini tahlil qilish dolzarb masala bo‘lib, u reklama aloqasi samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarni aniqlashga xizmat qiladi va shu yusinda tadqiqotning amaliy ahamiyatini belgilashga yordam beradi. Nutqni jarayon va natijaning kombinatsiyasi, ya’ni ikkita rejaga ega bo‘lgan faoliyat sifatida tushunishni yodda tutgan holda: ushbu hodisaning mohiyati muloqot ishtirokchilarining ma’lum vaziyatda va muayyan ijtimoiy-madaniy aloqa sharoitida

og‘zaki, matnlar ko‘rinishida yoki boshqa belgilar majmualari orqali o‘zaro ta’sirda ekanligini hisobga olsak, reklama nutqining institutsional xususiyatlarini tahlil qilish asosida undagi nutq usullarini aniqlash mumkin bo‘ladi. “Reklama sohasidagi lingvistik kasbiy faoliyat natijasi va ushbu faoliyatni amalga oshirish jarayoni, uning ijtimoiy, madaniy, pragmatik xususiyatlari, shuningdek, boshqa tegishli ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda birligi” deb ta’kidlaydi[3].

Albatta, reklama faoliyatining asosiy maqsadi mahsulotni sotish, Ya’ni ma’lum tovar yoki xizmatni keng iste’molchilar ommasiga taklif qilish orqali ularda shu mahsulot yoki xizmatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish hisoblanadi.

Reklama xabarining maqsadi qaysi shaklda amalga oshirilganligi va u qaysi iste’molchiga mo‘ljallangan bo‘lishidan qat’i nazar mahsulotni sotishdir. Sotish so‘zining keng ma’nosi: iste’molchida reklama qilingan mahsulotni sotib olish, reklama qilingan xizmatdan foydalanish, e’lon qilingan taklifni qabul qilish yoki reklama qilingan xatti-harakatlar namunasiga muvofiq munosabat bildirish istagini uyg’otish [4] tushuniladi. Tadqiqotchilar reklama matnlari faoliyat jarayonida bir qator vazifalarni bajarishini ta’kidlaydilar.

Reklama matni bir necha asosiy funksiyalarni bajaradi.

Birinchidan, ular orasida har qanday matn uchun kommunikativlik, axborot va asosiy maqsadni amalga oshirishni ta’minlashga xizmat qiluvchi funksiyalarni alohida ajratib ko‘rsatish mumkin.

Ikkinchidan, ta’limni ommalashtirish, ongni manipulyatsiya qilish, taklif va boshqa funksiyalar.

Reklama matnlarini F.I.Sharkov o‘rtada qanday vositalar bo‘lishidan qat’i nazar ijtimoiy muloqot sifatida tushuntiradi. Ya’ni uning fikricha, “reklama maxsus tuzilgan matnlar, vizual materiallarni tayyorlash va talqin qilish harakatlarini almashish orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy muloqotning alohida turidir. Bu ham aloqa birligi, ham ommaviy axborot vositalarida qayd etilgan madaniy obyekt hisoblanadi. Muayyan ijtimoiy voqelik sifatida reklama eng ko‘p qo‘llaniladigan xulq-atvor, faoliyat, aloqa, o‘zaro ta’sir etish shakllari to‘plamidir[5].

Yuqorida qayd etilganidek, reklamalarning maqsadi xaridorni harakatga keltirish hisoblanadi. Ya’ni taklif etilayotgan mahsulotni sotib olish yoki xizmatdan foydalanish kerak. Buning uchun, albatta, iste’molchi taklif qilinayotgan tovar va xizmatlarga ishonishi lozim. Ishonch kishini harakatga undaydigan eng muhim omil hisoblanadi. Shu boisdan olim reklama matnlarining ishontirish funksiyasiga e’tibor qaratadi.

Demak, reklamani eslab qolish uning eng muhim funksiyalaridan sanaladi. Shu jihatdan olim reklama yaxshi eslab qolinishi uchun shiorga e’tibor qaratadi.

I.A.Kobyakova “Ispancha reklama matni: lingvistik xususiyatlar” deb nomlangan tadqiqotida reklamaning ta’sir etuvchi va axborot funksiyalarini o‘rganadi. Shu bilan bir qatorda u reklama matnlarini yaratishda nazarda tutilishi zarur bo‘lgan tendensiyalarni qayd etadi va buni ispan tili misolida tadqiq etadi.

Reklama matnlari adresat tomonidan ma’lumotni idrok etilishining umumiy xususiyatlariga muvofiq tuzilgan. Ular diqqatni jalb qilishi, qiziqishni tutib turishi, xarid qilish istagini uyg‘otishi kerak. Shuningdek, ekstralingvistik omillarni hisobga olgan holda reklama matni egallagan joyga televideniye yoki radio efir vaqti uchun to‘lov qilinadi. Shu tariqa reklama matnlarini yaratish ikki tendensiyaga, ixchamlik va ifodalilik kabilarga asoslanadi. Bu holda shunday matnlarning qurilishida quyidagi lingvistik belgilarning namoyon bo‘lishini kuzatish mumkin:

a) sintaksisni soddalashtirish – oddiy kam uchraydigan jumlalar sonining ko‘payishi, nominativ xarakterdagi iboralar zanjiri;

b) leksik tizimda berilgan o‘ziga xos yuqori emotsional tarkibga ega bo‘lgan yuqori chastotali leksik birliklarning roli kuchayadi.

Reklamaning eng samarali usullariga tashbehlar, past baho berish, absurdlik, o‘quvchi va tinglovchi e’tiborini jalb qilish, tegishlilik, urg‘ularni joylashtirish va o‘zgartirish kabi nutq taktikalari kiradi.

Reklama matnlarida potensial iste’molchiga ta’sir qilish bilan bog‘liq maxsus xususiyatlar barcha til sathlarida namoyon bo‘ladi. [6]

Olimlar reklama matnlarini muayyan mezonlarga ko‘ra belgilaydilar. Bunda ular reklama matnlarining ijtimoiy mas’uliyati, qonun hujjatlarda belgilanganlik darajasi, ijtimoiy hayotda bajarayotgan funksiyasi va nutq xususiyatlarini nazarda tutadilar.

Reklama matnlarini belgilash mezonlarini uch guruhga yoki ularning ahamiyatiga ko‘ra uch darajali mezonga ajratish mumkin. Birinchisi, reklama matnining ijtimoiy mas’uliyatini belgilaydigan va qonunlar hamda professional reklama kodekslarida mustahkamlangan mezonlar. Ikkinchi guruh mezonlari reklama matnining funksional xususiyatlari bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, reklama xabari marketing hayotiyligini ta’minlashga imkon beradi. Uchinchi guruh, reklama matnlarining yozma nutq madaniyatiga oid umumiy talablarga muvofiqligi mezonlari bo‘lib, ular to‘g‘rilik, aniqlik, izchillik, soflik, ifodalilik, dolzarblikdir[7].

Ta’kidlash lozimki, reklama matnlarini belgilash mezonlarining uch guruhga bo‘linishi avvalambor, ularga ijtimoiy vazifa yuklaydi, mavjud marketingni hayotiyligini ta’minlaydi va yozma nutq sifatida ijtimoiy hayotdagi roli va o‘rni muhimligini ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda reklama matnlariga yozma nutq mahsuli sifatida ijtimoiy mas’uliyat yuklaydi.

Umumiy talablarga oid “Reklama matnlarining yozma nutq madaniyatiga muvofiqligi mezonlarini barcha turdagi adabiyotlar uchun umumiy deb hisoblash mumkin. Bular mantiqiy izchillik va taqdim etishning izchilligi, daliliy asosning aniqligi va ishonchliligi, til me’yorlariga muvofiqligi mezonlaridir. Reklama matnlari esa o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Chunki reklamada o‘ziga xos tarkibiy birliklar mavjud bo‘lib, ular lingvistik va uslubiy vositalar orqali qo‘llaniladi. Faqat rasmiy mantiq qonunlari o‘zgarmaydi”[8].

Jumladan, tadqiqotchi: “Tahrirlangan reklama matnini birinchi navbatda marketing ahamiyatiga qarab ijtimoiy mezonlar va reklama obyekti, maqsadlari to‘g‘risidagi eng yaxshi ma’lumotlarga ko‘ra baholashi kerak. Agar reklama matni ushbu mezonga kamida 50% javob bersa, uni reklama toifasiga kirgan deb hisoblash mumkin, buning uchun pul behuda ketmaydi”[9].

E.Y.Koltishev, amerikalik tadqiqotchi T.L.Boshamaning “Manipulyativ reklama” asariga ishora qilib, reklama matnlarining ikki turini ko‘rsatadi: ma’lumot beruvchi (ratsional ta’sirga asoslangan) va manipulyativ (irratsional ta’sirga asoslangan). Agar ratsional ta’sir ishontirishni nazarda tutsa, nutqiy ta’sir adresatga tanlov qoldiradi. Muallifning konsepsiyasiga rozi bo‘lish yoki bo‘lmaslik mumkin. Manipulyatsiya - adresatga muallif tomonidan ma’lum bir til texnikasi yordamida uning qarashlarini mumkin bo‘lgan eng ishonchli va yagona tanlov sifatida ko‘rsatish hisoblanadi. Manipulyatsiya mantiqiy emas, balki hissiy ta’sirga asoslanadi[10].

Biroq biz zamonaviy tadqiqotlarda umuman reklamaga xos manipulyatsiya funksiyasining bosqichma-bosqich kuchayib borishini kuzatmoqdamiz. Dastlab, reklama matnlari xabardor bo‘lib, ularni mahsulotni sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilishga undagan bo‘lsa, ammo endi reklama

iste’molchining ongi va ongsizligiga maqsadli ta’sir korsatadigan turli xil manipulyatsiya usullaridan foydalanmoqda.

Reklamaning eng to‘g‘ri ta’rifi E.S.Medvedevaning ta’rifdir. Reklama ommaviy muloqotning bir turi bo‘lib, bir maqsadli va shaxsiy xususiyatga ega bo‘lgan majoziy va ifodali taklifdan iborat axborot matnlaridir. Reklamalar uchun reklama beruvchilar tomonidan to‘lov amalga oshiriladi va kishilik jamiyati e’tiboriga qaratiladi. Bizningcha, ushbu ta’rif reklamani tushunish, informativlik va manipulyatsiyani birlashtirish ma’nosini yaxshi ochib beradi[11].

Shunday qilib, yashirin ta’sir sifatida manipulyatsiya subyektning o‘z maqsadlariga erishishiga qaratilgan bo‘ladi. Shu bilan birga, ta’sir obyekti ma’lumotlarning buzilgan yoki noxolis taqdimotiga asoslangan voqelikning noto‘g‘ri g‘oyasini shakllantiradi, ammo qabul qilingan qarorlarning mustaqilligi illyuziyasi majburiy tarzda saqlanib qoladi. Ma’lumot beruvchi reklama matni bilan solishtirganda, manipulyativ reklama matni ko‘proq ifodali, majoziy va emotsionaldir[12].

Shu o‘rinda tadqiqotchilarning reklama matnlarida manipulyativ vazifa bajarishga xizmat qiladigan til birliklari va vositalari haqidagi fikrlarini keltirib o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Burmakin va E.Y.Volkovaning ta’kidlashicha, ekspressiv vositalar bilan birikkan reklama matni chuqurroq hissiy munosabat uyg‘otadi, yaxshi esda qoladi va o‘quvchiga kuchliroq ta’sir qiladi. Y.L.Rybochkina ta’kidlashicha, matnda tasvir yaratishning stilistik vositalari (troplar, nutq figuralari va boshqalar) o‘quvchi e’tiborini jalb qiladi va unga estetik ta’sir etadi. Bir vaqtning o‘zida yashirin ma’nolar mavjudligini ko‘rsatadi. Reklama matnlarida troplarning keng qo‘llanilishi so‘zni (ibora, jumla) to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, balki majoziy ma’noda ishlatishga asoslangan maxsus til texnikasidir[13].

Zamonaviy tilshunoslikda ko‘plab tadqiqotchilar ongni manipulyatsiya qilishda metaforaning alohida o‘rni borligini ta’kidlaydilar: S.G.Kara-Murza, L.M.Goncharova, N.V.Tsvetkova, Y.L.Rybochkina, M.R.Jeltuxina, A.D.Shmelev, N.I.Klushina va boshqalar. N.V.Tsvetkova metafora nafaqat stilistik vositalardan biri ekanligiga e’tibor qaratadi. Balki, bu uslub kognitiv yo‘nalishida til, tafakkur va idrokning o‘zaro ta’siri metaforani o‘rganishning eng muhim elementlaridan biri sifatida qaraydi. Tadqiqotchining ta’kidlashicha, metaforadan foydalanish iste’molchi reklama qilinayotgan mahsulotni go‘yo metafora tomonidan “o‘rnatilgan” assotsiatsiyalar prizmasi orqali idrok etishiga olib keladi. Metafora iste’molchi voqelikni idrok etadigan o‘ziga xos filtrdir.

Y.L.Rybochkinaning so‘zlariga ko‘ra, metafora dunyoning individual nuqtai nazarini emas, balki subyektning mantiqiy aloqalarni aks ettiradi, tizimli xususiyatga ega bo‘lgan nominativ va kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Metaforalar ongning tashqi qatlamlari to‘siqlarini osongina chetlab o‘tadi, insonning atrofdagi voqelikni idrok etishining chuqur tuzilishida bir zumda o‘zining munosib o‘rnini topadi. Rang-barang obraz yaratuvchi she’riy metafora iste’molchi ongiga mo‘jizaviy ta’sir ko‘rsatadi. natijada sog‘lom fikr orqaga chekinadi, deydi Kara-Murza. Tadqiqotchi, shuningdek, metafora qanchalik paradoksal bo‘lsa (ya’ni, u haqiqatdan qanchalik uzoq bo‘lsa), u shunchalik yaxshi ishlaydi[14].

Zamonaviy lingvistik adabiyotlarda reklamadagi giperbola ko‘pincha manipulyatsiya usuli deb ataladi. Masalan, E.V.Polikarpovaning ta’kidlashicha, giperbola yordamida iste’molchining ongiga, ko‘p odamlarning bo‘rttirishga moyilligiga ta’sir qilish oson. E.S.Popova o‘ziga xos manipulyativ reklama taktikasini ajratib ko‘rsatadi. Ushbu taktikaning mohiyati inklyuzivlik va universallik istagi tufayli reklama qilinayotgan obyektning imkoniyatlari hamda xususiyatlarini aniq bo‘rttirishdir[15].

N.V.Evsyukovaning ta’kidlashicha, reklama ma’lum qoidalarga bo‘ysunadi, unda mahsulotning afzalliklari bo‘rttiriladi yoki hatto kamchiliklar esa e’tiborga olinmaydi. Ammo shunisi qiziqki, bunday noxolis reklama odamlar orasida keskin norozilik tug‘dirmaydi, ular uning mohiyatida shunday deb hisoblashadi. Olim reklamani, reklama beruvchi va potensial xaridor bo‘lgan ikki o‘yin partiyasi bilan taqqoslaydi. Reklamaga kelsak, haqiqat mezonlarining zaiflashishi haqida gapirish mumkin. Biroq umuman, reklamaga ishonmaydigan odamlar ko‘pincha uning ta’siri ostida qoladilar. Reklama iste’molchilarni ommaviy ongni manipulyatsiya qilish va reklama qilinayotgan obektning ijobiy imidjini yaratish orqali xarid qilishga undaydi. Shubhasiz, bu jarayonda reklama matnining ifodaliligini oshiruvchi va reklama oluvchilarning e’tiborini tortuvchi troplardan foydalanish muhim o‘rin tutadi[16].

Reklama matni to‘liq, mantiqiy, ishonarli bo‘lishi uchun turli vositalardan foydalaniladi. Ulardan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatish o ‘rinli bo‘ladi. Masalan: qarama-qarshi misollar, dalillar, iqtiboslar, taqqoslashlar, bahs-munozaralar, aktualizatsiya, his-tuyg‘ular, hazil, kinoya, o‘yinlar. Ushbu va boshqa stilistik vositalar his-tuyg‘ularni tejaydigan gaplarni sanab o‘tishdan qochish imkonini beradi.

Xususan, tadqiqotchi reklamada eng asosiy vazifani shunday belgilaydi: Asosiy vazifa o‘quvchi bilan aloqa va tegishli xabarni yetkazish vositasi sifatida xizmat qilishdir. Har xil manipulyatsiyalarga chek qo‘yish kerak. Reklama beruvchi o‘zining to‘xtovsiz ijodiy jo‘shqinligida kasbdoshlarini emas, balki o‘quvchini qondirishga intilishi kerak. Bu o‘rinda faoliyatning vazifasi bezak emas, balki muloqotdir. Shu ma’noda u badiiy emas, ijtimoiy yuk ko‘taradi[17].

Xulosa qilib aytganda, reklamalar ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotda muhim funksiyalarni bajaradi. Bu, albatta, reklama matnlariga nisbatan mas’uliyat yuklaydi. Shu jihatdan reklama matnlarini pragma lingvistik aspektda tadqiq etish ularning samaradorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Спирчагова Т.А. Функционально-коммуникативные особенности рекламного дискурса: 10.02.01/2008. //2007-2022 Электронная библиотека диссертаций dslib.net// [2], [5]
2. Тенденции развития и вопросы методологии современного лингвистического реклам ведения https://medialing.ru/obshchie-problemy-medialingvistiki/
3. Вестник Московского университета Серия 10. Журналистика //Иншакова Н.Г. “Особенности редактирования рекламных текстов” кандидат филологических наук e-mail: inshakovang@yandex.ra [7], [8], [9]
4. Кобякова И.А. Испанский рекламный текст: лингвистические особенности https://upload.pgu.ru/iblock/34b/uch_2010_v_00032.pdf
5. Макаренко А.А. Кандидат филологических наук, доцент “Тропы как средство манипулятивной коммуникации в рекламных текстах” ISSN 2219-6048 Историческая и социально-образовательная мысль. Том 7. №2, 2015. С-55. [11], [12], [13], [14], [15] [16]
6. Спирчагова Т.А - Стилистика рекламы: учебно-метод. комплекс. - Казань: Казан, гос. ун-т, 2009. С-20

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:82-311.4

Mohinur MUHAMMADZOKIROVA,
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti magistranti
E-mail:nuriddinsoliyev449@gmail.com
Aliya DINALIYEVA
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti o‘qituvchisi
E-mail adinalieva@mail.ru

PhD. N.A. Mahmudova taqrizi asosida

THE PROBLEM OF RACISM IN “WHITE TEETH” BY ZADIE SMITH.

Abstract
In the twentieth century postcolonial migration started the formation of cultural diversity. Literary depictions of postcolonial immigrant experience in Britan appeared in 1950s with authors such as Sam Selvon and V. S. Naipaul. There was the second-generation immigrant experience in the country, after the first-generation. They were the descendants of first-generation immigrants who had been born in the country. Zadie Smith can be considered as a part of this literary generation. Zadie Smith’s novel, White Teeth, depicts the issues such as multiracialism, racism, migration, etc. This research illustrates the problem of race in White Teeth.
Key Words: postcolonial period, cultural diversity, national identity, racism, multiculturalism, englishness.

ПРОБЛЕМА РАСИЗМА В ПРОИЗВЕДЕНИЕ ЖАДИ СМИТ "БЕЛЫЕ ЗУБЫ"

Аннотация
В XX веке постколониальная миграция положила начало формированию культурного разнообразия. Литературные описания жизненных перепитии постколониальных иммигрантов в Британии появились в 1950-х годах, в произведениях таких авторов, как Сэм Селвон и В.С. Найпол. Одним из ярких представителей второго поколения иммигрантов в первом поколении, родившихся в стране. Зэди Смит можно считать частью этого литературного поколения. Роман Зэди Смит «Белые зубы» затрагивает такие вопросы, как мультирасизм, расизм, миграция и т. д. Смит уделяет особое внимание расизму в своем романе. Это исследование иллюстрирует проблему расы в «Белых зубах».
Ключевые слова: постколониальный период, культурное разнообразие, национальная идентичность, расизм, мультикультурализм, английскость.

ZADIE SMITHNING “OQ TISHLAR” ASARIDA IRQCHILIK MUAMMOSI

Annotatsiya
Yigirmanchi asrdagi postcolonial migratsiya jarayoni madaniy xilma-xillikning shakllanishiga olib keldi. Britaniyadagi postcolonial immigrantlarning ichki kechinmalarining adabiy tasviri 1950-yilda Sam Selvon, V. S. Naipaul kabi yozuvchilarning asarlarida aks eta boshladi. Birinchi avlod immigrantlardan keyin, ularning Britaniyada tug`ilgan avlodlari paydo bo`ldi. Zadie Smith mana shu avlodga tegishli hisoblanadi. Zadie Smithning “Oq tishlar” asarida ko`p millatlilik, irqchilik, migratsiya va boshqa masalalar yoritilgan. Smith o`z asarida irqchilik muammosiga alohida urg`u beradi. Bu maqolada Zadie Smithning “Oq tishlar” asaridagi irqchilik muammosi yoritiladi.
**Kalit so`zlar:** mustamlakachilikdan keyingi davr, madaniy xilma-xillik, milliy o`ziga xoslik, irq, ko`pmillatlilik, inglizlik.

Introduction: The population of Britain experienced a significant transformation because of the the growing number of immigrants in the late of the 20th century. The ethnic make-up of the nation that had previously been for the most part white was diversified by migration from the former British empire and other parts of the world. The formation of cultural diversity started because of the postcolonial migration era and it made the notion of fixed national identities. New multicultural representations is required because of this series of changes.

The theoretical framework of this research includes two areas, namely cultural studies and postcolonial theory. In both of these theoretical approaches the notion of national identity is the most debated topic. The term cultural identity refers to the parts of our identities that trace from belonging to particular ethnic, racial, linguistic and religious groups in addition to national cultures.

Literature review: Cultural identity can be considered as “oneness”, to be more precise, it also reveals “the common historical experience and shared cultural codes which provide us, as one people with stable, unchanging and continuous frames of reference and meaning”[2]. It is crucial to pay attention to the differences within groups and the similarities as well. We can`t speak about “one experience, one identity” without knowing its other side – the ruptures and discontinuities. In this second sense, cultural identity belongs to the future as much as to the past like everything which has its history and undergo constant transformation. Recent theories show the cultural identity as a non-static historical and cultural process while national identities in particular have been regarded as something essential and unchanging.

The notion of national identity plays an important role in the construction of cultural identity. Particularly, national identity can be seen one of the primary sources of cultural identity. People often characterize themselves based on their nationality: they consider themselves, for example, as Uzbek, English or Jamaican. According to Anthony D. Smith, of all the collective identities in which human beings share today, nationality identity is perhaps the most fundamental and inclusive. Not only has nationalism, the ideological movement, penetrated every corner of the globe; the world is divided, first and foremost, into “nation-states” - states claiming to be nations - and nationality identity everywhere underpins the recurrent drive for popular sovereignty and

democracy, as well as the exclusive tyranny that it sometimes breeds. Other types of collective identity - class, gender, race, religion- may overlap or combine with national identity but they rarely succeed in undermining its hold, though they may influence its direction [3]. As I have now discussed the formation of cultural identity, it is time to move on to discuss the formation of englishness in culturally diverse and postcolonial spaces.

According to Nyman, Englishness has gained a variety of meanings in different times in history, but the period of 1880-1920 was the most crucial in the development of English national identity. The character of modern Englishness was described during this time. This was a consequence of different occurrences, such as economic crises, urban degeneration, racism, imperialism, political and cultural changes. Englishness and English history were shaped when English studies and history were included in the curricula of schools and universities. Also, during this era, the importance of English literature became heightened: it came to the function as the back bone of the nation and became a superior subject that promotes both moral development and reproduces imaginings of nationhood[4].

The history of the British empire affected the English national identity and English culture can be seen as a product of its imperial pursuits. Happenings in the empire were regularly reported by newspapers and they made a strong opposition between the colonizers and the colonized. Birmingham newspaper readers could enter the imagined community of nation and empire as well as that of the town as they read their morning papers both local and national, read of strange doings elsewhere, and reflected on their different and not so different daily lives [5].

The British national narrative supposes that its culture was unified before post-war migration from the Caribbean and Asia. However, in reality, there has been a presence of Black and Asian people in the United Kingdom since sixteenth and eighteenth centuries respectively.

Literary depictions of the postcolonial immigrant experience in Britain started in the 1950s with authors such as Sam Selvon and V.S. Naipaul. Particularly, Selvon`s novel “The lonely Londoners” skillfully portrayed the feelings of alienation and disillusionment upon arrival to a supposedly hospitable mother county that in reality did not welcome its new citizens with such openness [6]. The second generation immigrant experience appeared, after the first generation of postcolonial fiction. To be more precise, they were the offspring of first generation immigrants who had born in the country. Authors of this literary generation are Carly Phillips, Hanif Kureishi and Bemardine Evaristo. Themes and attitudes of their works completely changed: the feelings of displacement were often expressed by authors to show the immigrant's role in British history.

Zadie Smith was born in London and she can be considered as a part of this continuum of postcolonial writing. English-Jamaican author belongs to the tradition of Black British writing and discusses cultural diversity. Her literary contribution encompasses three novels, namely “White teeth” (2000), “The autograph man” (2002) and “On beauty” (2005), an essays collection called “Changing my mind: occasional essays” (2009) and many other essays and short stories published on different publications. In fact, Smith`s debut novel is “White teeth” which focused on the idea that traditional understandings of culture, race and nationality that changed in the face of hybridization. According to John Mullan,

White Teeth has satirical aspirations and some passages of

unalloyed satire. These contribute to the sense that it is a novel

whose picture of multi-cultural England has escaped obligations

of political correctness. Its marginal characters are often

satirically imagined types, their absurdity representative rather

than distinctive [12].

Moreover, Dr. Ajda Bastan emphasizes that questions about origin and tradition, about religion and skin colour, about integration and identity are raised in this novel[11].

The plot of “White teeth” focuses on the three London-based families with different cultural backgrounds and it depicts the problems and their amazing consequences that take place when three different cultures: English, Jamaican and Bengali joined together. The Jones family includes the white englishman Archie, Jamaican wife Clara and their daughter Irie, while Samad and Alsana are immigrants from Bangladesh who have twin sons: Magic and Millat. The third family is Chalfens, a white, intellectual middle-class family who seem to be the real English. Whereas, in the course of the novel, it can be seen that the family roots originate from Poland. As Bentley argues, the novel offers a competing version of contemporary englishness, one that emphasizes and addresses the multicultural make-up of late twentieth and early twenty first century England, and in turn is keen on one level to challenge concerns that Englishness and multiculturalism are mutually antagonistic concepts [7].

Research Methodology: Autobiographical method is used to analyse the literary work. Because of the fact that the data collected within autobiographical research come from the own life of the author of the work. Smith’s own life is related to the immigration experience. Smith’s mother is a Jamaican who migrated to England and married an Englishman. Smith has a mixed-parentage and it can be considered that the problem of race has a place in her life.

Analysis: The notion of colour plays an important role in “White teeth”. Not only the color of skin but also the whiteness of teeth has a crucial place in the novel. Smith puts the particular stress on the skin color of each character as well as the “white” teeth which is in the title of the novel. Firat Yildiz claims that the “white” in the title of the novel refers to the bright white teeth of the non-white races[10]. One of the characters, Mr. Hamilton shares his war memories about the danger of having the white teeth with Magid, Millat and Irie:

“Clean white teeth are not always wise, now are they? For example, when I was in Congo, the only way I could identify the nigger was by the whiteness of his teeth, if you see what I mean. Horrid business. Dark as buggery it was. And they died because of it, you see?” [9].

There is a huge contradiction between the skin colour and the whiteness of the teeth. When the skin colour helps hide in the dark, the whiteness of the teeth plays the opposite role. Then Mr Hamilton uses another expression, “black as the ace of spades” [9] to describe African soldiers’ skin colour. It is stated that the word “spade” evolved into a racist expression in twentieth century [13]. Mr Hamilton:

“There were certainly no wogs as I remember...no Pakistanis...what would we have fed them? ...I could not possibly have stomached that rich food?” [9].

“Wog” is the next racially outrageous word [14] that used by Mr Hamilton to refer dark skinned races. It is estonishing that Mr Hamilton is performing a cruel racist interview with small kids. Taylor states about this situation as follow:

“...our identity is partly shaped by recognition or its absence, often by the misrecognition of others, and so a person or group of people can suffer real damage, real distortion, if the people or society around them mirror back to them a confining or demeaning or contemptible picture of themselves. Nonrecognition or misrecognition can inflict harm, can be a

form of oppression, imprisoning someone in a false, distorted, and reduced mode of being” [15].

Archie married to Jamaican woman Clara and that was offence to Maureen who loves him. Even she felt sad for Archie because of his relationship with Caribbeans and Bengalis. Moreover, Archie is summoned urgently by his boss and he is dismissed from the company dinners that they participate as couples again because of Clara’s skin colour [9].

The first generation of immigrants encounter the problem of adaptation. They couldn't feel themselves as members of English society completely. The hybridized cultures and values cause vulnerability on the identity of those immigrants. The sense of belonging is the basic problem that the next generation encounters. They sometimes stay in the third place where is difficult to realize which culture and country they belong. They should be dependent on the culture and rules of the host country in order to live. Whereas, some of them are very sensitive about remaining their values. Conflicts among family members is the result of this dilemma. For instance, Magid introduced himself as Mark to his friends this is because he ashamed of his eastern name. He wanted to be in Western family. However, this situation was considered as being corrupted by England by his father Samad. Samad sent him to Bangladesh with making him a pious boy in mind. Contrary, to his expectations, Magid turned to atheist who chose the western world after all. Paradoxically, Magid and Millat went to different ways. Magid was fun of Western world regardless of living in Bangladesh and Millat became a fundamentalist even though he lived in England. What made him a fundamentalist? We can find the answer to this question from the section named “Mutiny” in White teeth:

“But he knew that he, Millat was a Paki no matter where he came from; that he smelled of curry; had no sexual identity; took other people`s jobs; or had no job and bummed of the state; or gave all his jobs to relatives; that he could be a dentist or a shop owner or a curry-shifter but not a footballer or a filmmaker; that he should go back to his own country; or stay here and earn his bloody keep; that he worshiped elephants and wore turbans; that no one who looked like Millat, or spoke like Millat, or felt like Millat, was ever on the news unless they had recently been murdered. In short, he knew he had no face in this country, no voice in the country...”[9].

There are basic needs for an individual no matter which race or culture he belongs. These needs are: psychological needs, safety needs, love and belonging needs, esteem needs [8]. The other needs are not completely fulfilled without the mentioned basic ones. The following Joyce Chalfen`s words are the most striking example for this claim:

“You read a lot about how Afro-caribbeans seem to find it hard to establish long-term relationships. That is terribly sad, isn`t it? I wrote about one Dominican woman in the Inner life of houseplants who had moved her potted azalea through six different men`s houses; once by the windowsill, then in a dark corner, then in a south facing bedroom etc. You just can`t do that to a plant” [9].

Joyce Chalfen begins with a bias about Afro-caribbeans. When it progresses, it becomes worse. Main subject changes from Afro-caribbeans into plant. Plant`s life condition outrun the woman`s one. Joyce feels the pain of the plant, however, the Dominican woman escape her mind. This dilemma is a barrier for the other races to build up self-respect.

As a social fact, the immigration process has multiple directions. From a nationalist point of view, penetration and miscegenation may be great threats for their nation. Because the miscegenation may cause racial degeneration. However, from an immigrant’s point of view intervention may cause cultural and racial dissolution that will end up with disappearance. Either side has its concerns in this process [10]. Samad says that:

“I have been corrupted by England,I see that now – my children, my wife, they too have been corrupted” [9].

There is a close relation between corruption and adaptation. These two ideas can be expressed relatively from different points of view. For Samad conserving one’s own identity is important to avoid corruption. On the other hand, Magid is fun of western culture, he is an adapted character and he is able to be a part of society. According to Samad`s point of view, he is corrupted, because he has lost his own values and culture. As another example Hortense stops talking to Clara after she marries Archie,who is a white englishman. The only thing that worries Clara is the white friend of her daughter. “Clara saw an ocean of pink skins surrounding her daughter and she feared the tide that would take her away”[9]. Common problems of immigrants are cultural, religious and racial dissolutions.

Conclusion: To conclude, it is clear that Smith has not aimed to write “colour blindness”. On the contrary, she expressed the different races, skin colours, nationalities of her characters. As mentioned above there is a number of races in “White Teeth”. Author represented their cultures and ethnicities. As Bentley stated, “Smith`s novel emphasizes that multiculturalism should accept a mixing of ethnicity identified at the level of the individual rather than the nation”[7].

In the part of literature review, the phenomena of postcolonial migration, cultural diversity and the formation of Englishness are revealed. Moreover, information about literary contribution of Zadie Smith is provided. While in the analyzing part the novel “White teeth” is analyzed deeply focusing on the issue of racism.

REFERENCE

1. Hall, Stuart, David Held and Tony McGrew,eds. Modernity and its futures, understanding modern societies: an introduction. Cambridge: Polity Press. 1992.
2. Hall, Stuart. “Cultural identity and diaspora”. In identity:community, culture, difference, ed. Jonathan Rutherford,. London: Lawrence & Wishart. Pp-222-237, 1990.
3. Smith, Anthony D. National identity. Reno: University of Nevada Press, pp-143, 1991.
4. Nyman, Jopi. Under English eyes: constructions of Europe in early twentieth- century British fiction. Amsterdam: Rodopi, pp-27, 2000.
5. Hall, Catherine. “ British cultural identities and the legacy of the empire”. In British cultural studies: geography, nationality and identity, ed. David Morley and Kevin Robins, Oxford: Oxford University Press. 27-39, 2001.
6. Head, Dominic. The Cambridge introduction to modern British fiction, 1950-2000. Cambridge: Cambridge university press, pp-165, 2002.
7. Bentley, Nick. “ Re-writing Englishness: imagining the nation in Julian Barnes`s England, and Zadie Smith`s White teeth”. Textual practice 21, 3: 483-504, 2007.
8. Maslow, A. Hierarchy of Needs. In E. Griffin ed. A First Look at Communication Theory (2nd ed., p. 125). Boston: McGraw-Hill. 1994.
9. Smith, Z. White Teeth. London: Penguin Books. 2001.
10. Firat Yildiz.” Issue of Race in White Teeth”. Gaziantep University Journal of Social Sciences, pp-729-738, 2016.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК: 811.512.133’362’811.111’362

Mexriniso OCHILOVA,
BuxDU, Fakultetlararo chet tillar kafedrasi dotsenti

BuxDU, Ingliz adabiyotshunosligi kafedrasi dotsenti, PhD M.B.Ahmedova taqrizi asosida

MUSIQA VA RAQS SOHASIDA QO’LLANILADIGAN TERMINLARNING ELEKTRON AXBOROT BAZASINI YARATISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada musiqa va raqs sohasida qo’llaniladigan terminlarning inglizcha-o’zbekcha lug’atini yaratishning lingvistik asoslari asoslab berilgan. Elektron lug’atlarni yaratishning texnik asoslari, qog’oz versiyadagi lug’atlardan afzalligi va terminlarni lug’atda berishning turli usullari tahlil qilingan.
Kalit so’zlar. Elektron lug’at, musiqa va raqs sohasidagi terminlar, elektron axborot baza, semantik ma’no.

CREATING AN ELECTRONIC DATABASE OF TERMS USED IN THE FIELD OF MUSIC AND DANCE

Abstract

This article presents the linguistic basis of creating an English-Uzbek dictionary of terms used in the field of music and dance. The technical basis of creating electronic dictionaries, their advantages over paper dictionaries, and different ways of giving terms in the dictionary are analyzed.
Key words. Electronic dictionary, terms in the field of music and dance, electronic database, semantic meaning.

СОЗДАНИЕ ЭЛЕКТРОННОЙ БАЗЫ ДАННЫХ ТЕРМИНОВ, ИСПОЛЬЗУЕМЫХ В СФЕРЕ МУЗЫКИ И ТАНЦА

Аннотация

В данной статье представлены лингвистические основы создания англо-узбекского словаря терминов, используемых в сфере музыки и танца. Анализируются технические основы создания электронных словарей, их преимущества перед бумажными словарями, различные способы приведения терминов в словарь.
Ключевые слова. Электронный словарь, термины в области музыки и танца, электронная база данных, семантическое значение.

Kirish. Yillar davomida yangi terminlarning shakllanishining asosiy usullarini tasniflashga harakat qilindi. Ushbu tadqiqotlar natijalarini umumlashtirib, quyidagi asosiy usullarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1) semantik (ko'p ishlatiladigan tilning so'zi yoki iborasini atama sifatida ishlatish, unga yangi ma'no berish). Taqqoslash:

ingliz tilida *advance* - o’zbek tilida *oldinga siljish*,

ingliz tilida *retire* – o’zbek tilida *nafaqaga chiqmoq*.

Termin yaratishning semantik usuli eng keng tarqalgan, bundan tashqari, bunday atamalar yangi bilim sohalari va inson faoliyati sohalari tushunchalarini belgilash uchun shakllanayotgan terminologiyada eng muhim o'rinni egallaydi.

2) morfologik (affikslash, birikmalash yo‘li bilan yangi termin yaratish). Taqqoslash:

ingliz tilida *danceable* – o’zbek tilida *raqsga tusha oladigan*

ingliz tilida *dancegoer* – o’zbek tilida *raqs kursiga qatnashuvchi*

3) sintaktik (terminologik so’z birikmalar).

Taqqoslash:

ingliz tilida *dance hall* – o’zbek tilida *raqs zali*

ingliz tilida *dance card* – o’zbek tilida *raqs kartasi* (raqqosaning ismlari qayd etilgan karta)

4) boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar

Fransuz tilida moulinet – o’zbek tilida "tez aylanish".

Adabiyotlar tahlili. Raqslarni tasniflashda R.D. Batchelor tomonidan to'rtta raqs guruhini aniqlagan:

-qo‘rg‘onning harakatlariga taqlid qilib qurilgan raqslar;

-tanani asta-sekin oldinga va orqaga egib bajariladigan dumaloq raqslar;

- ijrochilar oldinga va orqaga chayqaladigan raqslar;

-birinchi uch guruhning harakatlariga qurilgan raqslar”

Amerikalik tadqiqotchi R.Kraus raqslarni tasniflashda ishtirokchilarning tarkibi, maqsadi, ma'nosi va raqs lug'atiga e'tibor bergan. Shunga ko'ra, u beshta raqs guruhini aniqladi: balet; zamonaviy raqs; ijtimoiy raqs; sahna raqsi; xalq raqsi. L. Grove raqslarni 3 guruhga ajratadi: majoziy yoki poetik; tasviriy; ritual, marosimiy[1]. Zamonaviy psixologik maktablarda “maxfiy raqslar”, “oqimli raqslar”, “sehrli raqslar” insonning chuqur ichki imkoniyatlarini ochish, o‘rganish va o‘zlashtirishga mo‘ljallangan “sehrli raqslar” qayta tiklanmoqda.

Tahlil va metodlar. Elektron lug’at yaratishda quyidagilar e’tiborga olinadi:

1) Lug’atda fe’l-terminlar harakat nomi shaklida va ot-terminlar keltiriladi.

Ingliz tili so'z boyligini boyitish yo’li konversiya - grammatik xususiyatlarini o'zgartirib, so'z yasash usuli. Amalda biz konversiya deganda faqat fe'ldan ot yasashga nisbatan va aksincha tushunishimiz mumkin. Ot va fe'lning o'zgarishi inglizcha so'z yasashning o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ingliz tilining raqs terminologiyasida ko'p sonli otlar fe'l-o’zakdan shakllanish modeliga muvofiq.

Dance - “a series of movements and steps that match the speed and rhythm of music”[3];

hop - “a short jump on one leg”[4];

tap - “quick light blow”[5];

walk - “style of walking in the dance”[6].

Termin yasalishining faol usullaridan biri fe'llardan post bo'g'inli so'z birikmalariga o'tish yo'li bilan ot yasalishidir:

to step up - step-up

to lead down - lead down

to cast off - cast off

to cast over - cast over

N>V modeli bo'yicha qisqartmalar konversiya qilish uchun asos bo'lib ham xizmat qilishi mumkin: Commence - to commence (raqsda harakatni boshlash yoki burilish).

2) Lug’atda terminlarning polisemantik ma’nolari ham keltiriladi.

Raqs terminologiyasida ko'p ma'nolilik polisemantik atamalarning funktsional jihatdan bir-biridan farq qiladigan uchta guruhini ifodalaydi:

1) tarmoqlararo (umumiy tashqi shaklga ega bo'lgan va ma'nolarining to'liq mos kelmasligi bilan tavsiflangan atamalar).

O’zbek tilida *harakat* (raqsda) - oldinga va orqaga harakat - ingliz tilida *movement*,

O’zbek tilida *harakat* (texnik atama) - vagonning pastki yurish moslamasi, kuzovsiz vagon tizimi - ingliz tilida *running gear*,

O’zbek tilida *harakat* (eskirgan, kortej nomi) - kortej - ingliz tilida *procession*,

O’zbek tilida *harakat* (o'yinda) - o'yinchining navbatdagi chiqishi (shaxmatda, kartalarda) - ingliz tilida *move, turn;*

2) toifalararo (bir terminologik tizim doirasida faoliyat yurituvchi atamalar).

Ingliz tilida *set* – o’zbek tilida 1) kvadril yoki mamlakat raqsi figuralari; 2) qator, ketma-ketlik (fazoda ketma-ketlikni tashkil etuvchi ob'ektlar - qadamlar ketma-ketligi – *set of steps*) 3) (f.) raqsdagi joyni belgilash (*set the place*) 4) (f.) ma'lum bir yo'nalishda harakatlanish (*to set*)

3) konstruktiv element sifatida ko'p qiymatli komponentni o'z ichiga olgan kombinatsiyalar.

O’zbek tilida *raqsda qadam* - ingliz tilida *dance step,*

O’zbek tilida *vint burami* - ingliz tilida *screw pitch,*

O’zbek tilida *oldinga qadam* - ingliz tilida *advance over*,

O’zbek tilida *shimning tor qismi* - ingliz tilida *the trousers are tight in the seat.*

Terminlarning ko‘p ma’noliligi ularni to‘g‘ri tushunishga imkon bermaydi. Odatda atama kontekstga muhtoj emasligi aytiladi, chunki u kontekstsiz tushunarli bo'lishi kerak, ammo bu qoidani mutlaqlashtirib bo'lmaydi, chunki terminologiyada bo'lgani kabi, kontekst ham muhimdir. Bu, ayniqsa, toifali noaniqlik deb ataladigan atama toifalari uchun to'g'ri keladi, uni bartaraf etishning haqiqiy yo'li har doim adabiyotdagi kontekst yoki tasniflash tizimidagi bu turli xil atamalarning turli o'rni bilan ta'minlanadi. Zamonaviy lug’atlarni yaratishda polisemiya qoidalarini berish, kontekstual ma’noni aniqlash birmuncha qiyinchiliklar tug’diradi, terminologiyadagi noaniqlik jarayoni juda faolligini hisobga olgan holda, so’zlarning leksik o’zgarishlariga uchrashi qoidalariga rioya qilgan holda berish talab etiladi. Elektron lug’atlarning afzalligi so’zlarning ko’p ma’nosini bera olishidadir. Biz o'rganayotgan raqs terminologiyasida "ikkilamchi noaniqlik" deb ataladigan atamalarning mavjudligini kuzatishimiz mumkin va ularning lug’atlarda berilish imkoniyatlarini tahlil qilamiz.

3) Lug’atda bosh so’zning faqat san’at va raqs sohasida qo’llaniladigan terminlarning omonimlari ham keltiriladi, bu holda, omonomik so’z boshqa sohaga daxldor sememalar ham bo’lishi mumkin.

Elektron lug’atlarni yaratishda lug’atning omonimik ma’nosini ham hisobga olish muhimdir. Raqs va san’atning o'rganilayotgan terminologik sohasi ham omonimiya bilan tavsiflanadi - "ma'no jihatidan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq til birliklarining fonetik jihatdan mos kelishi"[7]. Leksik omonimiyaning turli shakllari, shuningdek, tilning boshqa darajalarida (fonetik va morfologik) unga bog'liq hodisalar ma'lum. To`liq leksik omonimiya - bir gap bo`lagiga mansub so`zlarning mos kelishi. Omonimlarning soni va semantik salmog`iga ko`ra, ayniqsa, ikkita turkum ajratiladi: a) omonimlar-otlar va b) omonimlar-fe'llar.

4) Elektron lug’atlarda raqs va san’atga doir terminlarning sinonimlari ham kiritiladi.

Standartlashtirilgan terminologiyada sinonimlar muammosi "savollar savoli" deb hisoblanadi[8].

Ba'zilar sinonimiya jarayonini nomaqbul deb hisoblaydilar va har bir atama faqat bitta ma'noga ega bo'lishi kerak, deb hisoblaydilar, boshqalari esa sinonim (shu jumladan xorijiy) ma'lum afzalliklarga ega degan fikrda. So'zlarni o’zlashtirish jarayoni keng tarqalgan, shuning uchun ko'pincha bir xil so'zlar (ulardan biri o’zlashtirilgan) bir xil ma'noga ega. Masalan, fransuz tilidan hosil bo'lgan inglizcha *infant* so'zi unga ekvivalent child - kichik bolaga mos keladi. Shunga ko'ra, *infant* va *child* sinonimdir. Raqs terminologiyasida chet tilidan kirib kelgan sinonimik terminlar mavjud: frantsuzcha o’zlashgan *pas chasse* (qadam) inglizcha *glide* ga teng, inglizcha *kick* "tepish" va "kik" degan ma'noni anglatadi; *hook turn* - "raqsda aylanish, oyoq bilan ilgak qilish" va "burilish-ilgak"; *set* - "raqsda shakllanish" va "to'plam"; *step* – “harakat” va "qadam".

5) Leksikografik ma’no terminning semantic strukturasi asosida beriladi.

Raqs terminologiyasida sintaktik sinonimlarning ikki guruhi aniqlangan: 1)“terminning to‘liq shakli – terminning qisqa shakli” sinonimik moslashuvi: *walk va dance walk* – “bir qadam oldinga olg‘a borish”, *step va setting step* - "qadam” va “qadam tashlash", 2)sinonimik moslashuv "so’z birikmasi – so’z birikmasi": *drive walk va inside turn* - ichkariga, "ichki burilish"; *chicken walk va outside turn* - "tashqi burilish", *chaîne turn va free spin* - raqqosalar o'rinlarini almashtiradigan, bir yoki boshqa qo'lni navbat bilan beradigan dumaloq raqsga o'xshash figura; *strip the willow - right (left) hand across* - oldinga siljish, raqqoslar navbatma-navbat chap yoki o'ng qo'llarini olishganda; *leading couple - first couple* – yetakchi juftlik; *chasse - slip step* - sirpanish qadam (chasse - oldinga siljish, oyoq, go'yo, ikkinchisiga egilib, sakraganda bog'lanadi).

Tilshunoslikda, V.P.Danilenkoning so'zlariga ko'ra, termini shakllantirishning ikkita eng keng tarqalgan lingvistik usuli mavjud: 1) leksik qisqartirish: a) so'z yoki iborani tushirib qoldirish; b) so’z birikmasini iboraning tarkibiy qismlaridan biriga tegishli so`z bilan almashtirish; 2) so‘z yasashda (so’z yasash, abbreviatsiya) qisqartmalardan foydalanish[9]. Raqs terminologiyasida asl so’z birikmasining so'zlaridan birini olib tashlash natijasida olingan quyidagi shakllanishlar aniqlanadi:

6) Elektron lug’atlarda san’at va raqsga xos terminlarning antonimlari (qarama-qarshi ma’nolari) ham beriladi.

Antonimiya hodisasini tasvirlash uchun biz raqs terminologiyasidan misollar keltiramiz, xususan:

- *"cast off*" (tashqi burilish bilan joyga qaytish) va "*cross over"* (qarama-qarshi turgan sherikning joyiga o'tish),

- "*back-to-back*" (raqsda orqaga joylashish) va "*face-to-face"* (raqsda bir-biriga qaragan holat),

- *"bottom of set"* (qator oxiri) va "*top of set"* (raqs qatorining boshi),

-*"clockwise/natural turn"* (soat yo'nalishi bo'yicha harakatlanish) va *"anticlockwise/reverse turn"* (soat miliga teskari harakat),

- *"inside turn*" (ichki burilish) va "*outside turn*" (tashqi burilish).

7) Bosh so’zdan keyin uning etimologiyasi bo’yicha ma’lumot berish ma’qul deb topildi.

Tarixiy raqsda *balance* - bu bir oyoqdan ikkinchisiga qadam tashlash, yarim barmoqlarda ko'tarish va tanani egish bilan raqs harakati. *Balance* (frantsuzcha “muvozanat” dan) *pas grave* (frantsuzcha “pas” “qadam”, “grave” “og‘ir”, “sekin” so‘zlaridan) qo‘shilgan holda *balance menuet* so’z birikmasi yaraldi. O'rta asrlarda paydo bo'lgan bir qator nomlar uzoq vaqt davomida bal raqslari lug'atiga kirdi.

Ulardan harakatlar qanday o'zgarganini, bir xil atama turli davrlarda turli harakatlarni bildirish uchun qanday xizmat qilganini, ba'zida ma’lum bir o'xshashlikni kuzatish mumkin.

Xulosa. Inglizcha-o’zbekcha electron lug’atini yaratish uchun lingvistik baza yaratish darkor. Buning uchun mavjud so’zlar excel faylda jamlanadi. O’zbek va ingliz xalqiga xos, ya’ni milliy-madaniyatini o’zida yaqqol namoyon etadigan musiqa va raqs harakatlari orqali marosim, to’ylarda urf-odatlari, turmush tarsi, ruhiy kechinmalarini ifoda etadi.

ADABIYOTLAR

1. Карабанова С.Ф. Танцы малых народов юга Дальнего Востока СССР как историко-этнографический источник. - М., 1979. – С.33-35.
2. Эндрюс Т. Магия танца. Ваше тело как инструмент силы. - М., 1996.
3. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English 1995. – P.292
4. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English 1995. – P.573
5. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English 1995. – P.1221
6. Oxford Advanced Learner’s Dictionary of current English 1995. – P.1337
7. Головин Б. Н. Лингвистические основы учения о терминах: Учебное пособие/Головин Б. Н., Кобрин Р. Ю. - М., 1987. – С.51.
8. Даниленко В.П. Лингвистические требования к стандартизируемой терминологии//Терминология и норма (О языке терминологических стандартов). - М., 1972. - С.11.
9. Даниленко В.П. Русская терминология: Опыт лингвистического описания. - М., 1977. – С.183-188.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 846.285

Nasiba SABIROVA,
Xorazm viloyati PYMO‘MM dotsenti, Filologiya fanlari doktori(DSc)
“Tillarni o‘qitish metodikasi”kafedrasi mudiri
E-mail: sabnas1@yandex.ru
F.f.d.professor v.b. Z.Orazimbetova taqrizi asosida

XORAZM VOHASIDA BAXSHI IJROCHILIGI GENEZISI

Annotatsiya
Ushbu maqolada baxshichilik san’ati xususida so’z boradi. Baxshi ijrochiligining yuzaga kelishidagi dastlabki omillar haqida batafsil ma’lumot berilgan. SHuningdek, ibtidoiy jamoa davridayoq paydo bo’lgan dastlabki folklor asarlarining yaratilishi diniy e’tiqodlar bilan uzviy bog’liq ekanligi, baxshichilikning “Avesto” da keltirilgan ma’lumotlar, rus va o’zbek olimlarining bu borada qilgan ilmiy tadqiqot ishlari qiyosiy tahlilga tortilgan.
Kalit so’zlar: baxshi, baxshi ijrochiligi, kohinlar, soz, so’z ustalari, xalq dostonchisi, baxshichilik san’ati, shomonlar.

ГЕНЕЗИС ИСПОЛНЕНИЯ БАХШИ В ХОРАЗМСКОМ ОАЗИСЕ

Аннотация
В данной статье речь идёт об искусстве сказителей. Дана подробная информация об исходных факторах возникновения перформанса сказителя – бахши. Также, сравнительный анализ создания первых произведений фольклора, возникших в первобытном обществе, неразрывно связан с религиозными верованиями, информация приведена в «Авесто» сказителях, исследовательской работе русских и узбекских ученых в этой области.
Ключевые слова: сказитель, представление сказителя, священники, инструмент, мастера слова, народный сказитель, искусство сказителя, шаманы.

THE GENESIS OF BAKHSHI PERFORMANCE IN THE KHORAZM OASIS

Annotation
This article is about the art of giving. Detailed information on the initial factors in the emergence of Bakhshi performance is given. Also, the comparative analysis of the creation of the first works of folklore, which appeared in the primitive society, is inextricably linked with religious beliefs, the information given in the "Avesto" of Bakhchisarai, the research work of Russian and Uzbek scholars in this area.
Key words: bakhshi, bakhshi performance, priests, soz, word masters, folk narrator, bakhshi art, shamans.

Kirish. Insoniyat ma’naviyatining tub ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Ibtidoiy jamoa davridayoq insoniyat tafakkuridagi evolyutsiya tilning rivojlanishiga, har ikkalasi esa ma’naviyatning yuksalishiga ijobiy ta’sir ko’rsatgan.

Ma’naviyat va ma’rifat ibtidoiy dinlarning kelib chiqishiga olib kelgan. Ularning bir ko’rinishi totemizm va yana bir ko’rinishi afsungarlikdir[1].

Diniy ibodat insonni qo’shiq kuylashga, urf-odat, marosim–she’riyatga, inonchlar esa raqs tomon yetakladi.

Hayvonlarga bo’lgan ishonch, ularning evrilishlari haqidagi mifik tasavvurlar asosida ertaklar, kosmogonik va diniy tasavvurlar negizida mifologiya, paydo bo’ldi, bahodirlar haqidagi rivoyatlar esa eposni yuzaga keltirdi[2].

- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ibtidoiy jamoa davridayoq paydo bo’lgan dastlabki folklor asarlarining yaratilishi diniy e’tiqodlar bilan uzviy bog’liqdir.

“Avesto” kitobiga tegishli “видевдат” majmuini faqat жрец (kohin) lar kuylab uning to’liq matnini keyingi avlodlarga yetkazishgan[3]. “Avesto”dagi “goh” lar faqat kohinlar tomonidan o’qilgan. “goh” –Zardusht badeha yo’li bilan yaratgan da’vat so’zlari bo’lib, “Avesto”ning “Yasna” kitobida 17 ta “goh” -qo’shiq saqlangan. Ularni yod o’qish o’ta savobli hisoblangan [4]..

“Avesto” “goh” larini yod o’qish oddiy she’r o’qish emas, balki kuy ohangida qiroat bilan matn mazmunini tinglovchiga yetkazishdir. Buni faqat mutaxassis kohinlar ijro etishgan.

Kohinlar esa shamonlarning ilk avlodidir.

Diniy marosimlarni bajarish, shu jarayonda muqaddas kitoblardagi she’riy matnlarni речитатив (kuy) tarzda ijro qilish eng qadimgi an’analardan biridir.

Dinning paydo bo’lishi ma’naviyat bilan uzviy bog’langan bo’lib insoniyat qalbida ezgulik g’oyalarini kamol toptirishdir. Bu vazifa esa kohinlar zimmasiga tushgan.

- Tadqiqot metodologiyasi. Kohinlar oddiy yoki tasodifiy kishilar bo’lishmagan. Ular qobiliyatli, yuksak iqtidor egasi bo’lgan shaxslardan tanlangan. CHunki, ular ezgu g’oyalarni ishontirish usuli bilan omma ongiga yetkazishgan. SHu sababli kohinlar va shomonlarning shaxsiga oid turli afsonalar uchraydi. Bunday shaxslar ilohiy qudratga ega bo’lib, ularga ushbu kasb asosan tushida armug’on qilinadi. Bu xususda ko’plab xalqlar folьklorida turli asotirlar yaratilgan. Jumladan, V.M.Jirmunskiy birinchi anglosaks shoiri va kohin Kedmon (Caedmon)haqidagi quyidagi asotirni keltiradi.

Kedmon VII asrda monastir kohini bo’lgan. U o’zining qo’shiq aytish san’ati bilan mashhurlik qozongan. Ammo shuni aytish joizki, u qo’shiq kuylash san’atini oddiy kishilardan o’rgangan emas, balki, bu iqtidorni unga Xudo ato qilgan. Kedmon katta yoshlarga yetganda ham qo’shiq kuylashdan yiroq kishi bo’lgan. Bir kuni katta ziyofat bo’lib, do’stlar yig’ilishganda musiqa avjiga chiqib, qo’shiq kuylash navbati unga yetganda Kedmon qobiliyatsizligidan uyalib, davradan qochib ketadi. U shu kechasi yotib uxlab tush ko’radi. Tushida notanish kishi uning qoshiga kelib, qo’shiq kuylashni iltimos qiladi. Kedmon esa qo’shiq kuylay olmasligini aytadi. Ammo notanish kishi uni olamning paydo bo’lishi haqidagi qo’shiqni kuylashga majbur qiladi. Kedmon buyruqni bajaradi. Ertalab o’rnidan turgach, qo’shiqni eslab, kuylashni boshlaydi. Uning olamni kashf etgan Xudoga bag’ishlangan gimn-madhiyasi anglosaks tilida hozirgacha saqlangan [5].

- **Tahlil va natijalar.** V.M.Jirmunskiy “Legenda o prizvanii pevtsa” (–kuychi iste’dodi haqida afsona) deb nomlangan ushbu maqolasida Kedmon haqidagi ushbu afsonani keltirar ekan, undagi voqealarni SHarqda tarqalgan kuychi-qo’shiqchi-baxshilar haqidagi rivoyatlar bilan qiyoslaydi: “Ko’pgina o’zbek baxshilari ham Keddmon kabi biror joyda, aksariyat daraxt oldida uxlaydi. Uning tushida biror notanish kishi (ko’p hollarda ilohiy shaxslar) kelib “Sen baxshi bo’lasan”, deb ko’zdan g’oyib bo’ladi. Bo’lajak baxshi esa tushida kuy chalib qo’shiq aytadi. Uyg’ongan paytda yonida hech kim bo’lmaydi. Ammo shu kundanoq kuychi-baxshiga aylanadi” [6].

Baxshilarga tushida talant, idrok in’om etilishi aslida shomonlik davridan qolgan an’analarning davomidir. Xorazmda shomonlik vazifasini so’nggi davrlarda po’rxon (parixon)lar amalga oshirgan.

“SHomonlikka da’vat, avvalo tushda kechadi. Kishiga tushida shomonlikka daxldor asboblar –doira, qamchi hadya etiladi. O’z navbatida unga tabib, ta’birchilik kasbi ham ato etilgan [7].

SHomonlikning ilohiy kasb ekanligi, u ayrim kishilarga tushida tuhfa qilinishi hodisalari o’tkan asrning 30-yillarida Xorazmga kelgan L.P. Potapovning tadqiqotlarida ham qayd qilingan [8].

Soz va so’z ustalarining qadimgi shomonlik, tabiblik, afsungarlik kasbkorlariga aloqadorligi To’ra Mirzaevning ishlarida ayniqsa ishonchli dalillar orqali yoritib berilgan. Uning yozishicha, Qo’rg’on dostonchilik maktabi vakili Egamberdi Ollamurod o’g’li (1895-1972), baxshichilik vazifasini “qo’shnoch”, “qoqimchi” kasbi bilan qo’shib olib borgan. U ayrim bemorlarni turli usullar ishlatib, afsun o’qib “davolagan”. Hatto taniqli baxshi Ergash Jumanbulbul o’g’li ham ayrim qishloqlarga borganida “qo’shnochlik” vazifasini bajargan [9].

Har bir kasb–korning qadimiy ildizlariga razm solinsa, uning birikkan-sinkretik mohiyati oydinlasha boradi. CHunki, ibtidoiy jamiyatda barcha murakkab vazifalarni amalga oshirish ongli, aqlli, iste’dodli, qobiliyatli kishilar zimmasiga tushgan. Bunday toifa kishilar esa, tabiiy ravishda kam bo’lgan. SHu sababli oddiy avom xalq bunday shaxslarni ilohiylashtirib, ulardagi donolik sifatlari ilohiydan berilgan, degan xulosaga kelishgan. Bunday shaxslar haqidagi yuqorida keltirilgan afsona, rivoyatlar zamirida ham o’sha hodisa yotadi.

To’ra Mirzaening qayd qilishicha, “baxshi” atamasining negizida ham turli qarashlar mavjud bo’lib, uning sinonimik ifodalari ham nihoyatda ko’pdir.

Baxshi –ijodkor va ayni paytda epik an’analarni saqlovchi va kelgusi avlodlarga yetkazuvchidir.

Baxshichilik san’atini xalq juda e’zozlaydi. SHu boisdan ham “Baxshili ovul botir, mulla ovul qo’rqoq” degan maqol keng tarqalgan. Baxshilarning xotira va hofiza qudrati hamisha ilohiylashtirib kelingan. Buyuk o’zbek yozuvchisi, akademik Muso Toshmuhammad o’g’li Oybek baxshi shaxsi haqida shunday yozadi: “Rivojlangan yozma adabiyot paydo bo’lgunga qadar O’rta Osiyo xalqlari o’z ona tilida boy va rang barang folьklor asarlari-qo’shiqlar, ertaklar dostonlar ijod qilishdi.

To’ylarda, sayillarda. Bayramlar va yangi manzillarga ko’chishda xalq kuychilari-baxshilarning yoqimli ovozi, qo’biz va do’mbiralarning ohanglari yangrab turdi. Baxshilar oddiy mehnatkashlarning mashaqqatli mehnatlari, qabila-urug’lar tarixi, elbahodirlarining buyuk qahramonliklarini baland ruhda kuylab kelishdi.

Og’zaki xalq adabiyotining asosini qahramonlik dostonlari tashkil etadi. Xalq ijodiyotining buyuk yodgorligi bo’lgan dostonlar o’z xalqining buyuk qahramonlari amalga oshirgan mislsiz jasoratlarini monumental obrazlar orqali ifodalab beradi. Doston qahramonlari xalqning haqiqat va adolat haqidagi g’oyalarini tashuvchi oliyjanob insonlardir. Xalq ijodiyotining ushbu xazinasi ming yillar davomida paydo bo’lgan xalq donishmandligining buyuk boyligidir” [10].

O’zbek xalqi orasida doston kuylovchilarni “baxshi” deb atash bilan birga bu atamaning turli variantlari uchraydi. Respublikaning turli hududlarida bu nom “shoir”, “jirov”, “oqin”, “sannovchi”, “oxun”, “soqi”, “jirchi”, “sozchi” kabi atamalar negizida ham “baxshi” ma’nosi anglashiladi. Bundan tashqari, eng mashhur baxshilar xalq orasida hurmat yuzasidan “chechan”, “juyruk”, “bulbul” kabi nomlar bilan ham atalgan. Ammo so’nggi yillarda “baxshi” atamasi asosiy nom sifatida mustahkamlanmoqda [11]. Xorazmda bunday baxshilarni go’yanda deb atashadi.

Baxshi atamasiga turlicha sharhlar berilgan. Alisher Navoiy yashagan davrda ushbu atama kotib, mirzo ma’nolarida ishlatilgan [12].

V.V.Bartold baxshi atamasini sanskritcha bhikshu so’ziga aloqadorligini ta’kidlaydi [13].

Taniqli folklorshunos Hodi Zarif esa mazkur atamaning etimologiyasiga to’xtalib, uni mo’g’ulcha va buryatcha baxsha, bag’sha (ustod, ma’rifatchi), sanskritcha bhikshu (qalandar, darvesh) so’zlaridan olinganligini ta’kidlaydi.

Olimning qayd qilishicha, baxshi atamasi o’zbeklarda uchta ma’noda ishlatiladi:

Xalq dostonchisi, san’atkor.

Ibtidoiy dinga aloqador shomonlikka xos yomon va yaxshi ruhlarga tayanib afsungarlik qiluvchi shaxs.

Mo’g’ullar davrida budda dinidagi qalandarlar, kotiblar, Boburiylar davridagi ayrim amaldorlar ham baxshi deb yuritilgan [14].

O’zbek tilining izohli lug’atida ham o’sha fikr takrorlanadi. Boshqa turkiy xalqlarda ham baxshi atamasi bilan birga uning turli muqobillari qo’llaniladi. O’z navbatida ularning turlicha vazifalar bilan shug’ullanishi haqida ma’lumotlar uchraydi. Baxshi atamasi qozoq va qoraqalpoqlarda baqshi, qirg’izlarda baqshi, turkmanlarda bagshi shaklida talaffuz qilinsa, yoqutlarda oyuun, Oltoy, xakas tuvalarda qam, qalmiqlarda jangarchi, tunguslarda shaman, turklarda ozan shaklida uchraydi.

Ozarbayjonlarda ashug so’zi bizdagi baxshi ma’nosida qo’llaniladi. Biroq ozarbayjon folklorshunoslarining yozishicha, qadimda ashug so’zi o’rnida varsag so’zi ishlatilgan. Bu atamaning ma’nolari quyidagicha bo’lgan: a) soz sohibi; b)cholg’u ustasi; v)aktyor. SHu bilan birga bu atama bilimdon, ijodkor ma’nolariga ham ega bo’lgan [15]. Varsaglar ashuglar ajdodidir. SHu narsani qayd qilish kerakki, Xorazm o’g’uz lahjasida ashug va varsag so’zlari ayrim tovush o’zgarishlari bilan saqlanib qolgan. Ushbu vohada tarqalgan “Oshiq G’arib”, “Oshiq Mahmud” kabi dostonlarning birinchi komponenti ashug so’zi bilan aloqador bo’lib, qo’shiq kuylovchi, baxshi ma’nosiga ega. “Oshiq” so’zi bilan “ashug” so’zini farqlash lozim birinchi atama arabcha ishq so’zidan olingan bo’lsa, keyingi atama baxshi, kuylovchi ma’nosiga ega. Ammo ashug so’zi tovush o’zgarishi orqali “oshiq” shakliga ko’chgan [16]. Endi varsag atamasiga kelsak, Xorazm dostonlarida ushbu so’z ko’p takrorlanadi: “Onda Go’ro’g’libek yigitlariga qarab bir varsoqi aydi” [17].

Dostonlarda ishlatiladigan bu so’z o’z asl ma’nosidan ancha uzoqlashgan. Varsag so’zi aytuvchi, kuylovchi shaxsni anglatsa, varsoqi so’zi afsona, so’z, gurung ma’nosiga ko’chgan. Biroq, bu ikki so’zning tub ma’nosi baribir bir-biriga mos keladi. Demak, ashug va varsag so’zlari o’g’uz tilli turkiy xalqlar ijodida bir vaqtlari faol ishlatilgan. Varsag so’zladi. varsoqi so’zladi birikmalaridagi ma’no o’zaro ancha yaqin keladi.

Baxshi atamasining o’zbekcha va turkmancha ma’nolari ko’p jihatdan bir-biriga yaqin keladi.

Turkman folklorshunoslarining yozishlaricha, ularda baxshining uch turi bor: a) termachi baxshi (bagshi). Bu toifa vakillari mumtoz va zamonaviy shoirlar she’rlarini musiqa

jo’rligida kuylashadi; b) yanama baxshi (omonat, vaqtincha). Bu xildagi baxshilar musiqa asbobisiz kuylovchi shaxslardir; v) dostonchi baxshilar. Bu toifa baxshilar doston ijrosi bilan shug’ullanishadi.

Turkman baxshilarining uch turi hududiy farqlarga ega. Termachi va Yanama baxshilar Oxal, Lebob, Mari viloyatlarida faoliyat ko’rsatsalar, dostonchi baxshilar asosan Toshovuz viloyati va Mari viloyatining bir qismida faollik ko’rsatishadi [18].

Turkmanlarning Toshovuz mintaqasida yashovchi baxshilarining repertuari va musiqiy kuylari Xorazm baxshilarinikiga juda o’xshash keladi.

Baxshi atamasi masalasida eronlik olimlarning fikri butunlay boshqacha xarakter kasb etadi.

Tehron universitetining muallimi Vavak RHAZRAI fikriga ko’ra, baxshi atamasi xitoy tilidan olingan bo’lib, ustoz degan ma’noni anglatadi. U Xitoycha ikki so’z birikmasidan iborat. Birinchisi “Pak” (Hozirgi Xitoy tilida “po”). Ikkinchi komponent “dzhi” (hozirgi xioy tilida “shi”). Birinchi so’z “ulkan” degan ma’noni bersa, ikkinchisi “janob”, “olim” degan ma’nolarga ega. SHunday qilib, “pakdzhi” birikmasi keyinchalik “Bakshhi” shaklini olgan.

Kazray sanskritcha “bhikshu” so’ziga ham to’xtaladi va uni “tilanchi”. “diniy rahnamo” tarzida sharhlaydi va bu atamaga ishonchsizlik bilan qaraydi [19].

Umuman olganda baxshi atamasi xususida turli-tuman farazlar mavjud. Ayrim manbalarda bu so’z turkiy tilga mansub bo’lgan “bak” (boq, qara) ma’nosiga ega, deb qaraladi [20]. (masalan, sharishunos olim Radlov ishlarida).

A.N.Samoylovich esa “bhikshu” atamasini to’g’ri, deb hisoblab, uni “tilanchi” emas, balki “muallim” tarzida sharhlaydi [21]. Ushbu fikr ko’p jihatdan mantiqqa mos keladi.

Turklardagi Ozan (O’zon) so’zi ham baxshi ma’nosida qadimdan ishlatilib keladi. Bu so’z Alisher Navoiy asarlari lug’atida cholg’u chalib,yalla, ashula aytuvchi va hikoya qiluvchi kishilar, baxshilar tarzida sharhlangan [22]. Bu so’z o’zbek xalqi orasida, xususan Xorazmda ham ishlatiladi. Baxshilarning (Bola baxshi) aytishlaricha bu so’z “o’zg’ir”, “ilg’ori” ma’nolarini anglatadi.

Binobarin, o’zbeklarda, shu jumladan, Xorazm o’g’uzlarida ham baxshi shomon, o’zon so’zlari, deyarlik barchaga tanish. Epik baxshi obrazining tarixan mifologiya, shomonlik bilan bog’lanishi uning islomdan avvalgi e’tiqodlar bilan bog’liqligini ko’rsatadi va bu kasbning patronimiya (patriarxal –urug’chilik) bilan aloqador hodisa ekanini ko’rsatadi. Baxshichilik san’atida azaldan tabiiy iste’dod asosiy o’rinni egallab kelgan va epik an’analar doirasida ustozlik –shogirdlik masalasiga qat’iy amal qilingan. SHunisi e’tiborliki qadimdanoq epik kuychining ijro etgan har bir asaridagi voqealar baxshi tomonidan ham, eshituvchilar tomonidan ham real voqea sifatida idrok etilgan.

Baxshi va doston so’zlari hamisha birgalikda namoyon bo’ladi. Ajdodlar merosi sifatida asrdan-asrga ko’chib saqlanib kelayotgan eposni xotirasida saqlab kelayotgan baxshi bunday olib qaraganda ilohiy xotira quvvatiga ega. Dostonlar esa inson ma’naviyatini yoritishda tafakkur mash’ali bo’lib xizmat etadi. Ularning ijrochisi bo’lgan baxshilarning ayrim lug’atlarda murabbiy, muallim, tarbiyachi yetakchi, yo’l boshchi tarzida sharhlanishi bejiz emas [23].

- Xulosa. Baxshilarga ilohiy shaxs sifatida qarashning zamirida ham ularning hofiza quvvati yotadi. Ayrim baxshilar repertuaridagi dostonlar silsilasi buni yaqqol isbotlaydi. Po’lkan shoir 76 ta, Fozil shoir 60 ta, Ergash shoir 50 ta Mardonqul baxshi 43 ta, Bola baxshi 20 ta dostonni yod bilgani ayni haqiqat [24]. Agarda ayrim dostonlarning hajmi 1000 sahifadan iborat ekanini hisobga olsak, hammadan ham baxshi chiqavermasligiga amin bo’lamiz. Afsuski hozirda bunday buyuk baxshilarni topish qiyin.

ADABIYOTLAR

1. Косвен М. Ибтидоий маданият тарихидан очерклар. –Т.: Фан, 1960. –Б.159. (240)
2. Колер И., Ранке И., Ратцель Ф. История человечества. (До исторический период), Санкт-Петербург, “Полигон”, 2003. –Б.78. (329)
3. Крюкова В. Авестийский жрецкий кодекс “видевдат”, историко-этнографические реалии. / “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Тошкент –Урганч “Фан”, 2001. –Б.120 (120-124)
4. Авесто. Яшт китоби- Т.: “Шарқ”, 2001. –Б.28.
5. Жирмунский В.М. Сравнительное литературоведение. –Л.: Наука, 1979. –С.397. (494)
6. Жирмунский В.М. Кўрсатилган асар, 399-бет.
7. Снесарев Г.П. Реликты до мусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. –Москва, «Наука», 1969. –С.45 (336)
8. Потапов Л.П. Порханы. / Ўзбек фольклоршунослиги масалалари. –Т.: Фан, 2010. –Б.233-245.
9. Мирзаев Т. Эпос и сказитель. –Т.: Фан, 2008. –С.26. (410)
10. Ойбек. Мукаммал асарлар тўплами. XIX том. –Т.: Фан, 1982. –Б.152 (310).
11. Мирзаев Т. Эпос и сказитель, 22-23-бетлар.
12. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. –Т.: Фан, 1983. – Б.231.
13. Бартольд В.В. Сочинения. –М.: Наука, 1968. –С.501.
14. Зариф Ҳ. Ўзбек энциклопедияси. Т. 2. –Т.: ЎзСЭ таҳририяти, “Фан”. 1972. –Б.98-99.
15. Нәкимов М. Азәрбајжан ашыг әдәбиҹјаьы. Бакы, «јазычы». 1983. –Б.10 (240)
16. Рузимбоев С. Специфика типология и поэтика хорезмских дастанов. АДД. Т.: 1990. –С.30. (46)
17. Ошиқнома, 4-китоб. –Урганч, “Хоразм”. 2009. –Б.309.
18. Мухаммедов Р. Искусства бахши Туркменистана: История и современность. //Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни (халқаро илмий-амалий конференция тезислар тўплами) Термиз, 2019 Ташкент-2019. –Б.37-38.
19. KHAZRAI Babak.BAKHSHI.// Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни. (Термиз, 2019 йил 5-10 апрель). Тошкент, 2019. –Б.38-39.
20. Мередов А. Ахаллы С. Туркмен классыкы эдебиятыниң сөзлуги. Ашгабат, «Туркменистан», 1988. –Б.40 (510)
21. Ўша манба, 40-бет.
22. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати, III том. –Т.: Фан, 1984. –Б.605. (622)
23. Древнетюркский словарь. –Ленинград, Наука, 1969. –С.82.
24. Ҳайдаров А. Бахшилик ва достончилик тараққиётининг долзарб масалалари. / Жаҳон цивилизациясида бахшичилик санъатининг ўрни. –Б.60.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

УДК:81 372:81 361

Malika SOLIYEVA,
O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, f.f.n
E-mail: m.solieva@nuu.uz

PhD A.Murtazayev taqrizi asosida

PRAGMATIKANING TILSHUNOSLIK SOHASIDAGI O'RNI

Annotatsiya

Ushbu maqola pragmatikaning tilshunoslikdagi rolini o‘rganishga bag‘ishlangan. Pragmatika tomonidan kundalik hayotda nafaqat g‘oya, tushuncha, siyosat, usulning foydaliligi, amaliyligi, samaradorligini ularning afzalliklari mezoni sifatida tushunadi. Ushbu maqolada qiyosiy va kontrastli tahlil usullari qo‘llanilgan. Tadqiqoning yangiligi badiiy matnlarda, xususan, badiiy adabiyotda pragmatik ta’sirning berilishi oldin o‘rganilmagan jihatlarini o‘rganishdan iborat.

Kalit so‘zlar: pragmatika, pragmatism, semantika, tarjimashunoslik, pragmatic effect, pragmatic aspect, sintaksis, semiotika.

РОЛЬ ПРАГМАТИКИ В ОБЛАСТИ ЛИНГВИСТИКИ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению роли прагматики в языкознании. Прагматика рассматривает языковые явления с учетом факторов, лежащих вне языка, и изучает такие вопросы, как цели и значение высказывания, эффективность идеи, речевые тактики, практичность использования высказывания в повседневной жизни. В данной статье используются сравнительный и сопоставительный методы анализа. Изучение роли прагматического воздействия в художественных текстах, в частности, в Художественной литературе является одной из актуальных проблем современной лингвистики.

Ключевые слова: прагматика, прагматизм, семантика, переводоведение, прагматический аспект, синтаксис, семиотика.

THE ROLE OF PRAGMATICS IN THE FIELD OF LINGUISTICS

Annotation

This article is devoted to the study of the role of pragmatics in linguistics. Pragmatics understands not only the usefulness, practicality, effectiveness of an idea, concept, policy, method in everyday life as a criterion of their advantages. This article uses comparative and contrastive methods of analysis. The novelty of the research consists in the study of previously unexplored aspects of pragmatic influence in artistic texts, in particular, in fiction.

Key words: pragmatics, pragmatism, semantics, translation studies, pragmatic effect, pragmatic aspect, syntax, semiotics.

Introduction. With the growing rates of demand in translation, the need to render text in proper meaning and translation have arisen as never before. Exploring some aspects of the theory of speech acts, we come to the concept of pragmatics. Under pragmatics (pragmatism,) in everyday life and not only understand the usefulness, practicality, efficiency of an idea, concept, policy, method as a criterion for their merits. Approaches to achieve a specific result in business, politics or public relations are often called pragmatic. Quite often, this term acquires additional positive connotations. The word itself comes from the Greek "action".

The term pragmatics in linguistics is traditionally understood in two senses. Firstly, pragmatics is a linguistic discipline that studies the use and functioning of linguistic signs in speech communication; pragmatics is also a measurement of the formation of speech utterances, determined by the functional features of partners in a speech act, for example, the communicative intentions of the speaker and the nature of the speech means that he uses, as well as the communication situation itself.

One of the main issues of pragmatics, more precisely pragmatic semantics, is the establishment of the meaning of various kinds of linguistic units in the appropriate conditions of their use. Therefore, the statement we have guests in different situations can be both an answer to a relevant question, and an explanation of the reason for not coming at a set time or place, or a polite refusal.

Literature review. This theme, “pragmatic aspects of translation,” has been studied by scientists Levinson St., Leech G. N., Komissarov A., etc., and they were able to create some fundamentally efficient materials to investigate the pragmatic aspects of belle letters translation. Therefore, continued studies in this sphere will provide translators of literary texts with more theoretical explanations for certain phenomena.

Research Methodology. The founder of semiotics is Charles Morris, who divided semiotics into three branches: semantics, syntax, and pragmatics. Data domains have the following characteristics: semantics studies the relation signs to objects; syntax- interesting relations; pragmatics studies the relationship between linguistic expressions, their meaning, and their use in speech. Most linguists believe that pragmatics occupies a special place in linguistics. Language exists as a system, while pragmatics studies how this system is used. Understanding pragmatics is based on a definition taken from the Linguistic Encyclopedic Dictionary: "Pragmatics is a field of study in semiotics and linguistics, in which the functioning of linguistic signs in speech is studied. Pragmatics is a linguistic discipline that studies the ability of native speakers to express using single words or different designs their intentions and understand the intentions, that is, why, why, and for what he said this or that statement, based on the context, the situation in which it was uttered this statement” [1].

Following scientists such as V.G. Gack, C. Morris, N.D. Arutyunova stated that "pragmatics" means the science of language and those who use it for communication. In pragmatics, as in the main line of communication, there are two essential functions of this communication – interaction, and impact. Pragmatics studies the relationship between signs and the person who uses the language, the most signs of the language [2].

Charles Sanders Peirce first wrote about pragmatics in the 19th century, and Charles Morris formulated its main parameters in the 1920s. British philosopher John Austin

believed pragmatics was supposed to change ideas about language and the laws of its functioning. Pragmatics studies the goals for using sentences and real-life conditions under which expressions can be used correctly. Following J. Austin, many linguists, including representatives of the French pragmatic schools (F. Armango, F. Latravers, D. Mangeno), study the basic concepts of pragmatists: speech act, illocutionary force of utterance, performative verb, and also deal with the study of speech genres, strategies, and tactician. N.D. Arutyunova notes the proximity of pragmatics to the general theory activities, psycholinguistics, automatic text processing and other sections of applied linguistics, the logic of assessments, the theory of argumentation, discourse theory, rhetoric, and stylistics. Linguistic pragmatics (pragmalinguistics) – area linguistics, which studies the functioning of linguistic signs in speech [3].

The theoretical foundations of linguistic pragmatics were laid in the middle of 20th-century works of linguists-philosophers of the Oxford School (B. Russell, J. Austin, H. Grice, J. Searl). The goal of linguistic pragmatics is "the study of language in context" - social, situational, etc., i.e., language as a means of communication. Its original concept of linguistic pragmatics is inherited from classical rhetoric, as a result of which pragmatics and neo-rhetoric in their various manifestations are difficult to separate from each other. First of all, neo-rhetoric refers to the rhetoric of literature. The problems studied in linguistic pragmatics are related to the speaking subject, with his addressee, with the interaction of the addressee and speaker, and, finally, with the communication situation.

The word and action began to approach programmatically in the philosophy of pragmatism at the turn of the XIX-XX centuries and subsequent decades. Ch. Pierce (1839-1914), W. James (1842-1910), and J. Dewey (1859-1952) offer to view reality through the prism of human activity and social and communicative experience [4].

Analysis and results. In linguistics (the study of language), pragmatics is a specialized branch of study focusing on the relationship between natural language and users of that language. Pragmatics focuses on conversational implications—or that which a speaker implies and which a listener infers. To define pragmatics, experts sometimes compare and contrast it with linguistic semantics (the meaning of a sentence) or compare it to syntax (word order) or semiotics (the study of symbols), all of which are different terms.

Pragmatics dates back to antiquity when rhetoric was one of the three liberal arts. The more modern idea of pragmatics arose between 1780 and 1830 in Britain, France, and Germany. Pragmatism was marked by an increase in frequency between 1880 and 1930 when linguists studying philosophical language accepted the prospect of learning this language in professional dialogue and life. This language itself is a kind of human action.

Today, linguistics is a multidisciplinary scope of study spanning the natural sciences, social sciences, and humanities.

People often associate pragmatics with other areas of linguistic studies, such as semantics, syntax, and semiotics, but these terms have different definitions. Semantics studies rule systems that determine the literal linguistic meanings of expressions; syntax describes how we combine words to form sentences with specific purposes; and semiotics is concerned with the use and interpretation of signs and symbols [5].

"How are you?" This everyday greeting is rarely met with a response that involves discussing every medical and personal detail that may affect how the person is feeling on a given day (which would make up a literal response to the question). Instead, you might respond with: "Fine, how are you?" This would be a pragmatic response since you presuppose that the speaker's intention was for the question to be an implied greeting and not a literal question about how you are doing at that exact moment.

"Luggage must be carried on the escalator." This sentence on a referential sign in an airport is linguistically ambiguous, although not usually pragmatically ambiguous. Someone who has never gone to an airport before might misinterpret the semantic, literal meaning as a command that everyone must rush to the escalator while carrying their luggage. But thanks to pragmatics (the inclusion of context with the sign), you know that the movement only applies to people who are actively taking luggage onto the escalator, not to everyone. The context of the situation determines the sentence's meaning. Concerning language and society, pragmatics, since it correlated with its user, has affected the social language context significantly. For instance, The American Speech-Language-Hearing Association (ASHA) gives two examples of how pragmatics influences language and its interpretation. In the first, ASHA notes:

"You invited your friend over for dinner. Your child sees your friend reach for some cookies and says, 'Better not take those, or you'll get even bigger.' You can't believe your child could be so rude."

In a literal sense, the daughter says eating cookies can make you gain weight. But due to the social context, the mother interprets that sentence to mean that her daughter is calling her friend fat. The first sentence in this explanation refers to semantics—the sentence's literal meaning. The second and third refer to pragmatics, the actual meaning of the words as interpreted by a listener based on social context.

In another example, ASHA notes:

You talk with a neighbor about his new car. He has trouble staying on topic and starts talking about his favorite TV show. He doesn't look at you when you speak and doesn't laugh at your jokes. He keeps talking, even when you look at your watch and say, 'Wow. It's getting late.' You finally leave, thinking about how hard it is to talk with him [8].

In this scenario, the speaker is just talking about a new car and his favorite TV show. But the listener interprets the signs the speaker is using-not looking at the listener and not laughing at his jokesas the speaker being unaware of the listener's views (let alone his presence) and monopolizing his time. You have likely been in this situation before, where the speaker talks about perfectly reasonable, simple subjects but are unaware of your presence and your need to escape. While the speaker sees the talk as a simple sharing of information (the semantics), you see it as a rude monopolization of your time (the pragmatics) [7].

Any text Communicative contains some communication transmitted from the source to the receptor, some information (information) to be retrieved from the receptor message, understood by them. Perceiving received information receptor enters certain personal attitudes towards the text, called pragmatic relationships. Such relationships may have different characters. They can be predominantly intellectual when the text serves for the receptor only the source of information about some facts and events does not touch and does not see much interest. At the same time, the information obtained can have receptor and deeper effects. It can affect feelings, cause a specific emotional reaction, to encourage some actions. The ability of the text to produce a similar communicative effect, causing a pragmatic relationship with a receptor to a reported, in other words, to carry out a practical impact on the recipient of the information, is called a pragmatic aspect or pragmatic potential (pragmatism) of the text.

Pragmatics dates back to antiquity when rhetoric was one of the three liberal arts. The more modern idea of pragmatics arose between 1780 and 1830 in Britain, France, and Germany. Pragmatism saw a rise in popularity between 1880 and 1930 when linguists studying the philosophy of

language agreed on the point that language must be studied in the context of dialogue and life. That language itself is a kind of human action. Today, linguistics is a multidisciplinary study spanning the natural sciences, social sciences, and humanities [8], [9].

В. Григорьев утверждает, что терминосистема литературоведения является открытой, часто заимствующей понятия других наук, результатом чего становится расширение терминологического аппарата, что приводит к сложности его системного описания. Наибольшее количество терминов заимствуется литературоведением из лингвистики, семиотики и математики. Он также отмечает, что использование терминов «относительно более точных наук» благотворно влияет на терминосистему литературоведения лишь в том случае, если они вводятся осмысленно и не нарушают «системы», и тем самым становятся её органичной частью. Безусловно, точность благотворно скажется на развитии науки о литературе, упорядочение всего терминологического аппарата поможет преодолеть проблемы профессиональной коммуникации и усовершенствуют методику анализа литературного текста. Терминосистема литературоведения в целом является неупорядоченной и недостаточно разработанной, что ведёт к частым случаям заимствования терминов из других дисциплин. Эпоха глобализации и взаимопроникновение наук рождает все новые и новые проблемы в упорядочении терминосистемы. А заимствование из точных наук, новомодные понятия не дадут ожидаемого результата в деле упорядочения и выявления общих границ сферы восприятия того или иного литературоведческого понятия в не контекста научных школ.

Итак, вновь обращаясь к толкованию термина, мы обнаруживаем, что с точки зрения Ю. Борева «термин-понятие – это терминологический и категориальный аппарат науки (Теории литературы, теории искусства или эстетики) – термин, отражающий стороны термина – категории (грациозное, например, одно из проявлений прекрасного)» [5].

Учитывая то обстоятельство, что терминология литературоведения рассматривается как предмет эстетического цикла, то само понятие термина нами будет исследовано в аспекте эстетического восприятия. Литературовед, основоположник школы современного русского литературоведения Ю.Б. Борев в вышеуказанном определении, даёт нам толкованию не термину и не понятию, а термину-понятию. Означает ли это отождествление двух детерминантов? Понятия с точки зрения ученого – «научные термины….отражающие определенные стороны, эстетических или теоретико-литературных категорий (грациозное, например, одно из проявлений прекрасного) или характеризующие негенеральные, но существенные для данной эпохи эстетические свойства жизни, литературы и искусства…»[5]. То есть, понятия и термины – это слова в особой функции, а терминосистема тот аппарат науки,

который отражает стороны эстетических или теоретико-литературных категорий.

Так как, термины-понятия отражают стороны эстетических категорий, обратимся к значению термина-категории эстетики – эстетическое: «это метакатегория, то есть самая широкая и фундаментальная категория эстетики. Она отражает то общее, что присуще прекрасному, безобразному, возвышенному, низменному, трагическому, комическому, драматическому и другим эстетическим свойствам жизни искусства» [5]. В интерпретации Ю. Борева эстетическое рассматривается как самостоятельная и основополагающая категория эстетики, В. Хализев же определяет ее как вид пафоса: «…- это особый род эмоционально-оценивающего освоения человеком реальности» [6]. По Хализеву, эстетическое – это прежде всего созерцание единичных предметов, которое постигаются как нечто завершенное и целостное. Именно целостность воспринимаемого составляет главный источник его эстетического постижения. При этом целостностью называют то трудно определимое качество предмета, которое вызывает у воспринимающего единую реакцию на него, порождает общее впечатление. Воспринимая предмет эстетически, человек силой непосредственного чувства прозревает его сущность и значимость для себя. На наш взгляд, целостность о которой говорит Хализев можно в полной мере отнести и к сфере восприятия литературоведческого термина. Так как термин литературоведения в отличие от терминов других наук воспринимается не просто как научное понятие, а в той или иной мере вызывает ту самую вышеуказанную эстетическую реакцию.

Таким образом, рассмотрение литературоведческой терминологии как предмета эстетического цикла, попытка анализа существующих на сегодняшний день моделей эстетического даёт понимания его сути как литературоведческой категории и термина, помогают в выявлении в природе текста связей между литературоведением и явлением эстетического при передаче объективных и субъективных процессов, соотнесенных с жизнью человечества: «Термины, в которых осмысляется литературное произведение, его строение и бытование в обществе, свидетельствую среди прочего, об изначальной родовой связи с искусствознанием и (более широко) с эстетикой, познающей всю систему художественного творчества в ее совокупности».

ЛИТЕРАТУРА

1. Реформатский А. А. Что такое термин и терминология? // Вопросы терминологии. М., 1961.
2. Словарь литературоведческих терминов. Ред. С 48 сост.: Л. И. Тимофеев и С. В. Тураев. М.: Просвещение, 1974
3. Дегтярёва Л. М. Исследование современного содержания и развития терминов литературоведения : на материале английской и русской литературоведческой терминологии : диссертация кандидата филолог
4. ических наук / Л. М. Дегтярёва. – Москва, 2002. – С. 3
5. Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. М.: Высшая школа. 1987. –С. 15.
6. Борев Ю.Б. Эстетика. Теория литературы. Энциклопедический словарь терминов. – М.: Астрель, 2003

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 8.81-22

Sevara ERDANOVA,
Tashkent Institute of Finance Foreign languages department
E-mail: erdanovasevara0707@gmail.com

Under the review of Kulmatov Bakhrom Gulyamovich PhD pedagogy of UzSWLU

INTERPRETATION OF THE CONCEPTS OF “ПУЛ”, “ДЕНЬГИ” AND "MONEY" IN THE THEORY OF THE CONCEPT FIELD

Abstract

The purpose of the work is to conduct a comprehensive comparative analysis of the linguocultural features of the concept "money" to identify ways of verbalizing this concept in Russian, English and Uzbek languages and to determine its universal and specific characteristics (conceptualization). The relevance of the study is determined by the fact that this work, carried out in line with the anthropocentric approach actively developed in modern linguistics, is devoted to the study of the problem of conceptualization of attitudes towards money, which has not received its holistic description in linguistic, cognitive and cultural terms.

Key words: comparative analysis, linguoculturological features, verbalization of the concept, anthropocentric approach, the concept of "money", the human spiritual world.

КОНЦЕПТ СОҲАСИ НАЗАРИЯСИДА “ПУЛ”, “ДЕНЬГИ” ВА “MONEY” ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ТАЛҚИНИ

Аннотация

Ишнинг мақсади - "пул" тушунчасининг лингвистик ва маданий хусусиятларини ҳар томонлама қиёсий таҳлил қилиш, рус, инглиз ва ўзбек тилларида сўзлашув усулларини аниқлаш ва унинг универсал ва ўзига хос хусусиятлар (концептуализация)ини аниқлаш. Тадқиқотнинг долзарблиги шундан иборатки, замонавий тилшуносликда фаол ривожланаётган антропоцентрик ёндашув асосида олиб борилаётган ушбу иш ўзининг яхлит тавсифини олмаган пулга муносабатни лингвистик, когнитив ва маданий жиҳатдан контсептуаллаштириш муаммосини ўрганишга бағишланган.

Калит сўзлар: қиёсий таҳлил, лингвокултурологик хусусиятлар, тушунчанинг вербализатсияси, антропотсентрик ёндашув, "пул" тушунчаси, инсон маънавий дунёси.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПТОВ «ПУЛ», «ДЕНЬГИ» И «MONEY» В ТЕОРИИ КОНЦЕПТОПОЛЯ

Аннотация

Цель работы - провести комплексный сопоставительный анализ лингвокультурологических особенностей концепта «деньги» для выявления способов вербализации этого концепта в русском, английском и узбекском языках и определить его универсальные и специфические характеристики (концептуализация). Актуальность исследования определяется тем, что данная работа, выполненная в русле активно развивающегося в современном языкознании антропоцентрического подхода, посвящена изучению проблемы концептуализации отношения к деньгам, не получившей своего целостного описания в лингвистическом, когнитивном и культурном плане.

Ключевые слова: сопоставительный анализ, лингвокультурологические особенности, вербализация концепта, антропоцентрический подход, концепт «деньги», духовный мир человека.

Introduction. The changes taking place in society are accompanied by the growth of many problems in public life. Among these problems, one can single out, first of all, the problem of interest in money, which is directly related to a person’s life in society, in a team, which determines his behavior, addictions, the level of development of needs, reflecting the individual and national characteristics of a linguistic personality, cultural customs and traditions, social status and spiritual world of man. Today there are no countries that would not interact economically with each other, would not be included in the system of production relations and interdependencies. Despite the difference in national value orientations, there is a real opportunity to create a powerful intercultural bridge for mutually beneficial dialogue. And interethnic business communication becomes such a means, which is currently gaining a truly huge scope and, as a result, becoming the most important socio-cultural factor of our time.

At the same time, the study of the process of conceptualization of attitudes towards money, one of the key concepts of any society, has not received its holistic description as a linguistic, cognitive and cultural phenomenon, the correlations of the concept "money" in one linguistic culture in comparison with others, its typological and specific characteristics. Linguistic and cultural analysis of the language involves the study of phraseological units, including proverbs and aphorisms, where the cultural and value priorities of the ethnic group are expressed in the most capacious form. The study of the general and specific in the ideas about money is also important because this concept at the present stage of the development of society is a zone of the concept sphere, sensitive in socio-psychological terms.

The research in this dissertation focuses on the cultural characteristics of the meaning of language units that refer to the situation of the functioning of the concept of "money" in Russian, English and Uzbek languages, both in separate lexemes and in phraseological units, including in units of the proverbial-saying fund, representing nationally - cultural identity of the people, as well as background knowledge and context, which becomes a condition for the emergence of "incremental values".

Literature review. The methodological basis of the study is the works of N.D. Arutyunova, N.F.Alefirenko, Yu.D.Apresyan, A.N.Baranova, A.N.Babushkina, L.Yu.Buyanova, A.Vezhbitskaya, S.G.Vorkachev, V.V.Vorobiev, V.G.Gack, M.Johnson, J.A.Isaeva, V.I.Karasika, E.S.Kubryakova, V.V.Kolesova, J.Lakoff, L.A.Lebedeva, D.S.Likhachev, V.A.Maslova, G.P.German, A.A.Potebni, Y.S.Stepanova, B.A.Serebrennikov, V.N.Telia,

P.M.Frumkina and a number of others, in which various aspects of linguoculturology, cognitive linguistics, concept theory and cognitive analysis have been developed.

Research Methodology. The empirical material of the study was a selection of lexicographic sources: explanatory, etymological, synonymous, antonymic, ideographic, phraseological dictionaries, dictionaries of proverbs, sayings and aphorisms of the Russian, English and Uzbek peoples, examples from the media, expressions from the oral speech of native speakers (with support on vocabulary materials), as well as factual material from works on sociolinguistics, ethno psychology, history and linguistic and cultural studies, which consider various aspects of the concept of "money".

Cultural linguistics and cognitive linguistics are considered as methodological foundations for the analysis of the concept. The concept turns out to be a kind of bridge connecting linguoculturological and cognitive approaches within the framework of the anthropocentric paradigm.

When analyzing the linguistic embodiment of the concept, the following research methods were used: diachronic and synchronic analysis, the method of introspection, descriptive, the method of component analysis and interpretation, as well as a comparative method to identify specific and universal characteristics of national language pictures of the world.

Analysis and results. As a result of a comprehensive comparative analysis of the linguocultural features of the concept of "money", ways of verbalizing this concept in Russian, English and Uzbek languages were identified and its universal and specific characteristics (conceptualizations) were determined. The conceptualization of the concept of "money" finds multiple expressions in the language through words and stable units of various types in the form of signs of attitudes towards money presented in them.

In general, the dissertation was carried out within the framework of the anthropocentric paradigm, the main scientific disciplines of which are linguoculturology and cognitive linguistics, which follows from the main problem of the dissertation - the description of the linguocultural specificity of the concept. The concept in the work is understood as a multidimensional formation characterized by such properties as mental character, correlation with cognitive structures, substitutive function, the presence of a name, embodiment by various language units, various forms of manifestation, cultural and historical determinism, value character. Such an understanding of the concept allowed the entire study to be built as a reconstruction of a certain integral area, while considering linguistic manifestations as means, channels of access to this area.

The study of extralinguistic data set forth in a number of works on ethnopsychology, sociology, economics, ethnography, history, philosophy, showed that the concept of "money", according to representatives of various fields of scientific knowledge, is closely related to the development of the nation, which determines the core components of the national character. As a result of observing the ideas about money set forth in the texts of writers, economists, philosophers, historians, culturologists, etc., the following conceptual, essential features were noted: money is “base and despicable metal”, “nasty papers”, “blood society”, “positive balance of life”; money is “wealth, strength, power, happiness, goodness, truth”, it is a “perpetual motion machine”, “remuneration for labor”, “generally recognized value”, “a tool for distributing wealth”, “means of exchange”, money is a “fetish”, “Satan’s tool”, money is a “special code of culture”, “specialized language”, “God of goods”, “commodity of goods”, money is a “clot of social wealth”, “a clot of social labor”, “money is a certificate for obtaining tribute from all working people", this is a "universal type of thing", money is "a universal equivalent that performs the functions of a measure of value, a means of circulation, a means of payment, a means of accumulation and savings", etc.

The lexical representation of the concept of "money" reveals the features of the conceptual manifestation, covers the core layers of the concept and has both anthropocentric and non-anthropocentric characteristics. Differences in the means of objectifying the conceptual space of money are the result of the manifestation of the individual features of the national character of the language and the peculiarities of the linguistic organization itself.

The most suitable method for studying vocabulary is the field method, that is, the method of lexical or conceptual fields. The field "money" consists of all the names of monetary units, among which the generic ones are actually "money", and its specific representatives are: *копейка*, *рубль*, *грош*, *алтын*, *dollar*, *shilling*, *crown*, *penny*, *pound*, *som*, *lira*, *dinor* etc. Different types of representatives of the concept "money" function differently in the phraseology of the compared languages, and each variety has a different degree of frequency of use in phraseological units. The general result of the semantic development of words representing the concept of "money" in all three languages is the coexistence of the names of modern and obsolete monetary units, which indicates the great subjective value of the concept of "money" for each people. Historical specificity predetermines the different functional activity of certain groups of lexical units in the idioms of the three languages.

Comparison of the synonymic rows included in the studied conceptual area made it possible to identify the degree of value of the concept of "money" for 3 cultures. The common meaning of the Russian, English and Uzbek lexeme "money" is that these are metal (coins) or paper signs replacing them, which are a measure of value in the purchase and sale. It was found that, despite the common meanings of the lexeme "money" in these languages, there are also semantic differences. The derivational dimension of the lexeme "money" shows differences in the structure of their word-formation nests in Russian, English and Uzbek.

The metaphorical representation of the lexeme "money" shows that in the Russian language the metaphorical nominations of money have a pronounced contemptuous-mocking character; probably, this is also connected with the spread of special prison jargon for this kind of nominations, which has its own specific features. The literary language does not produce commonly used metaphorical designations of both money in general and individual banknotes in particular. In English, in comparison with Russian, the ironic designation of money (“bucks”, “cabbage”, “greenbacks”, etc.) is more active, in which there is no negative contemptuous connotation. The symbols included in the tropeic basis of idioms and reduced in the minds of native speakers to a figurative gestalt give access to the worldview of the people, the identification of the cultural component: in the Russian language, the relationships money-paper, money-metal, money-color, money- material, money - figurative associations (often disparaging "dandruff, torn, oblique"); in English, money is food, money is color, money is form, money is animals, money is people, etc.; in Uzbek money is color, money is form, money is products, money is insects, money is food, money is material, etc.

Conclusion. The general result of the semantic development of words related to the system of monetary relations was that at the level of various mental processes associated with the nomination, categorization, memorization of words denoting money in the Russian, English and Uzbek languages, numerous lexemes were formed, combined into groups " paper", "metal", "face", "color", "shape", etc.

The idiomatic representation of the concept "money" demonstrates, along with the conceptual, figurative, metaphorical and symbolic manifestations and is an

anthropocentric characteristic. Idioms with the “money” component are characterized by increased emotionality and figurativeness, based on a special perception of the phenomena and facts of the surrounding reality, on their assessment (positive or negative). There are groups of phraseological units with common incremental meanings (money - deceit, money - strength, power, money - a living being, money - worries, money - labor) and groups of phraseological units with national-specific connotations that reflect the mentality and originality of the culture of Russian, English and Uzbek peoples: (in Russian: money is dirt, despicable metal, nasty pieces of paper; in English: money is a profitable partner, money is a reward; in Uzbek: money is luck, happiness, luxury, brilliance, splendor).

The classification of paremias of different peoples indicates that there is a main block of topics around which proverbs and sayings are concentrated. The change in the surrounding reality is reflected in proverbs and is the reason for their diversity. In the process of analyzing proverbs and sayings, we identified common signs of attitudes towards money in the compared cultures: a person is valued for money; a man with money is nice and desirable and smart; money is omnipotent, everything can be bought for money, and everywhere they are needed; money brings worries; money goes to money; money is like water; come suddenly and go the same way; money enslaves a person, has power over him; not everything can be bought with money, they are not so omnipotent; money loves an account, it is always valuable; love and money are related concepts; there are many things more precious than money; lack of money is condemned; a person with money is forgiven for any sins; money is not individualized.

Our research allows us to present a scale of preferences fixed in different languages. The analyzed material allows us to draw conclusions about the presence in the three languages of such universal values that cannot be bought for money (health, intelligence, initiative, love, persuasion, happiness, good name, time, honor, friends, contentment), which indicates a common perception of some aspects of life by Russians, British (Americans) and Uzbeks through the concept of "money".

So, the conducted research showed the theoretical significance of the problems posed and ways to solve them, the prospects of which can be associated with the consistent study of this concept and its implementation in institutional discourses of various types and literary texts.

REFERENCE

1. Agarkova N.E. The concept of "Money" as a fragment of the English language picture of the world: (on the material of the American version of the English language): Abstract of the thesis. dis. cand. philol. Sciences. Irkut. state linguist, un-t. 2001. - 20 p.
2. Baburina E.V. The phenomenon of interference in the creation and translation of metaphor (based on English and Russian artistic texts): Abstract of the thesis. dis. cand. philol. Sciences. Perm, 2001. 22 p.

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2023, [1/3]
ISSN 2181-7324

FILOLOGIYA
https://science.nuu.uz/
Social sciences

UDK: 82.36

Ferua ESHKOBILOVA,
Qarshi davlat universiteti ingliz tili o’qituvchisi
E-mail:feruzaeshkobilova@mail.ru

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent D. J. Xalilova taqrizi asosida

O‘ZBEK VA INGLIZ BOLALAR FOLKLORINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARINI QIYOSIY – TIPOLOGIK TAHLILI

Annotatsiya

Bu maqola o’zbek va ingliz tilida bolalar folklorining lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik va amaliy lingvokulturologiya xususiyatlarini ochib beradi. Bolalar folklorida til va madaniyatning o’rni, tarixiy kelib chiqishi katta ahamiyatga ega. Qo’shiqlar, termalar, o’yin va sanamalar bolalar folklorida muhim o’rin tutib, har bir til, xalq folklorida o’z aksini topgan. Qiyosiy-tipologik tahlilda bolalar folklorining turli janrlari lingvokulturologik jihatdan o’rganilgan. Bolalar folklori janrlarini o’zbek va ingliz tilida qiyoslaganda lingvomadaniy tahlil asosiy o’rin egallaydi. Madaniyat tushunchalar sistemasi, ma’lum bir xalqning mentaliteti, xarakteri, turmush tarzini o’zida aks etadi.

Kalit so’zlar: Lingvokulturologiya, bolalar folklori, qo’shiq, terma, o’yin, konsept, lingvomadaniy, tipologiya, tahlil.

COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS OF LINGUISTIC AND CULTURAL CHARACTERISTICS OF UZBEK AND ENGLISH CHILDREN'S FOLKLORE

Annotation

This article reveals the linguistic-cultural, comparative-typological and practical linguistic-cultural characteristics of children's folklore in Uzbek and English. The place of language and culture, historical origin is of great importance in children's folklore. Songs, terms, games and number songs have an important place in children's folklore and are reflected in the folklore of every language and nation. In the comparative-typological analysis, various genres of children's folklore were studied from a linguistic and cultural point of view. When comparing the genres of children's folklore in Uzbek and English, the linguistic and cultural analysis takes the main place. The Culture reflects the system of concepts, mentality, character, lifestyle of a certain people.

Key words: Linguistic culture, children's folklore, song, game, concept, linguistic culture, typology, analysis.

СРАВНИТЕЛЬНО-ТИПОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ УЗБЕКСКОГО И АНГЛИЙСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРА

Аннотатция

В данной статье раскрываются лингвокультуроведческие, сравнительно-типологические и практические лингвокультурологические характеристики детского фольклора на узбекском и английском языках. Большое значение в детском фольклоре имеет место языка и культуры, историческое происхождение. Песни, термины, игры и занимают важное место в детском фольклоре и находят свое отражение в фольклоре каждого языка и народа. При сравнительно-типологическом анализе различные жанры детского фольклора изучались с лингвокультурологической точки зрения. При сопоставлении жанров детского фольклора на узбекском и английском языках основное место занимает лингвокультурологический анализ. Культура отражает систему понятий, менталитет, характер, образ жизни определенного народа.

Ключевые слова: языковая культура, детский фольклор, песня, термин, игра, концепт, лингвокультура, типология, анализ.

Kirish. Bolalar folklori- bu folklor janrining tarkibiy qismi bo’lib, xalq og’zaki ijodi namunasidir. Bolalar folkloriga alla, qo’shiq, termalar, o’yin, sanamalar, ertak, tez aytish, topishmoq va erkalamalar kiradi. Bolalar qo’shiqlari bolalar tomonidan ham, kattalar tomonidan ham yaratiladi. Alla, erkalamalar kattalar tomonidan yaratilgan bo’lib, unda onalarning farzandi uchun orzu-niyatlari, mehri, muhabbatini aks ettiradi. Bolalar tomonidan yaratilgan qo’shiqlarning aksariyati yil fasllari, mehnat jarayonlari bilan bog’liq bo’lib, bolalarning zavq-shavqini, xursandchiligini aks ettiradi. “Laylak keldi, yoz bo’ldi”, “Qaldirg’och”, “Boychechak” , “Chittigul” kabi bolalar qo’shiqlari fasllar haqida bo’lsa, kasb-hunar bilan bog’liq “Oq sholi, ko’k sholi”, “ Chamandagul”, “Zuv-zuv borag’on” qo’shiqlarida dehqonchilik, chorvachilik kabi mavzular yoritilgan. O’yinlar, sanamalar ham qo’shiqlar kabi bolalar hayotida muhim o’rin tutadi, ularni sog’lom va barkamol bo’lib o’sishida muhim o’rin tutadi. “Choriycham-bar”, “Hakkalakam” kabi o’yin sanamalari o’zbek bolalar folklori namunalaridir. Bolalar qo’shiqlari, termalari, sanama va o’yinlari yosh avlodni aqlan yetuk, jismonan sog’lom bo’lib o’sishida ahamiyatlidir. M. Jumaboyev ta’kidlaganidek: “Bola tarbiyasida qo‘shiqning roli juda katta. Qo‘shiq lirikaning eng qadimgi shakllaridan biri bo‘lib, kuylashga mo‘ljallangan bir necha bandli she’rdan iboratdir. Qo‘shiqlar kuy-ohang bilan aytiladi. Ba’zan qo‘shiq o‘yin bilan birga ijro etiladi. Demak, qo‘shiq uchun she’r va kuy kerak. Qo‘shiq xalq og‘zaki ijodining eng ko‘p tarqalgan va ommalashib ketgan janrlaridan biri hisoblanadi”[3].

Lingvokulturologiya madaniyatshunoslik va tilshunos-lik asosida yuzaga kelgan til tadqiqining yangi yo’nalishidir. Madaniyat va tilning o’zaro aloqasi, xalq madaniyatining tilda aks etishi lingvokulturologiyada o’rganiladi. Lingvokulturolo-giya tilshunoslikning leksikologiya, frazeologiya leksikogra-fiya, madaniyatshunoslik kabi bo’limlari bilan uzviy bog’liq-dir. Lingvokulturologiya tilni madaniyatning fenomeni, madaniyatni tashuvchisi sifatida tadqiq qiladi. Madaniyatni esa inson yaratadi. V.A. Maslova bu borada “bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o’rganadi. Muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o’rganilishi kerak” degan fikrni beradi [1]. Tilni lingvokulturologik jihatdan o’rganar ekanmiz, bir nechta lingvokulturologik birliklarni sanab o’tishimiz lozim:

• Muqobilsiz leksika va lakunalar - muayyan xalq madaniyatiga xos xususiyatlarni aks ettiradi (*palov, patir, do’ppi, belbog’, ko’rpacha, to’n, yaktak*) yoki lakunalar (lot. bo’shliq, chuqur) – matnda bo’sh qolgan, tilning semantik xaritasidagi oq dog’lardir.

• Mifologiyalashtirilgan til birliklari - bular rivoyat, urf-odat, udum, taomillardir. Ertak, afsonalarda umumlashtirilgan, xalq ongida shakllangan ramzlardir (*non – noni butun, noni yarimta, non ursin, non yemoq*).

• Tilning paremiologik (maqol va matallar) fondi – muayyan bir xalq tarixi, madaniyati, turmush tarsi bilan bog’liq (*Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan*).

• Tilning frazeologik fondi – xalq axloqi, madaniyati, odatlarini o’zida aks etadi (*to’nini teskari kiyib olmoq-qaysarlik qilmoq*)

• O’xshatishlar, ramzlar, stereotiplar – bular o’ziga xos obrazli tafakkurdir (*o’xshatish- tulkiday ayyor, qo’yday yuvvosh; ramzlar- oq-yaxshilik, qora rang – yovuzlik ramzi; stereotip – o’zbek xalqining mehmondo’stligi*)

• Metaforalar va obrazlar – so’z bilan madaniyatning bog’liqligi bo’lib, borliqdagi narsa va hodisalarni ko’rish va hissiy tasavvur qilishdir.

• Tillarning stilistik qatlami – bu tilning qanday shaklda namoyon bo’lishi, adabiy til va so’zlashuv til o’rtasidagi aloqasi, dialektik qatlamlar kabilar.

• Nutqiy muomala – inson ijtimoiy o’rnidan kelib chiqib munosabatga kirishadi (*ota-o’g’il, er-xotin*)

• Nutq etiketi – bu nutqiy muomala qoidalar, insonlarning turli vaziyatlardagi o’zaro muloqoti (rasmiy uchrashuvlarda, do’stlar davrasida).

Lingvokulturologiyada konsept eng faol qo’llanuvchi birlikdir. Konsept lingvomadiy birlik bo’lib u yoki bu xalq madaniyatining o’ziga xos jihatlalarini ifodalaydi. Masalan “*uy*” konseptini olsak, u kishilar tafakkurida “ *hovli-xonadon-oila; chiroyli, shinam; yangi, eski*” kabi ma’nolarda aks etadi. Ko’chma ma’noda esa *uy ichi- oila a’zolari* kabi ma’noga ega bo’ladi. Lingvomadaniy konsept xalqning milliy xarakterini shakllanishiga ta’sir etadi. G.G. Slishkinga ko’ra, “Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog’i, insondagi madaniyat omiliga yo’naltirilgan. Lingvokulturologiyaning markazi madaniyat fenomenidan iborat bo’lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi” [2].

Tahlil va natijalar. Bolalar folklorida qo’shiqlar, termalar, o’yin va sanamalar bolalar hayotida tarbiyaviy jihatdan muhim o’rin tutadi. Bolalarni to’g’rilikka, jasurlikka, mehnatsevarlikka, vatanni sevishga, chaqqonlikka chorlaydi. Har bir qo’shiq yoki bolalar o’yini ma’lum bir tarixiy sharoitda, xalqning urf-odat, madaniyatini o’zida aks ettirgan holda paydo bo’ladi. Lingvokulturologiya bolalar folklori namunalarini ham lingvistik, ham madaniy jihatdan o’rganishga imkon beradi.

Bolalar folklori kelib chiqishiga ko’ra quyidagi qismlarga ajratish mumkin:

1.Erkalash poyeziyasi, beshik qo’shiqlari, suyish qo’shiqlari – aytim- olqishlar, erkalamalar, ovutmachoqlar, qiziqmachoqlar shaklida namoyon bo’ladi, onalarning mehri, muhabbati erkalash-ovutish qo’shiqlari shaklida namoyon bo’ladi. Jumladan, aytim – olqishlar erkalovchi xususiyatga ega bo’lib, chaqaloqlarning ilk qadami, toy-toyi udumlarida bolaning oyog’i tagidan kulcha yumalatilib quyidagi qo’shiqlar aytilgan:

Adoq – adoq yurisin,
Tikan shunga kirmasin.
Ko’zi qattiq bandalar,
Ko’zi shunga tegmasin.

Bolaning ilk tish chiqishini ham erkalamalar, ayti-olqishlar shaklida ifodalangan.

Bahor keldi, qish chiqdi,
Chaqaloqqa tish chiqdi.
Kichkintoy deb o’ylamang,
Unga ham yumush chiqdi.
Ovqatini chaynashga,
Har kuni bir ish chiqdi.

“**Alla**” qo’shiqlari voqeaband allalar yoki parokanda allalar ko’rinishida bo’ladi. Voqeaband alla kompozitsiyasida: ekspozitsiya, tugun, kulminatsiya, yechim singari qismlari mavjud bo’lsa, parokanda allalar yaxlit sujet asosida qurilmasdan, onalar kayfiyati, hayot tarzi bilan bog’langan, har bir band o’zicha mustaqil mazmunga ega, shuning uchun ularni o’rnini almashtirib aytilsa ham bo’ladi:

Men seni alla qilay, alla.
Ko’tarib katta qilay, alla.
Alla jonning rohati, alla,
Uyqu ko’zning rohati, alla.
O’rik yog’och beshiging, alla,
O’rgilib ketsin onang, alla.
Tut yog’ochdan beshiging, alla,
Termulib o’tsin onang, alla.

Alla so’zining lug’aviy ma’nosi “*bosh orqasi*”, “*uxlamoq*” ma’nolarini anglatadi. Onalar farzandlarini erkalata turib, tuyg’ularini teran ifodalashga xizmat qiluvchi poetik obrazlarga, sifatlash va o’xshatishlarga murojaat qiladilar, *toychoq, qo’zichoq, bo’taloq, bulbul, to’ti, lochin, saman, toyloq* kabi obrazlarda ifodalaydilar:

Bulbul qushning bolasi,
Alla, qo’zim-o, alla.
Daraxtda bo’lar uyasi,
Alla, bolam-o, alla.

Ingliz bolalar folklorida erkalash, alla qo’shiqlari juda mashhur va ko’plab shakllari mavjud. Ulardan biri “Bye, baby Bunting” alla qo’shig’i bo’lib, uni dastlab 1731 – yil Angliyada yozib olingan. Bu alla qo’shig’ining qisqa va uzunroq yozilgan shakllari bor. “Bunting” so’zi “to’la, do’mboq” ma’nosida erkalash uchun ishlatilgan:

Bye, baby bunting,
Dady’s gone a hunting.
Gone to get a rabbit skin
To wrap the baby Bunting in.
Tarjimasi:
Xayr, chaqaloq Bunting,
Dadang ovga ketgan.
Quyon terisini olishga ketti,
Chaqaloq Buntingni o’rash uchun.

2.Marosim, mavsumiy qo’shiqlar- “**Boychechak**” qo’shig’i bolalar ilk bahorni kelishi, zavq-shavqini o’zida aks etgan. Bolalar ilk boychechakni olib hovlima-hovli yurib suyunchi so’rashi, keksalar uni yuziga surib omonlik-omonlik deb yeguliklar, ko’k somsalar berishi quyidagi parchasida o’z aksini topgan:

Boychechagim boylandi,
Ko’chama-ko’cha aylandi.
Boychechagim ko’k somsa,
Cho’ntaklarga joylandi.

“Chittigul” turkumidagi qo’shiqlarda mavzulari xilma – xil bo’lib, quyidagi parchada dehqonchilikka oid qo’shiq bo’lib, sholi hosili mo’l bo’lganligi turli rangda ifodalangan sholi orqali berilgan, shu bilan birga sholini isrof qilmaslik, avaylab asrab tejab ishlatish, saqlash zarurligi ta’kidlangan va kelgusi avlodga qo’shiqlar orqali yetkazilgan.

Oq sholiga ko’k sholi,
Oq sholini oqlaylik.
Ko’k sholini ko’klaylik,
Yaxshi kunga saqlaylik.
Ha-yu, chittigul,
Ha-yu, chittigul.

Ingliz bolalar folklorida ham mavsumiy qo’shiqlar, tabiat hodisalariga oid qo’shiqlar mavjud. Masalan, yomg’ir, qor kabi yog’ingarchilikka atalgan bolalar qo’shiqlari,

termalarini misol qilish mumkin. “Rain, rain, go away” qo’shig’ining bir nechta shakllari bor va ilk marta yozib olinishi 17- asrga to’g’ri keladi. Bu qo’shiq asosan yomg’irning ko’p yog’ishi, bolalarning uyda zerikib ko’chada o’ynolmasligi, shuning uchun yomg’ir ketgin, boshqa kuni yana yog’gin kabi ma’nolarda izohlanadi:

Rain, rain,
Go away.
Come again another day,
Little Arthur wants to play.
Tarjimasi:
Yomg’ir, yomg’ir ,
Uzoqqa ketgin.
Boshqa kuni yana kelgin,
Kichik Artur o’ynashni xohlaydi.

3.Bolalarning o’z ijodkorligi va ijrochiligi bo’lgan qo’shiqlar va o’yinlar – o’zbek bolalar folklorining asosini tashkil etadi. Bolalar o’z o’yinlarida qo’shiqlar – ***chorlamalar, cheklashmachoqlar, sanamalar, tarqalmachoqlar*** kuylash-gan. Bular bolalar folklorining mustaqil poetik janridir. *Yalinmachoqlar va hukmlagichlar* – yalinish-sig’inish ma’nosida xilma xil variantlarda kuylanilgan. Qish tugab, quyoshni charaqlab chiqishi, bolalar xursandchiligi o’z aksini topgan, shu bilan birga quyoshga siginish kabi qadimiy e’tiqod ko’rinishi sifatida ham namoyon bo’ladi:

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga.
Xolam: -Ana yer, - dedi,
Borib -O’tin ter, - dedi.
O’tin terdim bir quchoq,
Non yopdi o’choq-o’choq.

Bolalar folklorida sanamalarning ham o’rni beqiyos. Bolalar folklori tadqiqotchisi O. Safarov o’zbek bolalar folklorida 800 misradan iborat 150 dan ortiq sanamalarni e’tirof etgan. Turli hududlarda turlicha ko’rinishdagi sanamalar shakllanib kelgan va ma’rifiy- tarbiyaviy ahamiyatga ega:

Qovun palak,
Guvak otdi.
Guvak emas,
Chuvak otdi.
Chuvak qovun
Shirin ekan,
Safdan chiqsin
Qo’lim tekkan.

Bolalar folklori- bolalar qo’shiqlari, o’yinlari bolalarni aqlan va jismonan kamolga yetishishida muhim o’rin tutadi. Ular mavsum-marosim, yil fasllari, o’yinlar shaklida bolalar ijodi – folklorida o’z aksini topgan. Bolalarning o’yin qo’shiqlari “Chuchvara qaynaydi”, “Oq terakmi, ko’k terak?”, “Tepdim, sandiq ochildi”, “Dumsiz tulki” bolalar o’rtasida turli shakllarda aytilsada, mazmun-mohiyati o’xshash bo’lib, bolalar o’rtasidagi munosabatlarni yaxshilash, samimiylik, oilaviy hayot tarzi kayfiyatini ifodalaydi.

Ingliz bolalar folklori o’z ichiga ko’plab bolalar qo’shiqlari, o’yin qo’shiqlari, sanamalarni o’z ichiga oladi. Eng mashhur bolalar qo’shiqlaridan biri to’rtlik shaklida “Humpty Dumpty” dastlab topishmoq ko’rinishida bo’lgan bo’lsa, keyinchalik qo’shiq shaklida aytilgan. 17-asrda “humpty dumpty” qaynatilgan konyak ma’nosida ham ishlatilgan, 18 – asrda bu atama qo’pol odam jargonidan foydalanilib, kelib chiqishi yiqilib tushgan qo’pol odam tuzalmas darajada shikastlanmasligi mumkin, lekin tuxum esa tuzatib bo’lmas darajada zarar ko’radi degan ma’no bilan bog’liq:

Humpty Dumpty, sat on a wall.
Humpty Dumpty, had a great fall
All the king’s horses and all the king’s men,
Couldn’t put Humpty Dumpty together again. (An egg)
Tarjimasi:
Humpty Dumpty devorga o’tirdi,
Humpty Dumpty ajoyib yiqildi.
Qirolning barcha otlari va qirolning barcha odamlari,
Humpty Dumptyni qayta birlashtira olmadilar. (Tuxum)

Xulosa va takliflar O’zbek va ingliz tilidagi bolalar qo’shiqlari va o’yinlarini lingvokulturologik jihatdan qiyoslab o’rganar ekanmiz, har bir millatning, tilning o’ziga xosligi va shu bilan birga mazmunan o’xshashligini ham e’tirof etishimiz zarur. Bolalar qo’shiqlari har bir xalqning turmush tarzi, tabiati, ijtimoiy hayotidan kelib chiqib yaraladi. Aynan qo’shiqning o’zi boshqa millat folklorida bo’lsada, undagi so’zlar, motivlar o’ziga xosdir. Lingvokulturologik tahlil ko’p qirrali bo’lib, undan faqat qiyosiy tahlilni ko’rib chiqdik. Quyidagi misollar, qo’shiqlar, o’yin namunalridan kelib chiqib shu xulosaga kelish mumkin:

Muqobilsiz leksika va lakunalar har ikki tilda mavjud: o’zbek tilida- alla-bulbul, chittigul, guvak, guldur-gup; ingliz tilida-baby Bunting, Humpty Dumpty, Red Rover.

Tilning frazeologik fondi – xalq axloqi, madaniyati, odatlarini o’zida aks etadi: *ko’zi qattiq bandalar, uyqu ko’zning rohati.*

O’xshatishlar, ramzlar, stereotiplar – bular o’ziga xos obrazli tafakkurdir (*o’xshatish-Bo’takoz Zumrad kerak; ramzlar- mouse-ojizlik, cat, wolf – yovuzlik ramzi; stereotip – non yopishi)*

Metaforalar va obrazlar – so’z bilan madaniyatning bog’liqligi bo’lib, borliqdagi narsa va hodisalarni ko’rish va hissiy tasavvur qilishdir: Simon says, Red Rover obrazlari.

Tillarning stilistik qatlami – bu ko’proq so’zlashuv uslubi va og’zaki ijod namunalari keng o’rin olgan.

Nutqiy muomala – *ona-bola o’rtasida alla, erkalama, ovutmachoqlar, bolalar o’zaro* munosabatlari, o’yinlari.

Nutq etiketi – bu do’stlar davrasida, ko’chada, bog’cha va maktablarda aytiladigan qo’shiq va o’yinlar.

Har ikki til va madaniyatda ham aynan o’xshashliklar bor, lekin ular boshqa so’z, iboralar bilan berilgan. Bolalar folklor qo’shiq va o’yinlarining yildan yilga yangi shakllari davr hayoti bilan birga paydo bo’lmoqda va tarixiy shakllarini ham saqlab kelmoqda. Bolalar folklori yosh avlodning sog’lom va barkamol o’sishida katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

ADABIYOTLAR

1. Maslova V.A Lingvokulturologiya “Akademiya”-2001.-35-36b
2. G.G. Slishkin. Ot teksta k simvolu. Lingvokulturniye konsepti presedentnix tekstov v soznaniyi diskursa. – M.: Izdatelskiy sentr “Akademiya” 2000
3. Mamasoli Jumaboyev. Bolalar adabiyoti va folklor. -Toshkent 2006. - 216b
4. Jo’rayev M. Folklorshunoslikka kirish. - T.:2017. -180b
5. Galliyev Sh. O'zbek bolalar o'yin folklori. - T.: Fan, 1998.-96b.
6. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. - T.: O'qituvchi, 1975.-102b.
7. Oxunjon Safarov. O'zbek xalq bolalar o’yinlari. - T.: Sharq, 2013.-176b
8. O. Safarov. Bolalar erkalovchi o’zbek xalq qo’shiqlari. Toshkent “Fan” 1983.
9. James William Elliott “Mother Goose’s nursery rhymes set to music”. -McLOUGHLIN BRO’S. Massachusettes.1875.-111p